

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
NAMANGAN MUHANDISLIK - QURILISH INSTITUTI**

**IJTIMOIV FANLAR KAFEDRASI**

**“DINSHUNOSLIK”**

*fanidan*

**O‘QUV-USLUBIV MAJMVIA**

**2023/2024 o‘quv yili kunduzgi ta‘lim shakli, 1-kurslari uchun**

**Namangan-2023**



Dinshunoslik fanining O'quv-uslubiy majmuasi Namangan muhandislik-qurilish instituti O'quv-uslubiy Kengashining 2023-yil 30-avgustdagi 1-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan. Dinshunoslik fanning o'quv dasturi asosida ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchi:**

B.B. Isxakov – Namangan muhandislik-qurilish instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasida katta o'qituvchisi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

B. Abbasov – Namangan muhandislik-qurilish instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasida v.b dotsenti

**Taqrizchilar:**

M. Ismoilov – NamMQI, falsafa fanlari doktori, professor

T. Ismoilov – NamDU, Ijtimoiy fanlar kafedrasida dotsenti

Ushbu o'quv-uslubiy majmua “Ijtimoiy fanlar” kafedrasining 2023-yil 26- avgustdagi 1-sonli yig'ilishida ma'qullangan.

**Kafedra mudiri:**



**dots. B. Akbarov**

Mazkur o'quv-uslubiy majmua Namangan muhandislik-qurilish instituti o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va nashrga tavsiya qilingan.

2023-yil 30-avgustdagi \_\_\_ -sonli majlis bayoni (\_\_\_ - son bilan ro'yhatga olingan).

**O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i:**



**T. Jo'rayev**

**NamMQI**  
**O'quv-uslubiy boshqarma**

**No** 89

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI**

**IJTIMOIIY FANLAR KAFEDRASI**

**DINSHUNOSLIK**

fanidan

**MA‘RUZA MASHG‘ULOTLARI UCHUN**

**O‘QUV MATERIALLAR**

**NAMANGAN -2023**

***“Biz bugun amalga oshirayotgan Harakatlar strategiyasining beshinchi ustuvor yo`nalishida ham millatlararo totuvlik va diniy bag`rikenglikni ta`minlash bo`yicha eng muhim vazifalar belgilab berilgan”.***

***Shavkat Mirziyoyev,  
2017- yil 15-iyun.***

## **KIRISH**

Mustaqillik yillarida dinga yangicha qarash va munosabat tufayli biz uchun yangi bo`lgan dinshunoslik fani vujudga keldi. Shu boisdan mazkur fan bo`yicha mamlakatimiz yetuk olimlari, mutaxassislari tomonidan bir qator darslik va o`quv qo`llanmalar yaratilib kelinmoqda. Ushbu o`quv qo`llanma mamlakatimizda olib borilayotgan diniy siyosatdagi o`zgarishlar, uning ijtimoiy ahamiyati hisobga olingan holda yozildi. Unda dinshunoslik fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, dinning kelib chiqishi, evolyutsiyasi, hozirgi davrdagi holati, insoniyat hayotida tutgan o`rni va ahamiyati haqida umumiy tushunchalar haqida so`z boradi. “Din” tushunchasi, dinning tarkibiy qismlari, O`zbekistonda davlatning din va diniy tashkilotlar bilan huquqiy munosabati, Markaziy Osiyo dinlari, Islom ta`limoti asoslari, islomdagi mazhab va yo`nalishlar bayon etilgan. Shuningdek, missionerlik va prozelitizm, diniy ekstremizm va terrorizm: mafkura va amaliyot, unga qarshi kurash strategiyasi, yangi diniy harakatlar va sektalar, kibermakonda din omili kabi masalalar tahlil qilingan.

Mazkur qo`llanma dinning jaholat, aqidaparastlik, o`zgarlar fikriga toqatsizlik va ijtimoiy taraqqiyotga to`sqinlik qiluvchi kuch ekanligi haqidagi noto`g`ri tasavvurga qarshi yoshlar ongi va qalbida ijtimoiy fikrning vujudga kelishiga ko`maklashadi.

Qo`llanmada jahon dinlari ta`limoti, aqidalari va marosimlariga ham e`tibor berilgan. Albatta, ular xalqlarning ijtimoiy-siyosiy va madaniy taraqqiyotiga o`z ta`sirini ko`rsatgan. Xususan, millatlararo urf-odatlarini, an`ana va marosimlaridagi umumiylikda jahon dinlarining ta`sirini yaqqol ko`rish mumkin. Bu jarayonlar dinlarning keskin raqobati sharoitida rivojlangan. Hozirgi davrda ular o`rtasidagi raqobat global muammo darajasiga ko`tarildi. Bunga sabab vayronkor kuchlarning dindan siyosiy manfaatlar yo`lida foydalanishga intilishidir. Dunyoviy taraqqiyot yo`lidan borayotgan O`zbekistonda dinning ijtimoiy ahamiyati qayta tiklandi. 16 ta diniy konfessiyalarning rasmiy faoliyati uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi. Millatlar o`rtasida tinchlik, hamjihatlik va o`zaro ishonchga asoslangan munosabatlarni shakllantirishda dinlarning imkoniyatlaridan keng foydalanilmoqda. Bu esa albatta, dinning yosh avlodni ma`naviy tarbiyalash va dunyoqarashini shakllantirishdagi faol ishtiroki bilan bog`liq. Zero, yirik nemis faylasufi Gegel (1770-1831) G`arbni “mutloq ruh” g`oyalari dunyosi boshqarsa, Sharqni urf-odatlar, din va diniy qadriyatlar boshqaradi, degan edi. Shu boisdan ham Sharqda davlat din va uning tashkilotlaridan ma`rifat yo`lida foydalanadi va unga tayanadi.

Hozirgi kunda jamiyatimizda milliy va diniy qadriyatlar uyg`unligiga erishish, diniy bag`rikenglik hamda millatlararo totuvlikni ta`minlash, diniy ekstremistik va terroristik buzg`unchi g`oyalarga qarshi yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish, ular qalbida obodlik, bunyodkorlik kabi ulug`vor tuyg`ularni uyg`otish

davr talabiga aylanmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017- yil 15- iyunda “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusidagi soʻzlagan nutqida ta’kidlaganidek, “Bugungi kunda ijtimoiy-ma’naviy muhitni va aholi turmush sharoitini yaxshilash, yoshlarni turli diniy ekstremistik oqimlar ta’siridan asrash masalasi barchamiz uchun eng asosiy masala boʻlib turibdi”<sup>1</sup>.

Dunyoda yuz berayotgan globallashuv jarayonlari, turli axborot xurujlari va mafkuraviy tahdidlar bizni hamisha ogoh boʻlishga undamoqda. Ana shunday shiddatli bir davrda mamlakatimizda ijtimoiy-diniy muhitni sogʻlomlashtirish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni jadallashtirish, ajdodlarimiz merosini oʻrganish va tadqiq etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylandi.

Yosh avlod nafaqat bizning kelajagimiz, balki hozirgi dolzarb muammolarni hal etishda ilgʻor gʻoyalar bilan ishtirok etuvchidir. Ma’naviy yetuk, bilimli, mustaqil fikrga ega va jismonan sogʻlom avlodni tarbiyalash uzluksiz ta’lim tizimida malakali mutaxassis kadrlar tomonidan amalga oshiriladi. Oʻzbekiston ta’lim tizimidagi tub islohotlar natijasida ijtimoiy hayotning turli sohalarida, shu jumladan yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishda katta yutuqlarga erishilmoqda. Bu borada ta’lim jarayoni xalqaro tajriba va milliy mentalitetimizni hisobga olgan holda tashkil etilmoqda.

Koʻp asrlik milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qoʻshgan ajdodlarimizning bebaho merosini oʻrganish, uning asosida yoshlarni komil inson etib tarbiyalash jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma’naviy muhitni ta’minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Soʻnggi yillarda Toshkentda tashkil etilgan Islom sivilizatsiyasi markazi, Islom akademiyasi, Mir Arab oliy madrasasi, Samarqandda Imom Buxoriy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy –tadqiqot markazlarining tashkil etilishi boy ilmiy-tarixiy merosimizni oʻrganish va targʻib qilishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, dunyoda roʻy berayotgan voqea-hodisalar va ijtimoiy-siyosiy vaziyatning tahlili diniy-ma’rifiy sohadagi faoliyat samaradorligini oshirishni va malakali kadrlar tayyorlashning yaxlit tizimini yaratishni taqozo etmoqda.

Xalqimizga azal-azaldan xolis boʻlgan ma’rifatparvarlik, bagʻrikenglik, mehr-muruvvat, bunyodkorlik kabi ezgu fazilatlar va qadriyatlarimizni keng targʻib qilish, jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashda diniy-ma’rifiy soha vakillarining oʻrni va ishtirokini oshirish hamda 2017-2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq 2018-yil 16-aprelda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni qabul qilindi. Farmon munosabati bilan **birinchidan**, diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirishning ustuvor yoʻnalishlari etib “jaholatga qarshi ma’rifat” ulugʻvor gʻoya asosida dinning asl insonparvarlik mohiyatini, ezgulik, tinchlik va insoniylik kabi fazilatlar azaliy qadriyatlarimiz

---

<sup>1</sup>. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yoʻlimizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga koʻtaramiz. – 1 – jild. – T.: “Oʻzbekiston”, 2017. – 475-bet.

ifodasi ekanligini keng yoritish va bu sohadagi ilmiy-ma'rifiy faoliyatni jadal tashkil etish belgilab berildi<sup>2</sup>.

**Ikkinchidan**, diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilib, diniy-ijtimoiy jarayonlarni o'rganish axborot tahlil markazi tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston musulmonlari idorasining O'zbekiston islom akademiyasi va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent islom universiteti negizida O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi faoliyat yurita boshladi.

**Uchinchidan**, O'zbekiston xalqaro Islom akademiyasi tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Samarqand, Namangan va Surxondaryo viloyatlari mintaqaviy filiallariga ega bo'lgan Malaka oshirish markazi tashkil etildi. SHuningdek, O'zbekistondagi Islom tsivilizatsiyasi markazining oliy diniy-ma'rifiy ta'lim muassasasi shaklidagi Hadis ilmi maktabi, "Vaqf" xayriya jamoat fondi tashkil etildi. "Imom Buxoriy" davlat mukofoti ta'sis qilindi.

---

<sup>2</sup>.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 16- apreldagi "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // "Xalq so'zi" 2018- yil 17- aprel.

## 1-mavzu. Din ijtimoiy madaniyat hodisa sifatidagi ahamiyati.

### Reja:


- 1.1. Dinshunoslik fanini o`qitishdan ko`zda tutilgan asosiy maqsad.
- 1.2. Dinshunoslik fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi.
- 1.3. Dinlarning tasnifi.

### 1.1. Dinshunoslik fanini o`qitishdan ko`zda tutilgan asosiy maqsad

*2017-2021 yillarga mo`ljallangan Harakatlar strategiyasining millatlararo totuvlik va diniy bag`rikenglikni ta`minlash, chuqur o`ylangan, o`zaro manfaatli va amaliy ruhda tashqi siyosat deb nomlangan beshinchi yo`nalish doirasida diniy sohada davlat siyosatiga alohida e`tibor qaratilgan.*


*Prezident Farmoni, 2017- yil 7- fevral*

#### 1.1.1- chizma



#### 1.1.2- chizma

**Dinshunoslik fanini o`qitishdan maqsad –**



Tabiat, jamiyat, inson va uning ongi, yashashdan maqsadi hamda taqdiri insoniyatni bevosita qurshab olgan atrof-muhitdan tashqarida bo`lgan, uni yaratgan, ayni zamonda insonlarga to`g`ri, haqiqiy, odil hayot yo`lini ko`rsatadigan va o`rgatadigan ilohiy qudratga ishonch va ishonishni ifoda etadigan maslak, qarash, ta'limotdir

talabalarni dinlarning turlari, tarixi, rivojlanishi, ta'limoti, asosiy manbaalari, o'tmish va hozirgi kunda xalqlar hayotida tutgan o'rnini o'rgatish orqali o'z xalqi va Vatani tarixini yaxshi biladigan, boshqa millat va elatlar oldida buyuk allomalarning avlodlari bo'lgan yuksak madaniyat va ma'naviyatli xalq farzandi ekanligini namoyon eta oladigan insonlar qilib tarbiyalashdan iborat.

Dinshunoslik fani talabalarda din, uning turli shakllari, ta'limotlari, yo'nalishlari, mazhablari haqida to'g'ri ilmiy xulosalar chiqara oladigan, diniy va dunyoviylik munosabatlarini asosli tahlil qila oladigan to'g'ri dunyoqarashni shakllantiradi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonun, Jinoyat, Fuqarolik, Oila kodekslaridagi din va vijdon erkinligi haqidagi ko'rsatmalar, qoidalar dasturulamal bo'lib xizmat qilinishi lozim. Din va qonun o'zaro munosabatlarini yaxshi bilish respublikada demokratik, huquqiy davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish va mustahkamlashga xizmat qiladi.

Din insoniyat ma'naviy hayotining tarkibiy qismidir. O'zbekiston Respublikasida ziyolilar oldiga ma'naviy barkamol insonni shakllantirish vazifasi qo'yilgan bir paytda din masalasini chetlab o'tish mumkin emas. Mazkur masalani hal etishda ilgari dinga agressiv hujum etish uslubining asossizligi hammaga ochiq-oydin. Lekin keyingi paytda paydo bo'lgan diniy bo'lmagan masalalarni diniy deb atash, har qanday, hatto bir-biriga zid bo'lgan, fikrlarni tahlil qilmasdan turib maqtash uslubi ham o'zini oqlamaydi. Demak, ushbu masalaga printsiptial, professional, ilmiy yondashuv darkor.

### 1.1.3-chizma

#### Dinshunoslik fanining asosiy maqsadi

1. Din nima va u qanday paydo bo'lgan, nega u yashaydi, degan savollarga javob berish.
2. Dinning ijtimoiy-iqtisodiy, gnoseologik va psixologik ildizlari haqida bilim berish.
3. Dinning jamiyatda bajaradigan ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy vazifalari haqida tushuncha hosil qilish.
4. Ibtidoiy, milliy va jahon dinlari tarixi haqida ma'lumot berish.
5. Milliy va jahon dinlari asoslari haqida ma'lumotlar berish.
6. Dinning mohiyati va uning kishilik jamiyati taraqqiyoti turli bosqichlarida tutgan mavqei haqida tushuncha berish.
7. Jamiyatni ma'naviy kamol toptirishda diniy qadriyatlarining ahamiyatini yoritish.
8. Islomda Qur'oni karimdan keyingi ikkinchi manba hisoblangan Hadis ilmini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shgan, butun islom olami tan olgan ulug' zotlarni keng talqin qilish.
9. Ulug' hamyurtlarimizning tasavvuf takomilida buyuk xizmatlarini ko'rsatish.
10. Islom dinining Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatiga ta'siri haqida ma'lumot berish.
11. Mustaqillik yillarida milliy-diniy qadriyatlarining tiklanayotganligini yoritish.
12. Dunyoviy davlat va dinning o'zaro munosabatlari, vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar haqida tushunchalar berish va hokazo.



## Dinshunoslik fanining vazifalari


1.1.4 - chizma

1. Dinning jamiyatga ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy ta'siri haqida bilimlar berish.
2. Ibtidoiy diniy tasavvurlar, milliy va jahon dinlari ta'limotlari haqida bilim berish.
3. Dinning mohiyati va uning kishilik jamiyati rivojidagi turli tarixiy bosqichlarda tutgan mavqei haqida tushuncha hosil qilish.
4. Jamiyat ma'naviy takomilida diniy qadriyatlarning ahamiyatini ko'rsatish.
5. Dunyoviy davlat bilan dinning o'zaro munosabatlarini yoritish.
6. Dunyoviy aqdanarastlik, ekstremizm va fanatizm kabi salbiy oqimlarning salbiy mohiyatini ko'rsatish va ularga qarshi yoshlarda g'oyaviy immunitetni shakllantirish.
7. O'zbekistonda dinga nisbatan tub o'zgarishlar, diniy qadriyatlar tiklanganliklari haqida tasavvur hosil qilish.

1.1.5- chizma

## Dinning asosiy funksiyalari

1. Birlashtiruvchi – integratorlik funksiyasi: jamiyat bilan shaxs aloqadorligi
2. Dunyoqarashlik funksiyasi: atrofdagi narsa va hodisalar o'tkinchi, boqiy dunyoga tayyorgarlik ko'rish
3. Tartibga soluvchi (regulyatorlik) vazifasini bajaradi:
  - 1) Islomda 5 mahal nomoz o'qish;
  - 2) Har haftada juma namozini jome masjidida ado etish;
  - 3) Ramazon oyida ro'za tutish, ro'za (iyd-fitr) va qurbon (iyd al adho) hayitlariga ishonish.
4. Taskin berish (kompensatorlik) – tenglashtirish, muvozanatlashtirish, to'ldirish. Insonda ma'naviy-ruhiy ehtiyoj zaruriyati: 1) moddiy ehtiyoj; 2) ma'naviy ehtiyoj: din ma'naviy ehtiyojni qondiruvchi, tasalli beruvchi vazifani bajaradi.
5. Qonuniylashtirish (legitimlik) vositasida jamiyat a'zolarining xatti-harakatlari muayyan qolipga solinadi, jamiyatda barqarorlik ta'minlanadi.
6. Falsafiy-nazariy funksiyasi: yashashdan maqsad va hayot mazmuni, dorilfano va dorulbaqo dunyo masalalariga munosabatini bildiradi.




## 1.2. Dinshunoslik fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi

Dinshunoslik fani ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan uzviy bog'liq holda shakllanib, rivojlangan va hozir ham bu jarayon davom etmoqda.

**1. Dinshunoslik fani Falsafa bilan bog'liq.** Falsafada din ijtimoiy-tarixiy hodisa, kishilik jamiyati taraqqiyotining muayyan bosqichida paydo bo'lgan ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida talqin etiladi. Din islom ta'limotiga ko'ra, tabiat va insonni yaratgan, ayni vaqtda insonga to'g'ri, haqiqiy hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rgatadigan ilohiy qudratga ishonchni ifoda etadigan ta'limot. Dinning mohiyati turlicha izohlansada, uning asosida ishonch, e'tiqod tuyg'usi yotadi. Falsafa tarixida din turli shakllarda namoyon bo'lgan. Dinning dastlabki ko'rinishlari fetishizm, totemizm, animizm, sehrgarlik va boshqalar falsafada o'rganiladi. Din falsafasida – dinning mazmun-mohiyati, ijtimoiy hayotdagi o'rnini tushuntirishga yo'naltirilgan falsafiy bilim sohasidir. Din haqidagi falsafiy qarashlar dastlab muayyan ta'limotlarda aks ettirilgan bo'lsa, XVIII-XIX asrlarga kelib, din falsafasi alohida fan sifatida shakllandi.

**2. Ma'naviyat asoslari fanida** ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash g'oyalari, vatanparvarlik, insonparvarlik va o'z millatiga sadoqat mezonlari, imon, diyonat, adolat, mehr-shafqat, e'tiqod, poklik, halollik va vafodorlik kabi fazilatlar, milliy o'zlikni anglash, uni mustahkamlash va millatlararo totuvlikni ta'minlash kabilar "Ma'naviyat asoslari" fanining asosiy mavzulari bo'lsa, ular dinshunoslik fanining kategoriyalari hamdir.

### 1.2.1- chizma



**Ma'naviyat va din** – ma'naviyat mezonlaridan biri bo'lgan, insonning iymon va tafakkurini kamol toptirish, mustahkam e'tiqod va dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiladigan diniy qadriyatlar kishilarning yuksak ma'naviy ideallari, haq va haqiqat, insof va adolat to'g'risidagi orzu-armonlari bilan uzviy bog'liq tarzda rivojlanadi, Din ma'naviyat takomilida, milliy madaniyat va turmush tarzi, urf-odat va qadriyatlar, an'analarning bevosita saqlanishi hamda asrlar mobaynida xalq qalbiga chuqur o'rnashishida ma'naviy omil bo'lib kelgan. Insoniylik, mehr-oqibat, yaxshilik, qanoat, sahovat, mehr-shafqat kabi fazilatlar ko'plab boshqa omillar qatori diniy qadriyatlar ta'sirida ham rivojlanadi.


Islom dinining asoslarini o'rganish, uning ma'naviy-ma'rifiy g'oyalarini rivojlantirish, mo'tadil e'tiqod negizlarini ishlab chiqishda Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Mansur Moturudiy, Bahouddin Naqshband, Burhoniddin Marg'inoniy, Najmiddin Kubro kabi ulug' ajdodlarimizning xizmati singan. Ularning merosi bebaho ma'naviy boyligimizdir. Shu boisdan ham ma'naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlardan biri muqaddas Islom bilan bog'liqdir.

**3. Psixologiya fani bilan uzviy bog'liq.** Avvalo diniy ong diniy psixologiya bilan qo'shilib ketgan. Diniy psixologiya – kishilarning diniy his-tuyg'ulari, odatlari, an'analari va kayfiyatlari majmui bo'lib, kishi ruhiyati barqaror voqelik emas, chunki ijtimoiy jarayonlar ta'sirida o'zgarib turishi mumkin. Diniy psixologiya taraqqiy etgan sayin diniy tasavvurlar ham takomillashib boradi. Diniy tasavvurlardan diniy g'oyalar shakllangan. Oqibatda qadimgi diniy e'tiqod shakllari: sehrgarlik, animizm, fetishizm, shomonlik va boshqalar kelib chiqqan.

**4. Milliy g'oya fani bilan bog'liqlik.** Diniy ideologiya (g'oya) esa diniy tashkilotlar orqali malakali diniy ulamolar targ'ib etadigan turli diniy g'oyalarning

muayyan tizimdir. Diniy ideologiya muayyan tushuncha va qarashlarning tartibli tizimdir. Diniy ideologiya insoniyat taraqqiyotining nisbatan yuqori bosqichlarida yuzaga keladi. Uni ruhoniylar, kohinlar, dinni o`rganuvchi faylasuflar ishlab chiqdilar va targ`ib qiladilar. Diniy ideologiya ayrim manbalarda teologiya deb yuritilgan. Teologiyaning asosini muqaddas kitoblar (Tavrot, Zabur, Injil, Qur`oni karim kabilar) tashkil qiladi.

### 1.2.2-chizma



**5. Sotsiologiya fani bilan bog`liq.** Ijtimoiy muhitning o`zaro ta`siri tizimini, xalqning kayfiyati, davlat va diniy tashkilotlar, shaxs va dinning ijtimoiy holatlarini o`rganish sotsiologik tadqiqotlar o`tkazib bilib olish mumkin.

**6. Huquqshunoslik fani** siyosiy qarorlarni amalga oshirishning huquqiy mexanizmlarini o`rgansa dinshunoslikda Qur`on, Hadis ilmining ijtimoiy mohiyatini o`rganadi va hokazo.

Umuman, dinshunoslik fani boshqa siyosiy fanlar, tabiiy va aniq fanlar, gumanitar fanlar bilan ham chambarchas bog`lanib ketgan.

#### **Dinning asosiy manbalari:**

“**Avesto**” – zardushtiylarning muqaddas kitobi (miloddan avvalgi XII-XIII asrlar orasida, 3-minginchi yillar oxiri, 2-minginchi yillar boshlarida). Zaratushtra – o`zini payg`ambar deb e`lon qilgan. 124 mingdan ko`proq payg`ambar o`tgan. YUNESKO tomonidan 2001- yilda “Avesto” ning 2700 yilligi Xiva shahrida nishonlandi. Eramizdan avvalgi VI asrda Xorazmda yashagan, chorvador oilasi (Pitama urug`idan, Beruniy fikricha (XI asr): bu muqaddas kitob 3 qismdan iborat:


- 1) Yashta (sinfy jamiyatgacha bo`lgan ko`pxudolik davri).
- 2) Gita – yagona yaxshilik xudosi Axura Mazda haqida.

Ko`p xudolik Yashta va yagona xudolik Gita o`rtasidagi kurash.



## Dinning asosiy ildizlari

1.2.3-chizma



**1. Tavrot** (qadimgi ibriy tilida “Tora” – Qonun) – iudaizm dini (yahudiylik)ning Xudovand Muso payg'ambarga nozil qilingan ilohiy muqaddas kitobi. U Muso payg'ambarning ilohiy qonunlarini o'z ichiga olgan 5 kitob: 1) Muqaddas Kitob (Bibliya)ning “Ibtido”, 2) “Chiqish”, 3) “Levit”, 4) “Cho'lda” va 5) “Amrlar” degan kitoblardan iborat. Bibliyani ham “Tavrot” deb ishlatish hollari bor. Pasxa – yahudiylarning Misr asoratidan qutilgan kunini nishonlaydigan bayrami hisoblanadi.

**2. Injil** – nasroniy (Xristianlik) dinining asosiy bosh kitobi (I – asr boshlarida Alloh taolo tomonidan hazrat Iyso alayhissalomga 30 yoshida nozil etilgan).

**3. Qur'oni karim** – Islom dinining (VII asr) asosiy ilohiy muqaddas kitobi. Azimusha'n Qur'on Allohning kalomi bo'lib, uning har bir kalomi Alloh tarafidan so'zma-so'z (23 yil davomida) nozil etilgan va hazrati Jabroil alayhissalom orqali payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomga yuborilgan.

Xudo olamni, butun borliqni, barcha jonli-jonsiz mavjudotlarni yaratuvchisi – Parvardigori olamning umumiy nomi bo'lib turli xalqlarda quyidagi nomlar bilan nomlanadi:

- 1) Forslarda – “Xudo”.
- 2) Turkiylarda – “Tangri”.
- 3) Arablarda – “Alloh”.

- 4) Islomdan avvalgi Eronda – “Yazdon”, “Ezid”, “Xurmuzd”, “Xudoygon”.
- 5) Yahudiyalarda – “Yahve”.
- 6) Slavyanlarda – “Bog”, “Gospod”.
- 7) Hindlarda – “Dayuto”.
- 8) Inglizlarda – “Govd” tarzida zikr etilgan.

Shuningdek, Mashriqzamin manbalarida asosan: “Rabbim”, “Rabb”, “Mavlo”, “Haq”, “Haq taolo”, “Haqsubhonahu va taolo”, “Alloh taboraka va taolo”, “Xudoi taolo”, “Xudovand”, “Xudovando”, “Xudoi buzurg”, “Parvardigor”, “Tangri taolo”, “Rabbil olamiyn”, “Tangri subhonahu va taolo”, “Alloh taolo”, “Tangri azza va jalla”, “Mavlo jalla jaloluhu”, “Zuljalol” kabi sifatlar bilan ham tavsiflanadi.

**4. Zabur** (sanolar, ya’ni psalomlar ma’nosida) – hazrat Dovud (Isroilning ulug’ podshosi) alayhissalomga Alloh taolo tomonidan nozil etilgan, mil. Avvalgi 1050-900 yillar orasida kitobat qilingan.

### 1.3. Dinlarning tasnifi

Dinlar unga e’tiqod qiluvchilarning soni, miqyosi, o’zining ma’lum millatga yoki xalqqa xosligi yoxud millat tanlamasligiga ko’ra turli guruhlariga bo’linadi. Bugungi kunda nazariy va son jihatdan qancha etuk bo’lishidan qat’iy nazar ularni mutlaqlashtirib bo’lmaydi. Chunki, har qanday tasnif ma’lum bir jihatga e’tibor berib, uning boshqa qirralarini qamrab ololmaydi.

#### 1.3.1 - chizma

#### Hozirgi kunda din tipologiyasida dinlarning quyidagi tasniflari mavjud

1. Tarixiy-geografik jihatga ko’ra
2. Etnik jihatga ko’ra
3. E’tiqod qiluvchilarning soniga ko’ra
4. Hozirgi davrda mavjudligi jihatiga ko’ra (tirik va o’lik diniy tizimlar) va hokazo.

#### 1.3.2- chizma

#### 1. Tarixiy-geografik tasnifiga ko’ra

<p>1) O’rta yer dengizi havzasi dinlari:</p> <p>A) Grek. B) Rim. V) Ellinistik.</p> <p>2) Qadimiy Yaqin va O’rta Sharq dinlari:</p> <p>A) Misr. B) Shymer. V) Akqad. G) G’arbiy-somiy. D) Islomgacha arablar dinlari.</p> <p>3) Yaqin va O’rta Sharqning payg’ambarlik dinlari:</p> <p>A) Zardyshtiylik. B) Yahydiylik. V) Xristianlik. G) Manixeizm. D) Islom.</p>	<p>4) Hindiston dinlari:</p> <p>A) Vedalar dinlari. B) Hinduizm. V) Hind buddizmi (teravada, maxayana). Γ) Jaynizm.</p> <p>5) Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Osiyo dinlari:</p> <p>A) Shri-Lanka, Tibet, Janubiy-Sharqiy Osiyo havzasi buddizmi. B) Xitoy dinlari (daosizm, konfutsiylik, buddizm maktablari). V) Koreya va Yaponiya dinlari.</p> <p>6) Amerika hindulari dinlari:</p> <p>A) Toltek va atsteklar dinlari.</p>
---	---

## Etnik tasnifiga ko`ra:

1) **Urug`-qabila dinlari** – totemistik, animistik tasavvurlarga asoslangan, o`z urug`idan chiqqan sehrgar, shomon yoki qabila boshliqlariga sig`inuvchi dinlar. Ular millat dinlari va jahon dinlari ichiga singib ketgan bo`lib, hozirda Avstraliya, Janubiy Amerika va Afrikadagi ba`zi qabilalarda saqlanib qolgan.


2) **Millat dinlari** – ma`lum millatga xos bo`lib, boshqa millat vakillari o`ziga qabul qilmaydigan dinlar. Ularga yahudiylik (yahudiy millatiga xos), sintoizm (yaponlarga xos), hinduiylik (hindlarga xos) kiradi;

3) **Jahon dinlari** – dunyoda eng ko`p tarqalgan, kishilarning millati va irqidan qat`i nazar unga e`tiqod qilishlari mumkin bo`lgan dinlar. Unga buddaviylik, xristianlik va islom dini kiradi.

Bundan tashqari dinlar ta`limotiga ko`ra **monoteistik** – yakkaxudolik (yahudiylik, islom) va **politeistik** – ko`pxudolik (hinduiylik, konfutsiylik) dinlariga bo`linadi.

### 1.3.2 - chizma

**Monoteizm** – ko`p sonli xudolar orasida kuch-qudratda yagona bir xudoni farqlab, shu tariqa dunyoviy podsho hukm suruvchi real hayot haqidagi o`z tasavvurlarini yagona va qudratli xudo yashaydigan narigi dunyo bilan go`yoki muvofiq holatga keltirilishidir. (yunon. mono – bir va theos - xudo).



## Odamzodning paydo bo`lishi haqida juda ko`p g`oyalar ham mavjud:

1. Diniy qarashdagi g`oya... (Ruhiy olam mavjudligi, uning oldin paydo bo`l.)
2. Darvin ta`limoti... Bu ta`limot olimlar tomonidan haqiqatdan yiroqligi aytilmoqda.
3. Panspermiya (Erga tiriklik urug`ining meteoritlar orqali kelgani) g`oyasi o`zining juda ko`p tarafdorlariga ega. Bu qarashni asoslashga urinib bir necha kitoblar yozgan olim Erix fon Deniken o`z taxminlarini qisqacha shunday bayon qiladi: Bizning erimizga juda qudratli kelgindilar uchib kelishgan, ular bir juft yovvoyi ikki oyoqlini ushlab, ular ustidan genetik tajriba o`tkazishib, keyin o`z hollariga qoldirishgan. Ulardan tug`ilgan bolalar odamzod nasliga asos solgan. SHundan keyin kelgindilar bir necha marta Erga tushib, o`z tajribalariga muayyan o`zgartirishlar kiritishgan, Aftidan, bu jarayon hozir ham davom etayotir, deydi Erix fon Deniken.

4. Bundan tashqari, yana odamzodning Erda paydo bo`lishi bilan bog`liq ko`plab taxminlar mavjud. Ularning aksariyatida biz erliklar ma`lum bir yulduzlardan kelib qolganligimiz “bashorat” qilinadi. Biroq eng obro`li odamlarning bu boradagi,

aytish mumkinki, yakdil xulosalari shunday: Odamzodning Erda paydo bo'lishi bilan bog'liq muammolar hozircha ochiq qolayotir, aslida nima bo'lgan, e'tirozlarga o'rin qoldirmaydigan aniq javob yo`q. Izlanishlar esa davom etmoqda. ("O`zAS". 2001 yil 22 iyunь).

5. Marksizm ta'limoti. Oldin materiya, keyin inson paydo bo'lgan.

6. Idealistik ta'limot, oldin ruh, keyin materiya paydo bo'lgan kabi va h.k.

Sotsiologiya nuqtai nazaridan qaraganda din jamiyat uchun zarur narsa, ijtimoiy hayotning ajralmas qismi. Ijtimoiy munosabatlarni yuzaga keltiruvchi va amalga oshiruvchi omil. Ijtimoiy vazifalarni bajaradi.

### **Dinning kelib chiqishi haqidagi nazariyalar:**

1. Dinning tarixiyligi masalasiga 2 xil javob berganlar:

1) Marksistik ta'limotga ko'ra, qandaydir muddatda insoniyat dinsiz yashagan va jamiyatning muayyan bosqichida, yuqori paleolit davrida, bundan 20-40 ming yil ilgari paydo bo'lgan.

2) Dinning kelib chiqishi insoniyatning paydo bo'lishi bilan bevosita bog'liq.

2. E. Taylorning evolyutsion nazariyasiga ko'ra, "faylasuflik qilgan yovvoyi odam"ga taqaydi, shundan so'ng ruhlar, xudolar, farishtalar paydo bo'lgan.

3. Birinchi yolg'onchi birinchi nodonni uchratganda din paydo bo'lgan. YOmon niyatli insonni toptash natijasida ibtidoiy odam yuzaga kelgan.

4. "Bir odam boshqalarni aldash natijasida kelib chiqqan" degan fikrlar tanqidga uchradi.

### **Olamning diniy tushunchasi**

**1. "Olam manzarasi"ning fundamental nazariyasiga ko'ra, eng umumiy tushuncha deb qaraydi:**

1) Ijtimoiy ong (tushuncha): ijtimoiy borliq va jamiyatning moddiy shart-sharoitlari hisoblanadi. Tirik va notirik tabiat. Mifologiya rivojlandi.

2) Individual ong ibtidoiy ongning xususiyatiga bog'liq;

A) tabiat – urug` jamoasi, osmon, yer, suv, inson va hokazo, qon-qardoshlik munosabatlari.

**2. Demokritning atomistik ta'limotiga ko'ra:**

1) Materiya paydo ham, yo`q ham bo'lmaydi.

2) Hech narsa sababsiz va zaruriyatsiz sodir bo'lmaydi.

3) Atom va bo'shliqdan tashqari hech narsa mavjud emas.

4) So'zlar harflardan iborat bo'lganidek, turli predmetlar turli atomlarning birikishidan paydo bo'lganidek, turli predmetlar turli atomlarning birikishidan paydo bo'ladi.

5) Olam bepoyon, tabiiy zaruriyat va harakatning davomiyligi mavjud.

**3. O'rta asrda "Ikki haqiqat" nazariyasi** arab faylasufi Ibn Rushd xudo va dunyoning abadiyligi, har bir odam o'limga mahkumligi haqida fikr yuritadi.



4. Afg'oniston bo'yicha "Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik" mavzuidagi Toshkent konferentsiyasi (2018-iyil 27- mart)dagi ma'ruzasida islom ta'limotiga doir uni himoya qilish bilan bog'liq bo'lgan g'oyalar.

5. O'zbekiston – AQSH: yangi ufq va marralar sari dadil qadamlar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2018- yil 15-17 mayda AQSH Prezidenti Donald Trampning taklifiga binoan Vashingtonda bo'lishi va unda ko'tarilgan (Afg'oniyatondagi notinchlik) g'oyalar.

6. "Jaholatga qarshi ma'rifat" kontsepsiyasi.

7. O'zbekiston Prezidenti SHavkat Mirziyoev boshlagan ichki va tashqi siyosatidagi islohotlar "Ma'rifiy islom" g'oyasini ilgari surishga qaratilganligi.

## 2-mavzu. Milliy dinlar

### Reja:

1. Yahudiylik dinining vujudga kelishi va ta'limoti.
2. Veda va Veda dinlari.
3. Konfutsiychilik. Daosizm.
4. Sintoiylik. Yapon xalqi an'analari

### **Yahudiylik dinining vujudga kelishi va ta'limoti.**

Yahudiylik dini yahudiy (Isroil) xalqining yakka xudolikka asoslangan dinidir. Bu dinning nomi yahudiylarning yahudo qabilasi nomidan olingan. Yahudiylik dinining paydo bo'lishi jarayoni uzoq tarixiy davrni o'z ichiga oladi va uning asosida yahudiylikning yagona davlatga birlashishiga intilishlari yotadi. Yahudiy qabilalari dastlab ko'chmanchi tarzda yashaganlar. Miloddan avvalgi XIII asrda Yuqori Mesopotamiyada yashagan yahudiylar Falastinni bosib olganlar.

Mana shu tarixiy davrlardan dastlabki yakka xudolik dinlaridan biri-yahudiylik dinining shakllanish jarayoni boshlanadi. Yahudiylik dinining taraqqiyoti, uning bugungi ko'rinishda shu kungacha yetib kelish tarixi-yahudiy xalqining o'z boshidan kechirgan og'ir tarixiy sinovlari bilan bevosita bog'liqdir. Shu jihatdan olganda, yakka xudolikka asoslangan yahudiylik dinining taraqqiyot jarayoni bir necha davrlarga bo'linadi.

Xususan, bu dinning shakllanish davri-Falastin davri deb ataladi. Falastin bosib olingandan so'ng yahudiylar o'troqlik hayot tarziga o'ta boshlaganlar. Miloddan avvalgi X asrga kelganda esa yahudiy xalqi tarixida yirik tarixiy voqea yuz berdi. Ya'ni, tarixda ular birinchi bor o'z davlatlariga ega bo'ldilar. Bu davlatning vujudga kelishida yahudiylarning yahudo qabilasi asosiy rol o'ynagan. Bu qabila dastlabki podsholik sulolasiga asos solgan. Birinchi bor mamlakatni birlashtirib, Isroil-Yahudiya davlatini barpo qilgan shaxs-Dovuddir (1004-965). Barcha yahudiylar endilikda yagona xudo-yahudo qabilasining xudosi Yahvega sig'inadigan bo'lganlar. Shu tariqa, miloddan avvalgi X asrdan boshlab yahudiylik dini umumdavlat diniga aylangan.

Yahudiy davlati podshosi Solomon (Sulaymon) miloddan avvalgi X asrda hashamatli Yahve ibodathonasini qurdirgan. Yahudiylik ta'limotiga ko'ra Muso bu dinning payg'ambaridir. Xo'sh Muso qay tariqa bu din payg'ambariga aylangan? Bu masala yahudiylik muqaddas kitobida quyidagicha talqin etiladi:

Isroil (yahudiy) xalqi Imromdan (Oliy Otadan) boshlanadi. "Isroil" so'zi Imromning nevarasi Ya'qubning ikkinchi nomi bo'lib, u "Xudo bilan kurashgan" degan ma'noni anglatadi. Ya'qub tushida xudo bilan olishgani uchun shunday nom bilan atalgan.

Xudo Ibrom bilan ahdlashgan va unga bunday degan: "Sening isming endi Ibrom emas, balki Ibrohim (ko'pchilik otasi) bo'ladi... Sening urug'ingdan podshohlar kelib chiqadilar. Men sen bilan va sendan keyingi avlodlaring bilan nasldan-naslga o'tib, barqaror bo'ladigan abadiy ahdimni tuzaman. Sening va sendan keyingi ajdodlaringning xudosi Men bo'laman. Endi sen va sendan keyin tug'iladigan barcha avlodlaring ham Mening ahdimga rioya qilib yuringlar. Senga va sendan

keyingi avlodlaringga quyidagi ahdga rioya qilishingizni buyuraman: orangizdagi har bir erkak xatna qilinsin”.

Xudo Ibrohim va uning avlodlariga Misr daryosidan Yefrat daryosigacha bo'lgan hududlarni abadiy mulk qilib bergan. Shuningdek, ularga boshqa xalqlar vakillari bilan tuziladigan nikohni man etgan. Ibrohim vafot etgach, uning butun mol-mulki o'g'li Ishoqqa qolgan. Ishoqning egizak-Isav va Ya'qub nomli o'g'illari bo'lgan. Bu ikki o'g'il otalarining merosi xususida o'zaro dushmanga aylanganlar. Natijada, nohaq Ya'qub qochib ketgan. Isav esa amakisi Ismoilning oldiga borgan va uning qiziga uylangan. Ya'qubning 12 nafar farzandi bo'lgan Bu 12 farzand ichida Ya'qub uchun eng suyuqliki Yusuf bo'lgan. Shuning uchun ham boshqa aka-ukalari uni yomon ko'rganlar va kunlardan bir kuni uni savdogarlarga sotib yuborishadi. Otasiga esa uni yirtqich hayvonlar yeb qo'ydi, deb aytganlar.

Savdogarlar Yusufni Misrda bir podsho saroyiga sotib yuborganlar. Oxir-oqibatda, taqdir taqozosi bilan Yusuf Misrda Fir'avnning ishonchli odamiga aylangan. Bunga uning tush ta'biri va hisobni yaxshi bilish qobiliyati sabab bo'lgan. Oradan yillar o'tgach, yahudiylar yurtida ocharchilik boshlangan. Ular non izlab Misrga borganlar. Misr Fir'avni Yusufning bashoratiga amal qilib, 7 yilga yetadigan g'allani g'amlab qo'ygan edi. Shu tariqa yahudiylar Misrga kelib qolganlar.

Oradan 50 yil o'tgach, Yusuf vafot etgan. Biroq yahudiylar ichidan uning o'rnini bosadigan boshqa shaxs chiqmagan. Ayni paytda, Fir'avnlr chet elliklarning ko'payib borishidan ham qo'rqqanlar. Endilikda yahudiylar ta'qib ostiga olingan, hatto yangi tug'ilgan chaqaloqlarigacha o'ldirila boshlangan.

Yahudiylar butunlay qirilib ketish havfi yoqasiga kelib qolganlar. Endi yahudiylar uchun ikki yo'l qolgan: yo qul bo'lib qolish, yo ixtiyoriy asirlikdan qutulish choralarini ko'rish. Yahudiylar ikkinchisini istar edilar. Biroq, ular o'z kuchlari bilan asirlikdan ozod bo'la olmas edilar. Shunday paytda xudo ularga xaloskor yuborgan. Bu xaloskor Muso edi. Muso yahudiylarni Yahve (Allohning Tavrot kitobidagi ismi) yordamida Misrdan olib chiqib ketgan. Yahve Musoga Sino tog'ida dastlab 10 vasiyat bitigini taqdim etgan. So'ng unga yahudiylik dinining boshqa muqaddas kitoblari ham yuborilgan.

Muso Yahvening so'zi-muqaddas kitoblar mazmunini yahudiylarga yoya boshlagan. Shu tariqa Yahve yahudiy xalqini ikkinchi marta tanlagan. (Birinchi marta Ibrohim bilan ahdlashuv tuzgan, deb ta'lim beradi, yahudiy ruhoniylari).

Bu dinning ham o'z muqaddas kitoblari mavjud. Bular “Bibliya” (Qadimgi Ahd qismi) va “Talmud” (“O'rganish”) kitoblaridir.

“Bibliya” ikki qismdan-“Qadimgi Ahd” va “Yangi Ahd”dan iborat. Bibliyaning “Yangi Ahd” qismi-xristianlik dinining kitobi hisoblanadi.

“Bibliya”ning yahudiylik dini kitobi hisoblanadigan qismi “Qadimgi Ahd” deb ataladi.

“Qadimgi Ahd” (Ahd so'zi-xudo bilan ahdlashuv, kelishuv degan ma'nolarni anglatadi) 39 kitobdan iborat. Ularning dastlabki beshtasi “Musoning besh kitobi” deb ataladi va ular quyidagicha nomlanadi:

1) Borliq; 2) Chiqish; 3) Loviy; 4) Sonlar; 5) Ikkinchi qonun.

“**Borliq**” kitobi (Ibtido)-bu, olamning va insonlarning xudo tomonidan yaratilgani; jannat. Unda dastlabki odamlarning hayoti, ularning gunoh ishlari va shu

tufayli jannatdan haydalganlari; insoniyatning ko'payishi va qadimgi tarixi, butun dunyo suv toshqini, undan Nuh oilasining qutulib qolishi; yahudiy xalqi urug' boshliqlari (Ibrohim, Ishoq, Ya'qub, Yusuf) hayoti, yahudiylarning Misrga ko'chib borishi haqidagi kitobdir.

“**Chiqish**” kitobi-yahudiy qonunshunosi Musoning hayoti va faoliyati, uning yahudiylarni Misr qulligidan ozod etishi, shuningdek, xudoning Musoga bergan 10 vasiyati haqidagi kitob.

“**Loviy**”-oilaviy hayot haqidagi kitob.

“**Sonlar**” kitobi-qonunchilik va yahudiylarning Misrdan olib chiqib ketilgan davrdan to Falastinni bosib olgunlariga qadar bo'lgan tarixiga bag'ishlangan.

“**Ikkinchi qonun**”-bu, diniy qonunlar kitobidir.

Bu besh kitob bitta nom bilan-“**Tora**”(Qonun) deb ham ataladi. U yahudiylik diniy ta'limotining asosi hisoblanadi. “Qadimgi Ahd”ning ikkinchi va uchinchi qismlari “Payg'ambarlar” va “Yozuvlar” nomi bilan ma'lum. Yahudiylikning ikkinchi kitobi “Talmud”dir(“O'rganish”).

Talmudning yozilishiga nima sabab bo'lgan?

Ma'lumki, milodning boshlarida nurab borayotgan qadimgi Rim imperiyasi hududida yangi din-xristian dini zo'r kuch bilan yoyila boshlagan. Bu hol yahudiylar oldiga o'z dinlarini saqlab qolish vazifasini qo'ygan.

Bu vazifani birgina Tavrot kuchi bilan hal etib bo'lmas edi. Shu tariqa Tavrotning yangi sharoitdagi ham yahudiylik, ham xristianlik tarqalayotgan sharoitdagi talqini - Talmud yaratilgan.

Bu kitobda yahudiylik dinining aqida va marosimlari, urf-odatlarini bayon etilgan. Yahudiylikda besh oqim-uch qadimiy va ikki zamonaviy oqim bor. Qadimiy oqimlarga Sadduqiylar, Farziylar va Yesseylar oqimi, zamonaviy oqimlarga keyinroq tashkil topgan masonizm va sionizm oqimlari kiradi.

**Sadduqiy** oqimining nomi miloddan avvalgi o'n birinchi asrlarda yashab o'tgan Dovud payg'ambar davrida yashagan ruhoniyy Sadduq ismidan olingan. O'sha paytlarda mansabdor ruhoniylarning ko'pi sadduqiy bo'lganlar. Ular faqat Tavrot kitobining tarkibiga kiruvchi Muso payg'ambarning besh kitobini tan olganlar. Bu kitobda oxirat va qiyomat haqida hech narsa deyilmagani uchun sadduqiylar oxirat, qiyomat va o'lganlarning qayta tirilishiga ishonmaganlar.

**Farziy** degan nom qadimiy ibroniy tilidagi “tushuntirish”, “ajratib ko'rsatish” so'zidan olingan. Farziylar muqaddas manba sifatida Muso qonuni va boshqa payg'ambarlarning muqaddas bitiklarini, hatto o'zlarining urf-odatlarini ham qabul qilganlar va ularning hammasiga sinchkovlik bilan amal qilganlar. Ular qiyomatning albatta yuz beriishiga va o'lganlarning qayta tirilishiga, u dunyoda hisob-kitobning bo'lishiga ishonganlar.

**Yesseylar.** Miloddan avvalgi ikkinchi va milodning birinchi asrlarida Quddusdagi ko'pgina ruhoniylar Xudo talab qilgan tarzda yashamas edilar. Undan tashqari rimliklar diniy mansablarga nomunosib shaxslarni tayinlar edilar. Bundan norozi bo'lgan bir guruh ruhoniylar Quddusni tashlab sahrolarga bosh olib ketishgan va o'sha yerlarda o'z jamoalarini tashkil etganlar. Ularni Yesseylar deb atashgan. Ular dualizm g'oyalari-ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurashning muqarrarligiga,



pirovardida ezgulikning g'olib chiqishiga va taqdirga ishonganlar. Mulkning umumiy bo'lishiga va asketizmni targ'ib qilganlar.

### **Veda va veda dinlari.**

Vedalar dini miloddan avvalgi I ming yillikda Hindiston aholisi ko'pchiligi e'tiqod qilgan din bo'lib, unda dastlab tabiat hodisalari ilohiylashtirilgan. Vedalar dinida ularning xudolari ilk bor tabiat kuchlari va hodisalari inson qiyofasiga o'xshatib tasavvur etilgan: Agni-olov xudosi, Indra-atmosfera, yomg'ir va momoqaldiroq xudosi, Sur'ya-quyosh, Varuna(D'yaus) - osmon, Soma - oy hamda kayf qildiradigan ichimliklar xudosi, Britra-qurg'oqchilik xudosi. Bulardan tashqari ularning Mitra, Adita, Vishnu, Krishna va h.k. kabi xudolari bor.

Ijtimoiy tengsizliklar kuchayganidan keyin, xudolarning vazifasi va ahamiyatlari ham o'zgardi, chunonchi: Indra urush xudosisiga, Varuna oliy hakam va adolat posboniga aylandi. Keyinchalik Indra xudolar podshohiga va Yerdagi xudolar homiysiga aylangan.

Bu dinda xudolarga qurbonlik qilish, sig'inish asosiy ibodat hisoblanib, xudolarga ovqat, hayvonlar, maxsus ichimliklar (soma) ehson qilish va boshqa rasm-rusmlarni bajarishdan iborat bo'lgan. Dastlab alohida ruhoniylar va ibodatxonalar bo'lmagan. Keyinchalik kohinlar, ularning yuqori tabaqalari-brahmanlar kelib chiqdi. Ruh, narigi dunyo ruhlari, xudolari orasidan joy oldi va ular bilan birga Yerdagi insonlardan qurbonliklar qabul qiladigan bo'ldi. Gunohkorning ruhi esa duzahga(naraka)ga tushadi, ularga Yama xudosi jazo belgilaydi. Bu dinda ijtimoiy adolatsizlik Xudo tomonidan abadiy o'rnatilgan tartibdir deb e'tirof etiladi.

Vedalar dinidan keyinchalik brahmanlik dini kelib chiqdi.

Vedalar (Sanskritcha) "muqaddas bilim" degan ma'noni bildiradi.

Eramizdan taxmiman bir yarim, ikki ming yillar avval Hindistonga bizga noma'lum sabablarga ko'ra Shimoldan yerlik aholidan tillari va ranglari bilan farq qiluvchi xalqlar kirib kela boshladilar. Ular Yevropa tillariga o'xshash bo'lgan sanskrit tilida so'zlashar, o'zlarini oriylar, ya'ni aslzodalar deb atar edilar. Ular o'zlari bilan birga muqaddas bitiklari-yozuvlarini ham olib keldilar. U bitiklar sanskrit tilida "muqaddas bilim", "muqaddas bashorat" degan ma'noni bildiruvchi "Vedalar" deb atalar edi. Bu so'z ayni mahalda "muqaddas kitob", "oliy donishmandlik" degan ma'nolarga ham ega bo'lgan.

Vedalar tarkibiga turli davrlarda yozilgan bir qancha kitoblar kirgan bo'lib, ular ibodat, marosimlar, falsafiy ta'limotlar, tarixiy axborotlarni o'z ichiga olgan. Vedalarning boshqa muqaddas kitoblardan farqli tomoni shunda bo'lganki, ular nihoyasiga yetkazilmagan va oxiri ochiq-tamomlanmagan holda qolgan. Unga keyinchalik ruhoniylar tomonidan ham qo'shimchalar qo'shish imkoni bo'lgan. Shuning uchun keyinchalik bu yozuv-bitiklar juda ham kengayib ketdi. Ammo bu muqaddas bitiklarning asosiylari to'rtta-"Rig" veda, "Yajur" veda, "Sama" veda va "Atxarba" veda bo'lgan.

Upanishad (sanskritcha) ustozning yonida haqiqatni bilish uchun o'tirmoq degan ma'noga ega bo'lib, Vedalarga yozilgan diniy-falsafiy izohlardir. Upanishadlar miloddan avvalgi VII-III asrlardan boshlab, milodiy XIV-XV asrlargacha tuzib borilgan, 250 ga yaqin asarlar kiritilgan. Upanishadlar nasriy va she'riy uslubda yozilgan dastlabki va so'nggi izohlarga bo'linadi.

Upanishadlarning asosiy vazifasi brahmanlik va buddaviylikka asos bo'lgan bir qancha g'oyalar, xususan, insonlarga yomonlikni ravo ko'rmaslik, chunki hayotning o'zi azoblardan iborat ekanligi haqidagi ta'limotni asoslab berishdir. Bunda inson umrining o'zi qurbonlikdir degan tasavvur olg'a suriladi. Yakka jon va ilohiy jonning qo'shilishi to'g'risidagi ta'limot, yakka tug'ilishlar zanjiridan xalos bo'lish aqidasi vujudga keltiradi.

Upanishadlarda Brahma oliy ibtido, jism va hodisalar asosi va sababi, barcha borliqning boshi va oxiri deb talqin qilinadi (Brahma-qiyofasiz xudo, mutlaq kuch). Barcha narsalar o'shandan paydo bo'lgan, o'sha bilan yashaydi va o'lgach, yana o'shanga qaytadi. Barcha narsalar Brahmadir, Brahma esa Atmandir deyiladi (Atman-nafas, ruh, jon, umumiy-ilohiy jon). Shunday ekan, aytishimiz mumkinki, barcha narsalar xudodir, xudo esa nafas, ruh, jon, umumiy jondir.

Bu ta'limotga ko'ra, moddiy dunyo, jumladan, inson ham, atman-brahmadan paydo bo'lgan va yana o'shanga aylanadi, insonning joni avvalgi mohiyatiga butunlay qaytib, u bilan yana qo'shib ketadi.

Har bir inson ilohiy kuch tomonidan belgilangan hayot kechirish tarzi-qonuniga muvofiq yashashi kerak, kimki bu qonunni buzsa, uning joni kelgusida biron hayvon yoki hashorat tanasida qayta dunyoga keladi, bu qonunni buzmagani odamning joni esa kelgusida yuqori tabaqa vakillariga mansub inson tanasida qayta paydo bo'ladi, deb ta'lim beriladi. Insonning yashashdan maqsadi ham ana shunda deb tushuntiriladi.

Upanishadlar keyingi davrlarda shakllangan barcha hind falsafiy tizimlar, maktablar va ularning vakillari dunyoqarashlariga o'z ta'sirini ko'rsatgan.

### **Konfutsiychilik va Daosizm.**

Qadimgi Xitoyda Lao-Szi falsafiy ta'limoti bilan deyarli bir davrda Kun-Szi (Konfutsiy-miloddan avvalgi 551-479)ning falsafiy ta'limoti ham paydo bo'ldi. Konfutsiy-Qadimgi Xitoy faylasufi va pedagogi, Konfutsiychilikning asoschisi. Konfutsiy, garchi, samoni oliy ruhiy qudrat, ajdodlarga qurbonlik keltirishni ularni e'zozlashning asosiy ifodasi deb bilsa ham, o'z ta'limotida osmon sirlari muammolarini deyarli tilga olmagan hamda ruhlar va narigi dunyo kabi tushunchalarga kam e'tibor bergan. Konfutsiyning falsafiy va axloqiy g'oyalari markazida inson, uning aqliy va ma'naviy qiyofasi, olamdagi hamda jamiyatdagi o'rnini, vazifasi muammolari turadi.

Konfutsiy fikricha olamdagi barcha mavjudot singari insonning taqdiri ham samoviy qudratga bog'liq. Shuning uchun odamlarning oliyjanoblighi yoki tubanligi, oily yoki past tabaqaga mansubligini o'zgartirib bo'lmaydi. Binobarin, podshoh-podshohligicha, fuqaro-fuqaroligicha, ota-otaligicha, farzand-farzandligicha qolishi kerak. Bu g'oya, ko'ramizki, mavjud tuzumni saqlab qolishni nazarda tutar edi. Shu bilan birga, Konfutsiy ideal, oily inson, asl, mard kishi konsepsiyasini ishlab chiqqan. Bu konsepsiyaga ko'ra, odamlar ijtimoiy kelib chiqishi yoki jamiyatdagi mavqei orqali emas, balki odamiylik, adolatgo'ylik, haqgo'ylik, samimiyat, farzandlik izzat-hurmati kabi yuksak ma'naviy fazilatlarga erishish tufayli yuksak kamolotga yetishuvi mumkin.

Konfutsiyning falsafiy ta'limoti keyinchalik Xitoyda hukmron dinlarning biriga aylangan va Konfutsiychilik deb nom olgan dinning asosi bo'ldi (milodning

boshlarida). Konfutsiychilik manbai-Konfutsiy izdoshlari yozgan “Lung-Yuy” (Suhbatlar va mulohazalar, miloddan oldingi VI asr) kitobidir. Konfutsiychilik Lao-Szi ta’limotidan tubdan farq qiladi. U jamiyatni ijtimoiy larzalardan asrab qolishga intilgan feodal amaldorlarning qarashlari va manfaatlarini himoya qilgan. Konfutsiychilikning maqsadi-xalqni mavjud tartib-qoidalarni hurmat qilish ruhida tarbiyalashdir. Bu din aqidasi ko’ra, jamiyatda osmondan yuborilgan “Jeng” (Insonparvarlik) qonuni amal qiladi. Bu qonunni o’rganib olish uchun inson “Li” ga, ya’ni ijtimoiy ahloq normalariga, qoidalariga, an’anaviy marosimlarga amal qilishi, o’zining jamiyatdagi darajasiga qarab ish tutishi zarur.

Konfutsiychilik belgilangan diniy tartiblarga qattiq amal qilishni talab etadi. Konfutsiyning o’zi hayotligida diniy tartiblarni sidqidildan bajargan. Endilikda, har bir oilaning o’z ibodatxonasi bo’lishi zarur bo’ldi. Har bir oila o’z ibodatxonasiga ajdodlarining timsoli bo’lgan “Chju” tasvirini qo’yadi va diniy marosimlarni ijro etadi. Konfutsiychilikda ijtimoiy-axloqiy masala alohida o’rin egallaydi. Shu ma’noda Konfutsiy ta’limotini inson hatti-harakati, hayoti me’yorlari haqidagi ta’limot deyish ham mumkin. Insonlar o’rtasidagi hayot tarzi an’anaviy besh munosabatdan iboratligi qayd etilgan:

- davlat boshlig’i bilan amaldorlar o’rtasidagi munosabat;
- ota-onalar bilan farzandlar o’rtasidagi munosabat;
- er bilan xotin o’rtasidagi munosabat;
- katta va kichik aka-ukalar o’rtasidagi munosabat;
- do’st-birodarlar o’rtasidagi munosabat;

Bu ta’limotda shunday qadriyatlar ham borki, unga qoyil qolmay iloj yo’q. Birgina misol keltiramiz:

O’g’il ota-onasi oldida quyidagi beshta vazifani bajarishi shart edi:

- Har doim ota-onani to’la hurmat qilish;
- Ularga eng suyuqli taomni keltirish;
- Ular betob bo’lib qolganlarida chuqur qayg’urish;
- Ular vafot etganlarida yurak-yurakdan achinish;
- Ular xotirasiga tantanali ravishda qurbonliklar qilish.

Konfutsiychilikda diniy marosimlarning asosiy mazmuni konfutsiychilikka qadar mavjud bo’lgan an’analarni, urug’-qabilaviy marosimlarni mustahkamlash, qonunlashtirishni tashkil etardi. Chunki Konfutsiy o’zining hech qanday yangi ta’limot yaratmaganligini tan olib, faqat eski marosimlarga, tartib-qoidalarga qattiq rioya etishni talab qilardi. Bu o’rinda uning quyidagi so’zlarini keltirishni maqsadga muvofiq deb bildik: “Qadimdan joriy etilgan marosimlar saqlanmas yoki ular bekor qilinadi, unda hamma narsa aralashib ketadi, izdan chiqadi. Nikoh marosimini yo’q qilinishi, unda er-xotinlik bo’lmaydi, bu bilan bog’liq katta-katta jinoyatlarga yo’l ochiladi yoki dafn etish va qurbonlik qilish marosimini yo’q qilingchi, unda bolalar vafot etgan ota-onalari to’g’risida o’ylamay, tiriklarga esa xizmat qilmay qo’yadilar; Pin-Szin marosimini yo’q qilingchi-unda podshoh bilan amaldor o’rtasidagi farq yo’q bo’lib ketadi, kichik-kichik knyazchalar o’zboshimchalik qila boshlaydilar, natijada ta’qib etish va zo’ravonlik boshlanadi”.

Xitoy xalqi tarixida qadimgi marosimlar katta o'rin tutganligini Konfutsiy yaxshi bilar edi. Shuning uchun ham Xitoy xalq an'analarini, marosimlarini o'zining ta'limotida asosiy mazmunga aylantirgan. Xitoyliklar uchun eng yomon fojea-erkak tomonidan avlodning qolmasligidir. Ular avlodlari qolmasa, biz o'lganimizdan so'ng kim bizlarni yod etadi, deb qattiq qayg'uga tushadilar.

Konfutsiychilikning bosh xudosi-osmon Xudosi edi. Keyinchalik Konfutsiyning o'zi ham ilohiylashtirilgan. Uning sharafiga, hatto imperatorning o'zi ham diniy marosimlarni bajo keltirar edi. Bu bejiz emas edi, albatta. Chunki, Konfutsiychilik oddiy xalq ustidan "aslzodalar"ning hukmronligini oqlardi. Bu dinga ko'ra ayni paytda imperatorning o'zi oliy Xudoning yerdagi vakili edi. Konfutsiychilikda imperatorga qarata yozilgan quyidagi maslahat ham bor edi: "Agar imperator biror katta maqsadni amalga oshirmoqchi bo'lsa, u albatta ajdodlari ibodatxonasiga borishi lozim. Qilmoqchi bo'lgan ishidan, o'zining maqsadidan avlodlarini xabardor etmog'i kerak. Shu paytda u osmonda yulduzlarning holatiga qaramog'i, ular qulay joylashganligiga ishonch hosil qilganidan so'ng maqsadini amalga oshirmog'i mumkin".

Daosizm - aslida falsafiy ta'limot bo'lib, u miloddan avvalgi IV-III asrlarda Xitoyda paydo bo'lgan. Uning asosida miloddan avvalgi II asrda Daosizm dini shakllangan. Daosizmning falsafiy prinsiplari "Dao Deszin" kitobida bayon etilgan. Bu asar o'tmishdagi yarim afsonaviy Xitoy donishmandi Lao-Szi qalamiga mansubdir. Bu kitob g'alati va jumboqli aforizmlar, hikmatli so'zlar to'plamidan iborat. Asarning asosiy tushunchasi "dao" (yo'l) bo'lib, u olamning mohiyati va bosh sababi, dunyoning turli-tumanligi manbai, barcha narsalarning onasi deb tushunilgan. Bu, go'yo qandaydir yo'l bo'lib, atrofni o'rab olgan olam va barcha kishilar shu yo'l bilan borishi lozim. "Dao" diniy mazmun kasb etgan yo'lgina bo'lib qolmay, ayni paytda, u hayot tarzi, usuli, prinsiplari ham edi. Daosizm dinida uch xudo-Shan-Di, Lai-Szi hamda dunyoning yaratuvchisi Pant-Gu boshchiligida xudolar panteoni shakllangan. Shan-Di osmon xudosi, oliy ruh, qudrat va osmon o'g'illari bo'lgan imperatorlarining otasi hisoblanadi. Daosizm dini o'z ibodatxonalariga, muqaddas kitoblariga, diniy xizmatni bajaruvchi ruhoniylariga ega.

Bu dinning diniy tashkiloti ierarxiya prinsipiga asoslangan. Ierarxiyaning boshida oliy ruhoniy (patriarx) - Tyan-Shi (samoviy ustoz) turadi. Uning sulolasi milodning II asrida vujudga kela boshlagan. Oliy ruhoniy oilaviy turmush qura olar edi. U o'z dindorlari orasida juda katta obro'ga ega bo'lgan. Bu dinning boshqa ruhoniylari ham oilaviy turmush qura olgan. Ayni paytda bu dinda rohiblar ham mavjuddur.

V asr boshiga kelib, daosizm diniy ta'limoti va marosimlari rasmiylashgan, u davlat diniga aylangan. Biroq, uning zamirida juda ko'p sektalar vujudga kelganki ular ilohiyot masalalari, aqidalar, marosimlarni mustaqil talqin etishlari, dindorlar burchlariga turlicha qarashlari bilan bir-biridan farq qiladi. Daosizm muxlislari orasida dunyodan mutloqo yuz o'g'irgan zohidlar ham, oliy huzur-halovatga erishish uchun bu dunyo ne'matlaridan voz kechish shart emas deb biladigan dindorlar ham bor. Daosizm ruhoniylari shaxsning axloqiy o'z-o'zini takomillashtirish g'oyasini targ'ib qilib, dindorlarga uzoq umr ko'rishga erishishning muayyan usulini ham taklif

etadilar. Bu usullar parhezni, jismoniy mashqlar tizimini va boshqalarni o'z ichiga oladi. Ayni vaqtda ular "yovuz ruhlar"ni haydash, fol ochish bilan shug'ullanadilar. Daosizm ta'limoti shakllangan paytda ijobiy xarakterga ega edi. Keyinchalik u o'zining bu xususiyatini yo'qotgan. Nega? Bu dinda dunyoda 4 ulug'likdan biri podshohdir deb hisoblanishini biz yuqorida aytib o'tgan edik. Shuning uchun ham bu dinning V asrda davlat diniga aylangani bejiz emas. U Xitoy imperatorlari manfaatiga mos edi.

Lao-Szi, ya'ni inson ham bu dinda xudo darajasiga ko'tarilgan. Imperatorlarga huddi shu narsa kerak edi. Bundan tashqari, bosh xudo-Shan-Di, yuqorida aytganimizdek, "Osmon o'g'illari" bo'lmish imperatorlarning otasi edi. Shunday qilib, bu din hukmdor sinfning manfaatiga moslashtirildi, ularga xizmat qila boshladi. Bu bilan o'zining progressivlik xarakterini yo'qotdi. Qolaversa, bu din eskilikni qattiq himoya qiladigan, ba'zi hollarda tarkidunyochilikni targ'ib etadigan din bo'lganligi uchun ham uning tarafdorlari bora-bora kamaygan.

Braxmanlik Vedalar dini asosida miloddan avvalgi I mingyillik boshlarida vujudga kelgan. U mohiyatan vedalar dinining rivojlangan shaklidir.

Braxmanlik-qadimgi hind dini bo'lib, uning nomi Vedalar kitobida zikr etilgan hind oliy tabaqa vakillari-brahmanlar nomidan olingan. Brahmanlar qadimdan koinot (Ruhoniylik) vazifasini o'tab, qurbonlik islariga rahbarlik qilish, xalq orasida Vedalarni targ'ib etish bilan shug'ullanishgan va ular hukmron sinf vakillari sanalgan. Eramizdan avvalgi birinchi ming yilliklarga kelib, oriylar Hindistonda o'zlarining knyazliklariga ega bo'ldilar. Shu davrga kelib aholi o'rtasida brahmanlarning nufuzi oshib ketdi. Ular oldingi diniy ta'limotlarni isloh qilib, yangicha diniy qonun-qoidalarni ishlab chiqdilar va braxmanlik diniga asos soldilar.

Braxmanlik ta'limoti ijtimoiy tabaqalar-kastalarga asoslangan. Ya'ni insonlar o'zlarining kelib chiqishlari, mansablari va hunarlariga ko'ra turli tabaqalarga bo'linadilar. Braxmanlikda eng yuqori kasta braxmanlardir. Ular go'yo xudoning tilidan yaratilgan bo'lib, xudolar nomidan gapirish huquqiga ega bo'lganlar.

Ikkinchi kasta kshatriylar. Ular xudoning qo'lidan yaratilgan deb hisoblanganlar. Podshohlar, knyazlar, jangchilar shular jumlasiga kirgan.

Uchinchi kasta vayshlar. Ular xudoning sonidan yaratilgan insonlar deb hisoblanib, unga savdogarlar va hunarmandlar kirgan.

To'rtinchi, oxirgi eng quyi kasta tabaqasi shudra bo'lib, unga oddiy xalq kirgan. Ular xudoning oyog'idan yaratilgan, deb hisoblangan.

Braxmanlikning muqaddas kitoblariga Vedalar, ularga yozilgan sharhlar, Braxmanlar, Arn'yaklar, Upanishadlar kiradi. Braxmanlikda Vedalar dinidagi ko'pgina xudolarning o'rniga asosan uch xudo - Braxma, Shiva, Vishnu qabul qilingan. Bulardan Braxma koinotning yaratuvchisi, unga jon ato etuvchi, Vishnu (muruvvatli degani) tabiatni saqlovchi, Shiva (yovuz degani) esa tabiatni vayron etuvchi xudolardir:

Braxmanlikda hayvonlar: sigir, maymun, ayrim o'simliklar va hokazolar muqaddaslashtirilgan.

Bu dinda butun borliq xayoliy bo'lib, jonli narsalar, shu jumladan, inson ham qayta tirilish xususiyatiga ega deb qaralgan. Brahma xudosi belgilagan hayot me'yorlari, qonunlarning bajarilishi yoki bajarilmasligiga qarab, inson axloqiga baho

berilgan. Kambag'al mehnatkashlar, mazlumlarning qiynalib yashashi hayot me'yorini hisoblangan. Ularning ahvoli og'irligiga o'zlari, o'zlarining niyatlari, xislatlari, yomon hatti-harakatlari, axloqi sababchidir deb uqtiriladi.

Jonni xalos qilish, uni bundan keyin paydo bo'lishdan, yana bu dunyoga qayta kelish mashaqqatidan saqlab qolishning birdan-bir yo'li jonning Braxma bilan qo'shilib ketishidir. Bunga erishmoq uchun Braxmaning ilohiy mohiyatini to'la bilib olish, butun o'y-xayolini xudoga qaratish va tashqi olamdan butunlay voz kechish talab etilgan. Braxmanlik jonning ko'chib yurishi to'g'risidagi ta'limotni diniy jihatdan asoslab bergan.

Hindaviylik ko'p xudolik dini bo'lib, bunda brahmanlikning asosan uchta xudosi tan olinadi: koinotning yaratuvchisi Braxma; dunyo nizomini ushlab turuvchi Vishnu; koinotni halok qilish qudratiga ega bo'lgan Shiva.

Hindaviylik dinining ta'limotiga ko'ra, olamni va hayotning barcha shaklini xudo - Braxma yaratgan. Biroq bu dinda u ikki xudoning nomigagina boshlig'i sanaladi. Hozir Braxmaga sig'inish deyarli yo'q. Hindaviylar asosan Vishnu va Shivaga sig'inadilar. Bu dinda jannat va do'zax haqidagi tushunchalar ham mavjud. Ular marhumlarni kuydirib, kulini Gang daryosiga sochib yuboradilar.

Bu dini qabul qiluvchilar asosan, Hindistondagi kasta tuzumini qabul qilish talab etiladi.

Hindaviylik hozirgi Hindistonda keng tarqalgan dindir. Bu dinga e'tiqod qiluvchilarning 95 % Hindistonda, qolgan 5 % Pokiston, Bangladesh, Nepal, Shri-Lankada, shuningdek, Janubiy Afrikada, Janubiy-Sharqiy Osiyoda yashaydi. Hindiston aholisining 80% shu dinga e'tiqod qiladi.

Jayniylik-miloddan avvalgi VI asrda Hindistonda paydo bo'lgan din. "Jayniylik" atamasi Jinna ismidan olingan. Bu ta'limot asrlar osha 24 ustoz - "payg'ambar" orqali yetib kelgan va bularning eng so'nggisi-Jinna taxallusini olgan Vardxamana Maxavira ("Jinna"ning ma'nosi "g'olib") nomidan olingan. Jinna karmani yenggan g'olib hamda diniy najot yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etgan shaxs sifatida tanilgan. Jayniylik rohiblar o'zlarining yarim afsonaviy "payg'ambar"iga Xudoga sig'ingandek sig'inadilar.

Falsafiy tizim sifatida jayniylik miloddan avvalgi II-I asrlarda shakllangan. Bu falsafaning asosiy manbai "Jaynasutra"(Jayna aforizmlari) hisoblanadi. Jayniylik tarafdorlari olamni ilohiy kuch yaratgan degan fikrni rad etib, olam abadiy, o'z-o'zidan mavjuddir deb hisoblaydilar. Ular olam ikki xil - jonli va jonsiz moddiyatdan iborat deydi. Yagona jon yoki oliy xudo yo'q deydi.

Sikhalik(sanskritcha "shogird") -XVI asrda Shimoliy-G'arbiy Hindistonda sikhlar qabilasi orasida vujudga kelgan din. Asoschisi-guru (ustoz) Nanak (1469-1539) dir. Bu dinda yagona, qiyofasiz Xudoga e'tiqod qilinadi. Ular Borliq va olamdagi barcha hodisalar yaratuvchining oliy qudratining natijasidir, barcha odamlar esa Xudo oldida tengdirlar deb bilib, hindaviylikdan yuz o'girganlar. Sikhalik ta'limoti, ibodat qoidalari, guru Nanakning pand-nasihatlari va hayoti "Granth Sohob"("Janob Kitob")da yozilgan. Bu dinning asosiy muqaddas kitobi "Adigranth"(Panjobcha "boshlang'ich kitob") sikhlar orasida 5-guru murabbiy deb tanilgan Arjuna (1584-1606) tomonidan yozilgan. Kitobda Nanak, undan keyingi 3-guru matallari, Arjunaning o'z asarlari, Kabir va bhakti sektalarining boshqa ayrim

rahnamolari asarlari yozilgan. 10-oxirgi guru Govind (1675-1708) “Adigranth”ga o‘zining qo‘shimchalarini kiritgan. Bu kitobning asl nusxasi sikhlarining Amritsar shahridagi asosiy “Oltin ibodatxona”sida saqlanadi.

**Sintoizm dini** Qadimgi Yaponiyada vujudga kelgan (sinto ~ «xudolar yo‘li»). Bu dinning vujudga kelishiga oid aniq ma‘lumotlar yo‘q. Biroq, u Yaponiyada Xitoy ta‘siridan xoli bir sharoitda paydo bo‘lgan va rivojlangan. Yaponlar sintoizmning mohiyati va kelib chiqishini bir-biri bilan aralashmaslikka harakat qiladilar. Sintoizm ular uchun ham tarix, ham an‘ana, ham butun hayot demakdir.

Sintoizm ta‘limotiga ko‘ra, mikado (imperator) - osmon ruhlarining davomchisidir. Har bir yapon kishisi ikkinchi darajali ruhlar (Arama)ning vorisidir. Yaponlar kamam ajdodlar va qahramonlarning ruhlari deb e‘tiqod qiladilar. Xudojo‘y yapon o‘lgandan keyin o‘zining ham o‘sha Aramalardan biri bo‘lishiga ishonadi. Sintoizm da «Oliy ilohiyat» tushunchasi mavjud emas. U ajdodlar ruhiga va tabiatga sig‘inishga o‘rgatadi. Sintoizm da umumiy hayotiy rioya qilinishi lozim bo‘lgan qoidalardan boshqa diniy urf-odatlar yo‘q. Unda bir umumiy ma‘naviy qoida - «Umumiy qonunlarga rioya qilgan holda tabiat qoidalariga mos harakat qil» g‘oyasi mavjud.

Sintoiylikning ta‘limotining asosini – imperator hokimiyatining ilohiyligi to‘g‘risidagi aqida tashkil etadi. Imperator (mikado) xudo Amaterasining avlodi hisoblangan. Sintoiylikning asosiy xudolari – Amaterasu (quyosh xudosi), Susano-vo (bo‘ron xudosi), Inari (guruchli odam, dehqonchilik homiysi)lardir.

Har yili Yaponiyada ikki marotaba – 30-iyun va 31-dekabrda umumxalq poklanish tadbirlari o‘tkaziladi. Sintoiylikda eng nopok narsa qon hisoblanadi. Yaponiyaning ikkinchi jahon urushida yengilishi bu dinning asoslariga putur yetkazdi. Bugungi kunda Yaponiyada sintoiylik dindorlari an‘anaviy marosimlarni asosan uy sharoitida ijro etib kelmoqda.

#### Adabiyotlar.

1. Karimov. I. A O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.; O‘zbekiston 2011 y.
2. Karimov. I. A. Ona yurni baxtu- iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish eng oiliy saodatdir. T.; O‘zbekiston 2015 y.
3. Karimov. I. A Ozodlik havosidan to‘yib nafas olgan xalqni o‘z yo‘lidan hech kim qaytara olmaydi. T.; O‘zbekiston 2016
4. Karimov. I. A Hayot sinjlarida toblangan Qashqadaryo eli har qanday yuksak marralarni egallashga qodir T.; O‘zbekiston 2016
5. Karimov I. A. O‘zbekiston xalqiga tinchlik va omonlik kerak. T.: O‘zbekiston 2013yil.
6. Karimov I. A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: O‘zbekiston. 2011yil.
7. Karimov I. A. Yuksak ma‘naviyat – engilmas kuch. T.: “Ma‘naviyat”, 2008 y.
8. Karimov I. A “Inson huquqlari va erkinliklari eng oiliy qadriyat” Toshkent “O‘zbekiston ” nashriyoti 2007 yil.
9. Karimov I. A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. T.: “O‘zbekiston”, 1999.
10. Токерев С. Религия в истории народов мира. М.: 1965.

11. N. F Nizomiddinov “Sharqiy Osiyo diniy falsafiy ta’limotlari va islom” Toshkent. “Zarqalam” nashriyoti 2006 yil
12. Радугин А.А. Введение в религиоведение. М. 1996 год.
13. Jo’rayev U., Saidjonov I. Dunyo dinlari tarixi. Toshkent, 1998 yil.
14. Мен А. История религии. М., 1994 год.
15. Основы религиоведения. Учебные пособие для студентов высших учебных заведений под общ. Ред. И.Н.Яблокова. М., 1995 год.
16. Религиозные традиции мира. Буддизм, иудаизм, христианство ислам. Справочник школьника. Бишкек.1997.



### **3-mavzu: Zardushtiylik dini**

#### **Reja:**

- 1. Zardushtiylik dinining paydo bo'lishi**
- 2. «Avesto- zardushtiylik dinining muqaddas kitobi.**
- 3. Zardushtiylik ta'limoti.**

**Zardushtiylik dinining paydo bo'lishi.** Bundan qariyb 2600 yil muqaddam hozirgi Markaziy Osiy hududida ulug' tarixiy shaxs - ilohiyotchi, faylasuf, shoir va tabiatshunos olim, jahon xalqlariga vatandoshimiz -Zardusht Sepitoma dunyoga kelgan edi (miloddan avval-gi 589—512 yillar). Diniy rivoyatlarga qaraganda, Zardusht Navruz kunlarining birida kohinlar boshchiligida muqaddas ichimlik bulgan «Xaoma» tayyorlashga kirishgan. Erta tong pallasida u daryodan suv olish uchun qirg'oqqa tushgan. Suv olib bo'lgach, bir yo'la tahoratini yangilayotgan Zardushtning ko'ziga qirg'oqda turgan porloq xilqat -«Voxumana» kurinadi va uning sehrli nuriga ergashadi. Nihoyat, u ezgu va ulug' xudo Axuramazda huzuriga boradi.

Axuramazda o'zining butun borliqni yaratgan xudo ekani haqidagi xabarni bildirish uchun odamlar orasidan Zardushtni tanlaganini aytadi. (Bu vaqtda Zardusht 40 yoshga tulan yedi). Shu kundan boshlab Zardusht Axuramazda dinining payg'ambariga aylanadi. Endi u o'z qavmlari orasida Axuramazda dinini targ'ib eta boshlaydi. Buning uchun u «Gatlar» (Xatlar) deb atalgan, qo'shiq qilib aytishga muljallangan shs'rlar yaratadi. 40 yoshida Zardusht avvalgi ko'pxudochilik diniy tasavvurlariga hamda tabiat hodisalariga sig'inish e'tiqodlariga qarshi chiqib, yakkaxudochilikka asoslangan kitobiy din - Zardushtiylik dinini yaratgan. Zardusht dastlab mahalliy qabilaviy dinlarning rohiblaridan biri edi.

Ayni paytda, Zardusht yashagan zamon ibtidoiy munosabatlar o'rnini sinfiy jamiyat, qadimiy davlatchilik asoslari egallayotgan, biroq, mahalliy-qabilaviy dinlar jamiyat taraqqiyotining bu yangi bosqichiga to'sqinlik qiluvchi kuchga aylanib qolgan davr edi. Jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichi o'zining to'la shakllanishi uchun kuchli mafkuraga muhtoj edi. Bundan tashqari, bu murakkab davrda o'lkaning turli qabilalarini birlashtirish va ularni ilk markazlashgan davlatchilik g'oyasi atrofida uyushtirish zaruriyati ham tugilgan edi. Zardusht yashagan davr Janubi-G'arbiy va Markaziy Osiyoda ko'ch-manchilikka asoslangan turmush tarzi inqirozga uchrayotgani, u o'troqlik turmush tarzi qaror topayotgani, sug'oriladigan dshqonchilik hamda chorvachilik, hunarmandchilik keng taraqqiy yetayotgani, yangi shaharlar, qishloqlar bunyod bo'laytganligi, utroqlik turmush tarzi har jihatdan afzal kurinishi bilan ham xarakterli edi. Sundhay turmush tarzini barqaror qilish, odamlarga, xalqlarga g'oyatda kulfat keltirayotgan hamda aksariyat bosqinchilik tusini olgan kuchmanchilikka qarshi kurash habiy ehtiyojga aylangan edi. Bu ehtiyojni hammadan ko'p anglab yetgan donishmand Zardusht bo'ldi. U inqirozdan qutulish, xalqlar, qabilalarni birlashtirib, yagona davlatchilikka erishishning birdan-bir yo'li — bu yakkaxudochilikka o'tishdan iborat deb bildi va butun ongli faoliyatini, hayotini ana shu muqaddas ishga bag'ishladi, shu muqaddas maqsad yo'lidagi kurashda halok buldi.

Yagona xudoga ishonishgina jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tara oladi, deb hisoblardi Zardusht. Zardushtiylikning vatani Markaziy Osiyodir. Bu faktning tug'riligini bu dinning muqaddas kitobi - «Avesto» ham isbotlaydi. Chunonchi, bu dinning muqaddas kitobi — «Avesto»da yakkayu-yagona xudo Axuramazda yaratgan 16 mamlakatdan 9 tasining nomi Janubi-G'arbiy va Markaziy Osiyodagi viloyat va shaharlardir. 2 tasi afsonaviy bo'lsa, qolgan 5 tasi Hindiston, Ozarbayjon va Armaniston hududlariga to'g'ri keladi.

**«Avesto- zardushtiylik dinining muqaddas kitobi.** Axuramazdaning rasmiy tus olishiga qadar uning Zardusht orqali vahiy qilingan ilohiy xabarlar Turon va Eron zamini xalqlari orasida asrlar davomida turli diniy marosimlar, duolar, madhlar, sura va oyatlar sifatida yig'ila boshlagan. Bular Zardushtning o'limidan keyin muqaddas kitobga to'plangan va bu kitob «Avesto» deb atalgan (o'rnatilgan, qat'iy qilib belgilangan qonun-qoidalar).

«Avesto» haqida buyuk olim Abu Rayhon Beruniy-ning «O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar» nomli asarida yozib qoldirilgan. Jumladan, bu asardagi quyidagi fikrlar diqqatga sazovordir: «Podshoh Doro ibn Doro xazinasida 12 ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan bir nusxasi bor yedi. Iskandar (A.Makedonskiy) otashxonalarini vayron qilib, ularda xizmat yetuvchilarni o'ldirgan vaqtda uni kuydirib yubordi. Shuning uchun Avestoning beshdan uchi yuqolib ketdi». Binobarin, «Avesto» A.Maksdonskiyning Osiyoga qilgan harbiy yurishlariga qadar mavjud edi. «Avesto» A.Makedonskiy hukmronligi tugagach, miloddan avvalgi 250yilda arshohiyalar davrida yana tiklana boshlagan va yangi matnlar bilan to'ldirilgan. Milodning PT asrida esa sosoniylar podshosi Shopur I davrida kitob holatiga keltirilgan. «Avesto»ning tiklangan kitoblaridan 3 tasi asl tilida, bittasi esa pahlaviy tilida tiklangan.

Ulkaning arab bosqinchilari tomonidan istilo etilishi va Islom dinining tarqalishi natijasida zardushtiylik dini, uning muqaddas kitobi «Avesto» qattiq ta'qibga olingan. Natijada Eron zardushtiyalaridan bir qismi sharqiy o'lkalarga, xususan, Hindistonga ko'chib ketib jon saqlaganlar. Ularning avlodlari hozirgi kunda Hindistonning Bombay va Gujarot viloyatlarida zardushtiylikni saqlab kelayotirlar. Ular forslar (ba'zi adabiyotlarda parsalar) deb ataladi. Ular nafaqat zardushtiylikni, ayni paytda uning muqaddas kitobi «Avesto»ni ham saqlab kelmoqdalar. Biroq, «Avesto» to'la saqlanmagan. Uning 21 kitobidan diniy marosimlar uchun eng zarur deb hisoblangan, odatda, asosan, diniy jamoalarda yod olinadigan qismlarigina saqlangan, xolos.

Biz yuqorida Avestoning tiklangan kitoblari haqida qayd yetib o'tgan edik. Bu tiklangan (4 ta kitob) kitoblarning birinchisi «Vadovdot» (Devlarga qarshi qonun) deb ataladi. U 22 bob bo'lib, asosan Zardusht bilan Axuramazdaning savol-javoblari va muloqotlaridan iborat. Ikkinchi kitob «Yosin» deb ataladi va uning mazmunini asosan Zardushtning xatlari (nomalari) yoki gatlari tashkil etadi. U 72 «Ha», ya'ni bashoratdan iboratdir. Birinchi bashoratda tabiat va halolliklar hukmdori, hamma narsani biladigan va hamma narsaga qodir Axuramazdaning vahiy-lari haqligiga iymon keltirishga doir duolar mavjuddir.

«Avesto»ning uchinchi kitobi «Visporat» deb nomlangan. U 24 bobdan iborat bulib, olamni bilishga doir pand-nasihatlardan iboratdir. Uni ibodat nomozlari yig'indisi ham deyishadi. U ayni paytda «Yosin»ga qo'shimcha hisoblanadi.

To'rtinchi kitob «Bundaxash» deb atalib, u qadimiy eron tilida — pahlaviy tilida yozilgan. U xudoni zolim kuchlarga qarshi kurashda ulug'lovchi o'ziga xos qadimiy qo'shiqlardan iborat, qo'shiqlari 22 tadir. «Avesto» haqida eng muhim manba IX asrga oid «Denkard (Din amallari) asaridir, Unda «Avesto»ning 21 kitobi to'la ta'riflab berilgan. Bu ta'riflar: savobli ishlar yo'riqnomasi; diniy marosimlar va rasm-rusumlar qoidasi; zardushtiylik ta'-limoti asoslari; dunyoning Axuramazda tomonidan yaratilishi; oxirat kuni va undagi hisob-kitob; falakiyot; ijtimoiy-huquqiy qonun-qoidalar; Zardushtning tug'ilishi va bolaligi; haq yo'lini tutishi; jamiyat a'zolarining haq-huquqlari; devlar, jinlar kabi yovuz kuchlarga qarshi o'qiladigan duolar, amallar va boshqalardan iboratdir.

Zardushtiylik dini haqida ingliz olimi Dj. Buger, fransuz olimi A.Dyupperon juda qimmatli ma'lumotlar qoldirgan. Masalan, A.Dyupperon 1755 yilda Hindistonga ilmiy safar qilib, u yerdagi zardushtiyalar orasida 3 yil yashagan, ularning ibodatlari, urf-odatlarini yaxshi o'rgangan va «Avesto»ni fransuz tiliga tarjima qilgan. 3 jildlik tarjima 1771 yilda nashr yetilgan. Ayni paytda shuni ham ta'kidlash joizki, olimlarimizning fikricha, «Avesto» G'arbiy Evropa, Eron va Hindiston tillari orqali bizga yetib kelgani uchun undagi nomlar, terminlar aksariyat hollarda asliga to'g'ri kelmaydi. «Avesto»dagi turkona jihatlar kam qolgan.

**Zardushtiylik ta'-limoti.** Bu dinning ta'limotiga ko'ra, xudo Axuramazda «Oliy ibtido»dir. U hamma mavjudotni yaratuvchi va boshqaruvchi Oliy ruh. Uning na xotini, na farzand-lari bor. Axuramazdaning 6 nafar eng yaqin yordamchisi bo'lgan. Bular — Vohu Manah (ezgu fikr) pada va chorvani boshqargan; Asha Vahishta (yuksak haqiqat) olovni boshqargan; Xshatra Varъya (munosib qudrat, hokimiyat) ma'danlarni boshqargan; Siyenta Armati (muqaddas itoat) erni boshqargan; Xarvatat (salomat-lik) suvlarni boshqargan; Amyeryetat (mangulik) o'simliklar dunyosini boshqargan.

Axuramazda butun mavjudlikning ikki oliy ibtidosi — ezgulik va yovuzlik haqida vahiy qiladi. Bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan bu kuchlar har doim birgalikda mavjud bo'lib, ular hayot va o'lim, osmon va jahannam ma'nolarini anglatadi. Jahannam hayotning eng yomon onlaridir. Osmon esa ruhning eng yuksak holati sifatida gavdalanadi. Borliqdagi yovuzlik va nomukammallik narsalar va hodisalarning mohiyatidan kelib chiqadi. Ularni bartaraf etish esa, istiqboldagi ish bo'lib, imonli kishilar bu jarayonda faollik kursatishga da'vat etiladi. Ular Axuramazda yuborgan qonunlar, tartibotlar, o'git-nasihatlarga amal qilsalar, ezgulik, yovuzlik ustidan tantana qilib boraveradi.

Olam qarama-qarshilik kurashi asosida qurilgan. Bu hol jismoniy narsalarda yorug'lik va zulmat; tirik tabiatda hayot va o'lim; ma'naviy olamda ezgulik va yovuzlik; ijtimoiy hayotda esa adolatli qonunlar bilan qonunsizliklar o'rtasidagi kurashlarda o'z ifodasini topgan, Din ezgulikni qaror toptirish ruhi bilan yovuzlik o'rtasidagi kurashga asoslanadi. Axuramazda ezgulikni vujudga keltiraveradi, yovuzlik ruhi bo'lgan Axriman esa unga qarshi kurashib odamlarni yomon ishlarga boshlayveradi.

Ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi doimiy kurashda oraliq yo'l yo'q, shuning uchun har bir odam bu kurashning u yoki bu tomonida ishtirok etishga majbur. Shuning uchun dindorlikda iymon-e'tiqod barkamollik nishonasi sifatida muhim o'rin tutadi, u

odamlarga ezgulikni yovuzlikdan farqlash imkonini beradi. Iymon-e'tiqodli odam albatta ezgulik tarafida turadi. Zardushtiylik iymoni 3 tayanchga — fikrlar sofligiga; so'zning sobitligiga; amaldorlarning insoniyligiga asoslanadi. Odamlar o'z istaklarida xolis bo'lishlari; bir-birlari bilan murosqa qilib yashashlari; qonunsiz ishlardan uzlarini tiyishlari lozim. Bergan so'zning ustidan chiqish, unga sodiq qolish, savdo-sotiqda shartnomalariga qat'iy rioya qilish, qarzni vaqtida to'lash, aldanchilik va xiyonatdan xoli bo'lish kabilar iymonlilik alomatlaridir.

Zardushtiylik ta'limotida tuproq, suv, havo va olov muqaddaslashtirilgan. Tuproq, suv, havoni bulg'ash, ifloslantirish eng og'ir gunohdir. SHuning uchun ham marhumlar erni, suvni, havoni zaharlab qo'ymasin deb, ularning jasadlari maxsus idishlarda ko'milgan. Yerga yaxshi, soglom urug'lar sepishdan ortiq savob ish yo'q. Ekin ekish yerdagi yovuzliklarga barham berish, demakdir. Zardushtiylik ta'limoticha, bu borliq, dunyo odam uchun sinov maydonidir.

Zardushtiylik ta'limotida Odam Ato haqidagi fikrlar o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. U Iyim nomi bilan atalgan bu dinda. Insoniyat Iyim podsho bo'lgan davrlarda baxt-saodat makonida kasallik va o'lim ko'rmay yashagan. Iyim odamlarni, hayvon va qushlarni parvarishlagan, Yer yuzida qizil shu'lali olovni ko'paytirgan va 900 yil umr kurgan. Axuramazda Iyimga oltin nayza bilan oltin qamchi sovg'a qilgan. Yer odamlar yashashi uchun torlik qilib qolganida, Iyim nayzani erga suqib, xudodan uni kengaytirishni suragan va bunga erishgan. Axuramazda Iyimga muzlik davri kelayotganining xabarini bergan va bu ofatning oldini olishni aytgan. Iyim maxsus uy qurib, hamma hayvon va usimliklarning eng yaxshi: zoti hamda navidan bir juftdan saqlab qolgan.

Iyim qanchalik jasorat ko'rsatmasin, u o'z imkoniyatlariga ortiqcha baho beradi, mag'rurlanib ketadi: va xudo man etgan ne'mat — qoramol go'shtini yeb quyadi. Oqibatda u xudoning qarg'ishiga uchraydi, endi odamzot abadiylikdan mahrum bo'ladi. Endi odamzot tiriklik tavshishlariga, ya'ni yeb-ichish zaruriyatiga, kasallik va o'limga yuzma-yuz bo'ladi. Axriman Axuramazda tanidan ajralib chiqib yovuzliklar yaratishga tutinadi. Endi odamzot hayotining birinchi davri tugab, ikkinchi davri boshlanadi. Bu davrda dunyo azaliy ezgulik bag'riga qaytarilishi uchun kurash boshlanadi. Dunyoni azaliy ezgulik bag'riga qaytarishning birdan-bir yo'li esa pok hayot; halol mehnat; yaratuvchanlik; yovuzlikni qalbdan chiqarib tashlash; iymonli-e'tiqodli bo'lish; miskinlarga yordam berish; yaxshi niyat va yaxshi so'zdir. Ikkinchi davr Zardusht faoliyati va uning diniy islohoti bilan bog'liq bo'lib, u din va iymon uchun beomon kurashdan iboratdir. 3000 yillik kurashdan so'ng Zardusht farzandi boshchiligida dunyoda osoyishtalik va farovonlik davri yuzaga keladi, yovuzlik timsoli bo'lgan dev — Axriman yengiladi.

Uchinchi davrda qiyomat-qoyim boshlanadi va uliklar tirilib, xudo huzuriga o'z qilmishlari haqida hisob bergani borishadi. Hamma ishlardan xabardor bulgan va hisob-kitob qilgan xudoni aldab bo'lmaydi. Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, odam o'lganidan so'ng, uning joni 3 kun davomida tanada turadi, 4-kuni o'z mahrami — go'zal qiz qiyofasidagi farishta yo'l boshchiligida narigi dunyodagi «Chinvot» (qil ko'prik) degan ko'prikdan o'tishi kerak. Ezgu ishlar qilgan odamlar uchun bu ko'prik kengaygan holda turadi, ular undan bemalol o'tib, jonlari abadiy rohat-farogatda ketadi va oxiratda, o'liklar tiriladigan kunda o'z tanalariga kirishni kutib yotadilar.

yovuz ishlar bilan shug'ullanganlarga esa «Chinvot» ko'prigi qilday torayadi va ular jahannam azoblariga mahkum bo'ladilar.

Yaxshilar yana o'z tanalaida yashashni davom ettiradilar. Odamlar dunyoga har 3 ming yilda qaytib turadilar. Bugungi kunda Zardushtiylikka e'tiqod qiluvchi aholi Hindistonning Bombay, Gujarot shtatlarida, shuningdek, kam sonli bo'lsada Eronda yashaydi.

## **TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR**

1. Zardushtiylik qanday davrda yuzaga keldi?
2. Zardushtiylikning muqaddas kitobi haqida nimalarni bilasiz?
3. Zardushtiylik ta'limoti asoslari nimalardan iborat?
4. «Avesto» va uning mazmun-mohiyati haqida gapirib bering.
5. Zardushtiylik ta'limoti va «Avesto»ni o'rganish, tadqiq etish qachondan boshlangan?

## **4-mavzu. Buddaviylik dini**

### **Reja:**

1. Buddaviylik ta'limoti. Buddha shaxsi.
2. Buddaviylikning muqaddas manbaalari.
3. Buddaviylikdagi oqimlar. Buddaviylikning bugungi qiyofasi.

### **Buddaviylik ta'limoti. Buddha shaxsi.**

Buddaviylik jahonda keng tarqalgan 4 asosiy dinlarning biri (Zardushtiylik, buddaviylik, nasroniylik va Islom) bo'lib, bu jahon dinining atalishi, uning asoschisi Buddha nomidan olingan. Buddaviylik dinning asoschisi bo'lgan Buddha (sanskritcha "Buddha") nomining ma'nosi "ziyolangan", "oliy haqiqatga erishgan" bo'lib uning asil ismi Sidhasa Gautama bo'lgan ("Nekqadam-xushqadam" degan ma'noni beradi). Laqabi Sidhardtha "dili ravshan" degan ma'noni anglatadi. Adabiyotlarda u Siddhartha Gautama deb tilga olinadi. Buddha Shimoliy Hindistondagi Gang daryosining o'rta oqimi (Nepal yaqinida) joylashgan Kapilavasti mamlakatining hukmdori Shak'ya qabilasidan kelib chiqqan Gautamalar sulolasining davomchisi Shudhodananing valiahdi bo'lgan. Onasi Maya u hali go'dakligidayoq vafot etib ketgan. Buddha miloddan oldingi 623-yilda Kapilavasti mamlakatining Lumbini shahrida (Shimoliy Bengaliya) tug'ilib, 543-yilda 80 yoshida vafot etgan.

Shahzoda Sidhasa (Siddharta) voyaga yetgach, har qanday mavjudlik, hayot azob-uqubatlardan iborat ekan, degan xulosaga kelgan. Otasi uni 16 yoshida shu yoshdagi xolasining qizi Yashodharaga uylantirgan. Siddharta Gautama kishilar boshiga tushadigan kulfatlar sababini o'rganish va ularni bundan qutqarish maqsadida, 29 yoshida oilasini-xotini va o'g'lini qoldirib saroyni tark etadi. Olti yil uzlatga chekinib, tarki dunyo qilib, o'rmonga borib yashaydi va diniy, falsafiy kitoblarni o'qiydi, brahmanlikdan yuz o'girib, yangi ta'limot yaratishga urinadi.

Nihoyat, 35 yoshida unga haqiqat ayon bo'ladi va u bilim nuridan ziyolanadi. Shundan keyin u xalqqa "Haqiqiy bilim" topganini e'lon qiladi va Shak'ya-Muni Buddha (uyg'ongan, nurlangan, haqiqatga-oliy maqomga erishgan) degan nom oladi. Shak'ya-Muni Buddha (Siddharta Gautama) o'zining ta'limotini dastlab Banorasda, keyinchalik umrining oxirigacha-45 yil butun Hindistonda targ'ib qilib yuradi. Buddaviylik tarixi 2500 yildan ortiq davrni o'z ichiga oladi. Unga dastlab brahmanlik va jayniylikning ta'siri kuchli bo'lgan.

Buddaviylar 1956-yili o'z dinlarining 2500 yilligini tantanali nishonlaganlar. Buddaviylik miloddan avvalgi 268-231-yillarda podshoh Ashoka davrida Hindistonning rasmiy diniga aylandi va Shri-Lanka, Indoneziya, Tibet, Xitoy, Koreya, V'etnam, Yaponiya, Tailand, Kambodja, Laos, Nepal, Buryatiya, Qalmoq, Tuva va boshqa Sharq mamlakatlariga tarqaldi. Hozirgi kunda bu dinga 86 mamlakatning 700 million kishisi e'tiqod qiladi.

Budda o'z ta'limotining asosiy qoidalarini "To'rt oliy haqiqat" shaklida bayon etgan. Ular quyidagilardir:

- 1) azob-uqubat mavjud, ya'ni turmush azob uqubatlardan iborat;
- 2) azob-uqubatlarning sababi bo'lgan istak nafs mavjud;

3) azob-uqubatlarning tugashi, ya'ni nirvana mavjud, shuning uchun kishilar, azob-uqubatlardan xalos bo'lishni istasalar, o'zlarining istak, orzu va nafslarini jilovlab olishlari kerak;

4) azob-uqubatlarning tugashiga olib keladigan 8 bosqichli yo'lga amal qilmoq kerak.

Uning shogirdlari yer yuzida birinchi monarxlik jamoasini tashkil etganlar. Uni qadimgi hind an'analariga ko'ra, Buddaning jasadini o'tda kuydirganlar. Buddaviylik dinining muqaddas kitobi - "Tripitaka" (Uch savat donolik) deb ataladi. Rivoyatlarga ko'ra, Siddharta uch savat ta'limot qoldirgan. Bular:

1) Vinoyatika (ahloqiy normalar);

2) Suttapitaka (duolar);

3) Abxidxammavitakka (diniy-falsafiy masalalar bayoni)lardir.

Buddaning izdoshlari yer yuzida rohiblik jamoasi bo'lmish "Sangha"ni tashkil etganlar. O'tgan asrlarda Sangha "Oliy haqiqatga" erishgan ko'plab avliyolar jamoasi bo'lgan. Sangha jamoasiga qabul qilingan shaxs quyidagi 10 farzni ado etishga qasamyod qiladi:

1) hech kimni, hech narsani hayotdan judo qilmaslik;

2) yolg'on so'zlamaslik, vaysaqilik qilmaslik, vaysaqilik jahondagi barcha dinlarda qoralanadi va man etiladi;

3) o'g'irlik va birovning haqiga xiyonat qilmaslik;

4) jinsiy aloqa qilmaslik, uylanmaslik;

5) mast qiluvchi ichimliklar ichmaslik;

6) kunning ikkinchi yarmidan to ertangi sahargacha ovqatlanmaslik;

7) uch kiyimdan ortiq hech narsa bilan bezanmaslik;

8) ommaviy ko'ngilxushliklarda ishtirok etmaslik va tomoshabin sifatida hamqatnashmaslik;

9) baland va yumshoq o'rinda yotmaslik;

10) pul ishlatmaslik .

Buddaviylik ta'limoti mohiyatan barcha jonli narsalarga muhabbat bilan qarashni, aql farmoniga bo'ysunishni targ'ib qiladi. Hozirgi buddaviylar ham, ularning ko'z oldida biron-bir kishi biron-bir jonivorni o'ldirsa yoki birorta katta daraxtni kesib tashlasa, qattiq g'azablanishadi. Buddha Xudo-Halloqning mavjudligini hamda Vedalar dinini inkor etadi. U ko'pxudolikka, ularga har xil qurbonliklar qilish kabi ortiqcha keraksiz serdahmaza marosimlarga ham qarshi bo'lgan. Buddha azob-uqubatlar mutlaqo tugamaydigan narsa, Borliqning barcha ko'rinishlarini, mohiyatini, har qanday hayotni turgan bitgani azob-uqubat deb hisoblaydi.

Jannat to'g'risidagi ta'limoti oddiy dindorlar uchun nirvanaga qaraganda ancha tushunarli va jozibador edi. Maxayana tarafdorlari xudosiz yoki xudolarsiz din xalq ommasiga tushunarsiz bo'lishini aniq hisobga ola bilganlar. Buddaviylik dastavval xudosiz din edi. Shuning uchun ham ular buddaviylik asoschisi - Gautama-Buddani xudo deb e'lon qilganlar. Shunday qilib, maxayanachilar uchun Gautama - Buddha donishmand ustozdan xudoga aylangan. Asta-sekin Buddaga sig'inish qaror topgan. Buddaning ulkan tasviri tushirilgan ibodatxonalar qurilgan. Ammo Gautama yagona Buddha emas. Bunday Buddalar Maxayanada 1000 tadir. Ularning Siddharta, ya'ni buddaviylikning asoschisi; Mautreya - kelajak Buddasi, u kelgusida dunyoni boshqarayotgan hozirgi Buddaning hukmdori.

Maxayaning hozirgi davrdagi eng muhim ko'rinishi - bu lamaizmdir. Tibet, Mongoliya, Xitoy, Nepal, Hindistonning ayrim joylarida, shuningdek, Buryatiya, Qalmaq, Tuva respublikalarida ham keng tarqalgan. Lamaizm XIV asrning oxiri XV asrning boshlarida Tibetda vujudga kelgan (tibetcha "lama" - eng ulug', oily budda rohibi, rohib). Buddaviylikning barcha aqidalarini qabul qilgan lamaizmda inson faqat lamalar yordamida najot topadi, gunohlardan poklanadi, lamalarsiz oddiy bandalar jannatga tushib nirvanaga yetishish u yoqda tursin, shunchaki bu dunyoga qayta kelishda ham hech narsaga erisha olmaydilar.

Buddaviylik dinining o'ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat:

1. Har oyda 2 marta "Tiyilish marosimi"ni o'tkazadilar. Marosimda buddaviylik aqidalari takrorlanadi. Shuningdek, rohiblar lunyoviy odamlar ustidan suv sepadilar ular esa yerga suv sepadilar.
2. Boshqa dinlarda jamoaviy ibodat keng tarqalgan bo'lsa buddaviylikda yakka ibodat ma'qullanadi.
3. Buddaviy rohib va rohibalar turmush qurishmaydi.

#### **Adabiyotlar.**

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2008 y.
2. Karimov I. A. "Inson huquqlari va erkinliklari eng oily qadriyat" Toshkent "O'zbekiston" nashriyoti 2007 yil.
3. Karimov I. A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. T.: "O'zbekiston", 1999.
4. Токерев С. Религия в истории народов мира. М.: 1965.
5. N. F Nizomiddinov "Sharqiy Osiyo diniy falsafiy ta'limotlari va islom" Toshkent. "Zarqalam" nashriyoti 2006 yil
6. Радугин А.А. Введение в религоведение. М. 1996 год.
7. Jo'rayev U., Saidjonov I. Dunyo dinlari tarixi. Toshkent, 1998 yil.
8. Мен А. История религии. М., 1994 год.
9. Основы религиоведения. Учебные пособие для студентов высших учебных заведений под общ. Ред. И.Н.Яблокова. М., 1995 год.
10. Религиозные традиции мира. Буддизм, иудаизм, христианство ислам. Справочник школьника. Бишкек.1997.



## 5-mavzu. Xristianlik dini

### Reja:

Xristianlikni keltirib chiqargan tarixiy sharoit.

Xristianlikning asosiy aqidalari va ta'limoti.

3. Xristianlikning asosiy oqimlari.

**Xristianlik dini paydo bo'lishi.** Xristianlik dini buddizm va islom dinlari qatorida jahonda eng keng tarqalgan dinlardan biri hisoblanadi. Ularning miqdori boshqa dinlarga qaraganda eng ko'p bo'lib, bu ko'rsatkich dunyo aholisining deyarli uchdan birini (taqriban 28 %) tashkil etadi. Xristianlik, asosan, Yevropa, Amerika, Avstraliya qit'alarida hamda qisman Afrika va Osiyo qit'alarida tarqalgan.

Xristianlik milodning boshida Rim imperiyasining sharqiy qismida joylashgan Falastin yerlarida vujudga keldi. Iso Masih (Iisus Xristos), Bibliyaning xabar berishiga ko'ra, xristianlik ta'limotining asoschisi bo'lib, u Rim imperiyasi tashkil topganining 747 yili Falastinning Nazaret qishlog'ida bokira qiz Maryamdan Xudoning amri bilan dunyoga keldi. Yangi eraning boshlanishi ham Iso Masihning dunyoga kelishi bilan bog'liq.

Milodning boshlarida yahudiylar hokimiyatning uch tabaqasi bilan bog'liq og'ir tushkunlikni boshdan kechirar edilar. Bir tomondan Rim imperatori va uning joylardagi noiblari, ikkinchi tomondan Falastin podshohi Irod Antipa, uchinchi tomondan esa ruhoniylar xalqni turli soliqlar va majburiyatlar bilan ko'mib tashlagan edilar. Xuddi shu davrda yahudiylar o'rtasida kutilayotgan xaloskorning kelishi yaqinlashib qolganligi haqida xabar tarqatuvchilar paydo bo'ldi. Ular xalqni kutilayotgan xaloskor kelishiga tayyorlash uchun chiqqan edilar. Shunda Iso Masih yahudiylikni isloh qilish va uni turli xurofotlardan tozalash g'oyasi bilan chiqib, xristian diniga asos soldi. Yahudiylar uni va uning izdoshlarini Falastindan quvg'in qildilar. Isoning 33 yoshida fitnachilikda ayblab, qatl etishga hukm qildilar.

Isoning tarixiy xususida diniy va diniy bo'lmagan manbalar orasida ixtilof mavjud: xristian manbalarida Isoning o'zi xudo bo'la turib, insoniyatning gunohlarini o'ziga olish uchun odam qiyofasida tug'ilgani, uning hayot tarzi, insonlar bilan muloqoti haqidagi ma'lumotlar qayd etilsa-da, diniy bo'lmagan manbalarda Iso nomi uchramaganligini nazarda tutib, u tarixiy emas, balki afsonaviy shaxs deb hisoblovchilar ham bor. Iso nomiga qo'shiluvchi "Masih" so'zi qadimiy yahudiy tili – *ivrit*dagi *meshiax* so'zidan olingan bo'lib, «silangan» yoki «siylangan» ma'nolarini beradi. Yunon tilida bu so'z «xristos» shakliga ega. Bu dinning «xristianlik» yoki «masihiylik» deb atalishi ham shu so'zlar bilan bog'liq. Bundan tashqari xristianlikni Iso Masihning tug'ilgan qishlog'i – «Nazaret» bilan bog'lab, *nazroniya* deb ham ataganlar. Keyinchalik bu nom *nasroniya* shaklini olgan.

Iso Masih o'z ta'limotini o'zining 12 o'quvchisi apostollar – havoriylarga o'rgatdi. Ular esa Isoning vafotidan keyin ustozlarining ta'limotlarini har birlari alohida-alohida tarzda kitob shakliga keltirdilar. Bu kitoblar Bibliyaning «Yangi Ahd» qismini tashkil etadi.

**Xristianlik ta'limoti.** Manbalarning xabar berishicha, xristianlik yahudiy muhitida yuzaga kelgan. Shu bois yahudiylikning xristianlikning shakllanishida yaxudiylikning ta'siri salmoqli bo'lgani, shubhasiz. Xristianlikning asosiy g'oyasi – Isoning odamzodning xaloskori «messiya» ekanligi yahudiylikda mavjud bo'lib, oxiratga yaqin kelishi kutilayotgan xaloskor haqidagi ta'limotdan kelib chiqqandir. Keyinchalik bu ta'limot Xudoning mujassamlanishi yoki Isoning ikki xil – odam va xudo mohiyati haqida «gunohni yuvish», ya'ni Isoning o'zini ixtiyoriy tarzda qurbon qilishi haqidagi ta'limot bilan mustahkamlanadi. Xristianlik Ota-Xudo, o'g'il-Xudo va Muqaddas Ruh – Uch yuzlik Xudo (Trinity) to'g'risidagi ta'limotni, jannat va do'zax, oxirat, Isoning qaytishi haqidagi va boshqa aqidalarni o'z ichiga oladi.

Xristian jamoasining shakllanishi, aqidalarining tartibga solinishi, cherkov munosabatlarining ishlab chiqilishi, diniy tabaqalar tuzumining vujudga kelishi milodning IV asr boshlarida, ya'ni 324 yili xristianlik Rim imperiyasida davlat dini deb e'lon qilinganidan so'ng amalga oshirildi. 325 yili tarixda birinchi marta Rim imperatori Litsiniya imperiya hududidagi xristian jamoalarini o'zaro kelishtirish va tartibga solish maqsadida Nikeya shahrida I Butun Olam Xristian Soborini (o'tkazilgan 21 sobordan birinchisi) chaqirdi. Bu soborda «e'tiqod timsoli»ning (Credo) dastlabki tahriri qabul qilingan, *pasxani* bayram qilish vaqti belgilangan, *ariychilik* qoralangan (Ariy Aleksandriya shahridan chiqqan ruhoni; 318 yilda o'g'il-Xudo va Ota-Xudoning yagona mohiyati haqidagi cherkov ta'limotiga qarshi chiqib, Isoning ilohiy xususiyatlari va shon shuhrati jihatidan Ota-Xudodan keyin turadi, chunki ota-xudo azaliy va abadiy, Isoni u yaratgan deb targ'ib qilgan). 20 ta kanon, jumladan, Aleksandriya, Rim, Antioxiya, Quddus, mitropolitlarining imtiyozlari to'g'risidagi qoidani ishlab chiqqan. 381 yili Konstantinopolda II Butun Olam Xristian Sobori bo'lib o'tdi. Bu soborda Nikeyada qabul qilingan «e'tiqod timsoli»ga aniqlik kiritish, ariychilar, yevnomiychilar, fotinianlar, savelianlar kabi adashgan firqalar bilan kurashish masalalari ko'rilgan. II Jahon sobori *troitsa* (Trinity) haqidagi qoidani ishlab chiqqan va «e'tiqod timsoli»ni qonunlashtirgan. Konstantinopol patriarxi Rim patriarxi kabi barcha boshqa yepiskoplarga nisbatan imtiyozlarga ega degan qoidani kiritgan. Bu soborda qabul qilingan «e'tiqod timsoli» 12 qismda ifodalandi:

1. birinchi qismda olamni yaratgan Xudo haqida;
2. ikkinchi qismda nasroniylikda Xudoning o'g'li hisoblangan Iisus xristosga imon keltirish haqida;
3. uchinchi qismda ilohiy mujassamlashuv haqida so'z yuritilib, unga ko'ra, Iso Xudo bo'la turib, bokira Bibi Maryamdan tug'ilgan va inson qiyofasiga kirganligi haqida;
4. to'rtinchi qismda Isoning azob-uqubatlari va o'limi haqida so'z ketadi. Bu gunohlarning kechirilishi haqidagi aqidadir. Bunda Isoning tortgan azoblari va o'limi tufayli Xudo tomonidan insoniyatning barcha gunohlari kechiriladi deb e'tiqod qilinishi haqida;
5. beshinchi qismda Isoning xochga mixlanganidan so'ng uch kun o'tib qayta tirilganligi haqida;
6. oltinchi qismda Isoning me'roji haqida;
7. yettinchi qismda Isoning nuzuli (ikkinchi marotaba yerga qaytishi) haqida;
8. sakkizinchi qism: Muqaddas Ruhga imon keltirmoq borasida;

9. to'qqizinchi qism: cherkovga munosabat haqida;
10. o'ninchi qismda cho'qintirishning gunohlardan forig' qilishi haqida;
11. o'n birinchi qism o'lganlarning ommaviy tirilishi haqida;
12. o'n ikkinchi qismda abadiy hayot haqida so'z yuritiladi.
13. xristianlikning bundan keyingi falsafiy va nazariy rivojida avliyo Avgustinning ta'limoti katta ahamiyat kasb etdi. Beshinchi asr bo'sag'asida u dinning bilimdan afzal ekanligini targ'ib qila boshladi. Uning ta'limotiga ko'ra, borliq inson aqli bilishga ojizlik qiladigan hodisadir, chunki uning ortida ulug' va qudratli Yaratuvchining irodasi yashiringan.

Avgustinning taqdir haqidagi ta'limotida aytilishicha, Xudoga imon keltirgan har bir kishi najot topganlar safidan o'rin egallashi mumkin, chunki imon taqdir taqozosidir.

**Xristianlikdagi oqimlar.** Xristian cherkovining Katolik va Pravoslav (ortodoks) cherkovlariga ajralib ketishi Rim papasi va Istambul patriarxining xristian olamida yetakchilik uchun olib borgan raqobati oqibatida vujudga keldi. Ajralish jarayoni Rim imperiyasining g'arbiy va sharqiy tafovutlari o'sib chuqurlashib borayotgan asrlardayoq boshlangan edi. 867 yillar orasida Papa Nikolay va Istambul patriarxi Fetiy orasida uzil-kesil ajralish ro'y berdi va bu ajralish 1054 yili rasman tan olindi. XVI asr boshlarida katolitsizmdan bir necha Yevropa cherkovlari ajralib chiqishi natijasida xristianlikda protestantlik harakati vujudga keldi. Buning davrasida lyuteranlik, bapizm, anglikanlik va kalvinizm cherkovlari shakllandi. Bular bir cherkovning asosiy marosimlari jihatidan o'zlariga xos bo'lgan tomonlarga ega bo'lishi bilan bir qatorda, bir necha yo'nalishlar, mazhablar va oqimlarga bo'lindi.

**Pravoslav (Ortodoks) oqimi.** Pravoslav oqimi xristianlikning uch asosiy yo'nalishidan biri o'laroq, tarixan uning sharqiy shohobchasi sifatida shakllandi. Bu oqim, asosan, Sharqiy Yevropa, Yaqin Sharq va Bolqon mamlakatlarida tarqalgan. Pravoslav atamasi yunoncha ortodoksiya so'zidan olingan bo'lib, ilk davr xristian yozuvchilari asarlarida uchraydi. Pravoslaviyaning kitobiy asoslari Vizantiyada shakllandi, chunki bu yo'nalish u yerdagi hukmron din edi.

Muqaddas kitob bo'lmish Injil va muqaddas o'gitlar IV-VIII asrlardagi yetti butxona soborlarining qarorlari, shuningdek, Afanasiy Aleksandriyskiy, Vasiliy Velikiy, Grigoriy Bogoslov, Ioann Damaskin, Ioann Zlatoust kabi yirik cherkov xodimlarining asarlari ushbu oqim ta'limotining asosi deb tan olingan.

Xristianlikning Sharqiy tarmog'i bo'lmish pravoslaviyaning rivojlanishi jarayonida 15 mustaqil (avtokefal) cherkov: Konstantinopol, Aleksandriya, Antioxiya, Quddus, Gruzin, Serb, Rumin, Bolgar, Kipr, Ellada, Alban, Polyak, Chexiya, Slovakiya, Rus va Amerika cherkovlari vujudga keldi. Bu cherkovlardan eng kattasi Rus pravoslav cherkovi (RPCH, boshqa rasmiy nomi Moskva patriarxati) bo'lib, unga 19 ming cherkov va 127 yeparxiya birlashgan. Bulardan 150 dan ortiq cherkov va 5 yeparxiya chet elda faoliyat olib boradi. Pravoslav oqimida sirli rasm-rusumlar muhim o'rin egallaydi. Cherkov ta'limotiga ko'ra, bunday paytlarda Xudo tomonidan dindorlarga alohida savoblar nozil bo'ladi.

**Cho'qintirish sirli hodisasi (tainstvo).** Bunda dindor o'z tanasini uch marta suvga botirishi, Xudo-Otani, o'g'ilni va Muqaddas ruhni chaqirishi bilan ruhiy tug'ilishni kasb etadi.

**Badanga miro surkash** ham sirli bo'lib, bunda dindorga Muqaddas ruhning ruhiy hayotga qaytaruvchi va chiniqtiruvchi ehsonlari ulashiladi.

**Poklanishning sirliligi.** Unda dindor non va vino ko'rinishida o'z badanida Iso qonini abadiy hayotga tayyorlaydi.

**Nadomatning sirliligi** shundaki, dindor o'z gunohlarini din peshvosi oldida tan oladi, din peshvosi esa uning gunohlarini Iso nomidan kechiradi.

**Ruhoniylikning sirliligi** u yoki bu shaxsni ruhoniy darajasiga ko'tarish uchun yepiskopning qo'lini o'sha shaxs badaniga tegizishi (yoki qo'yishi) orqali amalga oshiriladi.

**Nikohning sirliligi.** Bunda kelin-kuyov turmush qurish, farzand ko'rish va uni tarbiyalashga oq fотиha oladilar.

**Badanni yeley bilan ishqalash sirida** Xudoning ruhiy va jismoniy zaifliklarni tuzatuvchi lutfu marhamatidan umid qilinadi.

Pravoslav cherkovi bayramlar va diniy marosimlarga alohida ahamiyat beradi. Pasxadan so'ng pravoslav dinining o'n ikki kunlik o'n ikki muhim bayrami boshlanadi. Ular:

1. Bibi Maryamning tug'ilishi (*Rojdestvo Bojъey materi*);
2. Isoning xochini tiklash (*Vozdvijenie kresta Gospodnya*);
3. Bibi Maryamning ibodatxonaga kirishi (*Vvedenie vo xram Presvyatoy Bogoroditsy*);
4. Isoning tug'ilishi (*Rojdestvo Xristovo*);
5. Isoni cho'qintirish (*Kreщenie Gospodnya*);
6. Olqishlash (*Sretenie*);
7. Xushxabarning nozil bo'lishi (*Blagovещanie*);
8. Isoning Quddusga kirishi (*Vxod Gospodnya v Ierusalim*) – pasxa postidan 6 haftadan keyingi yakshanba;
9. Isoning qayta tirilishi (*Voskresenъe Xristovo*) – Pasxa, bahorgi kecha va kunduz tengligi va oy to'lishgan birinchi yakshanba;
10. Isoning osmonga ko'tarilishi (*Voznesenie Iisusa*) – Pasxadan 39 kun keyin;
11. Muqaddas Ruhning tushishi (*Soshestvie svyatogo duxa–Troitsin Denъ*);
12. Iso qiyofasining o'zgarishi (*Preobrajenie*) – 6 avgustda.

Cherkov yili eski hisobga muvofiq 1 sentyabrdan boshlanadi. 8 sentyabr kuni «*Rojdestvo Bojъey materi*» bayrami o'tkaziladi. 12 sentyabr kuni «*Vozdvijenie kresta Gospodnya*» bayrami nishonlanadi. Bu bayram imperator Irakliy davrida Iso krestining forslar tutqunidan qaytarib olib kelinishiga bag'ishlanadi. 21 noyabr kuni «*Vvedenie vo xram Presvyatoy Bogoroditsy*» bayrami o'tkaziladi. Bu bayram uch yoshli Maryamning birinchi ruhoniy tomonidan Qadimiy Ahd ibodatxonasiga olib kirilganligiga bag'ishlanadi. Ibodatxonaga kirish bayramidan bir hafta oldin, yaъni 15 noyabrda *Rojdestvo* posti boshlanadi. Va nihoyat, 20 dekabrda *Rojdestvo* bayrami kiradi va 31 yanvargacha davom etadi.

Isoning cho'qintirilishi (*Kreщenie Gospodnya*) bayrami 6 yanvarda nishonlanadi. Bu bayram Isoning Yah'yo tomonidan cho'qintirilishiga bag'ishlanadi. Navbatdagi yana bir yirik bayram *Sretenie* (olqishlash, kutib olish) bayramidir. Bu bayram Iso tug'ilgach, avliyo Simeon tomonidan uni kutib olinishiga bag'ishlanadi.

Buyuk bayramlar ichida Pasxa birinchi o'rinda turadi. Pasxa – Isoning o'lganidan so'ng qayta tirilganini nishonlab o'tkaziladigan bayram. Pasxaning tarixi yahudiylikdagi peysax bayrami bilan bog'liq bo'lib, u yahudiylarning Misrdan qochib chiqishi va ozodlikka erishishining nishonlanishidir. Xristianlik yahudiylikdan to'la ajralib chiqqach Pasxa yangicha tus olgan.

Yuqorida sanab o'tilgan bayramlar oldidan ularga tayyorgalik sifatida turli muddatli postlar o'tkaziladi. Postning mohiyati inson ruhini tozalash va yangilash, diniy hayotning muhim voqealariga tayyorgarlikdan iborat. Rus Pravoslavining ko'p kunlik postlari (ro'zalari) bo'lib, ular to'rtta: Pasxa oldidan, Pyotr va Pavel kuni oldidan, Bogoroditsa uyqusidan oldin va Iso tug'ilgan kundan oldin bo'ladigan postlar. Pasxa oldidan bo'ladigan «Velikiy post» 40 kunga cho'ziladi. Ushbu post davrida – eski hisob bo'yicha 25 martda «Blagoveshenie» bayrami o'tkaziladi. Post boshlanishidan olti hafta o'tgach yakshanba kuni xristianlikning o'n ikkinchi bayrami yoki 8-bayram «Xudoning Quddusga kirishi» nishonlanadi.

**Pravoslav oqimidagi diniy mansablar.** Pravoslav oqimidagi diniy mansablar. Pravoslav cherkovida ruhoniylar uch tabaqaga bo'linadi: 1) diakon, 2) ruhoni (svyashennik), 3) yepiskop.

Diakon (grek. "xizmatchi") ruhoniylarning eng quyi tabaqasi hisoblanadi. U mustaqil hech qanday ibodatni boshqara olmaydi, balki faqatgina ruhoni yoki yepiskopga ibodat marosimini o'tkazishda yordam bera oladi, xolos. Uni ruhoniylar sirliligiga (tainstvo) yepiskop qabul qiladi. Katta diakonlar protodiakon, rohib diakonlar ierodiakon, katta ierodiakonlar arxidiakon deb ataladi.

Ruhoni (svyashennik) yoki ierey pravoslav ruhoniyligining ikkinchi tabaqasi hisoblanadi. U boshqalarni ruhoniylikka bag'ishlash va cherkov suvini muqaddaslashtirishdan boshqa barcha sirli marosimlarni bajara oladi. Kichik ruhoniylar ierey, katta ruhoniylar protoierey va eng katta ruhoniylar protopresviter deb nomlanadi.

Yepiskop yoki arxierey ruhoniylarning eng oliy unvoni hisoblanadi. Yepiskoplar barcha ibodat va sirli marosimlarni bajara oladilar. Shuningdek, ular ma'lum bir shahar, oblast cherkovi yoki yeparxiyani boshqara oladilar. Nisbatan kattaroq yepiskoplar arxiepiskop deyiladi. Poytaxt shaharlarning yepiskoplari mitropolit deb ataladi. Pravoslav cherkovining eng oliy mansabi patriarxdir.

**Katolik oqimi** Xristianlikning yirik yo'nalishlaridan biri katolik oqimidir. U Yevropa, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida tarqalgan bo'lib, muxlislari taxminan 800 mln. kishini tashkil etadi. Katolitsizm "umumiy, dunyoviy" degan ma'nolarni ifodalaydi. Uning manbai – uncha katta bo'lmagan Rim Xristian jamoasi bo'lib, rivoyatlarga ko'ra uning birinchi Yepiskopi apostol Petr bo'lgan. Katolik diniy ta'limotning asosini Muqaddas kitob va Muqaddas yozuvlar tashkil qiladi. Biroq pravoslav cherkovidan farqli o'laroq katolik cherkovi Muqaddas yozuvlar deb nafaqat avvalgi yetti Butun Olam Xristian Soborlarining qarorlarini, balki hozirgacha bo'lib o'tgan barcha Soborlar qarorlarini, bundan tashqari Papaning maktublari va qarorlarini ham hisoblaydi.

Katolitsizmda Bibliyani sharhlash huquqi faqatgina ruhoniylarga beriladi, chunki ular uylanmaslik – *tselibat* haqidagi diniy talabga amal qiladilar. Diniy ibodatlar dabdabali va soxtalashtirilgan ko'rinishga ega, diniy o'qish, duo, iltijolar

lotin tilida olib boriladi. Pravoslaviyadagi kabi katolitsizm ham farishta, ikona, ilohiy kuch, chirimaydigan marhum jasadlariga sig'inish odatlari mavjuddir.

Katolitsizm xristianlikning yo'nalishlaridan biri sifatida uning asosiy aqida va qoidalarini tan oladi, biroq diniy ta'limot, sig'inish va tashkiliy masalalarda bir qator xususiyatlar bilan ajralib turadi.

Katolik cherkovi tashkiloti qat'iy markazlashuv bilan ajralib turadi. Rim papasi bu cherkovning boshlig'i bo'lib, u diniy axloq masalalariga oid qonun-qoidalarni belgilaydi. Uning hokimiyati dunyoviy soborlar hokimiyatidan yuqori turadi.

Katolik cherkovining markazlashuvi, jumladan, diniy ta'limotni noan'anaviy tahlil qilish (sharhlash) huquqida aks etgan dogmatik taraqqiyot tamoyilini keltirib chiqaradi. Masalan, pravoslav cherkovi tomonidan tan olingan diniy ramzda ta'kidlanishicha, Muqaddas Ruh Ota Xudodan kelib chiqadi. Katolik aqidasi ko'ra esa, Muqaddas Ruh Ota Xudodan va O'g'il Xudodan kelib chiqadi. Cherkovning najot borasidagi roli haqida ham o'ziga xos alohida ta'limot shakllangan. Najotning asosi iymon va xayrli ishlar hisoblanadi. Cherkov, katolik ta'limotiga ko'ra, xayrli zaruriy ishlar xazinasiga – Iso tomonidan yaratilgan «Xayrli ishlar zahirasiga» ega.

Cherkov Iso, Bibi Maryam, Muqaddas Ruh nomidan bu xazinani tasarruf qilish, undan muhtojlarga ulashish, ya'ni gunohlarni avf etish, nadomat chekuvchilarga kechirim tufha qilish huquqiga ega. Pul yoki tufha evaziga avf qilish huquqiga ega. Pul evaziga yoki cherkov oldidagi xizmatlari uchun gunohlarini kechirish – *indulbentsiya* haqidagi ta'limot mana shundan kelib chiqqan.

*A'rof* haqidagi (do'zax va jannat oralig'idagi mavze) aqida faqat katolik ta'limotida mavjud. Gunohi katta bo'lmagan gunohkorlarning ruhi u yerda o'tda kuyadi (ehtimol, bu vijdon va nadomat azobining ramziy in'ikosidir), keyin jannatga yo'l topadi. Ruhning a'rofdan bo'lish muddati xayrli ishlar tufayli qisqartirilishi (ibodat va cherkov foydasiga xayr-ehson qilish bilan) mumkin. Bu ibodat va xayr-ehsonlar o'lganlar xotirasiga yaqinlar tomonidan qilinadi.

*A'rof* haqidagi ta'limot I asrdayoq paydo bo'lgan edi. Pravoslav va protestant cherkovlari a'rof haqidagi ta'limotni rad etadi. Bundan tashqari pravoslav dini ta'limotidan farqli o'laroq, katolik yo'nalishida papaning begunohligi haqidagi aqida ham bor. Bu aqida 1870 yildagi birinchi Vatikan soborida qabul qilingan. G'arb cherkovining Bogoroditsaga nisbatan alohida e'tibori 1950 yilda papa Piy XII tomonidan kiritilgan Bibi Maryamning me'roji haqidagi aqidada o'z aksini topdi. Katolik ta'limoti pravoslav ta'limoti kabi yetti asrorni tan oladi, biroq bu asrorlarning talqin qilinishida qarashlar mos kelmaydi. Masalan, *pricheshenie* (tamaddi) qilish qattiq non bilan (pravoslaviyada bo'ktirilgan non bilan) dunyoviy (*miryane*)larga non va vino bilan, shuningdek, faqat non bilan amalga oshiriladi. Cho'qintirish sirini o'tash paytida suv sepiladi (cho'qintiriluvchiga), muz ostidagi suvga cho'ktirilmaydi. *Miropomazanie* (cho'qinuvchining peshonasiga yeley surkash) yetti-sakkiz yoshlarda amalga oshiriladi, go'dakligida emas. Bunda o'spirin (bola) yana bitta ismga ega bo'ladi. Bunda u o'sha avliyoning qilmishlari va g'oyalarini maqsad qilib qo'yadi. Shunday qilib, bu rusmning ijro etilishi imon mustahkamlanishiga xizmat qilishi zarur.

Pravoslavlarda nikohsizlik rusumini faqat qora ruhoniylar qabul qiladi. Katoliklarda esa nikohsizlik (*tseibat*) Papa Grigoriy VII tomonidan joriy qilingan qoidaga ko'ra barcha ruhoniylar uchun majburiydir.

Din markazi ehromdir. Katolitsizmning muhim elementlari cherkovga qatnovchilar hayotining maishiy asoslarini tartibga soluvchi bayramlar, shuningdek, postlardir. Milodiy post katoliklarda *advent* deb ataladi. U Avliyo Andrey kundan keyingi birinchi yakshanba – 30 noyabrda boshlanadi. Ular uch ibodat bilan: yarim tundagi, ertalabki va kunduzgi ibodat bilan nishonlanib, Bibi Maryamning homilador bo'lishi, Isoning tug'ilishi va dindorning qalbida bo'lishi kabi ramziy ma'noni anglatadi. O'sha kuni ta'zim qilish uchun ehromlarda go'dak Isoning timsoli qo'yilgan belanchaklar o'rnatiladi.

Katolik ierarxiyasida uch darajadagi ruhoniylar bor: *diakon*, *ruhoni* (*kyure*, *pater*, *kendz*), *yepiskop*. Yepiskopni papa tayinlaydi. Papani kardinal kollegiya saylaydi. Bunda umumiy ovozning uchdan ikki qismi plyus 1-ovoz (yashirin ovoz berish yo'li bilan) II Vatikan soborida (1962-1965 yillar) cherkov hayotining barcha jabhalarini yangilash, zamonaviylashtirish jarayoni boshlandi. Bu birinchi navbatda ibodat an'alariga tegishli bo'ldi. Masalan, ibodatni lotin tilida olib borishdan voz kechildi.

**Protestantizm.** Protestantizm tarixi Martin Lyuterdan (1483-1546) boshlanadi. U XVI asrda Yevropada katoliklarga qarshi qaratilgan reformatsiya harakati bilan bog'liq juda ko'p mustaqil cherkovlar va sektalarni o'z ichiga oladi. Protestantizm atamasi «protest» (norozilik) so'zidan kelib chiqqan. Bunday nomni olishiga sabab 1526 yilda Shpeyer reyxstagi nemis lyuterchi knyazlari talabi bilan har bir nemis knyazi o'zi va fuqarosi uchun xohlagan dinni tanlash huquqiga ega ekanligi to'g'risida qaror qabul qildi. Ammo 1529 yilda ikkinchi Shpeyer reyxstagi bu qarorni bekor qildi. Bunga qarshi imperiyaning barcha shaharlari va besh knyazlik norozilik (protest) e'lon qildi.

Protestantizmning ilk shakllari: lyuterchilik, tsvinglichilik, kalvinizm, unitarizm va sotsinchilik, anabaptizm, menochilik va anglikanchilik edi. Keyinroq, «so'nggi protestantizm» shakllari: baptistlar, metodistlar, kvakerlar, adventistlar, Iegova shohidlari, mormonlar yoki «*Oxirat avliyolari*», «*Najot armiyasi*», «*Xristian fani*», pyatidesyatniklar va boshqa diniy oqimlar paydo bo'ldi. Bu oqimlarning ko'pchiligi «diniy uyg'onish», ilk xristianlik va Reformatsiya ideallariga qaytish shiori ostida tashkil topdi. Hozirgi vaqtda protestantizm dunyoning barcha qit'alarida keng tarqalgan. Protestantizmning jahon markazi AQShda, bu yerda baptist, adventist, Iegova shohidlari va boshqalarning qarorgohlari joylashgan. Hozirgi protestantizm integratsiya (birlashish)ga intilmoqda, bu 1948 yilda Jahon cherkovlari kengashining tuzilishida o'z ifodasini topdi.

Protestantizm ilohiyoti xristian mafkurasining bir ko'rinishi sifatida o'z taraqqiyotida muayyan bosqichlardan o'tdi. XVI asr ortodoks ilohiyoti (M. Lyuter, J. Kalvin), XVIII-XIX asrlardagi yangi protestantizm yoki liberalizm ilohiyoti (F. Shleyermaxer, E. Tryolch, A. Garnak), birinchi jahon urushidan keyin paydo bo'lgan dialektik ilohiyot (K. Bart, P. Tillix, R. Bul'tman), Ikkinchi jahon urushidan so'ng tarqalgan radikal yoki «yangi» ilohiyot (D. Bonxeffer va boshqalar) shular jumlasidandir.

Protestantizm xudoning borligi, uning uch qiyofada namoyon bo'lishi, jonning o'lmasligi, jannat va do'zax (katolitsizmdagi a'rofdan tashqari) haqidagi, vahiy va boshqalar to'g'ricidagi umumxristian tasavvurlarini e'tirof etadi. Biroq Lyuter katolik cherkovi bilan aloqani uzib, protestant cherkovining asosiy qoidalarini ishlab chiqdi va uni himoya qildi. Bu nizomga ko'ra inson Xudo bilan bevosita muloqot qilishi mumkin. Papaning diniy va dunyoviy hokimiyat, katolik dindorlarining imonni va vijdonni inson bilan Xudo o'rtasidagi vositachi sifatida nazorat qilish haqidagi mulohazalariga Lyuterning qarshi chiqishi jamoatchilik tomonidan favqulodda diqqat bilan tinglandi.

Protestantizmning mohiyatiga ko'ra ilohiy lutfu marhamat insonlarga cherkovning ishtirokisiz in'om etiladi. Inson najot topishi uning shaxsiy e'tiqodi va Isoning vositasi orqali ro'y beradi. Avom ruhoniylardan farqlanmaydi, ruhoniylar hamma dindorlarga bir xilda joriy etiladi. Protestantlik diniy marosimlarning ko'pchiligini bekor qildi, faqatgina lyuteranlikda non va vino bilan cho'qintirish saqlanib qoldi.

O'lganlarga bag'ishlangan duo o'qish, aziz-avliyolarga sig'inish, muqaddas murdalarga, sanamlarga topinish bekor qilindi. Ibodat uylari ortiqcha hashamlardan, mehroblardan, sanamlar, haykallardan tozalandi, ruhoniylarning uylanmaslik shartlari bekor qilindi. Ibodatlar faqatgina lotin tilida olib borilishi, Bibliyaning faqatgina ruhoniylar tomonidan sharhlanishi zarurligi shartlari inkor etildi. Bibliya milliy tillarga tarjima qilindi, uni sharhlash har bir xudojo'yning eng muhim burchi bo'lib qoldi. *Asror* (tainstva)lardan faqat cho'qinish va mansublik (cherkovga) e'tirof etiladi. Ibodat va'z-nasihatlar, birgalikdagi ibodat va suralarni kuylashdan iborat bo'ldi.

Lyuter tomonidan tuzilgan Reformatsiya bosh taomillari 95 tezis shaklida yozib berilgan. Ular Vittenberg nasroniy cherkovining shimoliy eshiklariga yozib qo'yilgan. Tezislarning bir nusxasida Iso payg'ambar: «Tavba qiling, chunki samoviy shohlik yaqinlashib qoldi», deb jar solganida shuni ta'kidlaydiki, imon keltirganlar hayoti boshdan-oyoq to'xtovsiz tavba-tazarrudan iborat bo'lmog'i darkor.

Tavba-tazarru ruhoni (avliyo) oldidagi birgina tazarrudan iborat emas. Birinchi to'rt tezisda Lyuter ta'kidlaydiki, haqiqiy tavba uzoq muddatli jarayondir, birgina xatti-harakat bilan ro'yobga chiqmaydi. Bu bilan u katolitsizmdagi «a'rof» va u bilan bog'liq indulgentsiya masalasini rad etadi. Aytadiki, Papa faqat o'zi belgilagan jazoni olib tashlashi mumkin. Cherkov hech qaysi samoviy jazodan insonni ozod qila olmaydi. Tavba-tazarru qonunlari tiriklar uchun joriy qilinadi (belgilanadi). «Ruhlar uchun indultgentsiya olgan shaxslarga tavba-tazarru qilish talab qilinmaydi», degan ta'limot Iso ta'limoti emas. Chindan tavba qilgan kishilarning gunohlarini Xudo kechadi va abadiy azobdan ozod qiladi. Gunohkor papa yorlig'isiz ham bunday mag'firatdan umid qilishi mumkin. Bu yerda va keyingi bir qancha tezislarda papaning a'rof ustidan hukmronligi rad etiladi.

Lyuter bir necha tezislarda ta'kidlaydiki, chindan tavba qilgan, nadomat chekkan xristian «samoviy jazoga shoshilmaydi, ya'ni unga samoviy jazo joriy etilmaydi». Lyuterning ta'kidlashicha, cherkovning haqiqiy xazinasi muqaddas Injil va Xudoning marhamatidir. «Xayrli amallar xazinasi»ning mavjudligi kambag'allar uchun emas, boylar uchun foydalidir, bu xazinalarga papa marhamati bilan emas, o'z amallari



bilan erishuvi mumkin. Bu xil vositalar bilan Xudoning mehrini qozonmoqni Lyuter sarob deb ataydi.

Haqiqiy xristian Isoga ergashish istagi bilan yonmog'i zarur. Najot yo'li ruxsatnoma yorlig'ida emas, balki chin yurakdan nadomat chekmoq va tavba qilmoqdadir. 1517 yili 31 oktyabrda jamoatchilik hukmiga havola qilingan tezislar shundan iborat. Keyinchalik bu kun protestantlar bayrami bo'lib qoldi.

**Kal'vinizm.** Diniy islohotning boshqa bir yirik arbobi Jan Kal'vin (1509-1564) edi. Uning 1536 yilda nashr etilgan «Xristian dinidagi ko'rsatmalar» degan bosh asari, protestantizm ta'limot sifatida shakllanganidan keyin yangi bir diniy yo'nalish – kal'vinizmning asosi bo'lib qoldi.

Dastlabki islohot arboblardan farqli o'laroq Kal'vin uchun diqqat markazi Injil emas, Tavrot bo'lib qoladi. Kal'vin absolyut taqdir haqidagi ta'limotni ishlab chiqdi. Bu ta'limotga ko'ra, barcha odamlar xudoning biz uchun noma'lum bo'lgan irodasiga asosan mag'firat qilinganlar va mahkum etilganlar toifasiga bo'linadi. Inson na imon, na «xayrli ishlar» bilan taqdirga yozilganini o'zgartira olmaydi: mag'firat qilinganlar najotga mahkum, mag'firatdan mahrum bo'lganlar esa abadiy azobga mahkum. Taqdir haqidagi ta'lim shunday asosga qurilganki, Iso ham bizning gunohlarimiz uchun azobu uqubatlarga giriftor qilingan edi. Protestant cherkovining kal'vinistik yo'nalishdagi davomchilari (kal'vinistlar yoki reformatorlar) Shotlandiya, Gollandiya, Shimoliy Germaniya, Frantsiya, Angliyada katta obro' va ta'sirga ega edilar.

**Presviterpanlik.** Presviterianlik kal'vinistik cherkovdan kelib chiqqan bo'lib, (yunoncha eng eski) mo'tadil puritanlardir. 1592 yili Shotlandiya parlamenti bu ta'limotni asosiy mafkura deb hisoblash haqida qaror qabul qilgan. Bu jamoa boshida jamoa a'zolari tomonidan saylangan *presviter* turadi. Jamoalar mahalliy va davlat ittifoqlariga birlashadi. Diniy marosim juda sodda, ibodat paytida va'z aytiladi, birgalashib duolar o'qiladi va diniy qo'shiqlar kuylanadi. Presviterning mav'izasi, oyatlarni kuylashdan iborat. Liturgiya bekor qilingan, boshqa oqimlarda asosiy ibodat qo'shig'i hisoblangan «*din ramzi*» va «*otche nash*» o'qilmaydi. Faqat dam olish kunlari bayram kuni deb hisoblanadi.

Presviterianlar diniy ta'limotining asosiy aqidalari «Vestminster» kitobida bayon qilingan. Bu aqidalar ortodoksal kalvinizm ruhida bo'lib, olamdagi barcha odamlarning gunohkorligi va qismatning mutlaqligiga ishonishdan iborat. Presviter jamoasi qavmlar saylagan presviterlar va pastorlardan iborat konsistoriya tomonidan boshqariladi. Presviterchilarning oliy organi – bosh assambleya. Bosh assambleya presviteriyalar vakil qilib yuborgan presviter va pastorlardan iborat. Presviterchilarning ko'pchiligi o'zlarining xalqaro tashkiloti – «Presviterchilarning tashkiliy tuzilishiga amal qiluvchi Jahon reformatsiya cherkovlari alyansi»ga a'zodir. Mazkur alyans 1875 yilda tashkil etilgan. Hozirgi paytda Shotlandiya (davlat cherkovi), Angliya, Irlandiya, AQSH, Kanada, Avstraliya va boshqa mamlakatlarda presviterchilar mavjud.

**Anglikan cherkovi.** Anglikan cherkovi – Angliyaning davlat cherkovi 1534 yilda mahalliy katolik cherkovi Rim qiroli Genrix VIII'ni cherkov boshlig'i deb e'lon qildi, ya'ni cherkov qiroli hokimiyatiga bo'sundirildi. XVI asr o'rtalariga kelib ibodatni ingliz tilida olib borish joriy etildi, postlar bekor qilindi, but va sanamlar olib

tashlandi, ruhoniylar uylanmasligi majburiy bo'lmay qoldi. «*Mo'tadil yo'l*» ta'limoti, ya'ni Rim katolitsizmi va protestanizm orasidagi o'rtacha yo'l shakllandi. Anglikan diniy ta'limoti «Umumiy ibodatlar kitobi»da aks ettirilgandir. U cherkovning najotkorlik kuchi haqidagi katolik aqidalari hamda shaxsiy e'tiqod orqali najotga erishish haqidagi protestant ta'limotlarini o'zida jamlagan. Anglikan cherkovida katolitsizmdagi marosimlar shundayligicha qabul qilinib, undagi ierarxiya tuzumiga o'xshash tartib joriy etilgan. Bu tartibga ko'ra, qirol Anglikan cherkovining boshlig'i hisoblanadi va u yepiskoplarni tayinlaydi. Anglikan cherkovining birinchi diniy rahbari Kenterberi arxiepiskopi hisoblanadi. Anglikan cherkovi tarkibiga 3 cherkov kiradi. Ular katolitsizmgga yaqin turadigan oliy cherkov, puritanizmga va pietizmga yaqin quyi cherkov, xristian oqimlarining barchasini birlashtirishga intiluvchi hukmron oqim – keng cherkov. Anglikan cherkovidan rasman ajralgan cherkovlar Shotlandiya, Uel's, Irlandiya, AQSH, Kanada, Avstraliya kabi jami 16 mamlakatda tarqalgan. 1867 yildan Anglikan cherkovi o'z mustaqilligini saqlagan holda Anglikan cherkovlar ittifoqiga birlashgan. Lambet konferetsiyalari Anglikan cherkovida konsulyativ organ hisoblanadi.

**Baptizm.** Protestant ta'limotining eng ko'p sonli davomchilari baptistlardir. Baptizm (yunoncha «suvga cho'ktirish») XVII asr boshlarida vujudga kelgan bo'lib, hozirgi kunda dunyoning 130 mamlakatida o'z tarafdorlariga ega. Bu ta'limot tarafdorlari faqat o'spirinlarnigina cho'qintirishga olib boradilar. «Hech kim, jumladan, ota-onalar ham kishi uchun biror dinni tanlay olmaydi. Kishi dinni ongli ravishda o'zi ixtiyor qilmog'i zarur» degan qoida baptistlar va zabur xristianlarining asosiy qoidasidir. Ularda ibodat o'ta soddalashtirilgan bo'lib, diniy qo'shiq, ibodat va mav'izadan iborat. Zabur xristianlari to'rtta rusumni saqlab qolishgan: cho'qintirish, (o'spirinlar uchun) tanovul, nikoh, qo'l bilan silab qo'yish. Bu xristianlar uchun but ehtirom ramzi emas.

**Adventistlar harakati.** Adventistlar harakati (lot. – “kelish”) Amerikada XIX asrning 30-yillari og'ir iqtisodiy buhron (krizis), umumiy ishsizlik davrida vujudga keldi. Asoschisi Vil'yam Miller (1782-1849). Adventistlar bir necha mustaqil cherkovlarga bo'lingan bo'lib, ularning eng kattasi «Yettinchi kun adventistlari» sanaladi. Ularning asosiy g'oyasi Isoning ikkinchi bor yerga tushishi va insoniyatni shayton va uning tarafdorlaridan mutlaq xalos etishidir. Ular odamlarni Isoni kutib olish uchun xush axloq bo'lishga chaqiradilar. Dindorlardan mablag'larining o'ndan birini cherkov hisobiga o'tkazishlarini va targ'ibot ishlarini uzluksiz olib borishlarini talab qiladi. Iso payg'ambarning ikkinchi marta yerga qaytishi haqidagi bashorat " najot yo'li" deb hisoblanadi.

Hozirgi paytda g'arbiy hamda sharqiy cherkovlarning rahbarlari ko'p asrli ixtiloflarning ayanchli oqibatlarini bartaraf qilishga intilmoqdalar. Masalan, 1964 yili Rim papasi Pavel VI va Konstantinopol patriarxi Afinagor ikkala cherkov vakillarining XI asrda aytgan o'zaro qasamyodlarini tarqoqligini bartaraf qilish uchun birinchi qadam qo'ydilar.

**Bibliya.** Bibliya yahudiylik va xristianlik dinlari ta'limotiga ko'ra, Xudo tomonidan nozil qilingan, asosiy diniy aqida va axloq qonunlarini o'zida jamlagan muqaddas kitoblar majmuasidir.

U ikki qismdan iborat: «Qadimiy Ahd» (Old Testament) va «Yangi Ahd» (New Testament).

Yahudiy va xristian Bibliyalari (Bible) bir-biriga mos kelmaydi. Yahudiylarning muqaddas kitobi qadimiy Isroil va qadimiy yahudiylarning diniy ta'limot va urf-odatlarida asosida mil. av. XIII asrda yozilgan bo'lsa, xristianlarning kitobi milodning boshlarida vujudga keldi. Yahudiylar xristianlarning kitobini muqaddas kitob sifatida tan olmaydilar. Xristianlar esa yahudiylarning kitobini muqaddas kitob sifatida tan oladilar.

Bibliya so'zi grek tilida biblia – “kitob”, “o'ram” ma'nolarini anglatadi. Hozirgi Bibliya katolik nashrlarida 72, protestant nashrlarida 66 kitobdan iborat. Yahudiylarning yana bir diniy manbasi Talmudning xabar berishicha, Qadimiy Ahdda 24 ta kitob bo'lishi kerak. Qadimiy yahudiy tarixchisi Iosif Flaviyning aytishicha, 22 ta kitob bo'lishi kerak. Protestantlar va yahudiylar, Trident Soboridan keyin (1545-1563) katoliklar ham Qadimiy Ahd tarkibiga 45 ta kitob kirgizadilar. Bu son bilan yuqorida keltirilgan son o'rtasidagi tafovutni keyinchalik ba'zi kitoblarning bir necha mustaqil kitoblarga bo'linib ketgani bilan izohlash mumkin. Masalan, «Musoning besh kitobi» avval bir butun bo'lib, keyinchalik beshta mustaqil kitobga, «Kichik payg'ambarlar kitobi» 12 kitobga ajratib yuborilgan.

Xristianlar Qadimiy Ahdni «Rivoyatlar kitoblari», «Ta'limotlar kitoblari»ga, «Payg'ambar kitoblari»ga bo'lishadi. Ular Yangi Ahdning 27 kitobini shunday tasnif qiladilar: «Rivoyatlar kitoblari»ga «Injil» va «Havoriylar faoliyati» kiradi. «Ta'limotlar»ga «Havoriylar maktublari» kiradi, «Payg'ambarlar kitoblari»ga «Vahy» kitobi kiradi. Bibliyaning kitoblari boblarga, boblar esa suralarga bo'linadi. Uning hozirgi qabul qilingan bo'linishi Nenterberiya yepiskopi Stefan Langton (vafoti 1228 y.) tomonidan kiritilgan. U 1214 yili lotin tilidagi matnni boblarga bo'lib chiqdi va bu narsa keyinchalik yahudiy va yunon tillaridagi matnlarga ham joriy qilindi. Suralar avval Santes Panino (v. 1541 y.), keyinchalik 1555 yillarda Robert Etænlar tomonidan raqamlandi.

**Yevangeliya.** Injil so'zi yunoncha «evangelion» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, “xushxabar” ma'nosini anglatadi. Unda odamzodni qutqaruvchi yagona Najotkor hisoblanmish Iso Masihning yer yuziga yuborilganligi haqida hikoya qilinadi. Injil milodning birinchi asrida yozilgan, 27 bo'limdan iborat. Injil Iso Masihni ko'rib, uni yaqindan bilgan, uning ta'limotini sinchiklab o'rgangan mualliflar tomonidan yozilgan. Xristianlikda bu mualliflar xudoning ruhidan ilhomlanib aynan xudoning buyurganini Injilda yozib qoldirganlar deb hisoblanadi. Injilning matni yozib tugatilgandan keyin undan ko'p nusxa ko'chirilib, dunyoning har tarafiga tarqatilgan.

Xristianlikda Yangi Ahd tarkibiga kirgan Injil 4 qismga bo'linadi: Injilning dastlabki 4 kitobchasi Iso Masihning hayoti va ta'limotiga bag'ishlangan, ular Matto (Matfey), Marko, Luka, Yuhanno (Ioann) bayon etgan Muqaddas xushxabar (Yevangelie) deb ataladi. Bu 4 kitob muallifining har biri Iso Masih shaxsiyati va faoliyatining alohida xususiyatlarini tasvirlaydi, to'rttala kitob ham Isoning yo'li va qayta tirilishi bilan yakunlanadi. Bu Injil xushxabarining markaziy nuqtasi hisoblanadi.

Aziz Havoriylarning faoliyati (Deyaniya svyatых apostolov) nomli kitobchada Iso Masihning alohida tanlagan shogirdlari – havoriylarning nasroniylik dinini

tarqatish yo'lida qilgan ishlari, nutqlari, quvilishlari, xristian jamoalarining vujudga kelishi haqida hikoya qilinadi. Pavel, Iakov, Petr, Ioann, Iuda nomli havoriylarning turli mamlakat va podshohlarga xristianlik dinining aqidalarini bayon qilib yo'llagan maktublari ham Injilda jamlangan. Vahy (Otkrovenie) deb nomlangan bu kitob xudo tomonidan avliyo Ioangga yuborilgan bashorat hisoblanadi. Unda oxirzamonda yuz beradigan musibatlar, Iso Masihning dunyoga qaytishi, Ya'juj-Ma'juj, Dajjol, qiyomat, jannat va jahannam tasvirlanadi.

***O'zbekistonda xristianlik.*** Hozirgi kunda mamlakatimizda bir necha xristianlik oqimlari faoliyat olib boradi. Xristianlikning ham zardushtiylik, buddizm kabi O'rta Osiyo xalqlari tarixida o'ziga xos o'rni bor. Bu din O'rta Osiyoga, xususan, O'zbekistonga ikki yo'l bilan kirib kelgan: bunga bir tomondan xristianlikka da'vat etuvchi missionerlarning targ'ibotchilik faoliyati sabab bo'lsa, ikkinchi tomondan, O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi va xristian diniga e'tiqod qiluvchi aholining bu hududga ko'plab ko'chib kelishi orqali oshdi. Bu dinni mahalliy aholi Missionerlar O'rta Osiyoning turli viloyatlariga milodning III asrlarida kirib kelganlar. Masalan, 280 yilda Taroz (Merke) cherkovlari qurilib bo'lgan, Samarqandda (310 yildan), Marvda (334 yildan), Hirotda (430 yildan), Xorazmda va Markaziy Osiyoning boshqa shaharlarida yepiskoplik va missiyalar tuzilgan. Keyinchalik Samarqandda, Marvda (430 yillar), Hirotda (658 yillar) yepiskoplikdan iborat diniy hududiy jamoalar, birlashmalar bo'lgan. Xurosonliklar va sug'diyonaliklar zardushtiyalar, monaviylar, buddistlar bilan bir qatorda xristianlar ham bo'lganlar. Ular Sosoniylar va Qoraxitoylarga qarashli yerlarda yashaganlar.

Markaziy Osiyo territoriyasida islomning tarqalishi davrlarida islom bilan xristianlik o'rtasidagi ziddiyatlar, kelishmovchiliklar keskinlasha boshladi. Biroq X asrgacha Samarqand, Xorazm, Toshkent viloyatlarida xristianlarning manzilgohlari bo'lgan. Hatto Beruniy yashagan davrda ham (973-1056) Marvda pravoslav metropoliyasi bo'lgan.

XIX asrning 70-yillari O'rta Osiyo mintaqasiga, pravoslavie bilan bir qatorda boshqa oqimlarning tarafdorlari ham kirib kela boshladi. Ular ortidan turli sektalarga mansub dindorlar: masalan, baptistlar, adventistlar, katoliklar va boshqalar ham paydo bo'ldi. 1879 yil 27 martda Rossiya imperatorining maxsus qonuni e'lon qilingach, bu jarayon yanada faollashdi. Rossiya armiyasi tomonidan birinchi jahon urushida asr olingan nemis, polyak, eston, shved, litvalik, latish va boshqa g'arbiy yevropalik askarlarning Turkiston o'lkasiga surgun qilinishi, ular e'tiqod qiladigan din yoki oqimning kirib kelishiga sabab bo'ldi. Bu, o'z navbatida, yevropalik asirlar orasida diniy jamoalar tuzish hamda cherkovlar paydo bo'lishiga olib keldi. Xorijliklarning bunday faoliyati asrimizning taxminan 20-30 yillariga qadar davom etdi. XX asr boshlariga kelib Turkiston general-gubernatorligida 6,03 million musulmonga 391 ming pravoslav to'g'ri kelgan yoki 5340 masjidga 306 cherkov to'g'ri kelgan. Bundan tashqari e'tiqod jihatidan 10,1 ming pravoslav oqimiga mansub bo'lgan staroobryadchilar, 8,2 ming lyuteranlar, 7,8 ming katoliklar, 17,1 mingga yaqin boshqa oqimlarga mansub dindorlar va 26 ming yahudiy diniga mansub edilar.

Pravoslav yo'nalishi O'zbekiston hududiga Rossiya orqali kirib kelgan. 1871 yil 4 mayda Rossiya imperatori tomonidan Toshkentda Turkiston (hozirgi vaqtda O'rta

Osiyo va Toshkent) yeparxiyasini ochishga qaror qilindi. 1880-yillarga kelib, Rus pravoslav cherkovi (RPCH) o'zining yangi ibodatxonalari sonini ko'paytirishga harakat qildi. Ularning aksariyati Sirdaryo va Farg'ona viloyatlarida qurildi. 1916 yil 16 dekabrda imperator buyrug'i bilan Turkiston kafedral sobori Верныйdan (hozirgi Almati) Toshkent shahriga ko'chirildi. Cherkovlar soni 1930-yillarga qadar O'zbekiston hududida O'rta Osiyo mintaqasining boshqa hududlariga nisbatan ko'p edi. 1920-40-yillarda O'rta Osiyo va Qozog'istonda xristian diniga mansub turli etnik guruhlar ko'payib bordi. Ikkinchi jahon urushi va undan so'ng O'zbekistonga Rossiya, Ukraina, Belorusiya, Moldova va Boltiqbo'yi mamlakatlaridan ko'plab aholi evakuatsiya qilindi, pravoslaviega e'tiqod qiluvchi aholining soni taxminan 1 millionga yetdi.

1990 yil 20 iyuldan O'rta Osiyo va Toshkent yeparxiyasi yepiskop sifatida, 1991 yil 23 fevraldan e'tiboran arxiepiskop Vasiliy Zaxarovich Ikim (ruhoniyluk ismi – Vladimir) rahbarligida boshqarib kelinmoqda. Uning tasarrufiga O'zbekistondan tashqari Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmanistondagi rus pravoslav cherkovlari kiradi. Rus pravoslav cherkovining O'rta Osiyo va Toshkent yeparxiyasi O'zbekistonning 11 ta hududiy tuzilmasida o'zining ibodatxonalari va markaziy boshqaruv organi hamda diniy o'quv yurtiga ega.

Xristianlikning O'zbekistonda tarqalgan oqimlaridan biri katolitsizmdir. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, XIX asr oxirlarida Toshkentda 2300 ga yaqin katoliklar bo'lgan. O'sha vaqtda rim katoliklari jamoalariga Yustin Pranaytis rahbarlik qilgan. Toshkentda birinchi katolik cherkovi 1912 yilda qurila boshlanib, 1917 yilda bitkazilgan. Hozirgi kunda bu bino tarixiy obida sifatida qayta ta'mirlandi.

Vatikan davlati O'zbekistonning mustaqilligini 1992 yil 1 fevralda tan olib, shu yilning 17 oktyabr kuni diplomatik aloqalar o'rnatdi. 1994 yil 31 oktyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov Vatikan davlatining nuntsiy elchisi Marian Olesdan Ioann-Pavel II ning ishonch yorlig'ini qabul qildi. Shundan so'ng Vatikanning Toshkentdagi elchixonasi rasman o'z ishini boshladi. M. Olesning qarorgohi Qozog'istonning sobiq poytaxti Almatida bo'lganligi sababli Toshkentdagi elchixona rahbarligini hozirgi vaqtga qadar K. Kukulka bajarib kelmokda.

Yurtimizda faoliyat olib borayotgan Arman apostol cherkovi eng qadimiy xristian cherkovlaridan biri bo'lib, uning «Echmiadzin» jurnali hamda maxsus diniy o'quv yurti mavjud. Kilikiya katolikosati, Quddus va Konstantinopol patriarxatliklari, AQSH, Janubiy Amerika, Yevropa, Yaqin, O'rta va Uzoq Sharqdagi yeparxiya boshqarmalari Echmiadzin katolikosatiga bo'ysunadi.

Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, O'rta Osiyoda armanlar taxminan O'zbekistonda tarqalgan xristianlikning uch asosiy yo'nalishidan biri protestantizmdir. Keyingi o'n yillikda mahalliy koreys millatiga mansub shaxslar orasida protestantizm yo'nalishiga qiziqish ortdi. Bunga bir tomondan koreyslarning o'z qarindosh-urug'lari bilan diydor ko'rishish va boshqa maqsadlarda Janubiy Koreya, AQSH va boshqa rivojlangan davlatlarga borib kelishlari omil bo'ldi. Xorijdan ular ma'lum bir diniy oqim ta'siriga tushib, O'zbekistondagi yaqinlariga ham mazkur oqim ta'limotlarini targ'ib qila boshladilar. Shuningdek, Janubiy Koreya va AQShlik koreys millatiga mansub shaxslar ham katta moddiy mablag'ga ega bo'lgan protestantizm yo'nalishi

markazlarining hisobiga mahalliy koreys millatlari ichida missionerlik faoliyatini olib bordilar.

O'zbekistondagi koreys protestant cherkovlarining deyarli barchasini pyatidesyatniklik yo'nalishidagilari tashkil etadi. Ibodat tarzlari protestantizmdagi yo'nalishlarda bajariladigan amallar kabidir. Hozir O'zbekistonda pyatidesyatniklik, baptistlik yo'nalishidagi cherkovlar hamda birgina metodistlik yo'nalishiga oid cherkov faoliyat ko'rsatmoqda. Rossiyada hamda O'rta Osiyoda dastlabki adventist missionerlar XIX asrning boshlarida paydo bo'lganligi haqida ayrim manbalarda qayd etilgan. Mazkur oqimning Toshkentdagi birinchi jamoasi 1910 yilda tashkil etilib, bir yil ichida uning tarafdorlari 150 kishiga yetgan. Jamoa 1912 yilda yashirin yig'ilishlar uyushtirganligi sababli tarqatib yuborilgan. 1917 yildan so'ng umumiy soni 450 kishilik tarafdori bilan Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Samarqand shahri va boshqa hududlarda faoliyat ko'rsata boshlagan. Shu davr ichida oqim tarafdorlari ko'payib, cherkov rahbarlari saylandi hamda tashkiliy ishlar yo'lga qo'yildi.

Adventistlarning Janubi-sharqiy ittifoqi tarkibida 1925 yili O'zbekistonda adventistlarning O'rta Osiyo boshqaruvi tashkil etildi. Uning birinchi qurultoyi 1926 yilda o'tkazilib, unda Butunittifoq adventistlar ittifoqi tarkibining beshinchi ittifoqi sifatida qayd etildi. 1930-yillar oxiriga kelib dindorlar va ular qatorida adventistlar jamoalari tarqatib yuborildi hamda ta'qib ostiga olinadigan bo'ldi. Barcha yo'nalishdagi jamoalar yashirin faoliyatga o'tib ketdi.

1976 yil 26 avgust kuni Toshkentda ilk bor adventistlar jamoasi davlat ro'yxatidan o'tdi. Shuningdek, adventistlarning Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Surxondaryo va boshqa viloyatlarda norasmiy jamoalari tuzila boshladi.

Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, 1967 yili Toshkentda V.A. Shelkov boshchiligidagi adventist-islohotchilar paydo bo'lgan. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, ularning faoliyati hozirgi davrga qadar davom etib kelmoqda. Adventistlar respublikaning besh hududiy tuzilmasida 9 ta cherkoviga ega. Turkiston o'lkalarida ilk baptistlar jamoasi 1891 yillarda paydo bo'ldi. Toshkent shahar boshqarmasi tomonidan 1909 yil 2 iyulda 60 kishilik baptist jamoalari uchun ibodat uyi ochishga ruxsat berildi. 1911 yil oktyabr oyida "Samarqand jamoasi" tuzildi. 1921 yildan e'tiboran Turkiston baptistlari orasida birlashish maqsadida boshqaruv organini saylash uchun harakat boshlandi. Ushbu boshqaruv organi 1922 yilda Toshkent baptistlar qurultoyida O'rta Osiyo baptistlar ittifoqi, so'ng Umumrossiya ittifoqi tarkibida Turkiston bo'limi tuzildi. 1946 yildan O'zbekiston hududida Yevangelchi xristian-baptistlar (YEXB) jamoasi sifatida qayd etildi, 1948 yil oktyabr oyidan esa T. Реньков Butunittifoq YEXB kengashining O'zbekistondagi vakili etib tayinlandi. 1930-yillarga kelib baptistlarning 6 jamoasi rasman qayd etildi. 1958 yilga kelib O'zbekistonda baptistlar soni ikki ming kishini tashkil etdi. Shu davr ichida norasmiy 32 ta jamoa faoliyat ko'rsatgan. 1964 yilda bu jamoalar norasmiy O'rta Osiyo Yevangelchi xristian baptistlar cherkovlari kengashi markazini tuzdilar, keyinchalik «Osiyo janubi bo'yicha baptist birodarlar kengashi» deb nomlandi. 1992 yil noyabr oyida Moskvada bo'lib o'tgan baptistlarning 1-qurultoyida Yevangelchi xristian baptistlar ittifoqi federatsiyasi Yevro-Osiyo YEXB ittifoqi nomiga o'zgartirildi. YEXBIF

respublikaning 8 ta hududiy tuzilmasida o'zining cherkovlariga hamda markaziy boshqaruv organiga ega.

O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan To'liq Injil xristianlarining (Pyatidesyatniklik) asrimiz 20-yillari oxirlarida Toshkent shahrida birinchi jamoalari tuzildi. 30-yillarga kelib ularning soni 950 kishiga yetdi. Ular tashkilot sifatida qayd etilmagan bo'lsalar-da, Toshkent jamoasi markaziy o'rin tutdi. 1945 yilga kelib baptistlar va pyatidesyatniklar birlashishga qaror qildilar, lekin bu ish to'liq amalga oshmay qoldi. Mazkur tashkilot 1992 yildan e'tiboran rasmiy faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Respublikamizda mavjud bo'lgan lyuteranchilik – lyuteranlar cherkovlari tomonidan e'tirof qilingan ta'limotdir. U protestantizmdagi eng yirik yo'nalishlardan biri hisoblanib, tarafdorlari taxminan 75 million kishini tashkil etadi. Lyuteranlar diniy ta'limoti XVI asrda Yevropa Reformatsiyasida M. Lyuter va uning tarafdorlari, birinchi navbatda, Melanxtonning kuch-g'ayrati bilan qaror topdi.

1989 yildan e'tiboran Rossiya, Ukraina, Qozog'iston va O'rta Osiyodagi Yevangelchi-lyuteranlar cherkovi tarkibiga birlashtirilib qayd etildi. Hozirgi vaqtga qadar uning rahbari Georg-Fridrix-Karl Krechmar hisoblanadi. Lyuteranlarning oliy huquqiy organi Bosh sinoddir.

Mazkur cherkov MDH mamlakatlarida 5 yeparxiyaga bo'lingan bo'lib, uning markazlari Moskva, Omsk, Odessa, Almati hamda Toshkentda joylashgan.

Yevangelchi-lyuteranlar O'zbekiston hududida 1877 yildan buyon faoliyat ko'rsatib kelmoqda. 1884 yildan lyuteranlar ibodatlarini rasman amalga oshirganlar. 1890 yilda arxitektor A.L. Benua rahbarligida boshlangan cherkov qurilishi 1896 yilning dekabr oyiga kelib nihoyalandi.

O'zbekistonda yana bir cherkov Novoapostollik cherkovi bo'lib, u xristian dinining protestantlik yo'nalishiga mansub oqimdir. Novoapostol cherkovi O'zbekistondagi faoliyatini 1992 yildan boshlagan bo'lib, Toshkent, Samarqand, Buxoro va Navoiy shaharlarida ro'yxatdan o'tgan. O'zbekistondagi Novoapostol cherkovlari Berlin-Brandenburg okrugi tasarrufidadir. Uning apostol-prezidenti Frits Shreder. O'zbekistonda «Iegova shohidlari» protestant yo'nalishidagi diniy tashkilot ham faoliyat yuritmoqda. Mazkur diniy sektaga 1870 yilda amerikalik ishbilarmon CH.T. Rassel tomonidan asos solingan. Sektaning markazi Bruklin shahri Akioda joylashgan va 15 a'zodan iborat bo'lgan «Rahbar korporatsiya»gagina bo'ysunadilar. Ayrim manbalar O'rta Osiyoda Iegova shohidlarining XX asrning 40-yillapida paydo bo'lganligini bildiradi. O'sha davrda ular o'zlarini «kanalistlar» deb atab kelganlar. Iegova shohidlari nomi sifatida O'zbekistonda 1994 yildan Toshkent hamda Farg'ona viloyatlarida rasmiy ro'yxatdan o'tdi. 1998 yil yangi tahrirdagi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonun qabul qilinganidan so'ng qayta ro'yxatdan o'tish uchun respublikaning 3 ta hududiy tuzilmasidagi tashkilotlari hujjatlarini joylardagi adliya bo'limlariga topshirgan.

## 6-mavzu. Islom dini

### Reja:

1. Islom dinining paydo bo'lishi.
2. Muhammad ibn Abdulloh – islom dini da'vatchisi va asoschisi.
3. Islom ta'limoti va qadriyatlari.
4. Islomdagi oqimlar va mazhablar.
5. Islomni e'tiqodga aylantirish davrida O'rta Osiyo xalqlari madaniyati.

**Islom dinining paydo bo'lishi.** Islom – dunyoda keng tarqalgan jahon dinlaridan biridir. Osiyo qit'asidagi Arabiston yarim oroli, Iordaniya, Suriya, Iroq, Eron, Turkiya, Afqoniston, Pokiston, Afrika kit'asidagi Marokash, Jazoir, Tunis, Liviya, Misr Respublikasi Somali singari mamlakatlar xalqlari, Efiopiya, G'arbiy Sudanda yashovchilarning bir qismi, Malayziya, Indoneziya xalqlari, Livan, Hindiston, Xitoy hamda Filippin axolisining ma'lum bir qismi. Yevropa kit'asida esa Bolqon yarimorolida yashovchi xalqlarning bir bo'lagi islomga e'tiqod qiladi. Islom O'rta Osiyo, Zakavkazye va Shimoliy Kavkaz, Volgabo'yi, G'arbiy Sibir va boshqa ayrim hududlarda yashovchi aholining bir qismi ongi va turmushida mavjuddir. Bu xalqlarning turmush tarziga o'z ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Yer yuzida islomga e'tiqod qiluvchilar, ya'ni musulmonlar bir milliard 300 mln.dan oshdi.

Yevropa, Amerika va Rossiyada islom, uning tarixi va manbalarini o'rganish XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Lekin islom tarixi, ta'limoti, muqaddas yozuvlarini tahlil, tatqiq qilish Rossiyada ayniqsa O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston, Shimoliy Kavkazda keng ko'lamda ancha oldin amalga oshirilgan. Bu ish endi yanada kengroq miqyoslarda olib borilmoqda.

Arab xalqi hayotni VI asr oxiri VII asr boshlarida yuz bergan jiddiy tarixiy voqealar arab qabilalarining ijtimoiy hayot taqozasi bilan vujudga kelgan markazlashishga intilishga undagan. Islom ayni shu intilishni o'zida aks ettirgan g'oya, mafkura sifatida yuzaga kelgan, markazlashgan arab davlatining vujudga kelishi, qo'shni mamlakatlarga yurish qilib, yangi din Islomni targ'ib qilish arab xalifaligining kengayishi muhim ijtimoiy yo'nalish edi.

Markaziy va Sharqiy Arabiston yarim oroli sahrolarida yashagan arab badaviylari o'rtasida ibtidoiy tuzumga xos bo'lgan politeistik majusiylik diniy tasavvurlari shukmron edi. Yahudiylik va xristianlik hamda ularning ayrim sektalari islom paydo bo'lishi arafasida arab qabilalari orasida muayyan darajada tarqalgan edi. V-VI asrlarda arab qabilalari urug'-qabilachilik tuzumi yemirila boshlagan, ibtidoiy diniy tasavvurlar tanazzulga yuz tutgan edi. qabilalar o'rtasida markazlashishga bo'lgan intilishning g'oyaviy in'ikosi sifatida yakka xudolikka xos diniy aqidalarning kurtaklari shakllana boshlagan. Yakka xudolik to'g'risidagi bunday diniy ta'limot islomdagina emas, balki u paydo bo'lmasdan birmuncha vaqt ilgari Arabistonning ayrim joylarida targ'ib qilina boshlagan edi. Islom esa ana shu targ'ibotlarning galdagi shakllanishi va tarkib topishining natijasi sifatida vujudga kelgan.

Islomdagi ilgari arab qabilalari orasida yakka xudolilik to'g'risida targ'ibot yuritgan, o'zini payg'ambar deb e'lon qilgan shaxslar manbalarda «xaniflar», ya'ni



haq-haqiqat izlovchilar nomi bilan ma'lumdir. Islomning paydo bo'lishi arab qabilalari o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muayyan bosqichi bilan bog'liq bo'lgan. Islom monoteistik din sifatida. Ya'ni yakka xudoga e'tiqod qiluvchi ta'limotni yaratib, barcha ko'rinishlarini shirk deb atab, ularni ta'qiqlagan.

Islomda, shunday qilib, yagona – xudoga Allohga e'tiqod qilish bu diniy ta'limotning asosini tashkil etgan. Alloh – arabcha so'z bo'lib, o'zbekchaga tarjima g'ilsaq Tangri degan ma'noni bildiradi. Forsiyda Xudo deyiladi. Alloh, Tangri, Xudo so'zlariga odatda sifat qo'shilib, Alloh taolo, Xudo Taolo shaklida ham ishlatiladi. Taolo – ulug', oliy degan ma'noni anglatadi. Alloh taoloning Qur'onda va Hadislarda qayd etilgan ismlari 99 tadir. Bulardan tilimizda eng ko'p qullaniladiganlar: Rahim – juda rahimli; Rahmon – o'ta mehribon; Mo'min – omon va omonlik beruvchi; Karim karamli, saxovatli, kechirimli, Sattor, Akbar buyuk kabi sifatlar qo'shib aytiladi. Allohning mazkur ismlariga abd-qul so'zi olddan qo'shilib kishi ismlari yasaladi: Abdurahmon – o'ta mehribon Allohning quli; Abdulkarim – karamli, sahovatlining quli; Abdug'agi, Allohning ehtiyojsiz quli va boshqalar. Islom ta'limoti bo'yicha, Alloh hamma joyda xoziru nozirdir, ammo o'zi lomakan, ya'ni bemakondir; unga vaqt, zamon ham daxlsizdir. Tug'ilish, o'lim barcha jonzotlarga, shu jumladan odamlargagina xosdir; Alloh bundan mustasnodir.

**Muhammad ibn Abdulloh – islom dini da'vatchi va asoschisi.** Payg'ambar forscha so'z bo'lib, xabarchi, darakchi demakdir. Arabcha nabiiy deyiladi. Rasul so'zi ham arabcha bo'lib, ma'nosi elchidir. Binobarin, payg'ambarlar ilohiy ta'limot va din aqidalarini o'z ummatlariga yetkazuvchi xabarchidir, Allohning elchisidir. Payg'ambarlarning Hadisda soni 124 ming deyiladi. Qur'oni Karimda 25 nafar payg'ambarning nomi tilga olingan. Ular Odam, Idris, Nuh, Hud, Solih, Ibrohim, Ismoil, Ishoq, Yaqub, Yusuf, Lut, Ayyub, Zi-l-Kifl, Yunus, Muso, Horun, Shuayb, Ilyos, al-Yasa',Dovud, Sulaymon, Zakariyo, Yahyo, Iso va Muhammaddir. Islom ta'limotiga ko'ra barcha payg'ambarlarga barobar imon keltiriladi.

Tarixiy manbalardagi va Qur'on oyatlaridagi ayrim ishoralarga ko'ra, Muhammad payg'g'ambar 570-71 yilda Makkada tug'ilgan, yoshligida yetim qolgan, avval bobosi qo'lida, u vafot etgach, amakisi qo'lida tarbiyalangan, balog'atga yetgach, savdogarlar qo'lida xizmat qilgan. 25 yoshida beva boy xotin Xadichaga uylangan va uning mablag'lari bilan mustaqil savdogarlik qila boshlagan. Savdo karvonlari bilan Suriya, Falastin va Mesopotamiyaning ayrim shaharlarida bulgan; u yerlardagi diniy e'tiqodlar bilan tanishgan, ruhoniylar bilan suhbat qilgan. U zot taxminan 39-40 yoshlarga kirganlarida Makkada yakka xudo – Allohga e'tiqod qilish to'g'risidagi targ'ibotni boshlagan. Diniy nazariyada Islom Allox yuborgan sunggi mujassam din ekanligi Qur'on Allox nozil qilgan kalomi bo'lib Muxammad payg'ambarga vaxiy tarzida tushgan tilovati ibodat xisoblangan. Ilk vaxiy-diniy ta'limotga kura ramazon oyining yigirma yettinchi kuniga utar kechasi milodiy xisob bilan 610 yilning 31 iyulidan 1- avgustiga utar kechasi boshlangan va 23 yil davom etgan.

Vaxiy tusha boshlagan tun «LAYLATUL QADR» deb atala boshlagan. Bu xodisa Qur'onning 97-«al Qadr»surasida ifodalangan. Muxammad (s. a.v) payg'ambar targ'ibotlarini boshlagan dastlabki yillarda juda oz kishi u zotning izidan borgan. Shu bilan birga qurayshiylarning ummaviylar xonadoniga mansub bo'lgan va Makkada

siyosiy xokimiyat tepasida turgan zodagonlar o'sha davridayok uning targ'ibotiga qarshilik kursa a boshlaganlar. Badaviylar xam uni avval boshda qo'llab-quvvatlamaganlar.

Makkada axvol jiddiylashgach Muxammad Makka xukmdorlari bilan rakobatlashib kelgan kabilalarning vakillari bilan muzokaralar olib borgan va 622 yili ularning yordamida Madinaga xijrat qilingan. Musulmonlarning hijriy yili hisobi shu ko'chish arabcha «hijra»dan boshlangan. Makkadan ko'chib borganlar islom tarixida «muhojir» (ko'chib kelgan)lar, madinalik qabilalardan islomni qqabul qilganlar esa «ansor» (yordamchi) lar deb nom olganlar. Oradan bir necha yil o'tgach xaj qilishga u zotning o'zlari ham Makkaga kelgan. Makka zodagonlari manfaatiga zid targ'ibot olib borgan Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ni ta'qib etish kuchaygan. Ayniqsa, o'zi majusiy bo'lsada, unga homiylik qilgan amakisi Abu Tolibning vafotidan keyin Muhammad payg'ambarning hayoti xavf ostida qolgan. U o'ziga sodiq barcha kishilar bilan Hijozning shimolida joylashgan, uning davrida «madina», ya'ni shahhar deb qayta nomlangan Yasrib shahriga ko'chib ketishga majbur bo'lgan. qqur'on oyatlarining mazmuniga qaraganda, bu ko'chish ancha vaqt davom etgan. Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) rqasaidan odamlar birmuncha vaqt davomida guruh-guruh bo'lib kelib turganlar. Makkadan ko'chib kelganlarning ko'pchiligi - muhojirlar deb tavsiflangan kambag'allar va nochor kishilar edi. Shuning uchun ham dastlabki davrlarda ansorlar ularga yordam ko'rsatganlar.

630 yil bahorida Madina qqo'shinlari Makkaga yaqinlashganlar va hech qanday qarshiliksiz shaharga kirib borganlar. Zodagonlar Muhammad payg'ambarni peshvoz chiqib kutib olganlar. Shu vaqtdan boshlab u bilan Makka hukmronlari o'rtasidagi raqobat va qarama-qarshiliklar tugagan. Ular Muhammad payg'ambarning yaqin yordamchilariga aylanib, musulmrlar davlatida yuksak lavozimlarni egallay boshlaganlar. Muhammad payg'ambar hijriy 11-yilning rabi-al-avval (632 yil iyun) oyida Madinada 63 yoshda vafot etgan. Bu davrda anchagina mustahkam musulmon davlati vujudga kelgan; u Yamandan Sino yarimoroligacha, Qizildengiz sohillaridan Markaziy qum sahrolari-Sahroi Kabrgacha cho'zilag katta hududni o'z ichiga olgan edi. Muhammad vafotidan keyin o'rinbosarlari-xalifalar davlatni boshqara boshlaganlar. Shu munosabat bilan musulmonlar davlati o'zining bundan keyingi tarixida «Arab xalifaligi» deb nom olgan. Muhammad vafot etgan birinchi kunlardanroq musulmonlar jamoasining yo'lboshchilari o'rtasida hokimiyat uchun kurash va o'zaro ixtiloflar boshlangan. Bu kurashda muhojirlar guruhi g'olib chiqqan va Muhammadning ilk safdoshlaridan biri Abu Bakr xalifa deb e'lon qilingan.

Islom ta'limoti va qadriyatlarini. O'rta Osiyo xalqlari hayotiga islomning kirib kelishi bilan kalom, ya'ni islom falsafasini va diniy talablarini bajarishda arab tili ustuvorligi o'rnatilgan. So'ngra fan, adabiyot, falsafa va madaniyatning turlariga ham arab tilining ta'siri kuchli bo'lgan. Ammo mahalliy xalqlar islomdan ancha oldinroq o'z ona tillarida yozuvni, ma'rifatu-madaniyatni, ilm-fanni rivojlantirishga muvaffaq bo'lganlar. Bu jarayon keyinchaolik islomning ta'sirida yanada rivojlantirilgan. Masalan, kishilarning turmush tarzi islom talabiga moslasha borgan, urf-odat va marosimlar diniy tus olgan, yoshlarga bilim berish uchun maktablar ochilgan, ruhoniylar kadrlar tayyorlash uchun ko'plab madrasalar, qiroatxonalar tashkil etilgan.

Islomda, eng avvalo, din asoslari -«arkon- ad-din» hisoblanuvchi besh asosiy

amaliy va marosimchilik rukn talablarini bajarishni talab etilgan. Hozir ham shundayo. Bular, birinchidan, kalimai shahodatni bilash; ikkinchidan, har kuni besh vaqt namoz o'qish, uchinchidan, har yili ramazon oyida bir oy ro'za tutish; to'rtinchidan, yiliga bir marta shaxsiy molidan zakot berish; beshinchidan, imkon bo'lsa, umrida bir marta haj qilishdan iborat. Islomga xos marosimlar va odatlar mana besh rukn bilan chambarchas bog'liqdir. Islomning bu amaliy va marosimchilik talablari xalqlar turmush tarziga kiritilib, o'ziga xos ma'naviy madaniyatning turiga, an'anaga aylantirilgan.

Diniy qadriyatlar, marosimlar diniy tasavvur e'tiqodlar yuzaga kelishi bilan paydo bo'la boshlaydi. Bularning yuzaga kelishi ibtidoiy odamlar, keyinchalik urug' va qabalalar hayotidagi muhim voqealar-farzand tug'ilishi, balog'atga yetish, yakka nikohli oilalar yuzaga kelgach esa, oila qurish bilan bog'liq bo'lgan.

Islom yoyilgan joylarda qurbon hayit keng bayram qilinadi. Musulmon mamlakatlarida bu hayitga tayyorgarlik katta bo'ladi; masjidida maxsus ibodat bo'ladi, va'zxonlik - amri ma'ruf qilinadi. Hayit uch kun davom etadi.

Qurbon hayiti kunlari musulmonlar o'z ota-onalari, qariyalar va bemorlarni borib ko'radilar, ularga qo'llaridan kelgan yordamlarini ayamay hurmatini o'z o'rniga qo'yadilar, qurbonlik uchun so'yilgan mollarning go'shtlaridan bir qismini o'z urug'-aymoqlariga, xususan kam ta'minlangan oilalarga, beva – bechorlarga tarqatadilar. Qurbonlik marosimining yana bir tartibi so'yilgan mollar go'shtidan taom tayyorlab, xudoyi shaklida yig'inlar o'tkazadilar.

Islomda muqaddas kunlardan biri juma kunidir. Islom keng tarqalgan mamlakatlarda juma dam olish kuni deb e'lon qilingan. Shu kuni taqvodor musulmonlar o'z kunlarini toat-ibodat bilan o'tkazadilar. Uning muqaddas kun deb hisoblanishining sababini ruhoniylar quyidagicha izohlaydilar: Alloh olamni yaratishni juma kuni boshlagan. Muhammad ham, Ali ham juma kuni tug'ilganlar. Muhammad 622 yilda Makkadan Madinaga juma kuni hijrat qilgan. Islomning «shu'lasi» ham olamga ayni juma kuni tushgan. Shu sababi musulmonlar juma kunini ulug'laganlar. Bu kunlarda masjidlarda Qur'on o'qiladi, va'zxonlik qilinadi, dindorlar bo'lgan xonadaonlarda xudoyi o'tkaziladi. Shu kunlari payg'ambarning qilgan ishlari to'g'risida hikoya qilish savob hisoblanadi.

Islomdagi oqimlar va mazhablar. Sunniylik - bu islomda izchil, sobitqadam yo'nalish hisoblanadi. Musulmonlarning juda ko'pchilik qismi – 92,5 foizi sunniylikka e'tiqod qiladi. Qolgan 7,5 foizi shialikka e'tiqod qiluvchilardir. Sunna arabcha odat, an'ana, hatti -harakat tarzi degan ma'nolarni bildiradi. Sunniylik degan so'z arabcha «Sunna»-«muqaddas rivoyat», ya'ni Muhammad to'g'risida rivoyatlar va uning hadislarini to'plami degan tushunchadan olingan. Yana Sunna farzdan farqli ravishda bajarilishi ixtiyoriy bo'lgan ko'rsatmalar, amallardir.

Sunniylik qisman Eron, Janubiy Iroq, Yaman, Markaziy Osiy, Kavkaz, Volga bo'yi, Sibir, Ural, Kichik Osiyo, Misr va Shimoliy Afrika, Indoneziya, Malayziyada keng tarqalgan. Uning muqaddas shaharlari Makka va Madinadir. Unda to'rtta shariat maktabi-hanafiylar, malikiylar, shofi'iyalar, xanbaliylar mazhablari bor.

Shialik. Guruh, partiya, tarafdorlar degan ma'nolarni beradigan arabcha «shia» so'zidan kelib chiqqan. Shialik o'z ahamiyat va tarafdorlari soniga ko'ra islomdagi ikkinchi yo'nalishdir. U VII asrning ikkinchi yarmida musulmonlarning maxsus va

siyosiy guruhi sifatida yuzaga kelgan. U choryorlarning to'rtinchisi Ali tarafdorlarini birlashtirgan. U ko'p sektalarga bo'linib ketgan. Ular orasida ismoiliylar hozir 35 millionga yaqin tarafdorga ega bo'lib ogaxonlar boshchiligidagi hozir ham islom doirasida katta rol o'ynamoqda. Shialar Arabistonda paydo bo'lgan teokratik davlat – xalifalik dagi oliy hokimiyat uchun oldib borilgan keskin kurash jarayonida kelib chiqqan. Xalifalikning barcha bosh lavozimlari 644 yildan boshlab Quraysh qabilasiga mansub bo'lgan xalifa Usmon boshliq Makkalik oqsuyaklar-muhojirlar qo'liga o'tgan. Shialar Alidan boshqa barcha sunniy xalifalarni uzurpatorlar, ya'ni siyosiy hokimiyatni zo'ravonlik bilan qo'lga olgan kishilar deb hisoblaydilar. Bular Alining avlodi bo'lgan 12 imomdan iborat o'z sulolalarini ularga qarshi qo'yganlar. Ular Alini, uning o'g'illari-Hasan va Husaynni hamda ularning avlodlarini shahid, deb hisoblashgan.

Horijiyalar. (Al-xavorij) Bu oqimning nomi «chiqish», «qarshi bo'lish», «isyonchilar» ma'nolarini anglatuvchi arabcha «xaraja» so'zidan olingan. Bu oqim islomdagi ilk sektalardan hisoblanadi. U Ali bilan Muoviya o'rtasida xalifalikning oliy lavozimini qo'lga kiritish uchun olib borilgan keskin kurash jarayonida paydo bo'lgan. Xorijiyalar 661 yili Alini o'ldirishgan. Muoviya xukmronligi yillarida (661-680) va undan keyin xorijiyalarning yirik qo'zg'olonlari bo'lib o'tgan. Ular X asr Shimoliy Afrikada hatto o'z davlatlarini – rustamiylar sulolasini ham o'rgatishga muvaffaq bo'lishgan. Xorijiyalar o'z davrida birmuncha demokratik shiorlarni ilgari surishgan. Bu oqim tarafdorlari hozirgi paytda avvalgi siyosiy faolligini yo'qotganyu ular Jazoir, Umon, Tanzaniya, Livan kabi mamlakatlarda uchraydi.

Sufizm – islomdagi yirik oqimlardan biridir . uni sufiylik yoki tasavvuf ham deyiladi. Bu islomdagi diniy-mistik falsafiy oqim bo'lib, ta'limotning asosiy ma'nosi islom va xudoga munosabatdir. Zohidlik va mistik asosga qurilgan bu oqim ruhiy kamolotga erishishning asosiy yullari 4 bosqichdan iborat deb hisoblangan. Bular shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqatdan iborat bo'lib, har bir bosqichning murakkab talablari musulmonlar umrini tamoman qamrab olgan. Sufiylik iqimi tariqatlari o'rta asrlarda har xil joylarda turli ko'rinishda bo'lgan. Masalan, O'rta Osiyoda naqshbandiylik yassaviylik kubroviylik Kavkazda - muridizm, Tataristonda – voisovchilar va boshqa tarlari tarqalgan.

Zaydiylar. Feodal nizolar zaminida VIII asr o'rtalarida shia musulmonlari safidan yana bir guruh ajralib chiqib, mustaqil zaydiylar sektasini tashkil etgan. Bu sekta – Alining evarasi, Husaynning nabirasi 740 yili Kufada ummaviylar sulolasidan bo'lgan xalifa Xishomga qarshi xalq qo'zg'oloniga boshchilik qilgan Zayd ibn Ali nomi bilan atalgan va shialarning uchinchi imomi Zayd xalifa qo'shinlari bilan bo'lgan jangda o'z tarafdorlari bilan birga halok bo'lgan. Zaydiylar 864 yili Eronning shimolida o'z davlatlarini to'zishgan. 901 yili esa ular Yamanda davlat xokimiyatini qo'lga olishgan. Bu davlat 300 yilgacha yashagan. Zaydiylar diniy ta'limotning shakllanishiga ishonishni, Qur'on «azaldan» mavjudligini, iroda erkinligi mavjudligini, diniy e'tiqodni amaliy harakat bilan mustahkamlash zarurligini tan olganlar. Ular ko'pgina shia marosimlariga amal qilishgan, biroq o'z turmush tarziga ko'ra sunniylarga ham yaqin turgan.

Ismoiliylar. Bu sekta tarafdorlari shialar orasida eng ko'pchilikni tashkil etgan. Sekta VIII asrning 2-yarmida Bog'dod xalifaligida paydo bo'lgan va imom Ja'farning



o'g'li Ismoil nomi bilan atalgan. Ismoiliylar diniy ta'limotida go'yo butun olamni yaratgan «dunyoviy aql» va «dunyoviy ruh» ga e'tiqod etish asosiy o'rinni egallagan. Ularning ta'limotida neoplatonchilar falsafasi va buddaviylikning katta ta'siri sezilardi. Ismoiliylar turli davrlarda xalqlarga turli payg'ambarlarning yuborilishi – «dunyoviy aql» ning yerda namoyon bo'lishidir deb hisoblashardi. Ular yettita payg'ambarni – Odam Ato, Nuh Ibrohim, Ismoil, Muso, Iso va Muhammad (s.a.v.)ni tan olishadi. Ularning fikricha, imomlar payg'ambarlarning vorislari hisoblanadi. XI asrdan boshlab ismoiliylar sinfiy ziddiyatlarning kuchayishi natijasida turli qismlarga bo'linib ketgan. Hozirgi paytda ismoiliylar O'rta Sharq mamlakatlarida, Hindiston, Uganda Keniya, Tanzaniya, Tojikistonning tog'li Badaxshon viloyatida mavjud.

Druzlar. O'z ta'limotiga ko'ra, bu sekta ismoiliylardan kelib chiqqan. Druzlar vahdoniyatga – Allohning yagonaligiga e'tiqod etadilar va 998-1021 yillarda xukmronlik qilgan fotimiylar xalifasi Hakimni xaloskor sifatida yerga ikkinchi marta keladi deb hisoblaydilar. Ular o'zlarining «muqaddas» yozuvlariga ega. Ularda diniy marosimlar unchalik rivoj topmagan, shu sababli masjidi ham yo'q. Barcha sektalar kabi, druzlar ham shariatni, shia imomlarini tan oladilar.

Islomni e'tiqodga aylantirish davrida O'rta Osiyo xalqlari madaniyati. Islom g'oyalari yoyilishi arafasida O'rta Osiyo xalqlari arablardagiga nisbatan rivojlangan madaniyatga ega bo'lganlar. VIII-IX asrlar bo'sag'asida Amudaryo bilan Sirdaryo oralig'ida yashagan xalqlarni ilmiy adabiyotlarga saq massaget, xorazmiy, sug'd, baqtriyaliq uyusho'n, tohir, qo'ng'ir, eftalit (oq xun)lar deb kelingan. Hozirgi O'zbekiston hududida, hususan Toshkent vohasida miloddan avvalgi 1 min yillikning o'rtalaridayoq turk elati va madaniyatini o'zida ifodalagan qabilalar vujudga kelgan. Ko'chmanchm turkiy qabilalarning ko'pchiligi miloddan oldingi X-U! Arlardayoq o'troqlangan, shaharlarda hunarmandchilik savdo-sotiq, qishloq joylarda, tog' etaklarida chorvachilik rivojlangan, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy yaqinlashuv ham amalga osha boshlagan.

O'rta Osiyoda boshqa joylardagi kabi sof quldorlikka asoslangan munosabatlar bo'lmagan. Feodal munosabatlari ham demokratik elementlari bilan ajralib turgan. Chunki sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchiliqerkin hunarmandchilik an'analari u munosabatlarga alohida mazmun kiritganki, bu xolat chuqur ilmiy tadqiqotga muhtojdir. Eron, Hindiston va Xitoy mamlakatlari bilan savdo-sotiq olib borilgan. Yunon, hind va O'rta Osiyo xalqlari madaniyatining aralashib ketishi tufayli Sharqda o'ziga xos juda yuksak ellinistik madaniyat vujudga kelgan. O'rta Osiyo «Ipak yo'li» orqali Sharq bilan G'arbni bir-biriga bog'lovchi, tajribalarni yoyuvchi maskan bo'lgan. Natijada Gresiya va Hindiston madaniyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Bu yerda pul-tovar munosabatlari ham rivojlangan. Tarixiy asarlarda Baqtriya «2000 shaharli mamlakat» sifatida tilga olingani bejiz emas. 1932 yilda Amudaryo bo'yida eski Termiz yaqinidagi Ayritom xarobasidan ikkita toshtaxta topilgan. Ularda kuy chalayotgan uch ayol obrazi tasvirlangan. Bu faqat monumental san'at bo'libgina qolmay, balki o'tmishda O'rta Osiyoda musiqa madaniyati ham rivojlanganligidan dalolatdir. 1965 yilda Qadimiy Afrosiyob shaharchasi xarobalaridan topilgan tasviriy san'at obidalari VII asrga oid bo'lib, go'zalligi jihatidan shu vaqtgacha jahonda topilgan yodgorliklardan ustun turadi.

Markaziy Osiyo xududida ibtidoiy djamoalarning tuzumining yemirilishi bilan miloddan avvalgi 2-ming yillikning oxiri, 1-ming yillikning boshlarida Baqtriya, So'g'd, Xorazm, Parfiya kabi davlatlar vujudga kelgan. Miloddan avvalgi VI asrda O'rta Osiyoning katta qismini Eron shohi Kir P bosib olib, uni ahmoniylar davlati tarkibiga kiritgan, so'ngra Iskandar Zulqarnayn bu yerlarni ishqol qilib, juda katta boyliklarni, madaniy obidalarni, jumladan, 12 ming xo'kiz teriga tilla suvi bilan yozilgan «Avesto»ning yagona kitobini ham olib ketgan.

VII asr oxirlari va VIII asr boshlaridan boshlab arablar O'rta Osiyo yerlarini istilo qilishga kirisha boshlaganlar va VIII asrning birinchi yarmida uni o'zlariga to'la bo'ysundirishga muvaffaq bo'lganlar. O'lkada arab istilochilariga qarshi qattiq qo'zg'olonlar bo'lib o'tgan. Muqanna boshliq qo'zg'olonchilarni arablar faqat mahalliy aholining orasini bo'zish vositasi bilan bostirishga muvaffaq bo'lganlar. Ammo bir yomon ishning yaxshi tomoni ham bo'lar ekan. Arablar O'rta Osiyoda VII-VIII asrda avj olib ketgan va xalqni holdan toydirgan qabilalar o'rtasidagi urushlarga barham berdilar. Natijada arab xalifaligiga qaram bo'lgan yirik davlat vujudga keldi. Bunda Somoniylarning alohida o'rni bor. ular islomni keng yoyishda katta rol o'ynaganlar. Ayni chog'da dehqonchilik hunarmandchilikni rivojlantirish uchun ilm-fanga yo'l ochganlar. «davlati Somoniyon» asarining muallifi Ne'matovning yozishicha, o'sha zamonda Movarounnahr va Xurosonda qishloq ho'jaligi, hunarmandchilik va chorvachilik yuksak darajada rivojlangan. Chunonchi, Buxoro viloyatida, Zarafshon vodiysida, Shohrud, Karmish, Shopurkon, Varaxsha kanallarida suv limmo-lim oqib, butun atrofni yashnatib turgan. Samarqand, So'g'd, Afg'oniston, Shimoliy Eron, Xorazm yerlaridan iborat juda katta xududda tarkiy qabilalar jamoasining o'zaro birikishidan iborat Qorahoniylar saltanati vujudga kelgan. Bular davrida ilm-ma'rifat, madaniyat ancha rivoj topib, qator yuksak ilmiy, ijtimoiy-falsafiy asarlar asosan turkiy tilda yaratilgan. Bu asarlar sirasiga birinchi navbatda eslatib o'tilgan Mahmud Qoshg'ariyning «Devoni lug'otit turk», Yusuf Xos Hojibning «Baxt-saodatga eltuvchi bilim» asarlari bilan bir qatorda Ahmad Yugnakiyning «Hibat-ul-haqoyiq», Tavsif, Rabg'o'ziyning «Qissai Rag'bo'ziy» kabi asarlari kiradi.

Ma'naviy va moddiy hayotning turli sohalarida islom nuri ila yo'g'rilgan qadriyatlar izchillik bilan saqlanib, davom etib kelmoqda. To'ylaru ma'rakalarda, turli taomillarda, turmushning turli onlarida xayrli an'analar ko'pincha Qur'on suralari, oyatlari, hadis namunalari orqali odamlar qalbidan o'rin olmoqda. Bunday ehtirom o'tmish avlodlar urf-odatlariga sadoqat ramzi sifatida qabul qilinmoqda va ardoqlanmoqda. Oddiy xalq - ziyoli ham, ishchi ham, dehqon ham faqat tinchlik va hayot farovonligini orzu qiladi. Buni amalga oshirishda esa asriy ezgu aqidalar, qadriyatlar timsoli bo'lgan islom an'analari ham ma'naviy va amaliy yordam beradi

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Yo'ldoxo'jayev H. Rahimjonov B., Komilov M., «Dinshunoslik».-T.: 2001.
2. Jabborov Iso, Jabborov Sanjar. Jaxon dinlari tarixi.- T.: «O'zbekiston» 2002.
3. Dinshunoslik asaolari.-T.: «O'zbekiston», 1995.
4. Xusnitdinov Z. Islom va mazhablar. – T.: 2000.
5. Karimov Ibrohim. Ma'naviyat, falsafa va hayot.-T.: fan, 2001.
6. Xujamurodov I., Sa'dullayev N., Ma'naviy barkamollik – ziynatdir.-T.2001

## 7-mavzu. Islom dinining aqidaviy yo`nalishlari va maktablari

### Reja:

1. Islomdagi ilk bo`linish.
2. Islomdagi oqim va yo`nalishlarning hozirgi kundagi ko`rinishi.
3. Islomdagi mazhablar.

#### 1. Islomdagi ilk bo`linish

VII asrda islom 2 ta yirik oqimga: sunniylik va shialikka bo`linib ketdi. Bu bo`linishning asosida turli hukmron guruhlarining hokimiyat uchun olib borgan kurashlari yotadi. Muhammad payg`ambar (s.a.v.) ning kuyovi, to`rtinchi xalifa Ali vaqtidayoq (656-661) xalifa hokimiyati tan olingani bilan hokimiyat tepasiga Muhammad payg`ambar avlodlarigina kelish huquqiga egadirlar, deb hisoblangan.

1. Xalifalar hokimiyati tarafdorlari (ya`ni xalifalarning Muhammad avlodiga mansubligi shart emas, deb hisoblovchilar) bo`lgan ummaviylar islomdagi an`anaviy diniy ta`limotga amal qiluvchilarni da`vo qilganlar sunniylikni tashkil qildilar.

2. Ali (4-xalifa) va uning avlodlari hokimiyatining tarafdorlari esa shialikni tashkil qildilar.


*Muqaddas Qur`oni karimda musulmonlarga qarata firqalarga bo`linmang, degan mazmundagi ko`rsatmalar bor. Shuning o`zi turli oqimlarga bo`linib, odamlarni to`g`ri yo`ldan adashtirishga dinimiz mutlaqo qarshi ekaniga yaqqol dalil emasmi?*

*Shavkat Mirziyoyev,  
485-bet, 1-jild, 2017.*

*Payg`ambar Muhammad (s.a.v.) ogohlantirib aytganlarki, "Yahudiylar 71 firqaga, nasroniylar 72 firqaga bo`linib ketgan edilar. Mening ummatim 73 firqaga bo`lingaylar. Ulardan bittasigina najot topib omon qolur, qolganlari esa do`zax ahlidirlar".*

*Buxoriy, Muslim, Abu Dovud va Termiziy rivoyatlari.*

## ISLOMDAGI ASOSIY BO'LINISHLAR



1. **Sunniylik siyosiy oqimi** (“Sunna” soʻzidan olingan boʻlib, asl islom anʼanalari tarafdorlari degan maʼnoni bildiradi) – tarafdorlari oʻzlarini ahl as-sunna, yaʼni sunna ahli deb ataydilar va Muhammad paygʻambar (s.a.v.)ning shialar tomonidan buzilayotgan anʼanalariga faqat bizgina amal qilyapmiz, deb hisoblaydilar. Islomning Muhammad (s.a.v.) davridayoq shakllangan taʼlimotining toʻgʻriligini, Sunnani (Hadisni) Qurʼondan keyingi ilohiyoti va shariatning ikkinchi manbai deb tan olgan, islomning anʼnaviy diniy marosimlariga, maishiy, ijtimoiy qoidalariga amal qiladigan har bir musulmon sunniy hisoblanadi. Bugungi kunda sunniylar butun jahon musulmonlarining asosiy qismini tashkil etishadi.



**Sunniylik (Ahli sunna val-jamoa)ga mansublikni bildiruvchi asosiy belgilar**

**1. Islom ta'limotida iymon shartlari 7 ta aqidaga asoslanadi:**

- 1) Allohga ishonish: Alloh dunyodagi barcha mavjudotlarni yaratgan.
- 2) Farishtalarga ishonish: farishtalarning mashhurlari: Jabroil, Mikoil, Isrofil, Azroil.
- 3) Payg`ambarlarga ishonish. Qur`onda 25 payg`ambarning ismlari zikr etilgan. Payg`ambarlar 2 xil: a) rasullar; b) nabiyalar.
- 4) Muqaddas kitoblar (Alloh taoloning kitoblari)ga ishonish. Alloh taolo payg`ambarlarga 100 sahifa va 4 kitob roborgan. 100 sahifa Odam, SHis, Idris, Ibrohimga, 4 kitob esa Muso, Dovud, Iso va Muhammad (s.a.v.)ga roborilgan.
- 5) Oxiratga ishonish. O`lgan bandalar go`rga qo`yilgandan so`ng, go`rlarga Munkar va Nakir ismli 2 farishta kirib, ularni so`roq qiladi...
- 6) Taqdirga ishonish.
- 7) Qiyomat kuniga ishonish.

Islom ta'limotida "Islom arkonlari", 5 ta Islom ustuni, diniy marosim talablari (ibodatga kiradigan):

1. Kalima keltirish: Kalimai ibodat; Kalimai shahodat.
2. Namoz o`qish.
3. Ro`za tutish.
4. Zakot berish.
5. Haj qilish (imkoni bo`lsa).

**2. Dastlabki aqidaviy tortishuvlar faqat Qur'on va Hadis asosida bo`lishi kerak:**

- 1) Dastlabki to`rt Xalifa: 1) Abu Bakr Siddiq (r.a-raziyallohu anhu); 2) Umar (r.a); 3) Usmon (r.a); 4) Ali (k.v – karramallohu vajhahu) hokimiyati qonuniy ekanligini tan olish.
3. Oltita hadis to`plamini ishonchli (sahih) deb bilish: 1) Buxoriy; 2) Muslim; 3) Termiziy; 4) Abu Dovud; 5) Nasoiy; 6) Ibn Moja hadislar to`plamini ishonchli deb bilish.
- 4) To`rtta diniy – huquqiy mazhab:
  - A) Hanafiylik
  - B) Molikiylik.
  - V) SHofiylik.
  - G) Hanbaliylik.

Islom davlatlari hududlarining kengayib borishi, turli din, toifa, mazhab va mafkura tarafdorlarining musulmon bo'lishi oqibatida aqidaviy masalalar yana ham murakkablashib ketgan. Buning ustiga turli tomonlardan musulmonlar aqidasi buzishga urinish va tanqid qilish ham avj olgan.<sup>3</sup> Ana shunday murakkab holatda Sunniylik (ya'ni Ahli Sunna val-jamoa) aqidasi va fikrlarini ilmiy asosda jamlash va tartibga solishni taqozo etgan. Bu ishni musulmon olamining mashriq tomonida Abu Mansur Moturudiy va ikkinchi tomondan Abulhasan Ash'ariy uddasidan chiqqan. Ahli sunna val-jamoa (sunnilylik)ning aqidaviy masalalari shu ikki olim shaxsiga nisbat berilib (ash'ariylik, moturudiylik) nomlanadigan bo'lgan. Ahli Sunna val-jamoa faqatgina aqida bobida emas, balki boshqa sohalarida ham o'ziga hos mazhablarni birlashtirgan.

Ahli Sunna val-jamoaning o'ziga xos

tavsif maktabi ham bor. Ularning mashxur tavsiflari jumlasiga Abu Mansur Moturudiyning "Ta'vilotu ahli sunna", Abul Barokot Nasafiyning "Madorik ut-Tanziyl", Ismoil Haqqiyning "Ruh ul-bayon" tavsiflari va boshqalar kiradi. Sunniylik (ahli sunna val-jamoa)ning o'ziga xos hadis sharhi maktabi ham yuzaga kelgan. Bu maktabning yirik namoyondalari ichida Asqaloniy, Badriddin Ayniy, Mulla Ali Qori kabilar bor. SHunga o'xshash islomiy ilmlarning barcha sohalarida Ahli Sunna val-jamoaning o'z maktablari mavjud.

XX asr oxirida islomning dunyodagi siyosiy mavqei kuchayishi natijasida sunniylik va shialik o'rtasidagi munosabatlar ham keskinlashgan. Bunday holat mamlakatlar o'rtasidagi (Eron-Iroq), shuningdek, turli mamlakatlarning ichki hayotida (Saudiya Arabistoni Livan) ham ko'zga tashlanib, ko'p holatlarda uchinchi darajali ahamiyat kasb etgan (Eron –Iroq) yoki osongina hal etilgan. Sunniylikning ko'pgina o'ziga xos hususiyatlari hozirgi vaqtda islomning haqiqiy demokratik din ekanligini isbot qilishda dalil sifatida ko'rsatilmaydi. Islom olamidagi davlatlar aholisining ko'pchiligini (Eron va Iroqdan tashqari) sunniylar tashkil etadi.

2. **SHialik** (arab, gurux, tarafdorlar, partiya, ya'ni Alining guruhi degan ma'noni anglatadi) – islomdagi ikkinchi yo'nalishdan biri. Ali va uning avlodini Muhammad payg'ambar s.a.v.ning birdan-bir qonuniy vorislari deb tan olinadigan

*X asrda Samarqandlik mutafakkir, "Imom al-Huda" (Hidoyat yo'lining imomi) dyeb shuhrat qozongan Abu Mansur Moturudiy tomonidan asos solingan Moturudiya ta'limoti butun islom olamida kyeng tarqalgan.*

*SHavkat Mirziyoyev,  
1-jild, 29-byet, 2017.*

*Moturudiya ta'limoti ilm egallash jarayonida bag'rikyenglik g'oyasi asosida inson aql-zakovatining o'rne va ahamiyatiga yuksak e'tibor qaratadi. Bu o'z navbatida ushbu ma'limotlarning kyeng ommalashuvida muhim o'rin tutgan. Bunday g'oyalarga bugungi kunda ham insoniyat katta yehtiyoy syezmoqda.*


*SHavkat Mirziyoyev, 1-jild, 29-byet,  
2017.*

<sup>3</sup>. Islom. Ençiklopediya. –T.: "O'zbekiston milliy ençiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. -81 -bet.

turli yo`nalish va sektalarning umumiy nomidir. O`zining tarqalishi va ijtimoiy-siyosiy mohiyati jihatidan sunniylikdan keyingi o`rinda turadi. Jahondagi musulmonlarning taxminan 8% i shialikka mansub. SHialik VII asr o`rtalarida xalifa Ali ibn Abu Tolib (k.v. –karramallohu vajxaxu) hokimiyati tarafdorlaridan iborat guruh sifatida vujudga kelgan.VII asr oxiriga kelib Iroq va Eronda keng tarqalgan va islomdagi mustaqil diniy yo`nalishga aylangan.

Safaviylar sulolasining birinchi shohi Ismoil XVI asr boshlarida shialikni Eronning rasmiy dini deb e`lon qilgan. Hozir ham u Eronda hukmron e`tiqod shakli hisoblanadi. Iroq, Afg`oniston, Hindiston, Pokiston, Ozarbayjon, Tojikistonda ozroq, Livan va boshqa davlatlarda keng tarzda yoyilgan. SHialar bilan sunniylar o`rtasidagi asosiy farq imomat tushunchasining talqin qilinishidadir. **Imomat** – shialikda davlat boshqarish huquqi haqidagi ta`limot, e`tirof etilgan 5 aqidadan biri. Unga ko`ra, musulmonlar jamoasi yoki davlatida faqat Muhammad payg`ambar (s.a.v) avlodi (kuyovi Ali bilan qizi Fotimadan tarqalgan avlod) hukmron bo`lish huquqiga ega deb hisoblanadi.

### 5.1.3-chizma



### **3. SHialarga, ayniqsa, ja'fariya mazhabiga xos bo'lgan bir qator xususiyatlar:**


- 3) Imomat – davlat boshqaruvini imomlarga xos deb ishonish.
  - 4) Qur'onni va undan keyin o'z imomlari tomonidan rivoyat qilingan hadislarni asosiy manba sifatida qabul qilib, ijmo' va qiyosni rad etish.
  - 5) Ayrim namozlarni bir vaqtda qo'shib o'qish.
  - 6) Tahorat qilishda oyoqlarni yuvmasdan unga mash tortish.
  - 7) Vaqtincha nikohni qonuniy deb bilish (Eron Islom Respublikasida).
  - 8) Taqiya, ya'ni xavfli joylarda o'z e'tiqod va mazhabini yashirish.
  - 9) Azon aytishda “ashhadu anxa Aliyan vali-yulloh” (guvohlik beraman Ali Allohning valiysi, ya'ni do'stidir) iborasini qo'shib aytish.
  - 10) Nasroniy va yahudiy ayollarga uylanish harom deb bilish.
- SHuningdek, taloq 2 odil kishi guvohligida qonuniy kuchga ega bo'ladi.

### **4. SHuningdek, farqli belgilari:**

- 1) Sunniylikda odamlar tomonidan saylanadigan yoki tayinlanadigan diniy yoki dunyoviy rahbar hisoblanadi.
- 2) Sunniylikning kalimasi: “Ashhadu an la iloha illallohu va ashhadu anna Muhammadan abduhu va rasuluh”.
- 3) SHialikda “Olohning inoyati” bo'lib, u bir imomdan ikkinchisiga o'tadi. SHialar Ali (to'rtinchi) (xalifa) va uning avlodlaridan iborat 12 imom (eng oliy rahnamo) hokimiyatini tan oladi. Dastlabki xalifalar Abu Bakr, Umar va Usmonni hokimiyatni zo'rlik bilan egallab olgan shaxslar deb hisoblab, ularni tan olmaydi. 874-878 yillar orasida 7-9 yoshida bedarak yo'qolgan (o'ldirilgan bo'lishi mumkin deb) 12-imom Muhammad al-Mahdiyni ular yashiringan, zamona oxir bo'lganda u qaytib keladi va adolat o'rnatadi, deb hisoblaydi.
- 4) SHialar Qur'onni ilohiy deb e'tirof etadi.
- 5) SHialar kalimai shahodatga “Aliyan valiulloh” so'zini qo'shib aytadilar.
- 6) SHialar Sunniylarning Hadislarini tan olmaydi. SHu boisdan Muhammad va uning avlodlari nomi bilan bo'liq Hadislarni “Axbor” deb nomlangan to'plam tuzganlar. Bu to'plam Qur'ondan keyingi ikkinchi muqaddas manba hisoblanadi.
- 7) SHialar Sunniylar kabi Makka va Madinani muqaddas hisoblash bilan birga, Karbalo, Najaf shaharlarida joylashgan shia imomlari qabrlarini ham ziyorat qiladilar. Bu imomlar xalifalar tomonidan o'ldirilgan deb hisoblaydilar. Din yo'lida shahid bo'lganlar, deb motam (Ashuro) marosimini o'tkazib aza tutadilar, Ular muharram oyining 10-kuni Alining o'fli imom Husayn Iroqdagi Karbalo dashti jangida halok bo'lgan deb hisoblaydilar. SHu boisdan shialar muharram oyining dastlabki 10 kunligida motam tutadi. Unda “SHoh Husayn, voh Husayn” (shaxsey-vaxsey) deb qichqirib motam yirilishi o'tkazadi.
8. SHialik sharoitida ja'fariylik mazhabi hukmron O'rta asrlarda shialikda yuz bergan. Bulardan zaydiylar, ismoiliylar va boshqalar hozir ham mavjud.

**3. Xorijiylar** (arab. – ajralib chiqqan, isyonchi) – islomdagi ilk radikal oqim tarafdorlari. Xalifa Ali (k.v.) bilan ummaviylar o`rtasidagi kurash davomida VIII asr ikkinchi yarmi boshlarida vujudga kelgan. Ular o`z saflariga qo`shilmaganlarni “dindan qaytgan” deb ayblab, ularga qarshi murosasiz kurash olib borgan diniy-siyosiy oqim.

#### 5.1.4-chizma



Umaviy va abbosiy xalifalar VII-IX asrlarda xorijiylarga qarshi kurash olib borib, ularni qirib tashlagan. Ularning qolganlari SHimoliy Afrikada o`z davlatini vujudga keltirgan. Xorijiylar xalifalikdagi ko`pgina qo`zg`olonlarda (Zinjiylar, Abu Muslim qo`zg`oloni) qatnashgan. Hozirgi davrda xorijiylarning ibodiyalar firqasi G`arb mamlakatlari (Jazoir, Tunis va boshqalar)da, Ummon, Tanzaniyada uchraydi. (Islom. Entsiklopediya, 2017, 547-bet).

**4. Mu` tazaliylar** (arab. ajralib chiqqan, uzoqlashganlar) – islomdagi ilohiyot oqimlaridan biri. VIII asr o`rtalarida Arab xalifaligida vujudga kelgan. Asoschilari Vosil ibn Ato va Amr ibn Ubayd. Qur`onni diniy haqiqatning manbai deb e`tirof etadi, uni so`zma-so`z emas, majoziy talqin qiladi. Xalifa Ma`mun (813-833) Mu`taziyalar ta`limotini davlat dini deb e`lon qilgan. Mu`tazaliylar aqidasi (xususan, Qur`on yaratilishi)ni tan olmaganlarni ishdan bo`shatgan. Maxsus jazo muassasasi – mihna tashkil etilgan. Ammo Mu`tazaliylar ta`limoti xalifalikda umuman “shakkoklik” deb e`lon qilingan. Mu`tazaliylar aql-idrokni ilohiyot asosi, deb e`tirof etgan, tasavvufni inkor etishga uringan. Yakkaxudolik va adolat (adl) tarafdorlari deb atalgan. Mu`tazaliylarning asosiy g`oyalari shia islomshunoslari tomonidan o`zlashtirib olindi. Keyinchalik Iroq va Eronda XI-XII asrlarda, Markaziy Osiyoda XIII-XIV asrlarga kelib yo`qolib ketgan. Mu`tazaliylarning gunohi kabira, qabr azobi, avliyolar karomati kabi o`ziga xos qarashlari mavjud. Alloh “Meni ko`ra olmaysan” degan bo`lsada, chiroyli amal qilgan kishilar ko`rishi haqida dalillashga harakat qilgan. Mu`tazaliylar keyinchalik bir necha firqalarga bo`linib ketgan.

**5. Qadariylar** (arab. qadar, taqdir) – islomdagi oqimlardan biri (qadariya) tarafdorlari. Bu oqim islomda aqidaviy masalalar qatori taqdir va iroda erkinligi

g'oyasini ilgari suradi. Taqdir oldindan belgilanadi g'oyasi asosiy o'rinda turadi. Bu oqim jabariylarga qarshi kurashib odillik allohning asosiy sifatlaridan biri, Allohdan faqat adolatli ishni kutish mumkin, gunoh ishlar esa inson faoliyati bilan bog'liq, degan g'oyalarni ilgari surgan VIII asr oxirlarida mu'taziylar bu g'oyani davom ettirgan.

**1. Jabariylar, jabariya** (arab. jabr qiluvchi, majbur qilish) – VII asr oxiri VIII asr boshida islom ilohiyotida paydo bo'lgan oqim tarafdorlari. Jabariya islomda taqdir masalasida adashgan deb tan olingan firqalardan biri hisoblanadi. Sunniylikdagi taqdir masalasini inkor qiladi. Xudo taqdirni oldindan belgilab qo'ygan, insonda hech qanday iroda va faoliyat erkinligi yo'q, bular faqat Xudoda mavjud, inson esa ana shu faoliyatni o'zlashtirib olish imkoniyatiga ega g'oyasini ilgari suradi Jabariyani hokimiyat tepasida turgan umaviylar qo'llab-quvvatlab, ularga qarshi bo'lgan diniy firqa va siyosiy guruhlar ta'qib ostiga olingan.

**2. Mushabbiha** (arab. o'xshatuvchilar, o'xshatish tarafdorlari) – islom ilohiyotda Xudoni odamga o'xshatib tasvirlaydigan ta'limot. Mushabbiha e'tiqodicha, Alloh inson suratida bo'lib, uning sochi, tirnoqlari, ajin, ikki qoshi va undan boshqa a'zolari ham bor. Ular Allohning Qur'oni karimda kelgan sifatlarini to'g'ridan-to'g'ri o'z aqidalari bilan talqin qilgan. Allohning ham inson kabi badan va a'zolari bor, u ham inson kabi o'tirish uchun kurashga muhtoj degan xulosa chiqargan islom ilohiyoti – kalom tarafdorlari mushabbiha tarafdorlarini rad etib, ularga qarshi kurash olib borgan va ularni sanamga sig'inuvchilar deb qaragan.

## 2. Islomdagi oqim va yo'nalishlarning hozirgi kundagi ko'rinishi

Qur'oni karim, Hadisi sharif, ijmo' (arab. ittifoq bo'lish), qiyos va boshqa qo'shimcha manbalardan, har kim ham hukm chiqarib ololmaydi. Fiqh deb mazkur (4 ta) manbalardan to'g'ri hukm chiqarishga aytiladi. Hatto bir oyat ustida sahobalarning turli fikrda bo'lganliklari haqida rivoyatlar bor. Lekin Muhammad a.s. (a.s. – alayhissalom) vafotlaridan so'ng sekin-asta ixtiloflar, nizoli masalalar ko'paya bordi. Hijratning 2-asridan boshlab islom shariatini mukammal talqin qila oladigan yirik allomalar (fiqh olimlari, huquqshunoslar) etishib chiqa boshladi. Ularning eng yiriklari qo'yidagilardir:

1. Imom A'zam (Abu Hanifa No'mon ibn Sobit): 699-767 y.
2. Imom Molik (Abu Abdulloh Molik ibn Anas Asbahiy): 713-795 y.
3. Imom SHofiiy (Abu Abdulloh Muhammad ibn Idris): 767-820 y.
4. Imom Ahmad (Abu Abdulloh Ahmad ibn Muhammad ibn Hanbal): 780-855 y.

*Muqaddas dinimiz bundan buyon ham xalqimizni birlashtirib, millati va tilidan qat'iy nazar, ma'naviy poklanish, odamlarni tinchlik, ezgulik, bag'rikenglik, o'zaro hurmat va totuvlikka undaydigan, o'rnini hech narsa bosa olmaydigan vosita bo'lib xizmat qilishi shubhasizdir.*

*SHavkat Miziyoyev,  
1-jild, 31-bet, 2017.*

Bulardan tashqari ko'plab fiqh olimlari o'tganlar, lekin ularning ijodiy ishlari kitob shakliga keltirilmagan va shuhrat topmagan. Faqat mazkur 4 buyuk zotni etuk ulamo va fuzalo sifatida vojib deb sanalgan. CHunki shunday qilinmasa 4 ta emas 400 mazhab paydo bo'lishi mumkin edi.

Bugungi kunda dunyodagi taxminan 1,77 milliard musulmon aholisining 92,5 foizini sunniylar tashkil etib, ular mazhablar bo'yicha quyidagi nisbatda bo'linadilar: Hanafiyalar 47 foizi, shofiylar 21 foizi, molikiylar 17 foizi, hanbaliylar 7,5 foizini tashkil qiladi.

To'rt mazhab o'rtasida uncha katta farqlar yo'q, ko'p masalalarda bir xillik mavjud. CHunki hammasining ham hukm oladigan manbalari bir. Faqat juz'iy ixtiloflarga mavjud. Masalan, janobatdan g'usl qilishning farz ekanligida ular o'rtasida ixtilof yo'q. Ammo g'uslda necha farz bor, degan masalada fikrlar turlicha. Imom A'zam mazhablarida g'uslda 3 ta farz: og'izni chayqash, burunga suv olib tashlash va butun jasadni yuvish. Imom SHofiiy mazhablarida esa farz bitta – butun jasadni yuvish. Og'iz-burun bu zot nazdida ichki a'zolari hisoblanadi. Imom A'zam rahmatullohi alayh nazdlarida esa og'iz bilan burun tashqi a'zoldan, deb bilinadi. SHuning uchun ularni ham yuvish farz. Mavorunnahr musulmonlari islom dini kirib kelgan vaqtdan boshlab Imomi A'zam (Hanafiy) mazhabiga taqlid qilib kelganlar. O'tgan ulamolarning deyarli hammasi ham shu mazhab asosida asarlar bitib qoldirgan.

***Muqaddas dinimiz bundan buyon ham xalqimizni birlashtirib, millati va tilidan qat'i nazar, ezgulik, bag'rikenglik, o'zaro hurmat va totuvlikka undaydigan, o'rnini hech narsa bosa olmaydigan vosita bo'lib xizmat qilishi shubhasiz.***

*SHavkat Mirziyoyev,  
1-jild, 31-bet, 2017.*

**Islom sunniyligidagi oqim va yo`nalishlar, ko`rinishlari va g`oyalari**

**1. Hanafiylik mazhabi. Asoschisi Imom A`zam (699-767):**

- 1) Fiqhning 4 manbai: 1) Qur'on; 2) Sunna va fikr faqat sahih rivoyatlari asosidagi; 3) Ijmo' (ittifoq); 4) Qiyomatga tayanadi.
- 2) G'usl (cho'milish)da 3 ta farz: og'izni chayqash, burunga suv olib tashlash va butun jasadini yuvish. Chunki og'iz bilan burun tashqi a'zolar hisoblanadi.
- 3) Ilm yo'lini tutish g'oyasi ustuvor.
- 4) Ixtiloflar aniqlashtirilgan.
- 5) Aqid (aqida) muammolarini aqliy va falsafiy dalillar bilan isbotlash, ya'ni ilmiga berilish yo'lidani emas, balki fiqh (huquqshunoslik) ilmi va unga tegishli fanlarni o'zlashtirish orqali odamlarga xizmat qilish va ularning hayotiy muammolarini yechishni ustun bilgan.
- 6) Fiqhni tartibli usulga keltirib, barcha dunyoviy masalalarda foyda va zarar ko'rishda sog'lom aqida ta'limotini shakllantirish.
- 7) Hanafiya bir necha vasiyatnoma "Musnad" nomidagi hadis to'plamlari, "Fiqhi akbar" nomli aqidga doir asarlar qoldirgan.
- 8) XI asrda Hanafiylik Sharqu G'arb, shimolu janubga o'z nufuzini o'tkazdi. Abbosiylar, Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Mamluklar, Temuriylar, Boburiylar, Shayboniylar davlatlari va Usmoniylar imperiyasi tomonidan rasmiy mazhab sifatida qabul qilindi.
- 9) Ko'pincha sud ishlari ushbu mazhab asosida olib boriladi.

**2. Molikiylik mazhabi. Asoschisi Imom Molik (713-795):**

- 1) Madinadagi huquq maktabiga tayanib mazhabga asos solgan. Uning mashhur "Al-Muvatto" kitobi molikiylik mazhabining asosi. Hadis uslubini qabul qiladi.
- 2) U oyat, hadis va ijmo'aga asoslanib hukm chiqargan. Uning ilmiy-huquqiy tafakkuri ko'pincha to'g'ri va uyg'unlashgan. Hanafiy mazhabi kabi urf-odatlarini tan oladi va ilohiy qonunlar bilan uyg'unlashtirish yo'lini tutadi. Ushbu mazhab Ispaniyada keng tarqalgan.

**3. Shofiiylik mazhabi. Asoschisi Imom Shofiiy (767-820):**

- 1) G'uslda farz bitta-butun jasadni yuvish. Og'iz-burun bu zot nazdida ichki a'zolar hisoblanadi.
- 2) Bu mazhabda qiyos va ra'y cheklab qo'llanadi, Qur'on va sunnani yagona manba deb biladi.
- 3) Hadis yoki ijmo'ga tayanib ish ko'rish mumkinligi aytiladi.
- 4) Fiqh bo'yicha uning mashhur asari "Kitob al-Umm" (Ona kitob, ya'ni asosiy kitob) va usul-ul-fiqh bo'yicha "Ar-Risola" asari Shofiiy mazhabining asosiy manbai hisoblanadi.
- 5) Olimlar ijmo'sini (ittifoqini) rad qildi, lekin shofiiylik maktabining iste'dodli olimlari ijmo'ni qabul qilishga majbur bo'ldi.


**4. Hanbaliy mazhabi. Asoschisi Imom Ahmad ibn Xanbal (780-855):**

- 1) Diniy masalalarda erkin fikr yuritishga qarshi bo'lib, shariat qoidalariga qat'iy rioya qiladi.
- 2) Qur'on va Hadislarni erkin talqin etishni qoralagan, shu sabab, bu mazhab keng tarqalmagan.
- 3) Ahmad ibn Hanbal o'z davrida "imomul-muhaddisin" (muhaddislar imomi) deb tan olingan va shuhrat qozongan.
- 4) Manbasi "al-Musnad" kitobini yozgan.
- 5) Imon qalb bilan tasdiqlash, til bilan iqror etish, badan a'zolari bilan amal qilishdir. Amal imonning jue'i bo'lgani uchun u ko'payib ozayadi.



1. **Hanafiylik – sunniylikdagi diniy – huquq mazhablaridan biri.** Abu Hanifa asos solgan. Undan keyin hanafiylik mazhabi qoidalari Abu YUsof YOqub, Muhammad SHayboniy, Quduriy (vaf. 1036) va boshqa asarlarida ishlab chiqilgan. Bu mazhab tarafdorlari fiqhning 4 asosiy manbaini e'tirof etish bilan birga boshqa oqimlar vakillariga nisbatan fiqh talablariga rioya etishning qiyos va ijmo' usullaridan kengroq foydalanadi.

### 5.2.2-chizma



Hanafiylik mazhabi oddiy huquq (urf)dan ham huquqning keng mustaqil yordamchi manbai sifatida foydalanishga sharoit yaratadi. Bu hol hayotiy ehtiyojlar va mahalliy odatlarni hisobga olib huquqiy qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Bu mazhab qoidalari birmuncha engil bag'rikengligi, qulayligi, xalqlar mahalliy an'analarini e'tiborga olganligi sababli XI asrdan SHimol va SHarqqa keng yoyilgan. Kichik Osiyo, Bolqon, SHimoliy Kavkaz, Qora dengiz, Volga bo'ylari, Markaziy Osiyo, Afg'oniston, Hindiston va Xitoyning olis keng hududlariga tarqalgan.<sup>4</sup> Mamluklar, Temuriylar, Boburiylar, SHayboniylar davlatlari va Usmoniylar imperiyasi tomonidan rasmiy mazhab sifatida qabul qilinib, sud ishlari ushbu mazhab yasosida olib borilgan.

Hozirgi kunda hanafiylarning jug'rofiy hududi Markaziy Osiyo davlatlaridan boshlanib, Xitoy, Afg'oniston, Pokiston, Hindiston, Eron, Iroq, Arabiston, Yaman, Misr, Jazoir, Tunis, Marokash, Turkiya, Indoneziya va boshqa musulmon o'lkalariga etib borgan. Misrda Hanafiy mazhabining buyuk muftiylari ma'naviy rahbarlik maqomida turib, "shayxul-islom" nomi bilan ataladi. Hanafiylik mazhabi tarafdorlari Hindistonda 48 mln. dan oshiq. Janubiy Amerika va Braziliyada 25 mln. dan ko'p hanafiy musulmonlari mavjud.<sup>5</sup>

2. **Molikiylik mazhabi** – sunniylikdagi diniy-huquqiy mazhablardan biri. Ushbu mazhab (713-795) Imom Molik ibn Anas qadimiy Madina huquqiy maktabiga

<sup>4</sup> Jo'zjoniy A.SH. Islom huquqshunosligi, hanafiy mazhabi va O'rta Osiyo fiqhllari. T: 2002.

<sup>5</sup> Tulepov A. Islom va aqidaparast oqimlar. –T.: "SHarq", 2013. – 33-34-betlar.

tayanib asos solgan. Uning mashhur “Al-Muvatto” kitobi molikiy mazhabiga bag`ishlangan.

Molikiylik Madinada paydo bo`lgan, Arabiston yarim oroliga, keyin Misr, SHimoliy Afrika va Andalusiyaga tarqalgan. Molikiylik tarafdorlari Muhammad (s.a.v.) hayotliklari vaqtida ilk islomda shakllangan fiqh me`yorlarini tan olgan, fiqhning asosiy manbai sifatida Qur`on va sunnatga tayanadi. Madinaning savodli aholisi yakdillik bilan ma`qullagan qoidalarnigina ijmo` (ittifoq bo`lish) deb hisoblaydi. SHariat hukmlariga monelik qilmaydi. Hozirgi vaqtda ham bu mazhab qoidalarining Marokash, Tunis, Jazoir va Liviyada nikoh-oila va mulkka oid huquqiga sezilarli ta`siri bor. U Liviyaning bir qator jinoyat qonunlari asosini tashkil etadi (Islom. Entsiklopedik lug`at, 2017, 310 bet.)

1. **SHofiiylik mazhabi** asoschisi Abu Abdulloh Muhammad ibn Idris ibn Abbos (ibn Usmon) ash-SHofiy (767-820) G`azoda tug`ilib Misrda hayotdan ko`z yumgan. SHofiiylik – sunniylikdagi diniy-huquqiy mazhablardan biri. Bu mazhab hanafiylik va molikiylikning diniy-huquqiy ta`limotini o`ziga singdirgan bo`lsada, ko`proq molikiylikka yaqin turadi. SHofiiylikda qiyos va ra`y cheklab qo`llanadi, Qur`on va sunnaga yagona manba sifatida qaraladi. SHofiiylikka ko`ra, Sunnat Qur`onni to`ldiradi, xalos, sunnatning o`zi qiyoslab o`rtacha hukm chiqarish uchun asos bo`lmaydi. SHofiiylik tarafdorlari madinalik roviylarning hadislarini ustuvor hisoblab, ular aytgan hadis yoki ijmo`ga (ittifoq) tayanib ish ko`rish mumkin deb biladi. Bu g`oya o`rta asrlarda YAqin SHarq mamlakatlarida keng tarqalgan. X-XII asrlarda Movaraunnahrning ayrim viloyatlarida, SHoshda tarqalgan. XIII asr oxiridan Hanafiylik bu hududda ustun bo`lgan. Keyinchalik bu mazhab ta`siri torayib borgan. Hozirgi vaqtda Misr, Indoneziya, SHimoliy Kavkaz musulmonlari orasida, SHarqiy Afrika mamlakatlarida, qisman Suriyada va Janubiy arab sultonliklarida shofiiylik mazhabi diniy-huquqiy tizimiga amal qiluvchilar bor.

2. **Hanbaliy mazhabi.** Hanbaliylik – sunniylikdagi diniy-huquq mazhablaridan biri. Imom Abu Abdulla Ahmad ibn Muhammad ibn Hanbal (780-855). Bu mazhab diniy masalalarda erkin fikr yuritishga qarshi bo`lib, shariat qoidalariga rioya qat`iy turishi bilan ajralib turadi. Hanbaliylik tarafdorlari Qur`on va hadislarni erkin talqin etishni qoralagan, shu sabab bu mazhab keng tarqalmagan. Faqat IX asr 2-yarmida arab xalifaligida mu`taziliylar va ilohiyotdagi hurfikrlikning ta`qib qilinishi tufayli Hanbaliylik ta`siri kengaydi. XII asrda mustaqil mazhabga aylangan. X asrda Eronda, XI-XV asrlarda Suriya va Falastinda Hanbaliylik izdoshlari ko`p bo`lgan. Undan keyingi asrlarda Hanbaliylik tarafdorlari yana kamayib ketgan. Hozirda Hanbaliylik Saudiya Arabistonida rasmiy e`tirof etilgan, boshqa mamlakatlarda kam uchraydi (Islom. Entsiklopediya, 2017. - 644-bet).

Umuman, mazhablar haqida fikr yuritar ekanmiz, Hanafiylikdagi bag`rikenglik g`oyalari. Abu Hanifa (699-767) kalom ilmida Aqoid muammolarini aqliy va falsafiy dalillar bilan isbotlash, ya`ni kalom ilmiga berilish yo`lidan emas, balki fiqh, ya`ni huquqshunoslik ilmi va unga tegishli bo`lgan fanlarni o`zlashtirish orqali odamlarga

keng ko'lamda xizmat qilish va ularning hayotiy muammolarini echib berishga erishish imkonini ustun qo'ydi. Fiqhni tartibli usul holiga keltirib, barcha dunyoviy masalalarning foyda va zarar ko'rinishlaridagi holatlarini yuzaga chiqarib, sog'lom aqida asosida ta'limotni shakllantirdi.

*Maqsadimiz – islom dinining haqiqiy insonparvarlik mohiyatini, ma'rifiy islomni bolalarimiz ongiga singdirish. Shu yo'lda bizning buyuk ajdodlarimiz qanday uluz ishlarni amalga oshirganlari haqida ular yana shunday maskanlarga kelib o'zlari uchun kerakli bo'lgan, eng muhim bo'lgan bilim va masavvurlarga ega bo'ladi.*

*Shavkam Mirziyoyev,  
2017- yil, 7- dekabr*

**Ijtihod (arab. g'ayrat qilish, intilish)** – faqih tomonidan sha'riy hukmni hosil qilish uchun barcha bilim va toqatini ishga solish. Ijtihod sha'riy hukmi kelmagan ishning maxsus qoidalarni ishga solib sha'riy hukmini aniqlash uchun qilinadi. Muhammad (s.a.v.) tirikligida u kishidan boshqa odam ijtihod qilmagan. Bu mumkin emas edi. Ijtihod Muhammad (s.a.v.) davrlarida vujudga kelib, sahobalarning Muhammad (s.a.v.) faoliyatlari, aytgan so'zlari

xabarlarida ixtilof paydo bo'lgan. Bundan tashqari musulmon jamoasidagi hayot tarzining o'zgarishi tufayli ko'plab huquqiy muammolar tug'ilgan. SHuning uchun ijtihodning asosiy maqsadi yangi yoxud o'tmishdoshlari tomonidan hal etilmagan masalalarni topish, islomga tayanilgan va uni quvvatlagan holda hal etish bo'lgan.

Ijtihod, asosan fiqhga oid masalalarda qo'llangan. Aqida va falsafaga oid masalalarda ijtihod qilish mumkin bo'lmagan. Keyinchalik ijtihod eshigi berkitilgan. Hanafiylerden Kamol ibn Humon ijtihodni da'vo qilgan. Ba'zi zamondosh ulamo va ilmiy muassasalar shaxsiy ijtihod emas, allomalar jamoat bo'lib ijtihod qilish tarafdori bo'lmoqda. Masalan, ijtihodni Islom davlatlari uyushmasi, IHT, Islom fiqhi akademiyalari tashkil qilishi mumkin.

**Fatvo (arab. – tushuntirish, izoh)** – shariat, din qonun-qoidalari asosida ulamolar (muftiy, shayx ul-islom) tomonidan biror diniy, huquqiy, siyosiy hamda ijtimoiy masala yuzasidan chiqariladigan hukm, qaror, izoh, ko'rsatma. Fatvo chiqarish huquqiga ega bo'lgan kishi “muftiy” (“fatvo chiqaruvchi”) deb ataladi. Islomning dastlabki davrlarida Muhammad (s.a.v.) safdoshlari, ayniqsa, dastlabki 4 xalifaning turli huquqiy masalalar yuzasidan bergan izohlari, fiqhga doir chiqargan qarorlari fatvo deb atalgan. Undan keyingi davrlarda e'tiborli faqihning ijtihod yo'li bilan biror masala yuzasidan yoki amaliy ahamiyatga ega bo'lgan biror savolga javob tariqasida bildirilgan fikriga nisbatan fatvo deb atalgan.

*Biz islom dinidan zo'ravonlik va xunrezlik maqsadlarida foydalanishga urinayotgan kimsalarni keskin qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz. Muqaddas dinimizni doimo himoya qilamiz.*

*Shavkat Mirziyoyev,  
1-jild, 30-bet, 2017.*

Fatvo ilmiy bahslarning natijalari bilan birga ijmo' (ittifoq)ni shakllantiruvchi omillardan biriga aylangan. Bu g'oya turli fiqhiy maktablar birlashishiga olib kelgan.

→

O`tmishda fatvo biror masalada ikkilangan hokim, amaldor yoki oddiy kishi so`roviga ko`ra aniq bir shaxsga bog`liq bo`lmagan holda yozma tarzda va umumiy ko`rsatma shaklida chiqarilgan. Bunday fatvolar asosida ma`muriy qarorlar qabul qilingan yoki tasdiqlangan. XI asrdan boshlab keyingi avlodlar uchun muhim darslik va qo`llanmalar bo`lib xizmat qilgan fatvolar to`plamlari tuzila boshlandi. Marvarudiy (vaf. 1069), Muhammad ibn Rushd (vaf. 1126), Umar al-Buxoriy (vaf.1141), Hasan al-Marg`inoniy (vaf. 1203) kabi fiqhlar tomonidan tuzilgan to`plamlar islom olamidagi ilk va eng mashhur fatvolar to`plamlari hisoblanadi.<sup>6</sup> Sunniylik islomda ortodoksal (haqiqatga asoslangan) diniy ta`limot hisoblangan, o`rta asrda undan firqalar ajralib chiqmagan. O`rta asr oxirlari va yangi davrga kelib unda firqa va oqimlar paydo bo`lgan va jamiyat hayotiga salbiy ta`sir ko`rsata boshlagan.

*Dunyo shiddat bilan o`zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo`layotgan bugungi kunda ma`naviyat va ma`rifatga axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olishi, kamolga yetishga intilishiga e`tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir.*

*Shavkat Mirziyoyev,  
1-jild, 27-bet, 2017.*

### **Islomdagi oqim va yo`nalishlarning hozirgi kundagi qo`rinishlari va ularning islom birligiga tahdidi**

**1. Ravshaniylar firqasi. Asoschisi Piri Ravshan (1560-1638).** Afg`onistonda vujudga kelgan islom dinidagi firqa. Ravshaniylar an`analari islom an`analaridan birmuncha farq qilgan. Ta`limoti pushtu dehqonlarining mahalliy hukmdorlar va boburiylar siyosatiga qarshi qaratilgan harakat. Bu firqa XVIII asr 30-yillarigacha davom etgan, keyinchalik bostirilgan. Ravshaniylar aqidasi sof islom aqidalaridan farq qiladi.

**2. Ahmadiylik firqasi. Asoschisi G`ulom Ahmad Qodiyoniy (1835-1908).** Hindsitonning Panjob viloyati Qodiyon qishlog`ida tug`ilgan. U islom asoslaridan chetlashib, g`ayriislomiy g`oyalarni yaratgan. Diniy ilmlarni mustaqil o`rgangan va islomga mutlaqo yot aqida va jamoaga asos solgan. Ingliz mustamlakachilariga xizmat qilgan. So`ngra payg`ambarlik da`vosi bilan chiqqan va o`zini, sof islom ta`limoti himoyachisi qilib ko`rsatgan.

**3. Vahhobiylik firqasi – noto`g`ri oqimlardan biri. Asoschisi Muhammad ibn Abdulvahhob (1703-1791).** Vahhobiylik “dinni tozalashga, Muhammad (s.a.v.)davridagi asl holiga keltirish”ga harakat qiladi. “Ilk islom axloqlaridan chekingan” musulmonlarga qarshi “kurashadi”. Payg`ambarlikni da`vo qilgan. Makka va Madinani egallab tarixiy obidalar, sahobalar dafn etilgan joylarni vayron qilgan deb, ular fikriga turli xil obida, mozorlar va avliyolarga sig`inishning islomga zid deb hisoblaydilar. XVIII asr oxiri va XIX asr birinchi choragida

<sup>6</sup>. Islom. Ensiklopediya. – T.: “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 506-507 – betlar.

vahhobiylar tarafdorlari batamom qirib tashlandi. Vahhobiylik va “Hizb-at-tahrir” o`rtasidagi farq:


- 1) vahhobiylik – asosan payg`ambarimiz Muhammad (s.a.v.) zamonidagi islomga qaytish da`vosi.
- 2) vahhobiylar davlatni xalifalik tarzida boshqaruv tarafdori emas. Hizbchilar esa aynan xalifalik boshqaruvini o`rnatishni istaydi.
- 3) har ikki oqim aqidada farq qiluvchi fikrga ega.
- 4) vahhobiylik oqimida jihad e`lon qilish ko`zda tutilsa, “Hizb at-tahrir” bunday harakatni asta-sekin, bosqichma-bosqich amalga oshirishni targ`ib qiladi.

**4. Nurchilar firqasi.** Asoschisi Badiuzzamon Said Nursiy (1873-1960), Turkiyaning Bitlis viloyati Andol shahri Nurs qishlog`ida kurd millatiga mansub oilada tug`ilgan. Turkiyada dunyoviy davlat o`rniga islom davlatini tuzish g`oyasini ilgari surgan Nurchilar mustaqillik yillarida (1991-1998) O`zbekistonga ham kirib kelgan. “Turk litseylari” o`qituvchilari bu oqim (turkiyalik) tarafdorlari edi. Bularga 2000 yil yanvarida chek qo`yildi.

5. SHuningdek, panislomizm, panturkizm, paneronizm, pansovetizm kabi oqimlar ham mavjud.

### 3. Islomdagi mazhablar

#### 5.3.1-chizma



**Islomdagi asosiy yo`nalishlar bir-biridan farqlanuvchi 5 turga bo`linadi:**

**1. Islomda 3 asosiy yo`nalish vujudga kelgan:**

- 1) Sunniylik.
- 2) SHialik (arab. guruh, tarafdorlar).

3) Xorijiyalar (arab. ajralib chiqqan, isyonchi) – islomdagi ilk radikal oqim tarafdorlari, o`rta asrlarda ko`p firqalarga ajralib chiqqan, keyinchalik yo`qolib ketgan, faqat ibodiyalar (abodiy) firqasi saqlanib qolgan.

**2. Islomdagi firqalar, mohiyatan aqidaviy ta`limot va marosimchilik** masalalarida oz yoki ko`p darajada bir-biridan farq qiladigan diniy guruhlar. Islomda firqalarning eng ko`pi shialikdan ajralib chiqqan. Bular:

**1. Shialik:**

- 1) Qarmatiular.
- 2) Ismoiliular.
- 3) Zaudiular.
- 4) Nusauriular.
- 5) Aliilohiular.
- 6) Druzlar va h.k.

Yangi davrda vujudga kelganlari:

- 1) Bobiular.
- 2) Bahoiular.

**2. Sunniylik**

Sunniylik islomda ortodoksal (haqiqatga asoslangan) diniy ta`limot hisoblangan va o`rta asrda firqalar ajralib chiqmagan. O`rta asr oxirlari va yangi davrga kelib unda firqa va oqimlar paydo bo`lgan. Bulardan:

- 1) Ravshaniylar (XVII asr).
- 2) Ahmadiya, voisovchilar firqalari (XIX asr).
- 3) Vahhobiylik.
- 4) Mahdiylik.
- 5) Panislomizm kabi diniy-siyosiy oqimlar.

**5.3.2-chizma**

**3. Mazhablar, shariat mazhablari ham islomdagi ajralishning alohida shaklidan iborat.**

**4. Ilohiyat oqimlari bo`lib, ular islom ilohiyotining shakllanish bosqichida ilohiyatga doir ayrim masalalar bo`yicha ixtiloflar tufayli vujudga kelgan.** Bulardan:

- 1) Jabariylar.
- 2) Qadariylar.
- 3) Sifatiylar.
- 4) Murji`iylar.
- 5) Mu`taziliylar.

Ortodoksal (haqiqatga asoslangan) ilohiyot ta`limoti bo`lgan Kalom shakllanib hukmron roly o`ynagach, ilohiyot oqimlarining barchasi yo`qolib ketgan.


**5. So`fiylik yoki tasavvuf tariqatlari.** Tasavvuf, so`fiylik – islomda insonni ruhiy va axloqiy komillik sari yo`llovchi ta`limot. 30 dan ortiq tasavvuf (ya`ni so`fiylik) tariqatlari mavjud. Tasavvuf atamasi (so`fiylik qiluvchi) tasavvuf izidan boruvchi so`zlaridan kelib chiqqanligi haqida turli taxminlar mavjud. Tasavvuf, suvf – jun, po`stin so`zidan olingan. Ilgari zamonda tarki dunyo qilgan zohid, o`zini Xudoga bag`ishlagan odam, odatda, dag`al jundan kiyim kiyib yurgan. Tasavvufga (so`fiylikka) asos solgan tarkidunyochilik islom dini bilan deyarli bir vaqtda paydo bo`lgan. Muhammad (s.a.v.) ning ayrim safdoshlari Abu Dardo, Abu Zarr, Huzayra ibn YAmom va boshqalar shunday kayfiyatda bo`lgan. Islomda zohidlik oqimi 8-asr

o`rtalari va 9-asr boshlarida shakllangan. So`fiylik (tasavvuf) namoyondalari Qur'on oyatlari mazmuni ustida mushohada qilish, ilohiy kitob va Muhammad (s.a.v.) hadislarini ko`rsatmalariga qat'iy rioya qilgan. Bog`dod va Xurosonda so`fiylik maktablari mavjud bo`lgan. Inson va uning Xudoga munosabati qanday bo`lishi kerakligi haqidagi ta'limotni yaratgan.

*Yosh avlodni turli terrorchi va radikal tuzilmalar faoliyatiga jalb qilishga yo'l qo'ymaslik borasida birgalikda aniq chora-tadbirlarni kuchaytirish zarur.*

*Shavkat Mirziyoev,  
1-jild, 422-bet, 2017.*

### 5.3.3-chizma



**Markaziy Osiyoda so'fiylik (tasavvuf) tariqatlari**

**1. Naqshbandiylik – tasavvuf tariqatlaridan biri Bahouddin Naqshband (1318-1389) Buxoro viloyati Kogon tumanida tug'ilgan, naqshbandiya tariqati asoschisi. Abdul Xoliq G'ijduvoni hamda Bahouddin Naqshband tomonidan yaratilgan, keyinchalik "Naqshbandiya" tariqati deb nom olgan tamoyillar 11 nomdadir.**

1. Hush dar dam – har bir nafasni hushyorlik bilan olish.
2. Nazar bar qadam – har bir qadamni ehtiyotkorlik bilan bosish.
3. Safar dar vatan – o'z vatanida, uyida bo'la turib fikran va zikran butun borliq haqida tafakkur yuritish.
4. Xilvat dar anjuman – o'zi xalq ichida anjumanda bo'la turib, xilvatda o'tirgandek Allohning zikrida bo'lish.
5. Yod kard – til va dil bilan zikr qilish.
6. Boz gasht – zikr paytida xotirni parishon qilmay, Allohning yodida bo'lish.
7. Nigoh dosht – bir nafasda "Kalimai tayyiba"ni dil huzuri bilan tilda takror qilish.
8. Yod dosht – Allohni mudom yod etib, g'aflatdan saqlanish.
9. Vuqufi zamoniy – o'z holidan ogoh bo'lib, shukr va uzrda bo'lish.
10. Vuqufi adadiy – zikrlarda muayyan adadga rioya qilish.
11. Vuqufi qalbiy – dilni Alloh zikri bilan ogoh qilish.

Naqshbandiylikning asosiy mohiyati "Qo'l ishda, Alloh dilda bo'lsin", ya'ni "Dil ba yoru, dast ba kor" shiori edi. 1993 yilda Bahouddin Naqshbandning 675 yillik yubileyi nishonlandi.

**2. YAssaviylik tariqati. Xoja Ahmad YAssaviy (1105-1166)** Sayramda (Qozig'istonning Turkiston viloyati) dunyoga kelgan. YAssaviylik – tasavvufdagi tariqatlardan biri. YAssaviy turkiy-zabon shoir sifatida ham mashhur. YAssaviy tasavvufda "YAssaviya" tariqatiga asos solgan. YAssaviy tariqatining barcha aqidalari uning asari "Hikmat"da bayon etilgan.

*"Diling – Ollohda, qo'ling – mehnatda bo'lsin" degan da'vat buyuk Bahouddin Naqshband bobomiz tomonidan ayni shu maqsadda aytilgan, desak, o'ylaymanki, adashmagan bo'lamiz.*

*Shavkat Mirziyoev,  
1-jild, 494-bet, 2017.*

YAssaviy ta'limotidagi poklik, halollik, to'g'rilik, mehr-shafqat, o'z qo'l kuchi, peshona teri va halol mehnati bilan insonni ham botinan, ham zohiran har tomonlama takomillashtirish kabi ilg'or umuminsoniy qadriyatlar ifoda etilgan.



YAssaviy mol-dunyo to'plashga mutlaqo qiziqmagan, kambag'alparvar va g'aribparvar bo'lgan. YAssaviy zamonining ezilgan toifasi "g'arib", "etim", "faqir"larning homiysi deb hisoblaydi. Mol-dunyo, boylikka va davlat orttirishga mukkasidan ketgan, xasis va ochofat kishilarni beayov tanqid qilgan.

YAssaviy ta'limotida insonning o'zligini bilishni ustun qo'yadi. O'zini bilsa erdi Haqni biladi, Xudodan qo'rqadiyu, insofga keladi. Lekin Haqqa etishish oson emas, uning o'ziga xos qiyinchiliklari bor. YAgona to'g'ri yo'l, u aslida Xudo yo'lidir. Har bir inson komil inson bo'lib etishishida "shayton vasvasasi"dan qutilish uchun o'z jonini ham, mol-mulkini ham ayamasi lozim.

**3. Kubraviylik – tasavvuf tariqati.** XIII asr boshida Xorazmda Najmiddin Kubro (1145-1221) asos solgan Kubroviya tariqati. Kubro buyuk vatanparvar inson edi. U 1221 yilda Xorazmga hujum qilgan CHingizxon qo'shinlariga qarshi jangda shahid bo'ladi. Uning aqidasi ko'ra, inson "olami sug'ro", ya'ni kichik olam bo'lib, unda "olami kubro"ning ya'ni katta olamning barcha xususiyatlari mujassamdir. Kamolotga erishish uchun inson ma'lum riyozatli yo'llarni o'tishi zarur. Buning uchun har bir kishi quyidagi 10 asosga tayanmog'i kerak:

1. **Tavba** – barcha amallarning ibtidosi. Tavba qilgan kishi o'z gunohlarini anglab etadi.
2. **Zuhdi** – bu taqvo, parhez demakdir. Tavba qilgan kishi haromdan hazar qiladi. Man etilgan ishlarni qilmaydi.
3. **Tavakkul** – o'z amallari, fikri va ishlarida yolg'iz, Allohga suyanish demakdir.
4. **Qanoat** – kamolotning eng maqbul yo'li, oznarsa bilan cheklanish, hirsdan yuz o'girish.
5. **Uzlat** – tanholikda ruhni mustahkamlashdir.
6. **Tavajjuh** – butun ichki mohiyatni Allohga qaratish, unga cheksiz muhabbat qo'yish, undan boshqa narsa borligini his etmaslikdir. Murid hamma vaqt yaratganga yuzlanib, undan madad so'rab, unga qalban intilmog'i kerak.
7. **Sabr** – muridlarning toqat va bardoshini sinashdir. Haq yo'li og'ir va mushkul yo'l, uning azobu iztiroblariga chidagan kishilargina maqsadga erishadilar.
8. **Muroqaba** – tafakkurga g'arq bo'lish demakdir va ma'rifatini oshirib borish.
9. **Mulozamat az-zikr (uzluksiz zikr)** – bu o'z xohishicha Allohning ismini fikrida yod qilib turish va butun qalbini u bilan band qilish. SHunday qilganda, pastkashlik, hasad, ochko'zlik, ikki yuzlamachilik kabi razilliklar ko'ngilga yo'l topa olmaydi.
10. **Rizo.** Murid o'zini butunlay Alloh irodasiga topshiradi va Alloh zikri bilan huzurlana boshlaydi. Haq unga va u Haqqa yaqinlashadi. Najmiddin Kubroning tasavvufdagi yana bir buyuk xizmati – uning javonmardlik g'oyalarini tariqatga joriy etganligidir.

*Jamiyatimizda diniy konfessiyalar o'rtasida hamjihatlik va fuqarolar totuvligini mustahkamlashni biz bundan buyon ham eng dolzarb va ezgu vazifamiz deb bilamiz. Shu maqsadda mamlakatimizdagi diniy tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'riladi.*

*Shavkat Mirziyoev,*

*2017 yil 22 dekabr*

## 8 – mavzu Markaziy Osiyo tarixida Xanafiya mazxabining o`rni

### Reja:

1. Islomlashuv jarayoni
2. Moturidiya ta'limotining shakllanishi.
3. Hanafiya mazhabi.
4. Dunyoviy davlat va ulamolar.
5. Tasavvuf tariqatlari.
6. Diniy ta'lim tizimi.
7. Nazariy islom va xalq islomi.

Islomlashuv jarayoni. Islom dinining O`rta Osiyoga kirib kelishi va tarqalishi bevosita arab istilolari va arablar ko`p asrlik hukmronligining o`rnatilishi bilan bog`liq. O`rta Osiyoga arab yurishlari qariyb 643-644 yil atroflarida boshlangan bo`lsa ham, o`lkani uzil-kesil bosib olishga uzoq davrli kurashdan so`ng faqat arab qo`mondoni Qutayba ibn Muslim al-Bohiliy (704-715) erishdi. Mintaqada yangi siyosiy kuchning paydo bo`lishi oqibatida O`rta Osiyo ikki qismga bo`lindi: 1) Movarounnahr («Ikki daryo oralig`i»), va 2) Arodi at-turk («Turklar yerlari», ya`ni arablarga bo`ysunmagan hukmdorlar yerlari). Mazkur ikki hududda islomlashuv jarayonlari turli xilda kecha boshladi.

Movarounnahrning islomlashuviga quyidagi ikki omil bevosita o`z ta`sirini o`tkazdi. Abu Muslim (747-755) qo`zg`oloni davrigacha O`rta Osiyo islomdan oldingi davr hukmdorlari (ixshid, buxor-xudot va boshqalar) o`z mavqelarini saqlab turdilar. Jumladan, ular mahalliy aholini boshqarish va ulardan arablar uchun soliq yig`ish vazifalarini bajardilar. Umaviy hukmdorlari mamlakat ichki ishlariga bevosita aralashmasdan mahalliy sulolalardan o`lpon olish bilan cheklanardilar. Ba`zida bu o`lpon mahalliy aholidan yig`ilgan jizya (boshqa din vakillaridan yig`iladigan soliq) sifatida qabul qilinar edi. Bu esa keyinchalik islom dinini qabul qilgan aholidan oddiy soliq yoki jizya yig`ish masalasida chigallikning kelib chiqishiga sabab bo`ldi. Ikkinchi omil Umaviylar davrida (661-750) arablarning mahalliy aholi tarafidan islom dinini qabul qilishga monelik qilishlari bilan bog`liqdir. Chunki arablar ilk davrda talay imtiyozlarga ega edilar. Bu davr qoidalariga ko`ra, islom dinini qabul qilgan kishi «arab»ga aylanar, ya`ni jamiyatda arablar kabi imtiyozlarga ega bo`lardi.

Bu holda mahalliy musulmonlardan jizya olmaslik, arab va arab bo`lmagan musulmonlarning teng huquqliligi uchun kurash olib borgan murji`iylarning diniy-siyosiy g`oyalari Movarounnahrda keng tarqalish imkoniyatlariga ega bo`ldi. Chunki o`lkada arab bo`lmagan musulmonlarning haq-huquqlari arablar tomonidan poymol etilardi. Murji`iylarning faol harakatlari VII asrning 20-40-yillariga to`g`ri keladi. Murji`iy al-Horis ibn Surayj qo`zg`oloni (734-746) Movarounnahr aholisi tarafidan qizg`in qo`llab-quvvatlandi. I/VII asrda shakllana boshlagan murji`iylarning aynan imon va amalning ayri ekanligi haqidagi qarashlari bu hududda yerli aholining hech bir qiyinchiliksiz islomni qabul qilishlariga, shuning barobarida, yangi shakllanayotgan islom jamiyatida teng huquqlilikka erishishlariga qulay sharoit

yaratib berdi; keyinchalik esa ular garchi arab tilini, qiyin diniy amallarni, o'zlariga butkul yot muhitni to'la anglab yetmasalar-da, ijtimoiy mavqelari va milliy-madaniy qadriyatlarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldilar. Abu Muslim (749 yil) harakati g'alabasi oqibatida arab bo'lmagan musulmonlarning arablar bilan teng huquqlilikka erishishi natijasida murji'iylik g'oyalari siyosiy-ijtimoiy sohadan ilohiyot fani jabhasiga ko'cha boshladi.

Moturidiya ta'limotining shakllanishi. Murji'iyalar ta'limotiga ko'ra, insonning tilda (iqrar bi-l-lison va tasdiq bi-l-qalb) dinni qabul qilishi, uni musulmon deb tan olish uchun kifoya qiladi. Diniy amallarning to'liq bajarilishi ikkinchi darajali masaladir. Keyinchalik murji'iyalar g'oyalari asosida ilohiyot fanida uch yirik ta'limot – Najjoriya, Karromiya va Moturidiya shakllanadi. Moturidiya kalom maktabining vujudga kelishida Samarqand ulamolar muhiti katta rol o'ynadi. Bu davrda Movarounnahr siyosiy markazi arablar ta'siri ostida shakllangan Buxoro shahri bo'lsa ham, madaniy va iqtisodiy hayotda Sug'diyonaning qadimgi poytaxti hali salmoqli o'rin tutar edi. Milliy qadriyatlarni, jumladan, ilohiyot sohasida eski an'analarni ko'proq saqlab qolgan Samarqand madaniy muhitida yangi ta'limotning vujudga kelishi bejiz emas edi. U. Rudolf tadqiqotlarining ko'rsatishicha, Moturidiya ta'limotining paydo bo'lishi bir necha bosqichlarda yuz berdi. Birinchi bosqich murji'iy-hanafiy ilohiyotchilari Abu Muqotil as-Samarqandiy (vaf. 823 y.) va Ahmad ibn Nasr al-Atakiy (IX asr) nomlari bilan bog'liq. Ikkinchi bosqichda Samarqandda al-Juzjoniya (Abu Bakr al-Juzjoniy, Abu Mansur al-Moturidiy, al-Hakim as-Samarqandiy), al-Iyodiya (Abu Bakr al-Iyodiy, Abu Ahmad al-Iyodiy, Abu Salama as-Samarqandiy) maktab vakillari faol harakat qildilar. Ular shu diyorda faoliyat ko'rsatayotgan Abu Hafs al-Buxoriy va Nusayr ibn Yahyo al-Balxiy maktablari bilan birgalikda «ahl as-sunna va-l-jamo'a» nomini oldilar. Keyinchalik uchinchi bosqichda mazkur maktablar ta'limoti o'zaro ta'sir jarayoniga kirishib, XI asrda Abu-l-Mu'in an-Nasafiy (vaf. 1115 y.) va Abu-l-Yusr al-Pazdaviy (vaf. 1100 y.) sa'y-harakatlari bilan ilohiyot tarixiga Moturidiya ta'limoti nomi bilan kirdi. Bu ta'limot keyinchalik Samarqanddan butun islom olamiga tarqalib, ahl as-sunnaning Ash'ariya bilan bir qatorda ikki ilohiyot maktabidan biriga aylandi.

So'nggi tadqiqotlar Movarounnahr hududlarida islomning ilk davrlarida ratsionalizmning keng tarqalganligi haqida guvohlik beradi. O'lkada tabiiyot (Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon al-Beruniy) va falsafa (Abu Nasr al-Forobiy, Ibn Sino) ilmlari bilan bir qatorda ratsionalistik diniy ilmlar ham barq urib rivojlandi. Mu'taziliylar, ismoiliylar, ilk sufiylar (al-Hakim at-Termiziy) madaniy hayot tarixida chuqur iz qoldirdilar. Bunga javoban islom dunyosining markaziy

hududlaridan traditsionalistlar (an'anachilar, ahl al-hadis) ta'limotlari kirib kela boshladi. Islom ta'limotini keyingi davrda paydo bo'lgan yangiliklardan (bid'at) tozalash bu oqimning negiz shiori bo'lib qoldi. Bu tanqidiy ruh muhaddislarga siyosiy sohada ham ancha muvaffaqiyatlar keltirdi. Hadislarni yig'ish, tartibga solish va faqat ishonchlarini to'plamlarga jamlash borasida mislsiz ishlar qilindi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Imom ad-Dorimiy, Abd ibn Humayd al-Kashshiy, Kulayb ibn al-Haysam ash-Shoshiylar hadis to'plamlari bilan islom tarixi zarvaraqlariga o'z ismlarini yozdilar. Natijada muhaddislarning ijtimoiy-siyosiy

mavqei Movarounnahrda, jumladan, poytaxt Buxoroda, beqiyos o'sdi.

Bu esa o'z navbatida markaziy shaharlarda shu paytgacha kuchli mavqega ega bo'lib kelgan hanafiylar va yangi guruh – ahl al-hadis o'rtasidagi ziddiyatni kuchaytirdi. Murji'iyalar va hanafiylarning diniy qarashlaridagi bevosita aloqadorlik bir necha tadqiqotlarda o'z isbotini topgan (Y. van Ess, V. Madelung, U. Rudolf). Darhaqiqat, o'z vaqtida Abu Hanifaning (vaf. 767 y.) arab bo'lmagan musulmonlarning ham teng huquqli ekanligi g'oyasi, ularning jamiyatda kamsitilishlariga qarshi sa'y-harakatlari dastlab uning ilohiyot sohasidagi, keyinchalik esa fiqhiy ta'limotining Movarounnahr hududida tarqalishiga keng yo'l ochgan edi. Endi jiddiy muxoliflar bosimi ostida hanafiylar o'z ta'limotlarini rivojlantirishga majbur bo'ldilar. Abu Abdulloh al-Buxoriy (vaf. 878 y.), as-Subazmuniy (vaf. 952 y.), az-Zandavisatiyning (XI asr boshi) shoh asarlari shu maqsadga xizmat qildi.

Hanafiya mazhabi. Hanafiy faqihlar shahar ahli turli qatlamlari bilan mustahkam aloqalarga ega bo'lib, o'z diniy-ijtimoiy faoliyatlarida ularning manfaatlarini aks ettirar edilar. Shu paytgacha islomshunoslikda Somoniylarning (874-999) hokimiyatga kelishi o'z-o'zidan hanafiylarning mavqelarini kuchaytirdi, deb hisoblanar edi (V. Madelung). Ammo yangi kashf etilgan manbalardan ma'lum bo'lishicha, asli xurosonlik Somoniylar mahalliy aholi va ularning yetakchi vakillari – hanafiylar ta'sir doirasini cheklash va toraytirish uchun ahl al-hadis va shofi'iyulardan foydalanganlar (jumladan, Ismoil Somoniy, 892-907). Ular o'rtasidagi keskin raqobat kurashi ilm sohasida mumtoz asarlar paydo bo'lishiga olib keldi. Shu o'rinda Shams al-a'imma al-Halvo'iy, Shams al-a'imma as-Saraxsiy, Abu Zayd ad-Dabusiy, Faxr al-islom al-Pazdaviy, asSadr ash-Shahid, Abu Hafs an-Nasafiy, az-Zamaxshariy, Alo' ad-din as-Samarqandiy, al-Mutarriziy, Burhon ad-din al-Buxoriy, Faxr ad-din Qodixon, Burhon ad-din al-Marg'inoniyning fiqh metodologiyasi, fiqhning amaliy masalalari, hadis, aqo'id, filologiya, tafsir va boshqa sohalarda yaratgan yuzlab asarlari nomlarini keltirish kifoya. Mazkur asarlar orqali O'rta Osiyo boy madaniy an'analari, diniy tajribasi, huquqiy tasavvurlari islom tamadduni doirasiga kiritildi. Bu bilan islomning to'laqonli, o'z-o'ziga yetarli, mukammal mintaqaviy shakliga asos

solindi. Unda umumislomiy va mahalliy elementlar orasidagi munosabatda hamohanglik, mutanosiblikka erishila borildi.

Dunyoviy davlat va ulamolar. O'rta Osiyoda uzoq vaqt davomida (VIII – XIII asrlar) davlat tuzumi Bag'doddagi holatni takrorlar edi. Yaxshi ma'lumki, Payg'ambar vafotidan (632 y.) so'ng davlat hayotida dunyoviylik tamoyili ustun bo'lib keldi. Ammo islom dinini birinchi navbatda hukmron doiralar tarafidan yagona (mono-din) haq din deb e'tirof etish jamiyat hayotida ulamolar mavqeining yuqori bo'lishiga tabiiy tarzda olib keldi. Chunki din qoidalarini ishlab chiqish davlat tasarrufida emas, balki yetarli diniy tayyorgarlikka ega bo'lgan shaharliklar – ulamolar qo'lida edi. Ular, albatta, bu qoidalarni ta'birlash davomida o'z tabaqasi manfaatlarini esdan chiqarmas edilar. Yoki og'ir va ziddiyatli hollarda shahar ahli qo'llab-quvvatlashiga tayanib, hokimu sultonlarni «diniy shiorlar» ostida tartibga ham chaqirib qo'yishi mumkin edi. Shuning uchun doimo islom dunyosidagi turli mintaqalarda hurmronlik qilgan davlatlar muayyan diniy siyosat olib borishga majbur

bo'ldi. Masalan, Somoniylar kelishuvchan (konformist) ulamolardan o'z siyosatlarini o'tkazishda foydalanib, norozilarini esa ta'qib qildilar. Qoraxoniylar (999-1212) rasmiy diniy mansablarga mahalliy ulamolar o'rniga chekka hududlardan taklif qilingan olimlarni tayinlay boshladilar. Shuningdek, ular yangi o'z kadrlarini tarbiyalash maqsadida madrasalar ta'sis etdilar. Saljuqiylar, Qora-xitoylar, Xorazmshohlar yurishlari oqibatida markaziy hokimiyat qudratiga putur yetdi. Bu esa mamlakat siyosatiga shaharliklarning, ularning yetakchilari – ulamolarning aralashuvini kuchaytirdi. Bunday holat ilmu fanda hozirgacha yaxshi o'rganilmagan hodisa – Buxoro shahri boshqaruviga ulamolar sulolasi – Sadrlar (1102-1238) kelishi fenomenini yuzaga keltirdi.

Mo'g'ullar istilosi (1218-1221) natijasida O'rta Osiyoda o'rnatilgan siyosiy tuzum oldingilaridan tubdan farq qiladi. Unga Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida shakllangan davlatchilik tamoyillari o'rniga Markaziy Osiyo ko'chmanchilik an'analari asos qilib olindi. Barpo etilgan yangi tuzumda dinga, xususan, ulamolarga bo'lgan munosabat butunlay boshqacha edi. O'rta Osiyo siyosiy hayotida shaharlik aholi ahamiyati pasayib, yangi aholi tabaqasi – chig'atoylar roli oshib bordi. Natijada Buxoro va Samarqand hanafiy ulamolari ijtimoiy salmog'i tobora pasayib bordi. Bu esa mazkur maktab ilmiy salohiyatida avval turg'unlikka, so'ngra esa parokandalikka olib keldi. Yangi sharoitda ulamolarning boshqa bir toifasi ahamiyati osha bordi. Ular avvaliga xarizmatik (karomatli) shayxlar, ovloq yerlik (chekka hududlik) shayxlar nomlari bilan ma'lum bo'ldilar.

Tasavvuf tariqatlari. Ma'lumki, islom madaniyati aksariyat hollarda shahar tamadduni bo'lib, u asosan shaharlarda markazlashdi. O'rta Osiyoning chetki hududlari, ayniqsa, turk hukmdorlari qo'l ostida bo'lgan mintaqalarda (Arodi at-turk) islomlashuv jarayoni erkin holda kechdi. Buning natijasida xalq urf-odatlarini, milliy qadriyatlarini, madaniy

an'analari, hatto boshqa konfessiyalar amaliyoti bunday bag'rikenglik sharoitlarida islomiy tasavvurlar bilan uzoq muddatli o'zaro muloqot va ta'sir jarayoniga kirishdi. Shunday qorishiq an'analar vakillari bo'lgan xarizmatik shayxlarning XIII asr siyosiy hayotidagi mavqelari behad oshdi. Ular nafaqat ko'chmanchi aholi, balki shahar aholisining ham e'tiborini o'ziga qaratdi. Kosiblar, hunarmandlar, savdogarlar o'z guruhii manfaatlarini bu shayxlar faoliyatlarida mujassamlashtira boshladilar. Bu esa sufiy tariqatlarining shakllanish jarayonlarini tezlashtirib yubordi. Yangi tariqat nazariy ta'limotlarini ishlab chiqishda tasavvuf tarixining mumtoz davr ta'limotlari qo'l keldi. Bu sohada, masalan Naqshbandiya ta'limoti uchun Xoja Muhammad Porso (vaf. 1420 y.) xizmatlari beqiyos bo'ldi.

Tasavvuf amaliyotining asosini zikr tashkil etadi. Tariqat hayotini tashkil etishda murshid-murid (binom) aloqalari muhim rol o'ynaydi. Aynan shu aloqa jamiyat ichida o'zaro manfaatlarini birgalashib himoya qiluvchi tashkilot tuzilishi uchun asos bo'lib xizmat etdi. Kichik sufiy jamoalari rahbarlarining tariqat sarhalqasi rahbarligida birlashishi ularning jamiyatda qudratli iqtisodiy, ijtimoiy, hatto siyosiy kuchga aylanishiga olib keldi. Ulardan bu o'rinda o'lka hayotida muhim rol o'ynagan Sayf ad-din Boxarziy, Termiz sayyidlari, Sayyid Baraka, Xoja Ahror, Maxdum-i A'zam, Mir-i Arab, Lutfulloh Chustiy, Juybor xo'jalarini atab o'tish mumkin. Siyosiy tarqoqlik yillarida o'z tashkilotlari madadiga suyangan bu shayxlarning mamlakat

siyosiy hayotiga ta'siri yuqori bo'lgan. Xonlar, hukmron doiralari pirlarning qudratli siyosiy mavqeini chegaralash uchun turli usul-lardan istifoda etganlar. Naqshbandiya, Kubraviya, Yasaviya, Ishqiya, Qodiriya tariqatlari shayxlarini bir-biriga qarshi qo'yish siyosati, «shariat maqomini ko'tarish» shiorlari bunda qo'l keldi. Tariqat pirlari tez orada ulamolar qatoriga qo'shib, jamiyatdagi rasmiy diniy mansablarni egallab oldilar. Ular orasida mudarrislik ham bor edi. Ammo an'anaviy madrasa ta'limi va sufiylik tarbiyati orasidagi aloqadorlik, o'zaro munosabat, muvozanat kelajakda tadqiq qilinishi lozim bo'lgan masalalar qatorida qolib kelmoqda.

Diniy ta'lim tizimi. Musulmon dunyosida diniy ta'limning tashkil etilmagan shakli asosiy bo'lib, unda ustoz-shogird binomi muhim rol o'ynaydi. Maktab-madrasa tizimi vujudga kelishida metsenatlik (homiyluk) hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qildi. Davlatning yoki shahar boylarining homiyligi bu tizim bitiruvchilariga o'ziga xos ijtimoiy buyurtma vazifasini o'tar edi. Avvaliga ijtimoiy vazifa hisoblangan o'quv jarayonini tashkil etish ustidan nazorat etuvchi shayx al-islom mansabi ham ko'p o'tmay davlat e'tiborini o'ziga qaratdi. Natijada diniy ta'lim tizimini tashkil etish jamiyat hayotida strategik omillardan biriga aylandi. Kim bu jabha ustidan nazorat o'rnatib, uni boshqara olsa, u jamiyat rivojlanishi yo'nalishlarini belgilay boshladi.

O'rta Osiyodagi diniy ta'lim tizimi mazmunan ikki davrga bo'linishi mumkin: 1) Mo'g'ullar istilosidan avvalgi davr; 2) Mo'g'ullar istilosidan keyingi davr. Bu ikki davr darsliklar ro'yxati, ta'limning maqsadi, undagi o'qitish darajalariga qarab bir-biridan ancha farq qiladi. Temuriy Shohrux (1405-1447) davrida ikkinchi davr yangi diniy ta'lim tizimining tamal toshi qo'yildi. Mazkur tizim, ba'zi kichik tafsilotlarni hisobga olmaganda, to XX asr boshlarigacha o'zgarmay keldi. Uning negizini Movarounnahr va Xuroson ulamolari yaratgan asar-darsliklar qurdi. Bu yerda Moturidiya-Ash'ariya kalomi qorishmasi, hanafiy fiqhi, ahl al-hadis to'plamlari, arab filologiyasi, mantiq bo'yicha darsliklar asosiy o'rinda turar edi.

Islahotlar. Yevropa madaniyatining nisbatan kech – XIX asr kelishi jamiyat hayotining turli o'rtalarida O'rta Osiyoga kirib jabhalarida, shu jumladan, din sohasida ham islrohohlarning boshlanib ketishiga turtki bo'ldi. Usul-i jadid tarafdorlari diniy ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish jamiyatni isloh qilishda hal qiluvchi omil bo'la oladi deb hisobladilar. Usul-i qadim tarafdorlari esa an'anachilik mavqeini egalladilar. Diniy ta'lim islohchilaridan kommunistlar darajasigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tgan jadidchilar dunyoviy ta'lim tizimini yaratishni diniy ta'lim tizimini batamom yo'q qilish orqali amalga oshirish amaliyotini ma'qulladilar. Bu esa o'sha paytda olib borilgan sekulyarizm (hayotning barcha jabhalarini din ta'siridan to'lig'icha tozalash) siyosatiga mos kelardi. Natijada islohchilik harakati din va din peshvolarini ta'qib etish siyosatiga aylanib ketdi. Qatag'on yillarida uch karra olib borilgan «katta tozalash»lar («chistka» – 1927, 1936-37, 1949 yillar) oqibatida ma'naviyat va ma'rifatga talafotlar yetkazildi.

Nazariy islom va xalq islomi. Mazkur xatti-harakatlar salbiy oqibatlaridan eng asosiysi – diniy madaniyatning nazariy qismi daf etilib, diniy hayot dinning quyi darajasi – xalq islomi bilan cheklanib qoldi. Natijada ma'naviy qashshoqlashish chuqurlashib, milliy madaniyat bir taraflama rivojlana boshladi. Diniy hayot oilaviy

marosimlar (janoza, xudoyi), tabibchilik, folbinlik, muqaddas joylarga ziyorat (mushkil-kushod) kabi amallar bilan chegaralandi. Oilalarda, hujralarda noqonuniy (illegal) xususiy diniy ta'lim berish kuchaydi. Tabiiyki, tez orada bu sohaldagi faoliyat nazorat qilib bo'lmalik darajasiga yetdi. Ba'zi diniy faollar siyosiy muxolifat mavqeini egalladilar. Mayda tovar ishlab chiqarish (tomorqa, savdo-sotiq, mayda va o'rta biznes) kapitalistik rivojlanishning negizidir. Bu iqtisodiy muhitning mafkurasi aksar hollarda xalq islomidan oziqa oladi. Mazkur ijtimoiy qatlamlarning kuchayishi yangi diniy ideologlarni maydonga olib chiqdi. Noto'liq, bir tomonlama bilim olgan, nazariy jihatdan zaif din peshvolari ikki yo'l o'rtasida turib qoldilar.

Milliy manfaatlar va mahalliy ulamolar. Islom madaniyati alohida olingan muayyan jamiyatlarda rivojlandi va buning natijasida ma'lum mintaqaviy shakllarga ega bo'ldi. Konkret islom faqat mintaqaviy shakllardan tashkil topgan. Mintaqaviy islom asosida milliy madaniyat, mafkura va manfaatlar yotadi. Uzoq asrlar rivojlanish natijasida O'rta Osiyoda ham islom dini milliy madaniyat bilan chambarchas bog'lanib ketdi.

Natijada O'rta Osiyo sivilizatsiyasi doirasida islomning to'laqonli, o'z-o'ziga yetarli, har taraflama boy shakli vujudga keldi. Unda umumislomiy unsurlar bilan birgalikda regional milliy xususiyatlar ham mavjuddir. Asrlar osha mazkur nazariy va amaliy bilimlar xazinasi saqlovchisi va uni o'zgargan davrga moslab turuvchi – yuksak darajada tayyorgarlik ko'rgan mahalliy ulamolar bo'lib kelgan. Bu ulamolar muhiti – mintaqaviy islomning muhim tashkil etuvchi qismidir. Keyingi ikki asr davomida bu muhitning surunkali zaiflashib borishi oqibatida mintaqamizga islom dunyosining boshqa qismlaridan begona milliy manfaatlar vakillari, ifodachilari bo'lgan yot ulamolarning kirib kelib, faoliyatlarini boshlab yuborishiga sabab bo'ldi. Milliy tiklanish, rivojlanish shartlari diniy hayotda normal holatni shakllantirishni talab etadi.

### **O'tilgan mavzu bo'yicha savollar**

1. O'rta Osiyo xalqlari diniy tajribasi tarixi qaysi davrdan boshlanadi?
2. Islomlashuv jarayonida milliy madaniy qadriyatlar ahamiyati nimada?
3. O'rta Osiyolik olimlardan kimlarni bilasiz?
4. Islom ta'limotini rivojlantirishda o'rta osiyolik ulamolarning roli qanday?
5. Yevropa madaniyati kirib kelishi bilan diniy hayotda qanday o'zgarishlar yuz berdi?
6. Diniy ekstremizmga qarshi kurashda nimalarning ahamiyati bor?

### **Adabiyotlar**

1. Karomatov . Kur'on va o'zbek adabiyoti. T., Fan, 1993.
2. Xayrullaev M.M. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkirlari. T., Fan, 1971.
3. Babadjanov B.M. Politicheskaya deyatelnost shayxov Nakshbandiya v Maverannaxre (1 pol. XVI v.). Dissertatsiya na soiskanie uchenoy stepeni kandidata istoricheskix nauk. T., 1996.
4. Bolshakov O.G. Gorod v konse VIII-nachale XIII v. // Beleniskiy A.M.,

- Bentovich I.B, Bolshakov O.G. Srednevekovyy gorod Sredney Azii. Leningrad, 1973, B. 132-352.
5. Ibragimov N. Ibn Battuta i yego puteshestviya po Sredney Azii. M., 1988.
  6. Islam na territorii byvshey Rossiyskoy imperii. Ensiklopedicheskiy slovar. Pod redaksiye S.M.Prozorova. Vyp. 1-3. M., 1998-2001.
  7. Kamaliddinov Sh.S. «Kitab al-ansab» Abu Sa'd Abdalkarima ibn Muxammada as-Sam'ani kak istochnik po istorii i istorii kultury Sredney Azii. T., Fan, 1993.
  8. Kochnev B.D. Musulmanskiy chekan Sredney Azii // Islam na territorii byvshey Rossiyskoy imperii. Vyp. 3 (2001), S. 69-71.
  9. Radtke, Bernd. Teologi i mistiki v Xurasane i Transoksanii // Sufizm v sentralnoy Azii (zarubejnye issledovaniya). Sbornik statey pamyati Fritsa Mayera (1912-1998). Sostavitel i otvetstvennyy redaktor A.A.Xismatulin. Sankt-Peterburg, 2001, S. 40-76.
  10. Bosworth C.E. The New Islamic Dynasties. A chronological and genealogical manual. Edinburgh, University Press, 1996.
  11. Bibliography of Islamic Central Asia // Compiled and edited by Yuri Bregel. Parts I-III. Bloomington, Indiana University, 1995.
  12. De Weese D. Islamisation and Native Religion in the Golden Horde. Baba Tükles and the Conversion to Islam in Historical and Epical Tradition. Pennsylvania: Pennsylvania State University Press, 1994.
  13. Kavakcı, Yusuf Ziya. XI ve XII asirlarda Karahanlılar devrinde Mavara' al-Nahr Islâm hukukçuları. Ankara, 1976.
  14. Kurt H. Orta Asya'nın Islamlashma Sureci (Buhara orneđi). Ankara. 1998 (Fecr Yayınları, 58).
  15. Madelung W. The Spread of Maturidism and the Turks // Actas IV Congresso de Estudos Arabes e Islamicos. Coimbra-Lisboa 1 a 8 de Setembro de 1968. Leiden, E.J.Brill, 1971, P. 109-168.
  16. Madelung W. The Early Murji'a in Khurasan and Transoxania and the Spread of Hanafism // Der Islam, LIX (1982), P. 32-39.
  17. Paul J. Doctrine and Organisation: The Khwajagan / Naqshbandiya in the First Generation after Baha' uddin // ANOR. No. 1. Halle-Berlin, 1998.
  18. Subtelny, Maria Eva and Khalidov, Anas B. The Curriculum of Islamic Higher Learning in Timurid Iran in Light of the Sunni Revival under Shah-Rukh // Journal of the American Oriental Society, 115 (1995), P. 210-236.



## 2.29 - mavzu. O'zbekistonda faoliyat yurituvchi diniy tashkilotlar

Reja:

1. O'zbekistonda davlat va din munosabatlari.
2. Vijdon erkinligining huquqiy asoslari.
3. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan diniy konfessiyalar va tashkilotlar.

### 1. O'zbekistonda davlat va din munosabatlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni (2017- yil 7- fevral), "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoyishi (2017- yil 15-avgust)ning "Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish" deb nomlangan 5-

yo'nalish doirasida Diniy sohadagi davlat siyosati kontsepsiyasini ishlab chiqish nazarda tutilgan. Mustaqillik islom ma'rifatining rivoji uchun sharoit yaratdi.


O'zbekistonda dunyoviylik bilan diniylik o'rtasida andoza sifatida qo'llash mumkin bo'lgan yangi nisbatning shakllanishi natijasida dinlararo bag'rikenglik va millatlararo totuvlikning ta'minlangani, qolaversa, tabarruk zaminimizning azaldan umumjahon tamadduni markazlaridan biri bo'lgani barchaga ayon.

*O'zbekistonda mustaqil va kuchli davlat qurishdan asosiy maqsad inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat hisoblanadigan va hurmat qilinadigan adolatli jamiyat barno etishdir. Ayni vaqtda musulmon olami va jahon hamjamiyatidagi munosib o'rnimizni yanada mustahkamlashdir.*

*Shavkat Mirziyoyev,  
2016- yil 18- oktabr, 1-jild, 31-bet.*

*Islom – haqiqatni anglash demakdir, u odamzotni ezgu amallarni bajarishga undaydi, har birimizni yaxshilik ba tinchlikka chorlaydi, haqiqiy inson bo'lishni o'rgatadi.*


*Shavkat Mirziyoyev,  
1-jild, 30-bet, 2017- yil.*



**Islom** (arab. – bo'ysunish, itoat etish, o'zini Alloh irodasiga topshirish) buddaviylik va xristianlik bilan birga jahonda keng tarqalgan uch dindan biri. Unga e'tiqod qiluvchilar arabcha “muslim” (“islomni qabul qilgan”, “itoatli”, ko'pligi “muslimin”) deb ataladi. Islom VII asrda Hijoz (g'arbiy Arabiston)da paydo bo'ldi. Musulmonlarning uchdan ikki qismidan ko'prog'i Osiyoda, qariyb 30 foizi Afrikada istiqomat qiladi. Dunyodagi musulmon jamoalari mavjud bo'lgan 120 dan ortiq mamlakatlarning 40 dan ziyodi musulmonlar aholining ko'pchiligini tashkil qiladi. Ma'lumotlarga ko'ra, Indoneziyada 210 million, Pokistonda 150 million, Bangladeshda 110 million, Nigeriyada 80 million, Eron va Turkiyada 65 million, Misrda 60 million, Marokash va Jazoirda 30 milliondan ko'proq musulmonlar yashaydi. Rossiyadagi musulmonlarning soni 20 milliondan, Hindistonda esa 140 milliondan ortiq.

## O'zbekistonda davlat va din munosabatlari 5 ta prinsipga asoslanadi

### 2.1.2 -chizma



Aholisining asosiy qismi musulmon bo'lmagan o'lkalarda ham islomga e'tiqod qiluvchilar soni ortib bormoqda. Masalan, AQSHda 10 million, Frantsiyada 6 million, Braziliyada 5 million, Germaniyada 3,5 million, Buyuk Britaniyada 1,5 Italiyada 1 milliondan ortiq musulmonlar yashaydi. Evropa Ittifoqi bo'yicha jami dinga e'tiqod qiluvchilarning 15 millioni musulmonlardan iborat. Hozirgi kunda ularning soni 50 million atrofida.

XX asrda musulmonlar dunyo aholisining 15-16 foizini tashkil etgan bo'lsa, bugungi kunda bu ko'rsatkich Er yuzidagi har besh kishidan birini tashkil etmoqda. 2025- yilga borib, bu dunyo aholisining 30 foizini islomga e'tiqod qiluvchilar tashkil etishi mumkin.


Misr, Quvayt, Saudiya Arabistoni kabi bir qator mamlakatlarda islom davlat dini (yoki rasmiy din) sifatida tan olingan bo'lsa, "islom" so'zi davlatning rasmiy nomi tarkibiga kiritilgan: Eron Islom Respublikasi, Pokiston Islom Respublikasi.<sup>7</sup>

<sup>7</sup>. Diniy bag'rikenglik va mutassiblik (Yuz savolga-yuz javob). –T.: Toshkent Islom universiteti, 2007.-6-7-betlar.

O'zbekiston aholisining taxminan 92 foizini ya'ni asosiy qismini musulmonlar tashkil etadi. Shu boisdan ham davlat va nodavlat tashkilotlari diniy bag'rikenglik g'oyasini o'zining "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot" barpo etish bosh g'oyasining asosiy g'oyalaridan biri hisoblanadi. (2.1.2.-chizma).

O'zbekiston davlati dunyoviylik asosida shakllangan va barcha dinlar teng hisoblanib, diniy bag'rikenglik rivojlangan. Hamma dinlarga hurmat bilan qaraladi. O'zbekiston aholisining asosiy qismi musulmonligi sababli islom diniga alohida e'tibor beriladi.

**2.1.3 - chizma**



O'zbekiston mustaqillikka erishgach, dunyoviy davlat sifatida, din davlatdan ajratilgan bo'lsa-da, lekin dindor jamiyatdan ajratilmaganligi bois barcha dinlar, shu jumladan, islom diniga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Davlat va diniy tashkilotlar o'rtasidagi munosabat to'g'ri yo'lga qo'yildi. Ya'ni vijdon erkinligiga e'tibor qaratildi. Dinga ishonuvchilar va ishonmaydiganlar o'rtasidagi munosabatlar to'g'ri yo'lga qo'yildi. Bu BMT ustavi hamda 1948- yil 10- dekabrda qabul qilingan inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasiga mos tushadi. Qisqasi, din dunyoviy

davlat tizimi bilan nafaqat murosa qilish, balki umummilliy taraqqiyot yo`lida, u bilan samarali hamkor bo`lishi mumkin.

Din va dunyoviy davlat orasidagi munosabat haqida gap ketar ekan, eng avvalo, dinning davlatdan ajratilishi tamoyili uning asosini tashkil etishini ta`kidlash zarur. Bu haqda Konstitutsiyamizning 61-moddasida shunday deyiladi: “Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi.” Mazkur moddada muhim qoidalar mustahkamlab qo`yilgan. Avvalo diniy tashkilotlar qaysi konfessiyaga taalluqligidan qat`i nazar, bir xil huquqiy maydonda faoliyat olib boradi. Qolaversa, diniy birlashmalar faoliyatini tashkil etish ularning ichki ishi hisoblanadi va davlat nazoratidan xolidir.

Davlatning dinga bo`lgan munosabatini ifodalovchi boshqa bir tamoyil shundan iboratki, davlat dinni xalq ma`naviyatining uzviy qismi sifatida tan oladi. Shundan kelib chiqib, uning rivoji uchun tegishli shart-sharoit yaratishga harakat qiladi.

*Diniy tashkilot va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalar faoliyatiga aralashmaydi.*  
*O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 61-modda.*

1991- yil 11- aprel - O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga asosan “Ramazon hayiti” dam olish kuni deb e`lon qilindi.

1991-yil 14-iyun – O`zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar o`g`risida”gi Qonuni qabul qilindi.

1991- yil 20- iyun – O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga

binoan “Qurbon hayiti” dam olish kuni deb e`lon qilindi.

1991-yil iyul – Buyuk yurtdoshlarimiz, muhaddislar sultoni Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil al-Buxoriyning islomda Qur`ondan keyingi ikkinchi kitob hisoblangan “al-Jomi` as-sahih” (Ishonarli to`plam) asarining birinchi jildi ilk bor Zokirjon Ismoil tomonidan o`zbek tiliga o`girildi va Qomuslar Bosh tahririyati tomonidan 200 ming nusxada chop etildi.

## 2. Vijdon erkinligining huquqiy asoslari

*Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e`tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e`tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo`l qo`lyilmaydi.*  
*O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasi.*

**Vijdon erkinligi** – insonning xohlagan dinga e`tiqod qilish yoki hech qanday dinga e`tiqod qilmaslik huquqini ta`kidlovchi, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1981- yil 25- noyabrda qabul qilingan 36-55-Rezolyutsiyasida qayd qilingan insonning asosiy huquqlaridan biri. Mazkur huquq O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida qayd qilingan va 1998- yil 1- mayda qabul qilingan “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar

to'g'risida"gi qonun tomonidan tartibga solingan. Mazkur qonunning 1 va 4 - moddalari fuqarolarga o'zlarining dinga bo'lgan munosabatini erkin belgilash, marosim va udumlarni bajarish va qonun oldida dinga bo'lgan munosabatlaridan qat'iy nazar, barchaning tengligiga kafolat beradi. O'zbekistonda din va diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan. O'zbekiston Respublikasida kuch ishlatishni targ'ib qilish, millatlar va diniy tashkilotlar orasiga nizo solish uchun dindan foydalanish va konstitutsiyaviy tuzum asoslariga qarshi qaratilgan harakatlar man etiladi.

### Diniy tashkilotlarning huquqiy maqomi

### 2.2.1-chizma

1. 1948- yil 10- dekabrda "Inson huquqlari Umumjahon Dekloratsiyasi"ning 18-19- moddalari bilan bog'liq.

2. 1991- yil 14- iyunda (mustaqillikkacha) "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunda diniy tashkilotlar tuzish ...ooooooooonlashtirilgan edi.

3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining (1992- yil 8- dekabr) 18, 29, 31, 61- moddalarida bayon qilindi.

4. 1993- yil 3- sentyabrda "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunga ba'zi bir qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi hamda u 1998- yilga qadar amalda bo'lib keldi. 1990- yillarning boshlarida hukumatimiz tomonidan berilgan imkoniyatlarning suiste'mol qilinishi, masjid qurish kompaniyaga aylanib ketishi oqibatida ularning soni 89 tadan 5 mingtaga yetdi. Ularning aksariyati hujjatlari to'liq rasmiylashtirilmagan (95,8 foiz diniy ma'lumotsiz) va zarur sharoitlar bo'lmagan holda faoliyat yurguzib, turli "peshvo"lar masjidlardan g'arazli manfaati yo'lida foydalanganlar.

5. 1998- yil 1- mayda qabul qilingan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunning yangi tahririga muvofiq bir qator o'zgartirishlar kiritildi. U 33 moddadan iborat.

6. "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun (2018- yil 30- iyul) qabul qilindi.

**Vijdon erkinligi** – har kimning o'z e'tiqodiga ko'ra, mazkur jamiyatda mavjud ijtimoiy me'yorlarni buzmaganda yashash va ishlash imkoniyatini bildiradi. Bunda dinga munosabat masalaning bir tomoni hisoblanadi. Siyosiy jihatdan vijdon erkinligi demokratiya ko'rinishlaridan biri hisoblansa, huquqiy nuqtai nazardan insonning asosiy shaxsiy huquqlari sirasiga kiradi. Barcha fuqarolar uchun vijdon erkinligi talablari va tamoyillarini amalga oshirish imkoni to'la ta'minlanib, u jamiyatimizning ma'naviy hayotining tarkibiy qismiga aylangan. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar masalasi ijtimoiy hayotda muhim va murakkab masala bo'lib, uning zamirida shaxsning huquqi, demokratiya, adolatparvarlik va insonparvarlik kabi ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va axloqiy tushunchalar turadi. O'zbekiston davlatining din sohasidagi

*Ma'lumki, yurtimizda vijdon va e'tiqod erkinligi, turli millat vakillarining huquqlari keng kafolatlanib, diniy bag'rikenglik muhiti mustahkamlanmoqda.*

*Shavkat Mirziyoyev,  
1-jild, 138-bet, 2017- yil.*


siyosati BMT Nizomidan tortib, barcha xalqaro hujjat va shartnomalar bilan bog'liq bo'lgan ana shu Deklaratsiyaning asosiy tamoyillariga mos tushadi.

**Har bir inson fikri, vijdon va din erkinligi huquqiga ega; bu huquq o'z dini yoki e'tiqodini o'zgartirish erkinligini va ta'limotda, toat-ibodat qilishda va diniy rasm-rusum hamda marosimlarni ommaviy yoki xususiy tartibda ado etish, o'z dini yoki e'tiqodiga yakka o'zi, shuningdek boshqalar bilan birga amal qilish erkinligini o'z ichiga oladi.**

*Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi 18-modda.*

Dunyoviy davlatimizning din sohasidagi siyosati turli dunyoqarash, e'tiqodi bo'lgan kishilar o'rtasidagi, davlat bilan din, diniy tashkilotlar bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarning amalda huquqiy ta'minlanishini nazarda tutadi. Davlat qonunlarida diniy e'tiqod har kimning xususiy ishi deb belgilangan. Ayni vaqtda "Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi" (61-modda). Asosiy qonunimiz O'zbekiston fuqarosini millati, irqi, jinsi va dinidan qat'iy nazar, teng huquqli deb biladi, shuningdek, o'z e'tiqodini erkin namoyon etish, ibodat qilish, urf-odat va milliy an'analarini davom ettirish va ularni hurmat qilishni kafolatlaydi.

## **.2-chizma**



“Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi Qonuni har bir fuqaroga sanab o'tilgan 3 imkoniyatdan xohlaganini, ongli ravishda tanlab olishini kafolatlaydi.

1998- yil 26- martda Vazirlar Mahkamasining “Ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, diniy aqidaparastlikning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori qabul qilindi.

1998- yil 1- mayda qabul qilingan “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to`g`risida”gi Qonunning yangi tahririga muvofiq quyidagi o`zgartirishlar kiritildi:

1. 1994- yil 22- sentyabrda qabul qilingan “O`zbekiston Respublikasining Ma`muriy javobgarlik to`g`risida”gi Kodeksning 184-moddasi quyidagi tahrirda bayon etildi: “184-modda. Fuqarolarning jamoat joylarida ibodat liboslarida yurishi” (diniy tashkilotlarning xizmatdagilar bundan mustasno) eng kam ish haqining 5 baravaridan 15 baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki 15 sutkaga muddatga ma`muriy qamoqqa olishga sabab bo`ladi.

“Diniy yig`ilishlar, ko`cha yurishlari va boshqa diniy marosimlar o`tkazish qoidalarini buzish eng kam ish haqining 5 baravaridan 15 baravarigacha miqdorida jarima solishga yoki 15 sutkagacha muddatga ma`muriy qamoqqa olishga sabab bo`ladi”.

202 – moddada faoliyati taqiqlangan jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlarning faoliyatida qatnashishga undash ham eng kam ish haqining 5-15 baravarigacha jarima yoki 15 sutka qamoqqa olishga sabab bo`lishi ko`rsatilgan.

240-moddada Diniy tashkilotlar to`g`risidagi qonun hujjatlarini buzish (nolegal diniy faoliyat bilan shug`ullanish) ham xuddi yuqoridagiday holatlar bilan jazolanishi belgilangan.

241-moddada Diniy tashkilotlardan saboq berish tartibini buzish ham huddi yuqoridagiday holatlarda bayon etilgan.

2. 1994- yil 22- sentyabrda qabul qilingan “O`zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi” 145-moddasi 2-qismida “Voyaga etmagan bolalarni diniy tashkilotlarga jalb etish, xuddi shuningdek, ularning ixtiyoriga, ota-onalarni yoki ularning o`rnini bosuvchi Shaxslar ixtiyoriga zid tarzda dinga o`qitish eng kam ish haqqining 50 baravaridan 75 baravarigacha miqdorda jarima yoki 2 yildan 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi ko`rsatilgan. Dindorlardan majburiy yig`in undirish, soliq olish yoki shaxs obro`sini tushirish, kamsitish, dinga e`tiqod qilish yo qilmaslikni majburlash holatlari ham yuqorida aytilgan holat bilan jazolanadi.

216-moddaga ko`ra faoliyati taqiqlangan jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar tuzish eng kam ish haqining 50 baravaridan 70 baravarigacha jarima yoki 6 oygacha qamoq yoki 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

216-moddaga ko`ra faoliyati taqiqlangan jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar faoliyatida qatnashishga undash eng kam ish haqining 25 baravaridan 50 baravarigacha miqdorida jarima yoki 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud 6 oygacha qamoq yoki 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilinadi”.

216-moddada ko`rsatilishicha, diniy tashkilotlar to`g`risidagi qonun hujjatlarini buzish (nolegal diniy faoliyat bilan shug`ullanish), to`garaklar (diniy) tashkil etish eng kam ish haqining 50 baravaridan 100 baravarigacha miqdorda jarima yoxud 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Agar bir konfssiyaga mansub dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan harakat va boshqa missionerlik faoliyati ma`muriy jazo qo`llanilgandan keyin sodir etilsa, eng kam ish haqining 50 baravaridan 100 baravarigacha miqdorida jarima yoki 6 oygacha qamoq yoxud 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilinadi.



217-moddada “Diniy yig`ilishlar, ko`cha yurishlari va boshqa diniy marosimlar o`tkazish qoidalarini buzish, shunday harakatlar uchun ma`muriy jazo qo`llanilgandan keyin sodir etilgan bo`lsa, eng kam ish haqining 50 baravaridan 75 baravarigacha miqdorida jarima yoki 6 oygacha qamoq yoxud 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilinishi belgilangan”.

229-moddaga ko`ra diniy ta`limotdan saboq berish tartibini buzish eng kam ish haqining 50 baravaridan 100 baravarigacha miqdorida jarima yoki 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud 6 oygacha qamoq yoki 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilinadi.

244-moddada Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash yoki tarqatish diniy-ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g`olarini yuzaga keltirish yoki fuqarolarni zo`rlilik bilan ko`chirib yuborishga da`vat etish, vahima chiqarishga qaratilgan materiallarni tayyorlash, tarqatish eng kam ish haqini 50 baravaridan 100 baravarigacha miqdorida jarima yoki 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud 6 oygacha qamoq yoki mol-mulki musodara qilinib yoki qilinmay 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilinishi belgilangan.

Diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g`oyalari bilan fuqarolar totuvligini buzish, vaziyatni beqarorlashtirish ham eng kam ish haqining 50 baravaridan 100 baravarigacha miqdorida jarima yoki 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud 5 oygacha qamoq yoki mol-mulki musodara qilinib yoki qilinmay 3 yildan 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning 1 yoki 2-qismida ko`rsatilgan harakatlar:

- 1) oldindan til biriktirib yoki bir guruh shaxslar tomonidan;
- 2) xizmat mavqeidan foydalanib;
- 3) diniy tashkilotlardan, shuningdek chet el davlatlari, tashkilotlari va fuqarolardan olingan moliyaviy yoki boshqa moddiy yordamdan foydalanib sodir etilgan bo`lsa, mol-mulki musodara qilinib 5 yildan 8 yilgacha ozodlikdan mahrum qilinadi.

### **3. O`zbekistonda faoliyat ko`rsatayotgan diniy konfessiyalar va tashkilotlar**

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq mamlakatimizning barcha fuqarolari haqiqiy e`tiqod erkinligini his eta boshladilar. Bugungi kunda O`zbekistonda turli din vakillarining hech qanday to`siqlarsiz o`z dinlariga e`tiqod qilishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Sobiq sho`ro davrida respublikaizda bor-yo`g`i 87 ta masjid va 2 ta madrasa faoliyat ko`rsatgan bo`lsa, hozir O`zbekiston musulmonlari idorasi boshqaruvi ostida rasmiy ro`yxatdan o`tgan, barcha qulayliklar yaratilgan 2054 (2019 y.) dan ortiq masjid, 10 ta madrasa va Toshkent Islom instituti faoliyat ko`rsatib turibdi. Mustaqillik yillarida 110 mingdan ortiq musulmon haj va 80 mingdan ortiq Umra safarini amalga oshirdilar.<sup>8</sup>

---

<sup>8</sup>. Ayupov Orif. Dunyo. Siyosat. Jamiyat. – Guliston, 2017. 124-bet.

Shuningdek, mamlakatimizda istiqomat qilayotgan 130 dan ziyod millat va elat vakillari ham o'zlari e'tiqod qilayotgan dinlarida emin-erkin ibodat qilmoqdalar. Bugun respublikamizda 16 turdagi 170 dan ziyod noislomiy diniy tashkilotlar rasman

*Hozirgi vaqtda diyorumizda 130 dan ziyod millat va elat vakillari o'zaro hamjihat yashamoqda, 16 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar erkin faoliyat yuritmoqda.*

*Shavkat Mirziyoyev,  
1-jild, 138-bet, 2017- yil.*

faoliyat ko'rsatmoqda: 157 ta xristianlik, 8 yahudiy, 6 baxoiy, 1 Krishnani anglash jamoasi va 1 ta buddaviy ibodatxonasi mavjud.

1999- yil 7- aprel Prezident Farmoniga asosan Toshkent Islom universiteti tashkil etildi. Har yili mazkur Oliy o'quv yurti islom tarixi va falsafasi, diniy qonunchilik, iqtisod va tabiiy fanlar fakultetlariga 100 dan ortiq abiturentlarni talabalikka qabul qiladi.

Universitet qoshida islomshunoslik ilmiy tadqiqot markazi, manbalar xazinasini hamda akademik litsey faoliyat ko'rsatmoqda. Toshkent Islom instituti va Buxorodagi Mir Arab oliy madrasasida 366 talaba tahsil oladi. O'qituvchilardan 87 tasidan 12 tasi fan nomzodi, 38 tasi fan magistri. O'rta maxsus islom bilim yurtlarida 1071 talabaga 246 pedagog dars beradi. Ularning 12 tasi fan nomzodi, 33 tasi magistr. ("Xalq so'zi", 2017- yil 16- dekabr)

Umuman, din hozirgi sharoitda muhim ijtimoiy-madaniy hodisadir. Dinning jamiyat ma'naviy-ma'rifiy hayotida tutgan o'rnini bilish uchun uning jamiyat va shaxs hayotida qanday o'rin egallashini, dinning davlatga va shaxsning dinga munosabatini tarixan qanday o'zgarib borganligini ilmiy tahlil qilish lozim bo'ladi.

### 2.3.1-chizma

#### Ilmiy jihatdan qaraganda dinning jamiyat hayotiga ta'sirining 2 tendensiyasi mavjud

**Sakralizatsiya** (lot. muqaddas) tendensiyasi ta'siri deganda ijtimoiy hayotni, ijtimoiy institutlarni, kishilar hayoti va ongini muayyan diniy e'tiqod doirasida talqin qilish va izohlashdir. Sharqda podshoh Ollohning yerdagi noibi, vakili degan aqida bilan uni so'zsiz bajarish lozim degan fikr singdirilgan. O'zbekistonda sakralizatsiya tamoyili islom dini an'analarini jamiyat va inson hayotining barcha sohalarini diniy qiyofa berish va jamiyatni boshqarish ishlarini ilohiylashtirishni ko'zda tutadi. G'arbda bu tamoyil klerikalizatsiya (lot. cherkov) bilan bog'liq.

**Sekulyarizatsiya** (lot. dunyoviy degan ma'noni bildiradi) – tendensiyasi ta'siriga ko'ra, diniy e'tiqodning jamiyat va kishi hayotining barcha sohalaridagi mutlaq hukmronligiga barham berish, hokimiyatni din ta'siridan xalos qilish, dunyoviy taraqqiyot yo'liga o'tishni anglatadi. G'arbda sekulyarizatsiya davlatni dindan, maktabni esa cherkovdan ajratgan, ularning bir-biridan mutlaq rivojlanishiga olib kelgan. Sekulyarizatsiya, umuman, jamiyat hayotida ijobiy ahamiyatga ega. O'zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlari sekulyarizm prinsipi asosida rivojlantirilgan.

Din axloqiy tarbiya sohasida muhim ahamiyatga ega vazifani bajaradi. Biroq diniy siyosiy maqsadlar uchun niqob qilib olish, diniy davlat barpo etish vositasida yana o`rta asr sakralizatsiya tendentsiyasini ijtimoiy hayotda tiklashga urinish dunyoviy qadriyatlarga asoslangan konstitutsiyamiz va amaldagi qonunlarimizga ziddir.

Respublikamizda diniy tashkilotlar va fuqarolarning diniy e`tiqod bilan bog`liq muammolar faqatgina din sohasidagi mavjud muammolar bilan cheklanmaydi, balki unga kompleks yondashuv zarur. Bu muammolarni bartaraf etish uchun:

**Diniy e`tiqod bilan bog`liq muammolarga kompleks yondashuv zarur:**

1) Mamlakatda demokratiyani rivojlantirish, jamiyatni demokratlashtirish, mavjud siyosiy tizimni barqaror rivojlantirishni taqozo qiladi.

2) Bozor iqtisodiyotini rivojlantirish asosida aholi moddiy turmush darajasini yaxshilash qoloq davlatlarda keskin tus olmoqda.

3) Aholining madaniy saviyasini oshirish zarur, chunki diniy aqidaparastlikning muhim manbalaridan biri bu – jaholatdir.

*Muqaddas dinimiz, milliy qadriyatlarimizni, buyuk aziz avliyolarimizning` xotirasi, merosini tiklash, qadamjolarini obod qilish bo`yicha juda ko`n ishlar qilindi va qilinmoqda.*

*Shavkat Mirziyoyev,  
1-jild, 466-bet, 2017- yil.*

1992-yili Vazirlar Mahkamasining “O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi din ishlari bo`yicha qo`mita tashkil etish to`g`risida”gi qarori qabul qilindi.

1. Vazirlar Mahkamasining “Bahouddin Naqshband tavalludining 675 yilligiga tayyorgarlik ko`rish va uni o`tkazish haqida”gi qarori qabul qilindi.

2. 1995- y. Vazirlar Mahkamasining “az-Zamaxshariyning 920 yilligi va Najmiddin Kubroning 850 yilligi o`tkazish” bo`yicha farmoyish chiqdi.

3. 1996- y. Toshkentda Evangel-xristian cherkovining 100 yilligi nishonlandi.

4. Nemis Evangel-lyuteranlar cherkovining (Kirxasi)ning 100 yilligi nishonlandi.

5. 1997- y. Vazirlar Mahkamasining “Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligini nishonlash to`g`risida”gi qarori qabul qilindi.

**2017-2018 yillarda:**

6. O`zbekiston Prezidentining 2017- yil 14- fevraldagi Qarori bilan “Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” tashkil etildi.

7. O`zbekiston Respublikasining 2017- yil 19- maydagi “Muborak Ramazon oyini munosib tarzda o`tkazish to`g`risida”gi Qarori bilan uning ijrosi ta`minlandi.

8. O'zbekiston Prezidentining Qarori bilan 2017-yil 23- iyunda "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston Islom madaniyati markazi" tashkil etildi.

10. 2017- yil 15- dekabr Prezident Qarori bilan "O'zbekiston Islom Akademiyasi" tashkil etildi.

11. Toshkent shahrida Islom tsivilizatsiyasi markazi barpo etildi.

12. Imom Buxoriy nomidagi xalqaro ilmiy tadqiqotlar markazi tuzildi.

13. "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2018- yil 16- aprelda) Prezident Farmoni qabul qilindi.

Ushbu Prezident farmoni munosabati bilan:

1) "Jaholatga qarshi ma'rifat" ulug'vor g'oyasi insonparvarlik mohiyati nuqtai nazaridan yana bir bor ilgari surildi.

2) Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi.

3) Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mittasi tuzilmasida 15 ta shtat birligidan iborat "Diniy-ijtimoiy jarayonlarni o'rganish axborot-tahlil" markazi tashkil etildi.

4) Toshkent islom universiteti negizida "O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi" tashkil topdi.

5) O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi bitiruvchilariga umumta'lim maktablari, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida sohaga tegishli fanlar bo'yicha pedagogik faoliyat bilan shug'ulanish huquqi berildi.

6) O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Samarqand, Namangan va Surxondaryo viloyatlari mintaqaviy filiallariga ega bo'lgan Malaka va Surxondaryo viloyatlari mintaqaviy filiallariga ega bo'lgan Malaka oshirish markazi tashkil etildi.

7) O'zbekiston musulmonlari idorasi va O'zbekistondagi Islom tsivilizatsiyasi markazining Oliy diniy-ma'rifiy ta'lim muassasasi shaklidagi "Hadis maktabi" tashkil topdi.

8) O'zbekiston musulmonlari idorasi huzurida "Vaqf xayriya jamoat fondi" tashkil etildi.

9) "Imom Buxoriy" davlat mukofoti ta'sis etildi.

14. "To'y-hashamlar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlar, marhumlarning xotirasiga bag'ishlangan tadbirlar o'tkazilishini tartibga solish to'g'risida"gi Oliy Majlis Senatining (2018- yil 29- iyun) qarori qabul qilindi.

Umuman, O'zbekiston xalqi qadimdan bag'rikeng xalq bo'lgani sabab qadimda ham bugungi kunda ham boshqa din va konfessiya vakillari bilan tinch totuv yashab kelmoqda.

Afsuski, ushbu tinchlikni ko'ra olmaydigan ba'zi g'araz niyatli kuchlar xalqimizni asl ildizlaridan mahrum qilish maqsadida dinni niqob qilgan holda turli

aqidaparastlik va missionerlik g'oyalarini xufyona targ'iboti bilan shug'ullanayotganlari ham bor gap. Ulardan missionerlarni oladigan bo'lsak ular, eng avval dinidan uncha xabardor bo'lmagan, dinga engil munosabatda bo'lgan yoki o'zini musulmon hisoblasa-da, hayotida musulmonchilikning biron-bir belgisi qolmagan shaxslar, shuningdek, kam ta'minlangan, bemor, yolg'iz qolgan fuqarolar, hatto kar, soqov nogironlar orasida targ'ibot olib boradilar. Zimmasidagi fuqarolik majburiyatlari, haq-huquqlari va dinimizning asosiy tartib-qoidalaridan yaxshi xabardor bo'lgan kishiga yaqin ham borishmaydi. Ha, shariatda ilmning har bir mo'min va mo'mina uchun farz qilib belgilangani bekorga emas.

Buyuk ajdodimiz Imom Buxoriy hazratlarining "Dunyoda ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lmaydi ham" degan hikmatlarini yodda tutib, yoshlarimizni dunyoqarashi keng, imon-e'tiqodi mustahkam bo'lishi uchun ilmga yo'naltirish barchamizning dolzarb vazifamizdir. Chunki barcha xatolar va muammolarning boshi ilmsizlikdir.

"Bag'rikenglik" tushunchasi ilmiy faoliyat va ijtimoiy hayotning turli sohalari, jumladan, siyosat va siyosatshunoslik, sotsiologiya, falsafa, ilohiyat, qiyosiy dinshunoslik kabi sohalarda keng istifoda etiladigan tushunchalardan biri hisoblanadi. Lotincha "tolerare", ya'ni "chidamoq", "sabr qilmoq" ma'nosini anglatgan bu so'z, asosan bir insonning boshqa inson dunyoqarashiga toqat qilishini bildirsa-da, etimologik tahlil har doim ham uning tom ma'nosini ochib beravermaydi.

Islom dini o'zining ilk davridanoq bag'rikenglik dini sifatida namoyon bo'ldi. Islomda e'tiqod erkinligi ochiq-oydin e'lon qilingan: "Baqara" surasining 256-oyatida "Dinda zo'rlash yo'q", deyilgan.

Umuman olganda, Qur'onning 50 dan ortiq surasidagi yuzlab oyatlarda musulmonlar mo'min-qobillik, tinchlikparvarlik va boshqa e'tiqod vakillariga nisbatan bag'rikenglik da'vat etilgan.

Muhammad alayhissalom ham o'z hayotlari davomida hech qachon hech kimni islomga kirishga majbur qilmaganliklarini, biron marta u yoki bu harbiy harakat diniy e'tiqod tufayli bo'lmaganini ham yoddan chiqarmaslik lozim.

Tarixdan ma'lumki, har qanday davlatning barqarorligi undagi xalqlar, millat va elatlarning huquq va erkinliklari faqatgina qonuniy hujjatlarda belgilanishiga emas, balki ularning amalda qay darajada o'z tasdig'ini topishiga ham bog'liqdir. SHu nuqtai nazardan qaraganda, mamlakatimizda fuqarolarning vijdon erkinligi bilan bog'liq huquqlari nafaqat qonun bilan mustahkamlab qo'yilgani, balki amaliyotda uning asosiy tamoyillarga qat'iy rioya qilanayotgani hayotiy dalillar bilan tasdiqlanayotganini ta'kidlash zarur.

## 10-mavzu. Zamonaviy diniy harakatlar va sektalar

1. Zamonaviy diniy harakatlar tushunchasining mazmun-mohiyati.
2. Zamonaviy diniy harakatlarning noqonuniy faoliyatlari.
3. O'zbekiston Respublikasida faoliyati aniqlangan norasmiy jamoalar.

### 1. “Zamonaviy diniy harakatlar” tushunchasining mazmun-mohiyati

Din azaldan inson ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzotning yuksak ideallari, haq va haqiqat, insof va adolat to'g'risidagi orzu-armonlarini o'zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustahkamlab kelayotgan g'oya va qarashlarning yaxlit bir tizimidir. Bugungi kunda islom diniga nisbatan butun qiziqish va intilish kuchayib, uning xayrixoh va tarafdorlari ko'payib borayotgani hech kimga sir emas. Buning asosiy sababi muqaddas dinimizning haqqoniyligi va pokligi, insonparvarligi va bag'rikengligi, odamzotni doimo ezgulikka chorlash kabi omillar bilan izohlash mumkin.

Taassufki, ba'zan islom dini va diniy aqidaparastlik tushunchalarini bir-biridan farqlay olmaslik yoki g'arazli maqsadda ularni teng qo'yish kabi holatlar ham ko'zga tashlanadi. SHu bilan birga, islom dinini niqob qilib, manfur ishlarni amalga oshirayotgan mutaassib kuchlar hali ongi shakllanib ulgurmagan, tajribasiz, g'o'r yoshlarni o'z tuzog'iga ilintirib, bosh-ko'zini aylantirib, ulardan o'zining nopok maqsadlari yo'lida foydalanmoqda. Dunyoning turli davlatlarida bo'lgani kabi bizning mamlakatimizda ham turli ekstremistik, aqidaparastlik va mutaassib oqimlarning botil aqidalariga ergashib, zalolat botqog'iga botib qolgan kimsalarning borligi kishini ranjitadi. SHu boisdan ham “bugungi kunda ijtimoiy-ma'naviy muhitni va aholi turmush sharoitini yaxshilash, yoshlarni turli, diniy ekstremistik oqimlar ta'siridan asrash masalasi barchamiz uchun eng asosiy masala bo'lib turibdi”.<sup>9</sup>

**1. “Zamonaviy diniy harakatlar” tushunchasi.** XX asr oxiri va XXI asr boshlarida ikki qutbli (sotsialistik va kapitalistik lager) dunyoning barham topishi, iqtisodiy inqiroz, aholi turmush darajasining qashshoqligi, ko'plab davlatlarning siyosiy va iqtisodiy mustaqillik uchun olib borgan kurashlari, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy islohotlarr davrida “yangi diniy harakatlar” kuchaydi. Bu davrda islom, xristianlikdagi missionerlik va boshqa din niqobi ostida paydo bo'lgan oqim va

*Globalashuv jarayonining tobora shiddatli tus olishi nafaqat insoniyat imkoniyatlarini kengaytirmoqda, balki ziddiyatlarning keskinlashuvi, rivojlangan va qoloq davlatlar o'rtasidagi tafovutning o'sishiga olib kelmoqda. Buning oqibatida tinchlik, va barqarorlikka raxna solayotgan, mohiyati va ko'lamiga ko'ra transmilliy xususiyatga ega turli xatti-harakatlar sodir etilmoqda.*


*Shavkat Mirziyoev,  
1-jild, 33-bet, 2017.*

<sup>9</sup>. Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 475-bet.

firqalarning yuzaga kelishi, ularning yoshlar qalbi va ongini zaharlab jaholat botqog`iga etaklashi kabi omillar bilan bog`liq. SHu boisdan O`zbekiston Prezidenti SHavkat Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida “Bu borada ko`p hollarda tahdidlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar bilan emas, balki ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilan cheklanib qolinmoqda. Xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murasasizlik tashkil etadi, deb hisoblayman” degan edi (BMT BA 72-sessiyasidagi nutqi).


**2. Universalizm** – individualizm atamasiga teskari bo`lgan, axloqiy dunyoqarash, koinotni bir butun tarzda hisobga olishga asoslangan fikrlash shakli. Bu atama ko`pgina dinlarda umuminsoniylikka asoslanib, barcha odamlarni qutqarish ehtimoli sifatida e`tirof etiladigan tushuncha.

### 8.1.1-chizma



**3. Kosmopolitizm** (yunon. Kosmopolites – dunyo fuqarosi) – dunyo fuqaroligini da’vo qilish, shuningdek, milliy va davlat suverenitetini rad etish, turli milliy an’ana, madaniyat hamda vatanparvarlik tuyg’usidan voz kechish g’oyasini ilgari suradigan qarash. “Jahon davlati” tuzishni va “jahon fuqaroligi”ni targ’ib qiluvchi ta’limot. Kosmopolitizm jahon miqyosida axborot ayirboshlash imkoniyatlari oshib borayotgan hozirgi davrda “Vatan” tushunchasi nisbiy xarakterga ega ekanini ro’kach qiladi.

## 8.1.2-chizma






**Kosmopolitizm fikricha**, bugungi kunda ayrim insonlarning Vatanga bogʻlanib qolishi shaxs erkinliklarining cheklanishiga olib kelmoqda emish. Ayni paytda, kosmopolistik qarashlar ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, maʼnaviy-madaniy munosabatlarning globallashuv jarayoni Vatan tuygʻusini global miqyosda tasavvur qilish imkoniyatlarini beradi, degan nazariyaga ham asoslanadi<sup>10</sup>.

Bunday vayronkor mafkuralar ayrim diniy oqimlar tomonidan ham ilgari surilmoqda. Masalan, Bahoiylar hozirgi barcha dinlar bir-birini inkor qiladi. SHuning uchun ham ularni birlashtirish va insonlar orasidagi turli diniy firqalarni yoʻqotish lozim, deb hisoblashadi. Bahoiylikning daʼvosiga koʻra, bunday birlashtiruvchilarni bahoiylik dini bajarishi lozim. Bahoiylik izdoshlari “Vatan”, “millat” kabi tushunchalarni inkor qiladi. Ular uchun er yuzining hamma joyi Vatan hisoblanadi. Bu gʻoyalar Vatan tuygʻusiga raxna solishni koʻzlaydi. Inson oʻz onasini tanlay olmaganidek, Vatanni ham tanlash ixtiyoridan mosuvo. SHu sabab ham Vatandan voz kechish, kamsitish, unga xiyonat qilish ogʻir gunohdir<sup>11</sup>.

### 8.1.3-chizma



<sup>10</sup>. Nazarov Q. Va boshq. Milliy gʻoya: targʻibot texnologiyalari va atamolari mugʻati. – T.: “Akademiya”, 2007. -176 – bet.

<sup>11</sup>. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. – T.1. T.: OʻzDME nashriyoti, 2000. – 663-bet.

## “Zamonaviy diniy harakatlar” liderlari:

**1. Vahhobiylilik** – XVIII asr o`rtalarida Arabiston yarim orolining markaziy qismi Najd viloyatida islom dinining sunniylik yo`nalishidagi Hanbaliya mazhabi ta`limoti asosida paydo bo`lgan. Uning asoschisi Muhammad ibn Abdulvahhob (1703-1791) hisoblanadi.

Vahhobiylilik “muqaddas qadamjo”larga ziyorat etishni rad qilib, tasavvufni tan olmaydi. Suratga tushish, marhumlar ruhiga tilovatlar o`qish, xayr ehson qilish taqiqlangan. Bu oqim, umuman ma`naviy madaniyat taraqqiyotiga qarshi bo`lgan.

Vahhobiylar Makka va Madinani 1788 yilda egallab, tarixiy obidalar, sahobalar dafn etilgan joylarni yakson etgan. Abdulvahhob payg`ambarlikni da`vo qilgan. XVIII asr oxiri va XIX asr birinchi choragida vahhobiylar tarafdorlari batamom qirib tashlangan.

O`zbekistonning mustaqillik yillarida vahhobiylar diniy-siyosiy oqim sifatida islom dini paydo bo`lgan paytdagi ibtidoiy shaklga qaytish, buning uchun “jihod”, ya`ni tinch aholiga qarshi ochiqdan-ochiq urush e`lon qilishni targ`ib-tashviqot qilmoqda.

### 8.1.4-chizma

#### Vahhobiylilik va “Hizb at-tahrir” o`rtasidagi farq

1. Vahhobiylilik – asosan payg`ambarimiz Muhammad (s.a.v.) zamonida islom qanday tashkil etilgan bo`lsa, shunday holatda qayta tashkillashtirish g`oyasini ilgari suradi.
2. Vahhobiylilik davlatni xalifalik tarzida boshqarish tarafdori emas. Hizbchilar esa aynan xalifalik boshqaruvini o`rnatishni istaydi.
3. Har bir oqim aqidada ham farq qiluvchi fikrga ega.
4. Vahhobiylar oqimida jihod e`lon qilish ko`zda tutilsa, “Hizb at-tahrir” bunday harakatni asta-sekinlik bilan, bosqichma-bosqich amalga oshirishni targ`ib qiladi.

**2.Nurchilar** – islomiy jamoa bo`lib, asosiy maqsadi Usmoniylar xalifaligi ag`darilgandan keyin hokimiyat tepasiga kelgan Mustafao Kamol Otaturkning dunyoviy davlat tuzumiga muqobillik qilishdir. Rahbari Badiuzzamon Said Nursiy (1873-1960) bo`lib, Turkiyaning Bitlis viloyati Nurs qishlog`ida kurd millatiga mansub oilada tug`ilgan. U o`ziga Badiuzzamon (arab. zamonaning zo`ri, benazir) laqabini olib, “Risolai Nur” qo`lyozmasini yozgan. “Nurchilar” hukumat tomonidan ta`qib qilingani uchun 1954 yilda bu kitob nashriyotda chop etilmagan, qo`lda ko`chirilib maxfiy tarqatilgan. Nursiy Turkiya davlatining islomga bo`lgan munosabati tufayli, dunyoviy davlat tuzumi o`rnatilishiga qarshi chiqqan, bu muammoni “islomga da`vat etish orqali hal qilish”ga chaqirgan. Uning vafotidan so`ng, “Nurchi”lar harakati 7 yo`nalishga bo`linib ketdi. Hozirgi kunda nurchilarning ko`zga ko`ringan namoyandasi bo`lmish Fathullo Gulen (1942 y.t.) zamonaviy “nur” harakatini diniy va irqiy kelib chiqishidan qat`iy nazar, dunyo xalqlariga islom g`oyalarini tarqatish, yagona diniy birlikni yaratish, Allohning birligini islomiy

asosda insoniyatga tan oldirishdir, deb qaramoqda. Germaniya, Gollandiya, SHvetsiya, Bolqon, Markaziy Osiyo, YAqin SHarq va Afrika, AQSH kabi 50 dan ziyod davlatlarda jamg'armalar, xususiy maktab, litsey, universitetlar, til kurslari va masjidlar faoliyatini yo'lga qo'ygan. Xususiy ta'limda tizimida 3 mingdan ortiq o'qituvchilarga 400-1400 dollargacha oylik maosh berilgan. Mustaqillikning ilk yillarida O'zbekistonda "Turk litseylari" (Qorako'l turk litseyi, Toshkent turk litseyi va h.k. ) faoliyat yuritgan bo'lib, ularda "Nurchi"larning faoliyatiga 2000 yil yanvarida chek qo'yildi. CHunki O'zbekistonlik ayrim yoshlarga "Nurchi"larga qo'shilib qolgan edi.

**3. Akromiyalar:** Bu oqim 1997-1999 yillarda Farg'ona vodiysida, Andijon viloyatida vujudga kelgan. Uning asoschisi Akrom Yo'ldoshev vahhobiylik ta'limotiga asoslanib "Iymonga yo'l" degan dasturiy asar yozgan. SHu asarda besh bosqich bilan oxir-oqibatda davlat to'ntarishi orqali hokimiyatni qo'lga olish rejalarini ko'rsatib o'tgan. A. Yo'ldoshev 1985-1990 yillarda Andijon paxtachilik institutida o'qib yurgan davrida Abdurashid Qosimov ismli ("Hizbut tahrir"ning yurtimizdagi birinchi amiri) shaxsdan ilk diniy saboq oladi. Har ikkala buzg'unchi jamoa kishilar yashab turgan jamiyatlaridan norozilik kayfiyatini uyg'otib, o'zi ishlab chiqqan g'oyalarini keng ommaga yoyishda fikrga birlamchi e'tibor qaratgan. "Akromiyalar"ning eng yuqori boshqaruv organi ijodiy xalq deb nomlangan. "Akromiyalar" muqaddas islom dini arkonlaridan foydalanib, uning mohiyatini buzib ko'rsatishga intildi. 2005 yil 12-13 mayda Andijonda hokimiyatni qo'lga olishga uringan.

**4. Adolat uyushmasi:** 1991 yilning boshida Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatgan. Adolat diniy uyushmasiga Namanganlik Hakim Sotimov rahbarlik qilgan. Dinga ishonuvchi qishloq aholisini o'ziga jalb qilib, turli noqonuniy harakatlar sodir etgan. 1991 yil 9 dekabrda Namangan hokimiyatini qo'lga olib, Prezident saylovidan oldin borgan Islom Karimovga 15 ta talab qo'ygan, hoziroq mamlakatni islomiy davlat deb e'lon qilasan deb shart qo'ygan.

**5. Islom lashkarlari:** Namanganlik Tohir Yo'ldoshev "Islom lashkarlari" deb nomlangan norasmiy diniy-ekstremistik tashkilotga asos solgan. Bu tashkilot "vahhobiylik"ni qo'llab-quvvatlaydi. Ular o'ta mutaassib va terrorchilik xususiyatiga ega bo'lgan ekstremistlar sanaladi. O'zbekiston hududida sodir etgan og'ir jinoyatlari fosh etilgan. Jinoiy uyushma a'zolari ko'pchiligi jazolangan va faoliyati tugatilgan. Hozirda ham noqonuniy yo'llar bilan chetga chiqib ketgan, hokimiyatni, davlat va jamiyatni islomlashtirish g'oyalarini ilgari surmoqda.

**6. Tavba:** Bu ekstremistik guruh ham Farg'ona vodiysida faoliyat ko'rsatgan. U aslida Boku shahrida tashkil etilgan bo'lib, uning tarafdorlari O'zbekistonga chetdan kirib kelgan. Ular ham "Vahhobiy" oqimi tarafdorlari bo'lishgan. Maqsadi konstitutsion tuzumni ag'darib islomiy davlat qurish. Tojikiston davlatidan kelgan jangarilar bilan "tayyorgarlik" mashg'ulotini olib borgan. Farg'ona vodiysida bosqinchilik, qasddan odam o'ldirish kabi o'ta og'ir jinoyatlarni ham sodir etganlar. Bu jinoiy uyushma 1991 yilda Namangan shahrida "Otaullaxon" masjidida qo'nim

topgan. Jinoiy guruhni Abduvali Yo`ldoshev, Isoq Jabborov degan jinoyatchilar yo`naltirib turgan. A. Yo`ldoshev 1999 yil noyabrda Qirg`iston davlati hududini tojikistonlik bostirib kirgan terrorchilardan tozalashda o`ldirilgan.

**7. Uzun soqollilar:** Diniy ekstremistik oqim a`zolari asosan Toshkent shahri, viloyati va CHimkent viloyati (Qozog`iston) hududi aholi orasida o`z qarashlarini singdirishga uringan. Ular kishilarni moddiy rag`batlantirish asosida jamiyatni islomlashtirishni rejalashtirgan. Bu jinoiy uyushma fosh etildi.<sup>12</sup>

**8. Qorasallalilar:** Bu diniy-aqidaviy guruh a`zolari asosan Toshkent shahri va viloyatida tarqalgan bo`lib, ular tomonidan masjidlarda soqolsiz va sun`iy (tillo va sariq) tishlar qo`ygan imom-xatib va noib imomlarning faoliyati islom diniga zidligi aytilgan. Albatta bu masjidlarda soqol qo`ygan dindorlarni saylash lozimligini targ`ib qilishadi. Soqolsiz, sun`iy tish qo`ygan imom-xatiblar boshqarayotgan masjidga borishmaydi.

Qorasallalilar diniy-aqidaviy guruhi televizor ko`rish va radio tinglashni taqiqlaydi. Maktab yoshdagi farzandlarni jome masjidlarga juma namoziga ommaviy jalb qilish, 4-5 yillik maktab ta`limidan so`ng maktablarga jo`natmasdan ularni islom dini bilan qurollantirish g`oyasini targ`ib qiladi. “Ramazon” va “Qurbon” hayit bayramlarini aholidan 1 kun oldin yoki bir kun keyin nishonlash kerakligini aytishadi. Qorasallalilar diniy guruhi barcha a`zolari Umarov Isoqqa “qo`l” berishgan bo`lib, uni ilohiy shaxs darajasiga ko`tarishadi. Qorasallalilar aqidasi ko`ra, namozni ovoz chiqarmasdan o`qiydi. Namozdan so`ng “YOsin” surasi oyatlarini o`qimaydi, 33 marta aytiladigan takbirlarni aytmaydi. Namoz maxfiy ravishda o`qilsada, uni Alloh taolo eshitib turadi. Maqsad “islom davlati” ni qurish.

SHuningdek, zamonaviy islom oqimlari “musulmon birodarlar”, “islom jihodchilar harakati”, “Hixbut-tahrir al-islomiy”, “Turkiston islomiy harakati” kabi ekstremistik yo`nalishdagi diniy sekta-uyushmalarning maqsadi konstitutsion tuzumni ag`darib “islomiy davlat”ni barpo etishdagi faoliyat xatti-harakatlarni xalqimiz tushunib anglab ola bildi.

Dunyo bo`yicha yangi diniy harakatlar liderlari:

1. Bonni Nettlez (1927-1985) halokatli tabiatning “samoviy darvozasi”ning asoschilari va rahbarlaridan biri.

2. Djons Djim (1931-1978).

3. Zerbi Karen (1946 va hozir yashamoqda).

4. Lents Frederik (1950-1998).

5. Mariya Devi Xristos (1960).

6. Mun Son Myon (1920-2012).

7. Osho (Bxagvan SHri Radjnish)(1931-1990).

8. Prof Elizabet Kler (1939-2009).

9. Russell CHarlbz Teyz (1852-1916).

10. Savoy Djin (1927-2007).

---

<sup>12</sup>. Tulepov A.M. Islom va aqidaparast oqimlar. – T.: “SHarq”, 2013. – 187-250-betlar.

11. Taron Sergey Anatolʻevich (1968).  
 12. Xabbard Lafayet Ronald (1911-1986).  
 Eppluayt Marshall (1931-1997). (Internet maʼlumotlari)

## 2. Zamonaviy diniy harakatlarning noqonuniy faoliyatlari

**1. Noqonuniy diniy harakatlar faoliyati.** Bir asrdan ortiq davom etgan mustabid tuzum davrida maʼnaviy ildizlarimizdan ayirib, dinni jamiyat hayotidan siqib chiqarishga urinishlar boʻldi. Natijada, maʼnaviyat va maʼrifat oʻrnini maʼlum darajada jaholat egallab, yurtoshlarimiz fiqh, tafsir, hadis, tasavvuf ilmlari haqida hatto umumiy tushunchaga ham ega boʻlmay qoldi. Movaraunnahr diyori

*Biz terrorizm va ekstremizmga qarshi qattiq kurash olib boramiz, bu yoʻlda, qaysi din vakili boʻlishimizdan qatʼi nazar, barchamiz birlashishimiz zarur. Yer yuzida tinchlikni saqlash va mustahkamlash eng asosiy vazifamiz boʻlishi kerak, dedi AQSh Prezidenti.*

*Shavkat Mirziyoev,  
1-jild, 472-bet, 2017.*

azaldan dinu-diyonat oʻchogʻi, fuzalo-ulamolar yurti ekanligini unutib qoʻydik. Ana shunday sharoitda mintaqamizda, xususan Oʻzbekistonda baʼzi kuchlar din niqobi ostida gʻarazli maqsadlar bilan siyosiy hokimiyatni egallashga intildilar. Mustaqillikning dastlabki yillarida “Alloh”, “Islom” kabi soʻzlar bilan birgalikda nomlangan, eshitilishi jarangdor partiya, tashkilotlar (“Islom uygʻonish partiyasi”, “Hizbulloh”, “Hizb ut-tahrir al-islomiy” va boshqalar) tuzib, masjid konstitutsion tuzumni agʻdarib tashlash, yaxlit jugʻrofiy hududda islom davlati qurish, xalifalikni qayta oʻrnatishga harakat qildilar. Hozirgi XXI asrimizda xalifalikni qayta tiklash gʻoyasi islom dini taʼlimotiga ziddir.

“Al-Qoida”, “Turkiston islom partiyasi”, “Islom jihodi ittifoqi” va boshqalar terroristik tashkilotlari sifatida tan olingan.

YUqorida tavsiflari berilgan diniy oqimlar va tashkilotlarning nomlari turlicha boʻlsada, aslida ularning maqsadlari va gʻoyalari bitta – dinni niqob qilib hokimiyatga intilish, tinch-osoyshta xalq orasida nifoq va ixtiloflar chiqarish, Eng achinarlisi shundaki, bu oqimlar hali ongi shakllanib ulgurmagan, tajribasiz, gʻoʻr yoshlarni oʻz tuzogʻiga ilintirib, ulardan oʻzlarining gʻarazli maqsadlari yoʻlida foydalanmoqdalar.


### 1. Noqonuniy diniy harakatlar faoliyati

#### 8.2.1-chizma

1. Vahhobiylar. XVIII asrda Arabiston yarim orolida islom dini sunniylik yoʻnalishidagi Hanbaliya mazhabi taʼlimoti asosida paydo boʻlgan. Asoschisi Muhammad ibn Abdulvahob (1703-1791) hisoblanadi. Hukumatni noqonuniy qoʻlga olishda ochiq kurash, ekstremizm, terror yoʻlini tutishi bilan bogʻliq.
2. Hizb ut-tahrir al-islomiy diniy tashkiloti davlat siyosiy boshqaruviga aralashishga, hukumatni toʻntarish yoʻli bilan qoʻlga kiritib, islom davlatini oʻrnatish daʼvosini ilgari suradi.
3. Akromiylar oqimi vakillari Allohgagina eʼtiqod qilib, paygʻambarlarga iymon keltirmaydi. Hozirgi kunda musulmonlarga namoz, roʻza, zakot, haj amallari farz emas, chunki bu kufr jamiyatida yashamoqdamiz, deb daʼvo qiladi.
4. “Al-Qoida”, “Turkiston islom partiyasi”, “Islom jihodi ittifoqi” terroristik tashkilotlardir.

**2.Soxta xristianlik harakatlari.** Hozirda asli musulmon bo'lgan kishilardan Turkistonimizning o'zida bir necha rohiblar qirg'iz, o'zbek yoki boshqa cherkovlarni boshqarmoqdalar. Turkistonning xristianlashishida Qirg'iziston bilan Qozog'iston (XX asr 90-yillarida va XXI asr boshida) oldinda bormoqda. Missionerlar o'zlarini qahramon his qilib, bundan juda xursand. Qirg'izistonning Norin viloyatida xristianlikni tarqatishda shuhrat qozongan Andrey Petersning aytishicha, bu xalqning bo'ynida 2 qulf: ateizm va musulmonchilik bor ekan, endi o'sha qulf ochilibdi. Ular sobiq Ittifoqdagi barcha yoziladigan tillarga Injil tarjima qilib bo'lingani, chop etilib tarqatilayotgani bilan bir-birini tabrikladilar va yozilmaydigan tillarga ham muqaddas kitobni tarjima qilishni maslahatlashib olishgan. 1995 yil 18-19 mayda Bishkekda O'rta Osiyo missionerlik konferentsiyasi bo'lib o'tib, unda mintaqadagi katta-kichik barcha xalqlarni injillashtirish rejasi va ro'yxati tuzilgan, ro'yxat ham e'lon qilingan. Qozog'istonda 50 ga yaqin shahar-qishloqqa diniy xodim – rohib kerakligi aytilgan. Qirg'izistonning 10 dan ortiq joyiga, jumladan Jalolobod, Qorasuv, Qadamjoyga, Nurobod, Zarafshon, Samarqand, CHorjo'y va Krasnagorskka, Toshkent va Guliston shaharlarida cherkov qurish rejalashtirilib, moddiy yordam olingan. O'ziga to'q uyg'ur, tungan, qoraqalpoq kabi “kichik” xalqlarga e'tiborini kuchaytirgan. Umuman, missionerlarning harakati diniy fundamentalistlarga ham o'xshab ketadi.


## 8.2.2-chizma



1. **Krishnani anglash jamiyati.** Bugun respublikamizda 16 turdagi 170 dan ziyod noislomiy diniy tashkilotlar rasman faoliyat ko'rsatmoqda (157 ta xristianlik, 8 yahudiy, 6 baxoi, 1 krishnani anglash jamiyati va 1 ta buddaviy ibodatxonasi).

Demak, shu jamoalardan biri, bu Krishnani anglash jamiyati (ro`yxatdan o`tgan)dir. Krishnachilik (vayshnavizm) odam qiyofasidagi xudo Krishna (Vishnu)ga e`tiqod qilishga asoslangan hinduiylik (dini)ning 2 asosiy yo`nalishlaridan biri hisoblanadi. Krishnachilik yakkaxudolikka, ya`ni yagona va mumtoz xudo – Krishnani tan olishga asoslanadi. U abadiy, yaratilmagan va cheksiz shakllarga kirish qobiliyatiga ega. Xalqaro Krishnani anglash jamiyati SHrila Bxaktivedanta Svami Prabhupada nomi bilan tanilgan asli hindistonlik Abxay CHaran De (1896-1977) tomonidan tashkil etilgan. 1965 yilda Bxaktivendanta Svami AQSHga ko`chib o`tadi va “Xalqar Krishnani anglash jamiyati”ga asos soldi. Bu davrda SHarq mistik ta`limotiga nisbatan katta qiziqish Krishnani anglash falsafasini targ`ib qilish uchun qulay shart-sharoit yaratdi va harakat tez rivoj topdi. Bugungi kunda dunyoning turli burchaklarida ularning 150 dan ortiq ibodatxonalari mavjud. Jumladan, Toshkent shahri SHimoliy vokzal orqasida 8-ruhiy shifoxona oldidagi ko`chada Krishnani anglash jamiyatining ibodatxonasi mavjud. Krishnachilikning muqaddas yozuvlariga “Bxagavatgita” va “Veda” matnlari kiradi.

### 8.2.3-CHizma



**Krishnachilik ta`limotga ko`ra**, olam ruhiy va moddiy dunyoga bo`linadi. Insonning ruhi tanasiga nisbatan birlamchidir. Krishnachilar ruhni rivojlantirib, ichki komillikka erishish va shu yo`l bilan xudoga qo`shilishni oliy maqsad, deb biladilar. Har bir inson o`zida Krishnani anglash jamiyatini rivojlantirishi mumkin. Buning uchun bir qancha harakat shakllarini o`z ichiga olgan va xudoga muhabbatni rivojlantirish hamda uni butunlay ruhiy anglashga sho`ng`ishga qaratilgan bxakta-

yoga mashqlar tizimi ishlab chiqilgan. Inson o'zini moddiy ehtiyojlardan xoli qilishi, go'sht, baliq, tuxum, mast qiluvchi narsalarning barchasi, jumladan, spirtli ichimliklar, tamaki, qahva, choy iste'mol qilish, nikohsiz jinsiy hayot kechirish, qimor o'yinlaridan voz kechishi zarur, deb hisoblanadi. Krishnachilikda meditatsiya deb ataluvchi, ibodatxonada o'tkaziladigan diniy marosimlar har kuni soatlab bajariladi. U maxsus harakatlar bilan Xudo Krishnani sharaflil amaliyoti bilan bog'liq. Bular aqlni tozalash, fikrni tashqi dunyodan xalos etib, butun diqqatini Xudoga bo'lgan muhabbatga yo'naltiradi.

Bu oqimga ergashuvchilarning mol-mulklarini jamiyatga xayr-ehson qilishlari rag'batlantiriladi. Bu ta'limni qabul qilgan har bir kishiga yangi – sanskritcha nomi beriladi. Jamoa a'zolari sari, dxota, hind milliy liboslarini kiyadilar.

Krishnachilar tomonidan missionerlik faoliyati XX asr 70-yillarida boshlangan. Ular tomonidan amalga oshiriladigan targ'ibotchilik harakatining o'ziga xos xususiyatlari qatorida ko'chalarda ibodat kiyimlarida yurib qo'shiqlar aytish va adabiyotlarini tarqatish, "Hayot uchun ozuqa" deb nomlanadigan, bepul oziq-ovqat tarqatish aksiyalarini o'tkazish ko'zda tutilgan. Bunday harakatlarning asosiy ob'ektlari sifatida odatda talabalar, maktab o'quvchilari, qariyalar va mehribonlik uylarida yashovchi odamlar, shaxslar tanlab olinadi.

**4. "AUM - Sinrikyo" missionerlik sektasi.** Din niqobidagi bu xavfli sekta (tashkilot) YAponiyada turli vazirliklar tuzgan. Uning Rossiyada bir necha o'n minglab ergashuvchisi mavjud. Bu sektaning Rossiyadan kimyoviy qurollarni sotib olganini rus matbuotining o'zi fosh qilib qo'ydi. "Mayak" radiosi undan

*Bugungi kunda ijtimoiy – ma'naviy muhitni va aholi turmush sharoitini yaxshilash, yoshlarni turli diniy ekstremistik oqimlar ta'siridan asrash masalasi barchamiz uchun eng asosiy masala bo'lib turibdi.*

*Shavkat Mirziyoev,  
1-jild, 473-bet, 2017.*


bir yilda 800 ming dollar olgan. Missionerlar "karomat" ko'rsatib, necha marta qiyomat qoim bo'ladigan kun va soatni aytib, e'lon qilib, sodda jamoatchilik ahlini, kishilarni qo'rqitib behuda tashvishga solgan. Ammo, "qiyomat qoim" bo'lmagach, yana hech narsa bo'lmagandek yurishibdilar.

Missionerlar orasida yoshlarni to'plab, turli narkotik moddalarga o'rgatish holatlari mavjud. Ular odamlarga sovg'a berib, o'ziga jalb qiladi. Ammo, bu birni bersang, o'nni olasan qabilidagi ish. Keyinchalik missionerlar o'z muxlislaridan xayri ehson talab qiladilar. "Obrazovatel" jurnalida Nikolay Boxroshinning yozishicha, bir ayolning quyidagi xatini misol keltiradi: "Erim uyni, mashinasini sotib, barcha pulni o'z "Aum-Sinrikyo" sektasiga xayri-ehson qildi. Qizim cherkovga qatnaydigan bo'lganidan buyon uydagi pullar yo'qola boshladi. Keyin esa, narsalar yo'qoldi. Endi esa u ochiqdan-ochiq olib borib beryapti". Yana shu jurnalning maqolasida keltirilishicha, AQSHdagi yangi cherkovlardan birining rahbari, sobiq yozuvchi Ron Xabbard: "Har bir so'zga bir pens olish uchun yozib o'tirish kulgili. Agar odam million dollar olmoqchi bo'lsa, eng oson yo'li – o'zi shaxsiy din ixtiro qilsin", degan ekan. Ana shunday shaxsiy din ixtiro qilgan Seku Asaxara millionlarga ham qanoat



qilmay, kimyoviy hujum uyushtirib, qamaldi. SHaxsiy din ixtiro qilgan Ron Xabbardning safdoshlaridan 7 nafari, jumladan, xotini Meri Sbyu Xabbardni AQSH hukumati turli uzoq muddatlarga qamoqqa hukm qildi. Sud qarori bilan “Aym – Sinrikyo” sektasi taqiqlandi. Qozon shahrida “Hayot ruhi” sektasi boshlig`i sudlandi. Ammo o`z yurtlarida qonun asosida faoliyat ko`rsata olmagan missionerlar Islom o`lkasida (mamlakatlarida) “javlon” urmoqda. Ularga hamma narsa uchun ruxsat. YOzuvchi missionerning kitobini yaxshilab mahalliy tilga tarjima qilib beradi. Undan kattarog`i “savob uchun” tahrir qilib beradi, matbaachi esa chop qilib beradi. Mahalliy millatdan chiqib, bo`ynidagi “musulmonchilik qulfi” ochilib boshqa dinga kirgan murtad esa, g`izillab yurib odamlarga tarqatadi. Qarabsizki, ona yurtimiz Turkiston injillashib bormoqda.<sup>13</sup>

## 8.2.4-chizma




**5. Nyu Eyj harakati** (inliz tilida “yangi asr”, “yangi era”, “yangi yosh” ma`nolarini ifoda etadi) – “yangi yosh”, tom ma`noda “yangi davr” (yangi era) tushunchalari turli voqea-hodisalarning sirli nomi bilan bog`liq bo`lib, unda mavjud diniy harakat, tashkilot va oqimlarning g`oyaviy-mafkuraviy qarashlarini aks ettiradi. Bu harakat XX asrda o`zining asosiy xususiyatlaridan kelib chiqib shakllangan. Mazkur harakat bugungi kunda “yangi era” ruhida faoliyat yuritmoqda. Harakat negizida “Teosofiya (hudo va donishmandlik) qarashlari”da o`z aksini topgan. Insonning bevosita ichki tajribasini xudoni anglash usuli sifatida rasmiy cherkov aqidalari obro`-e`tibordan afzal ko`radi. “Bruno Groning izdoshlari”da esa mafkuraviy jihatdan ularga yaqinligi

<sup>13</sup>. Internet materiallari asosida yozildi. 2018 yil 5 iyun.

va uning birlashuvini anglatadi. Mazkur harakatda tashkilot ya'zolari bir vaqtning o'zida tegishli harakat g'oyalari bilan xayrixoh bo'lib, bir guruhdan boshqasiga bema'lol o'tishi mumkin. XX asr 70-yillarida G'arbda bu "yangi era" harakati o'zining yuksak cho'qqisiga chiqdi. "YAngi era"ning barcha harakat tarafdorlari "bugungi madaniyatni almashtirish lozim". Ana shu "buyuk o'zgarishlarni faqat yosh "yangi davr" harakati birlashtira oladi. Bo'lajak yangi yosh madaniyat ancha mukammaldir" deb da'vo qiladi. Bu jarayonni ma'naviy sakrash g'oyasi bilan bog'laydi va uni ilgari suradi. Ushbu harakat g'oyasi insoniyatni rivojlantirishga olib boradi, deyiladi. "YAngi era" harakatining individual guruhlari bu davrni "paqir yoshi" ham deb nomlagan. "YAngi era" harakati muayan ma'rifiy ta'limotlar yoki diniy e'tiqod (mazhab, urf-odati) ning vakili bo'lmasdan an'anaviy diniy harakatlardan farq qiladi. Turli ma'naviy fikrlovchi sehr-jodu bilan sehrlab ezoterik (ichki) va metafizik (tashqi, mustaqil biryoqlama fikrlovchi) ta'limotlar, amaliyot va tushunchalar bilan bog'laydi. "YAngi era" harakatida G'arb va maxsus rus tashkilotlari, birlashmalari ham mavjud bo'lib, unda Rossiya rivojlangan guruh sifatida qayd etilgan. Ba'zi tadqiqotchilar "yangi era" harakati guruhlarini halokatli "kultlar" deb ham atashgan (internet ma'lumotlaridan foydalanildi).

## 8.2.5-chizma



### **O'zbekiston Respublikasida faoliyati aniqlangan norasmiy jamoalar**

O'zbekiston Respublikasida faoliyati aniqlangan norasmiy jamoalar quyidagilardan iborat:

1. **"Ma'rifatchilar"** – Farg'ona viloyatining Toshloq tumani va Samarqand viloyatining Ishtihon tumanida tarqalgan g'ayriislomiy jamoa. "Ma'rifatchilar" hadislarning islom manbaasi ekanligini inkor etadi; imom va masjidlarning faoliyatini go'yoki Qur'onda ko'rsatilmagan deb tan olmaydi; namoz vaqti va tartibini e'tibordan chetda qoldiradi; Muhammad (s.a.v.) ning islom dini tarqalishidagi o'rni va ahamiyatini tan olmasdan, uni faqat vahiy olishdagi "vositachi" deb hisoblaydi.

SHuningdek, “Ma’rifatchilar” Qur’on oyatlari va namozlarni o`zbek tilida o`qib, arab tilida o`qiganlarni musulmon emas, deb sanaydi. Ular nasha chekishni taqiqlamaydi. Jamoa aqidasi binoan, ma’rifatchilar istalgan vaqtda 2 rakat namoz o`qiydi, araq ichishni harom hisoblamaydi, faqat Makkadagi “Masjid ul-Haram”da namoz o`qish kerak, boshqa masjidlarda o`qish mumkin emas, deb biladi, juma namozi faqat Makka ahliga farz etilgan, mayyitni kafanlash va janoza o`qish islomda yo`q amallar deb hisoblaydi.<sup>14</sup>

***Ko’p hollarda tahdidlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar bilan emas, balki ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilan cheklanib qolinmoqda.***

***Shavkat Mirziyoev,  
BMT, BA 72-sesiyasida, 2017 yil 19 sentyabr.***

***Biz muqaddas dinimizni noto’g’ri talqin etayotgan va uni niqob qilib, bizni orqaga, o’rta asrlar hayotiga qaytarishga urinayotgan buzg’unchi kuchlarga qarshi keskin kurashib keldik va bundan keyin ham qat’iy kurash olib boramiz.***

***Shavkat Mirziyoev,  
1-jild, 47-bet, 2017.***

---

<sup>14</sup>Tulepov A. Islom va aqidaparast oqimlar. – T., 2014./ Islom. Ensiklopediya. – T.: “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. -297-298-betlar.

### 1. “Ma’rifatchilar” norasmiy jamoasining g’ayriinsoniy g’oyasi

1. “Ma’rifatchilar” harakati 1990 yildan boshlab Farg’ona viloyati Toshloq tumanida faoliyatini boshlagan. Asoschisi Toshloq tumanida 1950 yilda tug’ilgan Bahodir Mamajonov. “Ma’rifat” nomli kitob yozgan.

2. Avval Samarqand viloyatidan bo’lgan shaxslarni o’ziga jalb qilgan. B. Mamajonov 1971 yilda Samarqand viloyati Ishtihon tumanida tug’ilgan Bahridin Omonovni harakatga jalb qilgan. Ishtihon tumanida 20 nafar (20-35 yoshlardagi) shaxslarni o’z atrofiga to’plagan.

3. Asosiy g’oyasi: har bir millat ibodatni o’z tilida qilishi kerak. Shu sabab ular Qur’on va namozni o’zbek tilida o’qiydilar.

4. Masjidlar va imomlar faoliyatini inkor etadi. Faqat Ka’batullohni tan oladilar. Abu Bakr Siddiqdan boshlab barcha xalifalarga (Qur’onni yozma holga keltirgan ulamolarga) nisbatan salbiy munosabatda bo’ladi. Go’yoki Qur’on buzilgan holda tuzilgan deb da’vo qiladi. Hadislarni tan olmaydi.

5. Giyohvand moddalarni qabul qilishni harom hisoblamaydi. Go’yoki Qur’onda keltirilganidek, barcha giyohlar Olohga salovot aytib turadilar, deb asos qilib oladi.

6. Tarafdorlari: asosan kam ta’minlangan va tarbiyasi ijtimoiy nosog’lom oila vakillaridan iborat, ularning birortasi ham diniy ma’lumotga ega emas. Farg’ona viloyati Toshloq tumanida tarafdorlari 50 nafarga yaqin, Samarqand viloyati Ishtihon tumanida 20 ga yaqin.


7. Hozirda “ma’rifat” va “nomoz-sig’inish” nomli o’quv qo’llanmalari hamda “Qur’on rost bilan yolg’onni ajratuchi” deb nomlangan suralarning to’liq bo’lmagan yozma tarjimasi mavjud.

2. “SHohidiylar” dini oqimi etakchisi 1944 yilda tug’ilgan, Andijon shahrida yashab, do’ppido’zlik bilan shug’ullanuvchi Habib Karimov hisoblanadi. Ushbu oqimga u 1991 yilda toshkentlik, tatar millatiga mansub “Akif” ismli shaxs orqali jalb qilingan. Bu norasmiy jamoa g’oyalari asosida toshkentlik “Abdurahmon” ismli shaxsdan diniy ta’lim olgan. Bu oqim a’zolari barcha payg’ambarlarni va faqat “Qur’on”ni tan olishadi, boshqa Hadis va adabiyotlarni o’qigmaydi. Oqim a’zolariga ma’lum miqdorda spirtli ichimliklar iste’mol qilishga ruxsat berilgan. Besh mahal nomoz o’qish majburiyati belgilanmagan bo’lib, masjidlarga borish man etiladi va imom-xatiblarni “sof dindan adashganlar”, ya’ni “kofirlar” deb atashadi. SHuningdek, ular to’y va janoza marosimlarni o’tkazishni gunoh hisoblab, mahalla tomonidan o’tkaziladigan diniy marosimlarda umuman ishtirok etishmaydi.

Bu oqim a'zolari aholi orasida da'vat ishlarini olib borishmaydi, oqim safiga faqat yaqin qarindoshlari yoki tanishlarini jalb qilishadi. Jalb qilish marosimi sektaviy ko'rinishda bo'lib, jamoaga yangi qabul qilinayotgan shaxs oq matoga o'ng qo'lini qo'yadi, uning ustiga boshqa a'zolar hamda oqim etakchisi o'ng qo'lini qo'yib, Qur'on suralarini o'qishadi. Yangi qabul qilingan a'zo 70 kun davomida "ro'za" tutadi. Agarda "ro'za" tutish imkoni bo'lmasa, har bir kunga ma'lum bir miqdorda pul to'laydi. Bu "tashkilot", oqimning asosiy kitobi "Qur'ondan ma'ruf" hisoblanib, uni 1923 yilda tug'ilgan, Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Nazarbek qishlog'ida yashovchi Qobil Muhammedov tomonidan yozilgan. Mazkur kitob "Qur'on" so'zma-so'z o'zbek tiliga tarjima qilingan.

Oqim a'zolarining asosiy maqsadi Markaziy Osiyo mintaqasida yoki vodiya Islom boshqaruviga asoslangan shariy davlat qurish bo'lib, ushbu maqsadda o'z safdoshlarining sonini ko'paytirgach, kuch bilan Konstitutsion tuzumga qarshi harakat qilish<sup>15</sup>.

### 8.3.2-chizma



<sup>15</sup>. Internet materiallari asosida tayyorlandi, 2018 yil 4-son.


**3. “Baxshullochilar”** – g`ayrislomiyl mohiyatga ega jamoa. 1997 yil Buxoroda paydo bo`lgan. Asoschisi buxorolik Aliev Baxshillo Kozimovich. Jamoa a`zolarining asosiy qismi Buxoro shahri va Kogon tumanida istiqomat qiladi.

“Baxshullochilar” o`zlarini musulmon deb da`vo qilsalarda, aslida, ularning diniy-aqidaviy qarashlari asl islom ta`limotiga tamoman zid. B. Alievning Mahdiy kelishi, payg`ambarlik, haj, namoz kabi aqidaviy masalalarga munosabati buni isbotlaydi.

*“Biz islom dinidan zo`ravonlik va xunrezlik maqsadlarida foydalanishga urinayotgan kimsalarni keskin qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz. Muqaddas dinimizni doimo himoya qilamiz”.*

*Shavkat Mirziyoev,  
1-jild 30-bet, 2017.*

### 8.3.3-chizma



Xususan, islom ta`limotida qiyomat yaqin insonlarni yaxshilikka chorlovchi, ularni yagona haq din bayrog`i ostida birlashtiruvchi “Mahdiy”ning kelishi haqidagi qarashlar mavjud bo`lib, biroq sunniylik aqidasi ko`ra Mahdiyning

qachon va qaerda paydo bo'lishi faqat Allohgagina ayon, deyiladi. Hadislarda Mahdiyning imom Hasan avlodidan bo'lishi va u Muhammad (s.a.v.) sunnatlariga amal qilishi qayd etilgan. Ammo B. Aliev aqida va hadislarni nazar pisand qilmay, asossiz ravishda o'zini musulmonlar tamonidan oxirzamon arafasida paydo bo'lishiga ishoniladigan Mahdiy deb e'lon qilgan. Bundan tashqari, B. Aliev payg'ambarlikni ham da'vo qilib, islomning bu boradagi aqidasi g'oyani ilgari surgan. U yon-atrofdagilarga o'zini payg'ambar, turmush o'rtog'i Mohira Alievani "musulmonlar onasi", farzandlari Olim va Faxriddin "musulmonlar amiri", yaqin izdoshlarini "sahobiylar", o'zini ziyorat etgan shaxs haj amalini bajargan odamning savobini oladi, deb e'lon qilgan. Vaholanki, Qur'oni karimda Muhammad (s.a.v.) "payg'ambarlarning muhridir" deya qayd etilgan.

B. Aliev 1990 yil oxirida aholi orasida diniy va milliy asosda nizo keltirib chiqarishga qaratilgan jinoiy xatti-harakatlar sodir etgani va noqonuniy tarzda o'qotar qurol saqlagani uchun qamoq jazosiga tortilgan. U 2006 yili ozodlikka chiqqach, Rossiya Federatsiyasiga doimiy yashash maqsadida ko'chib ketgan. Biroq u erda ham o'zining soxta iddaolaridan voz kechmay, Buxoro shahridagi maslakdoshlari orqali Baxshullochilar jamoasi g'oyalari fuqarolarimiz orasida tarqatishga urinib kelmoqda<sup>16</sup>.

---

<sup>16</sup>. Islom Ensiklopediya. – T.: "O'zbekiston" milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 95-96-betlar.

## 11-mavzu. Kiber makonda diniy e'tiqod targ'ibotining ijtimoiy xavfi

### Reja:

1. Kibermakon va din.
2. Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlarga ta'siri.
3. Global tarmoqdagi g'oyaviy xurujlar oldini olish.

### 9.1.Kibermakon va din

**Kibermakon tushunchasi.** Bu tushuncha yozuvchi Uilam Gibson tomonidan 1984 yili "Kibermakon" deb nomlangan trilogiyaning birinchi romani "Neyromant" chop etilishi bilan bog'liq. U dunyoning barcha kompyuterlaridagi elektron ma'lumotlar aylanib yuradigan virtual makonni ta'riflaydi<sup>17</sup>.

**Kibermakon** – bir-biridan uzoqda joylashgan kompyuter terminallardagi individlarning o'zaro ta'siriga kirishishi uchun imkon beradigan elektron tarmoqlardir.

*Kibermakon kompyuter tarmoqlari orqali amalga oshiriladigan muloqot maydonini ifodalovchi voqelik sifatida 1990 yildan boshlab keng miqyosida rivojlanib, takomillashib kelmoqda*

*Keyinchalik, Gibsonning 1990 yilda yozib tugatgan «Neuromancer» («Asabli manzaralar tasvirlovchisi», «Nervo-sochinitel'») nomli texno-utopik fantastik trilogiyasida qo'llagan. Bu asardagi kibermakon tushunchasi millionlab odamlarning jamoaviy sarob, xayolparastlikning o'ziga xos ko'rinishi sifatida tasvirlangan. Bu erda jamoaviy sarob yoki xayolparastlik inson ongida sub'ektiv psixologik holat sifatida namoyon bo'ladi.*


*Ijtimoiy nuqtai-nazardan kibermakon deganda kompyuter tarmog'i orqali bir-biri bilan bog'langan va bir vaqtning o'zida turli geografik nuqtada kesishuvchi har qanday mavjud kompyuterining grafik sifatidagi ma'lumotlariga o'ralashib qolgan kishilar jamoasi tushuniladi.*

*Ayniqsa, xalqaro terrorizm, ekstremizm, narkotrafik, diniy qarama-qarshilik, noqonuniy migratsiya, odam savdosi, ekologik muammolar, ayrim mintaqalarga iqtisodiy nochorlik, ishsizlik, qashshoqlik kuchayib borayotgani butun insoniyatni qattiq xavotirga solmoqda.*

*Shavkat Mirziyoev,  
1-jild, 473-bet, 2017.*

<sup>17</sup>Axborot – kommunikatsiya texnologiyalari izoxli lug'ati. – T.: BMTTDning O'zbekistondagi vakolatxonasi, 2010. – 107-bet.





Hozirgi davrda fan, texnika va asosan kompyuter taraqqiyoti mahsuli bo'lgan kibermakon va uning boshqaruvchi qiyofasi «superkorporatsiya» texnologiyalarning insoniylikdan begonalashuvi natijasida din niqobidagi ijtimoiy va madaniy buzg'unchilikni sodir etishga bo'lgan urinishlar tobora kuchayib bormoqda. Jumladan, bugungi kunda kiberterrorchilik tuzilmalari o'z g'arazli maqsadlari yo'lida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishga urinmoqda.

«Taassufki, baʼzan islom dini va diniy aqidaparastlik tushunchalarini bir-biridan farqlay olmaslik yoki gʻarazli maqsadda ularni teng qoʻyish kabi holatlar ham koʻzga tashlanmoqda. SHu bilan birga, islom dinini niqob qilib, manfur ishlarni amalga oshirayotgan mutaassib kuchlar hali ongi shakllanib ulgurmagan, tajribasiz, gʻoʻr yoshlarni oʻz tuzogʻiga ilintirib, bosh-koʻzini aylantirib, ulardan oʻzining nopok maqsadlari yoʻlida foydalanmoqda. Bunday nojoʻya harakatlar avvalo muqaddas dinimizning shaʼniga dogʻ boʻlishini, oxir-oqibatda esa maʼnaviy hayotimizga salbiy taʼsir koʻrsatishini barchamiz chuqur anglab olishimiz va shundan xulosa chiqarishimiz zarur» (I. A. Karimov).

SHu boisdan ham 2018 yil 16 aprelda Oʻzbekiston Prezidentining “Diniy-maʼrifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi farmonida qayd etilganidek, “dinni zoʻravonlik va qon toʻkish bilan bir qatorda qoʻyadigan buzgʻunchi yot gʻoyalarning asl mohiyati va maqsadlari haqida aholining, ayniqsa, yoshlarning xabardorlik darajasini oshirish” belgilab berildi.

“**Axborot asri**” deb atalayotgan hozirgi zamonda maʼlumot olish va axborot almashishning qulay vositasi internetdir. Biroq bu tarmoqda hamma narsa aralash-quralash: oq bilan qora, ezgulik bilan yovuzlik. Maʼlumot tarqatish, biznes va reklama uchun katta maydonga aylangan global tarmoqni nazorat qilishning umuman imkoni yoʻq. SHuning uchun ham “oʻrgimchak toʻri”da buzgʻunchi gʻoyalar targʻiboti va terrorga chaqiriqlar juda koʻp uchraydi.

“**Oʻrgimchak toʻri**”da aqidaparastlikni targʻib qiluvchi saytlar tobora koʻpayib bormoqda. Bunday tahlikali zamonda yoshlarimizga faqat “uz” domenidagi saytlardan foydalanishni tavsiya qilish maqsadga muvofiq. Agar boshqa domendagi veb-saytlardan foydalanishga ehtiyoj sezilsa, maʼlumot olishda hushyorlik va ehtiyotkorlik lozimligini taʼkidlab oʻtmoqchimiz. Bizning aqidamizga, mazhabimizga zid boʻlgan saytlardan uzoq boʻlish zarur. Zero, ehtiyotsizlik bilan koʻr-koʻrona olingan maʼlumotlar kishini adashtirib qoʻyishi aniq. SHunday ekan, mamlakatlar barqarorligiga tahdid soladigan, xunrezlik, behayolik, qalloblik, ekstremistik kayfiyatdagi sayt va guruhlarini “oʻrgimchak toʻri”ning zulmatdagi shakliga qiyoslash mumkin.

Maʼlumotlarga qaraganda, bugungi kunda qariyb 5 milliard qurilma butunjahon “oʻrgimchak toʻri”ga ulangan. YAqin 5 yil ichida ularning soni 20 milliardga etishi kutilayotir (“Xalq soʻzi”, 2018 yil 9 may).

Kundan-kun internetdan foydalanish imkoniyatlari koʻplab insonlarning “ogʻirini engil qilayotgani” sir emas. Afsuski, terrorist va buzgʻunchi ham. Ular internetni oʻzlarining gʻoyaviy qurollariga aylantirib olishdi. Avvallari oʻzlarining manfur gʻoyalarni urush, qurol yoki shu kabi vositalar orqali insonlarga singdirishgan boʻlsa, bugunga kelib, internet orqali bir necha daqiqada minglab insonlarni oʻz qarmoqlariga ilintirmoqdalar. Ular insonlar ongini yolgʻon axborotlar, soxta iddaolar orqali egallab kelmoqdalar.

Internet tarmogʻida diniy-ekstremistik ruhdagi saytlar faoliyat yuritmoqdaki, ular insonlarni “jihod” qilishga, oʻz yurtidan “hijrat” qilib chiqib ketishga chaqirib, muqaddas islom dini niqobi ostida oʻzlarining manfur niyatlarini amalga oshirmoqdalar. Ularning maqsadi din yoʻlida xizmat emas balki dunyoviy manfaatga erishishdir. Hali tafakkuri shakllanmagan, ilmi va tajribasi etarli boʻlmagan yoshlar

bunday saytlarga kirib qolib, ularning aldoviga uchib, oxir-oqibat ota-onasi, yaqinlari hamda Vataniga xiyonat qilmoqda, xalqining la'natiga uchramoqda.

**Din** (arab – mulk, hisob, jazo, tadbir, bo'ysunish, itoat qilish, ibodat, parhez, yo'l tutish, odam qilish, e'tiqod qilish va boshqalar) – Xudo yoki xudolar, g'ayritabiiy borligiga ishonish. Qur'onda din so'zi turli ma'nolarda 100 dan ortiq martabada ishlatilgan bo'lib, o'sha ma'nolarning hammasi ayni vaqtda din atamasida ham o'z aksini topgan. **Imom Buxoriy ta'rifi ko'ra, din – iymon, islom, ehson yig'indisidan iborat.** Din tushunchasini sharhlashda bu uchlikni saqlab qolgan holda hanafiylar iymonning ahamiyatiga urg'u beradilar. Demak, xulosa qilsak:

1. **Telekommunikatsion texnologiyalarning ixtiro qilinishi** dunyoning turli qismlari o'rtasida bir zumda aloqa o'rnatish imkonini beradi. Transport sohasidagi qo'lga kiritilgan yutuqlar davlatlar o'rtasida muntazam ravishda va jadal sur'atda tovarlar almashinuvini yo'lga qo'yish imkonini beradi. Mana shu yangiliklar tevaragida nodavlat tuzilmalar paydo bo'ldi – bular halqaro hamkorlik qilish va kommunikatsiyani talab etuvchi jarayonlarga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan tashkilotlardir.

2. **Insoniyatning yagona dunyoda yashayotganligi** – bu ma'lum darajada ommaviy axborot vositalari va kommunikatsiyalar orqali olib borilayotgan xalqaro faoliyatning natijasi xisoblanadi. Televizion yangiliklar dasturi xalqaro timsollarning butun bir mazaikasini tashkil etadi. Natijada jahon informatsion tartibi, yangi axborot mahsulotlarini tayyorlash, tarqatish va ishlatishning xalqaro sistemasi vujudga keldi. Mana shu xalqaro axborot sistemasida industrial mamlakatlar etakchi o'rinni egallayotganligini hisobga olib, ko'pchilik kishilar uchunchi dunyo mamlakatlari imperialistik ekspansiyaning yangi shakli – ommaviy axborot vositalari kibermakonda terrorizm uchun ob'ektga aylanib qolmoqdalar deb xisoblaydilar.

3. **Din u yoki bu darajada ishtirok etmagan jamiyatni topish qiyin**, biroq turli madaniyatlarda diniy e'tiqod va marosimlar bir-biridan jiddiy farq qiladi. Barcha dinlarga ehtirom hissini uyg'otuvchi va dindorlar qavmi ishtirok etadigan diniy marosimlar bilan bog'liq ramzlar to'plami mavjud.

4. **Insoniyat tarixiga eng kuchli ta'sir o'tkazgan uchta monoteistik din** (ya'ni, yagona xudo mavjud degan dinlar) – yahudiylik, nasroniylik va islomdan iborat. Poleteizm (ko'pxudolik) ko'pincha boshqa dinlarda uchraydi. Ayrim dinlarda, masalan, konfutsiylikda xudolar va ilohiy mavjudodlar umuman yo'q.

**Din hozirgi dunyoda o'zining har xil ko'rinishlarini namoyon qilishni davom ettirmoqda.** Din jamiyatda qanday konservativ kuch sifatida namoyon bo'lsa, u inqilobiy kuch sifatida ham shunday namoyon bo'ladi.

## 2. Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlarga ta'siri

### 1. Kiberterrorchilik.

Kiberterrorizm (kiber urush) – kompyuter tizimlariga hujum. Bu hodisa 1990 yillarda birinchi marta sodir etilib, maqsadi – tashkilotlardagi barcha hujjatlar

*Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga egabo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda.*


*Shavkat Mirziyoev,  
1-jild, 504-505-betlar, 2017.*

kompyuterda saqlanganligini hisobga olib, ularning faoliyatida uzilish hosil bo'lsa, **ikkinchidan**, birdan-bir muhim axborotlarni yo'qotish hisoblanadi. Masalan, 1997 yil avgustda kiber guruhlar "Qora tigrlil Internet" nomli SHri Lanka davlatining elektr pochta-siga hujum qilganlar, 1998 yil may oyida xakerlar hindlarning yadroni sinab ko'rishiga qarshilik qilib, Badha shahridagi hind atom tadqiqotlari markazining kompyuterdagi qayd daftarchisini ham elektron pochta-sini yo'q qilishgan. ("Xalq so'zi", 2004, №3, 17-19-betlar).

Ijtimoiy tarmoqlar, ayniqsa, o'smir yoshlarga ma'naviy va psixologik jihatdan salbiy ta'sir etadi, chunki aynan o'tish davridagi o'smirlarda turli axboriy xurujlar natijasida og'uvchanlik kuchli bo'lishi kuzatiladi. Ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik natijasida o'smirlarda, hatto voyaga etgan insonlarda ham jamiyatdan uzoqlashish, virtuallikka moyillik ustunligi, asabiylik vujudga keladi.

Eng yomoni, hozirgi kunda yoshlarning 90 foizi asosiy axborot manbai sifatida internetga murojaat qiladi. Ayni paytda tizimda o'z joniga qasd qilishning oson yo'llarini targ'ib qiluvchi 9 ming, behayo mazmundagi 4 mingdan ziyod saytlar mavjud 49 foiz kompyuter o'yinlari zo'rvonlik va yovuzlikni targ'ib qilayotir.

### 9.2.1-chizma



So'nggi yillarda terroristik tashkilotlar g'oyalarini targ'ib-tashviq qilishga qaratilgan veb-saytlarning soni bir necha barovarga oshdi. Xususan, 10 yil avval bunday saytlar soni 20 ta bo'lsa, bugungi kunda dunyoda terroristlar foydalanadigan 5000 dan ortiq internet saytlari mavjud bo'lib, ularga xizmat ko'rsatuvchi portallar soni ortib bormoqda. Xalqaro ijtimoiy so'rov tashkilotlari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, ayni kunda dunyo bo'yicha bir milliarddan ortiq kishi internetdan foydalanadi. Ularning 10 foizi voyaga etmagan yoshlar deb hisoblansa, g'arazli maqsadni ko'zlagan ijtimoiy tarmoqlar xavfining qanchalik yuqori ekanligini tasavvur qilish mumkin. SHu bois, yoshlarimizda jamiyatimizga yot bo'lgan g'oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishda farzandlarimizni yoshlikdan buyuk allomalarimiz hayotlari, odob-ahloqlari va ilmiy meroslari, xalqimizning milliy ma'naviyati, oilalarimizda amal qilinadigan tartib-qoidalarga, ota-onaga hurmat ruhi asosida tarbiyalash, oilani muqaddas qo'rg'on ekanligini ongiga singdirish muhim ahamiyatga egadir. Zero, har qaysi davlatning yoshlari uning ertangi kunini, taqdirini belgilovchi kuch bo'lib sanaladi.

Internetda, terrorchilik va boshqa buzg'unchiliklarni targ'ib qiluvchi veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqdagi guruhlar soni kun sayin ko'paymoqda. Bu holat dunyoqarashi shakllanmagan va g'o'r yoshlarning sog'lom e'tiqodini, ongu shuurini zaharlamoqda.

G'alamislarning internet orqali hujumlari asosan yoshlarga qaratilgan bo'lib, ular o'smirlar uchun qiziqarli bo'lgan vositalardan ustalik bilan foydalanishmoqda. Jumladan, yoshlarning qiziqishiga qarab, ularni turli videolavhalar va fotosuratlarini tomosha qilishga jalb etish orqali yoki tashqi ko'rinishidan go'yoki o'yin, texnika, sportga doir bo'lsa-da, lekin ichki sahifalarida faqat buzg'unchilikni singdiruvchi veb-jurnallarni taqdim etmoqda. Afsuski, internet tarmog'ida qora quzg'un kabi o'rnashib, yurtimiz yutuqlarini ko'ra olmayotgan yovuz kuchlarning nosog'lom bo'hton va g'iybat bilan to'lib-toshgan ma'lumotlarni ayrim yoshlar o'qib, ba'zan ularga hamfikr bo'lib, adashib ketayotganlari achinarli holatdir.

E'tiborlisi, dunyo bo'yicha internetdan eng ko'p foydalanuvchilar aynan 21 dan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar hisoblanadi. **Mamlakatimizda 2007 yilda internetdan foydalanuvchilar soni** (mobil internet foydalanuvchilari bilan qo'shib hisoblaganda) bir millionni tashkil etgan bo'lsa, 2017 yil yakunida bu ko'rsatkich **o'n uch millionga etdi.**

Kiber terroristlar o'zlarining g'oya, maqsad, vazifalarini tarqatishda Internetdan keng foydalanishmoqda. Muayyan mafkuraviy poligonlarning muttasil tarqatilayotgan axborotlardagi yovuz va zararli g'oyalar oqimi, teleekranlar orqali doimiy namoyish etiladigan jangari filmlar, bolalarga mo'ljallangan buzg'unchi g'oyalar asosida ishlangan o'yinlar, kompyuter tarmoqlari dasturlarini ishdan chiqaradigan "virus"larni tarqatish bunga misol bo'la oladi<sup>18</sup>. Bunda, asosan, Internet ijtimoiy tarmog'i etakchi rolni o'ynamoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda (2017 ER yuzida 2,1 mlrd. Kishi internetdan foydalanadi. Uning 44 foizini Osiyo mintaqasidagi yashovchilar tashkil etadi. Umumiy ko'rsatkichning yarmidan ko'pi 25 yoshgacha bo'lganlardan iborat.

Ma'lumotlarga ko'ra, bugun mamlakatimizda 1032 ta internet kafe, 939 ta internet provayder, 187 ta davlat axborot resursi, "Ziyonet" yoshlar axborot portali, 1026 ta axborot-kutubxona muassasasi faoliyat yuritmoqda. "Google"(Gugl) kompaniyasi tahlillariga ko'ra, bugun (2017) O'zbekiston bo'yicha xorijda ro'yxatdan o'tgan internetdagi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar 350 ming nafarga yaqinini tashkil qilmoqda. Afsuski, "Doira.uz", "Vsetut.uz", "Sinfdoosh.uz", "Muloqot.uz" kabi milliy domenda ro'yxatga olingan saytlardan foydalanuvchilar jamlansa ham yuqoridagi miqdorga etmaydi.

**II. Elektron dasturlar tahdidlari.** Keyingi yillarda yovuz va g'arazli guruhlar ijtimoiy tarmoqlardan o'zlarining vahshiyona maqsadlarini amalga oshirishda foydalanishayotgani ko'pchilikni tashvishga solmoqda. Jumladan, hozirgi paytda "Siniy kit", "Tixiy dom", "More kitob", "Razbudi menya v 4:20" singari guruhlar ochilib, o'smirlarni o'z ichiga torta boshladi. Bunday guruhlariga a'zo bo'lib kirganlar guruh boshliqlarining vazifalarini bosqichma-bosqich bajarishgani sari shartlar vahshiylashib boraveradi. YA'ni, bormoqlarga igna sanchish, o'z terisini tilish, 2-3

---

<sup>18</sup>Falsafa asoslari. – T.: "O'zbekiston", 2005. – 363-364-betlar.

metr balandlikdan sakrash, mashinalar tez-tez qatnayotgan yo'llardan yugurib o'tish, vena tomirlarini kesish, kit rasmini badanga qonatib chizish va xokazolar. Bora-bora zombiga aylanib qolgan o'smir o'z joniga qasd etadi va o'yinni "Qaxramonlar"cha yakunlaydi. Bunday fojeali holatlar ayrim MDX davlatlarida, ayniqsa, Rossiya va Qozog'istonda bot-bot takrorlanayotganidan matbuot bong urmoqda.

Qozog'iston ichki ishlar vaziri K. Qasimov bayonotiga ko'ra, 2017 yilning yanvar, fevral oylarida Qozog'istonda 63 ta "o'lim guruhleri"ga jalb etish va 15 nafar bolaning o'z sog'lig'iga shikast etkazishi holatlari aniqlangan<sup>19</sup>.

OAV "o'lim guruhleri" deb nom olgan bunday guruhlar, odatda, ijtimoiy tarmoqlar orqali, asosan, maktab yoshidagi bolalarni jalb qiladi. Guruhlar tajribali psixologlar tomonidan boshqarib boriladi. Qozog'istonda faoliyat yuritgan ana shunday guruhlardan ikkitasining nomini keltirish mumkin. "Ko'k kit" va "Tinch uy". Ushbu guruhlar o'z faoliyatini o'yin sifatida olib borgan. Guruh a'zolari turli topshiriqlarni bajarib, uni videoga olishi va guruhda namoyish qilishi kerak bo'lgan. Masalan, badaniga pichoq yordamida turli tasvirlar chizish yoki ketayotgan avtomobil oldidan so'nggi damda yugirib o'tish kabi... Bu o'yinlarda "topshiriqlar" bosqichma-bosqich murakkablashib boradi va eng oxirgi topshiriq o'z joniga qasd qilish bo'ladi. Topshiriqni bajarishdan bosh tortgan bolalarni esa ularning oila a'zolarini o'ldirish bilan qo'rqitishadi. Qozog'iston vaziri (IIB) xabariga ko'ra, "o'lim guruhleri" bilan kurashishda ma'lum qiyinchiliklar bor. Unga guruh boshlovchilarining ko'pi chet elda turib, faoliyat yuritmoqda.

2016 yili Qozog'iston huquqni saqlash organlari tomonidan ushbu kabi jinoyatlar uchun 44 ta jinoiy ish qo'zg'otilgan, 16 nafar bola qurbon bo'lgan. OAV ma'lumotlariga qaraganda, 2016 yilda Rossiyada 720 nafar, Qirg'istonda 95 nafar va Qozog'istonda 33 nafar o'smir shu o'yin tufayli o'z joniga qasd qilgan. Laykparast avlod afsuski, o'z taqdirini o'zgaralar qo'lga topshirishi, o'zgalarning fikri bilan harakat qilishi bugungi yoshlar virtual olamdan mehr izlamoqda, virtual olamdagilarning fikriga qarab, ish tutmoqda.

Ma'naviyatni, qalbni qirg'in qilishdan jismoniy qirg'in qilishga o'tdi. Boshqacha aytganda, Internet ijtimoiy tarmoqlardagi yuqoridagi guruhlarning terrorchilardan, ommaviy qirg'in qurolidan farqi qolmayapti.

**Antiq afsonalarda Pandora qutisi haqida bir rivoyat bor.** Ayol erining uyidan g'alati bir qutini topib oladi. U biladiki, bu qutining ichida yovuz bir kuch bor, xavf bor. Ammo ayolning qiziqishi taqiqdand ustun kelib, chiday olmay qopqog'ini ochadi. Qutidan turli balo va ofat uchib chiqib, butun dunyoga tarqab ketadi. Bu insoniyatni ogohlantirish – dunyoni o'rganish uchun o'ylanmasdan bosilgan qadam – oxir-oqibat fojiga olib kelishiga ishora. Ijtimoiy tarmoqdagi yovuz guruhlar haqidagi xavotirimiz o'sha afsonaning aynan o'zi deyish mumkin.

**Internet okeanidagi "Ko'k kit"ga tashlangan qarmoqqa nega aynan o'smirlar ilinayapti?** CHunki o'smirlar: **Birinchidan**, qahramonlik qilib dunyoni hayratga solishga, mo'jiza ko'rsatishga, o'zining hammadan ustun ekanligini isbotlashga moyil bo'lgan fasl. **Ikkinchidan**, or-nomus tuyg'usi toza va kuchli, toshning tagida chayon borligini mulohaza qilmaydigan fasl. **Uchinchidan**,


---

<sup>19</sup>Ilmiy-texnik taraqqiyot va "ommaviy madaniyat". – T.: "Navro'z", 2017. – 61-bet.

ishonuvchan, birinchi eshitgan ma'lumotni haqiqat deb qabul qiladigan, qisqasi inson bo'lib shakllangan fasl. Keyin uni o'zgartirib bo'lmaydi<sup>20</sup>. Ijtimoiy tarmoq ortida o'tirgan yovuz kuchlar bu faslning ruhiy holatini juda yaxshi bilishadi. Nima qilmoq kerak?

Ma'lumki, tabiatdagi har bir narsani Xudo himoya qobig'i bilan yaratgan. Oddiy mevadan tortib Yer sharidagi barchasida himoya qobig'i bor.

## 9.2.2-chizma




**Tatuировka** teridagi shakl bir umr uni shikastlaydi, yo’qolmaydi.

O’tkazilgan tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, aksariyat tatuaj ishqibozlari vaqt o’tgan sari undan forig’ bo’lishni istaydi. Bu san’at emas vahshiylikdir. **Tatuировka** feodalizm davrida qo’llar uchun tamg’a sifatida qo’llangan. V asrda misrlik ayollar ham qosh va qovoqlarni tabiiy bo’yoq bilan bo’yab yurishgan. Buning uchun bambuk cho’plaridan foydalanishgan. Ularning yuzi, labi, ko’zlarining atrofiga chizilgan chiziq'larga tatuировka chizdirishgan. Ularning yuzi, labi, ko’zlarining atrofida chizilgan chiziq'larga qarab oilasi va nechta farzandi borligini bilishgan. Bugungi kunda tabiiy chiroy o’rnini borgan sari sun’iylik zabt etayapti. Permanent, ya’ni doimiy makiyaj, qosh, ko’z, labni tatuaj qilish ko’p davlatlar qatori mamlakatimizda ham so’nggi yillarda urfga aylandi. Go’zallik salonlarining har uchtasidan biri peshtoqida “tatuaj qilamiz” degan yovuzga ko’zingiz tushadi. Tatuaj qildirishning narxi 300 mingdan 500 ming so’mgacha, hajmi bo’yoqning sifatiga qarab oshib boraveradi.

<sup>20</sup> Saidov Ibrohim. Ijtimoiy tarmoqlardagi yangi xavf/Ilmiy texnik taraqqiyot va “ommaviy madaniyat”. – T.:”Navro’z”, 2017. – 61-63-betlar.

Tatuaj va tatirovkalar g`arb mamlakatlarida keng urf bo`lgan, afsuski bugungi kunda bizda ham ommalashayapti.

### 9.2.3-chizma



Tatuirovkalar turli ramzlar, ma`nolarni anglatib, diniy belgilar, turli tashkilot va klublarning emblemalari, bayroq, gul, qush, hayvonlar, turli yozuvlar ko`rinishida bo`lishi mumkin. Tatuirovkalar ma`no jihatidan jinoyat olamiga oid, harbiy etnik, mahbuslarga chiziladigan, diniy sektalarga xos bo`ladi.


Keyinga vaqtlarda tanani suratlar bilan “bezash” estrada qo`shiqchilari, futbolchilar orasida ham ommalashib ketdi. Masalan, farzandlarimizning eng sevimli megayulduzi, millionlab muxlislarga ega Leonel Messining tanasida beshta turli ma`no-mazmunlardagi tatuirovkalar mavjud yoki futbol afsonasi Diego Maradonna, Zlotan Ibragimovich, Serxio Ramos, Runi O`ein kabi mashhur futbolchilarning tanasida ham ko`plab tatuirovkalar mavjud.

Tatuirovka, bu ish hech qaysi dinda oqlanmagan. Muqaddas islom dinida esa bu amal qattiq qoralangan, taqiqlangan. Imom Buxoriy Abdulloh Ibn ma`sud roziyallohu anhudan bir hadisni rivoyat qiladi. Unga ko`ra, rasululloh sollalohu alayhi vassalam igna bilan badaniga surat chizuvchi ayol va chizdiruvchini, soch ulaydiganni va ulatadigan, husn uchun tishlarining orasini ochuvchini va Alloh xalq qilgan narsani o`zgartiruvchini la`natlagan<sup>21</sup>.

<sup>21</sup>Rofieva SHahnoza. Qullik tamg`asi ostida / Ilmiy-texnik taraqqiyot va “ommaviy madaniyat” . – T.: “Navro`z”, 2017. -135-141-betlar.




## 9.2.4-chizma



**Kalyan (chilim)** – jamoat joylariga, qahvaxona, bar va restoranlarda fuqarolar, ayniqsa, yoshlar tomonidan tamakidan tayyorlanuvchi – chilim (кальян) iste'moli ko'payib “ommaviy urf” va “ommaviy madaniyat”ga aylanib bormoqda. Kalyanda 600-650 s. haroratda ko'mir yonib turishi natijasida uni 45 daqqa iste'mol qilgan nison organizmiga bir quti (20 dona) sigareta chekish yoki 40 barobar ko'p miqdorida uchar gazi tushadi.

## 9.2.5-chizma



**III. Virtual o'yinlarning zararlari.** Ilgari nazoratsiz bo'lgan bolalar ko'cha-ko'ya turli bezorilarga qo'shilishib, jinoyatchiga aylanadi. Hozir esa ertalabdan-kechgacha "beozorgina" bo'lib kompyuter va Internetdan bosh ko'tarmaydigan avlod paydo bo'ldiki, ular qanday narsalarni ko'rayotganligi ko'pincha ota-onalarni qiziqitirmaydi. Afsuski, aynan mana shu beparvolik mudhish oqibatlariga olib kelmoqda. 2015 yilda CHelyanbinsk viloyatida 15 yoshli Anton SH. ismli ota-onasini pichoqlaydi. Bunga esa onasining unga hadeb kompyuter o'ynab o'tiravermasdan, dars qilishni buyurgani sabab bo'ldi. Kuniga 8 soatlab turli qotilliklar tasvirlanuvchi kompyuter o'yinlarini o'ynash natijasida maktabda "a'lo" baholarga o'qigan, fanlar olimpiadasi ishtirokchisi qotilga aylandi. Onasining so'zlaridan g'azablangan Anton oshxonaga kirib pichoq oldi va ota-onasiga tashlandi. Ona jon berdi, otasining esa hayoti saqlab qolindi. Volgagradda 16 yoshli Lyosha R. buzilib qolgan kompyuterini tuzatish uchun pul bermagani uchun onasini bolta bilan chopib tashladi<sup>22</sup>. Virtual o'yinlarda "qotilliklar" qilishning hadisini olgan o'smir onasining jasadini hovlisi yaqiniga olib borib ko'mib qo'ydi. O'gay opasiga esa onasining qarindoshlarinikiga ketganini aytdi. Bir necha kundan keyin ota tashvishlanib, politsiyaga xabar berdi. Ayolning jasadi 12 kundan keyin topildi. Krasnodarda 15 yoshli YAroslav M. otasini unga kompyuter o'ynashni taqiqlagani sababli, o'ldirgani uchun 8 yilga ozodlikdan mahrum qilindi. Otasi uni darslarga bormay qo'ygani uchun urishib, kompyuterining klaviaturasini yashirib qo'yadi. YAroslav yarim tunda uxlab yotgan otasining boshiga kuvalda bilan bir necha marta zarba beradi. So'ng onasiga agar klaviaturani topib bermasa, uni ham o'ldirishini aytadi. Daxshatga tushgan ona unga klaviaturani topib beradi. O'g'il bamaylixotir xonasiga kirib, yana o'yin o'ynashga tushadi. Ona politsiya va tez yordamga qo'ng'iroq qiladi. Tez yordam etib kelganida ota allaqachon jon berib bo'lgandi. U nimani so'rasa olib bergan... Ijevskda 17 yoshli yigit onasining qotiliga aylandi. U butun kunini Internetda o'tkazar, turli onlayn o'yinlari o'ynardi. U hattoki xonasidan kunlab chiqmay qo'ydi, ovqatni ham xonasida eydigan bo'ldi. Sabr kosasi to'lgan ota uning kompyuterini olib qo'yimoqchi bo'lganida yigit otasini pichoqladi. Kemerovada 14 yoshli Sasha K. kompyuterda o'yin o'ynayotganida chalg'itgani uchun 20 yoshli opasini g'isht parchasi bilan urib o'ldirdi. Sashaning o'qituvchilari u maktabda juda yaxshi o'qigani, lekin keyingi 6 oyda o'zlashtirishi pasayganini bildirishdi. Petrozavodskda 22 yoshli yigit 80 yoshli buvisini kaltakladi. Tergov paytida u "Buvim kompyuter o'ynashimga xalaqit bergani uchun kaltakladim" dedi.


Xitoyda tinimsiz 19 soat kompyuter o'ynagan yigit kompyuteri oldida jon berdi. Boshqiristonda oyog'i sinib qolib uyida davolanayotgan 17 yoshli o'smir 22 kun kompyuter o'ynagach, vafot etdi. Tayvanda 32 yoshli kishi 3 sutka tinimsiz kompyuter o'ynagani oqibatida yuragi ushlab qolib vafot etdi. Xitoyning Nantun shahrida yashovchi 19 yoshli yigit kompyuter o'ynash kasalligidan qutulish uchun o'z qo'lini kesib tashladi. Bunday salbiy holatlarni O'zbekistonda ham uchratish mumkin.

---


<sup>22</sup>Jo'raev A. Internetga tobelik – Asr muammosi/ Ilmiy-texnik taraqqiyot va "ommaviy madaniyat". – T.: "Navro'z", 2017-64-69-bntlar.

Bolalarning kompyuter va internetga tobe bo`lib qolishlariga aksariyat hollarda otionalarning o`zlari sababchi bo`lib qolmoqda. Farzandga ortiqcha mehr ko`rsatish, uning barcha istaklarini muhayyo qilish va yoki aksincha, unga butkul e`tiborsiz bo`lish, uning yurish-turishi bilan qiziqmasdan bolalarning virtual olamga kiritib ketishlariga olib kelmoqda.

9.2.6-chizma




9.2.7-chizma



**IV. Axborot asri tahdidlari.** Axborot tahdidi – jamiyat axborot sohasining faoliyatiga xavf tug`dirayotgan jami omillar va mezonlar guruhlari.

9.2.8-chizma



Bugungi o'smirlar ertaga xalq bo'ladi. Ma'naviyati butun, o'z dunyoqarashiga ega, o'zgalar fikriga qaram bo'lmagan xalqning kelajagi buyuk bo'ladi. SHuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning 2017 yil 5 iyuldagi PF-5106-sonli "YOshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmonida aynan ana shu muammolar echimiga qaratildi.

2016 yilda yoshlar ishtirokida 1 million 740 mingga yaqin xuquqbuzarlik, 23 ming 440 ta jinoyat sodir etilgani, yosh oilalar o'rtasida 8 mingdan ortiq ajratish qayd etilgani barchamizni jiddiy tashvishga solishi kerak. (1-jild, 508-bet). 2017 yili raqamli televidenie qamrovi 88 foizdan 100 foizga etkazildi. Mobil aloqadan foydalanuvchilar soni 7 foiz oshib, 22,8 millionga etdi. 2017 yilda axborot texnologiyalari sohasida 7,7 trillion so'mlik yoki 2016 yilgiga nisbatan 26 foiz kam xizmat ko'rsatildi. Investitsiya dasturi doirasida 260 million dollar o'zlashtirildi.

Axborot texnologiyalari sohasining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi Janubiy Koreyada 9 foiz, YAponiyada 5,5 foiz, Xitoy va Hindistonda 4,7 foiz, O'zbekitsonda atigi 2,2 foizni tashkil etadi. Buni axborot-kommunikatsiya rivojdanish indeksi reytingidagi 176 mamlakat orasida O'zbekiston 95-o'rinda ekani ham isbotlab turibdi ("Xalq so'zi", 2018 yil 10 yanvar).

*Yoshlarning ilmiy va badiiy kitoblar, jumladan, elektron asarlarni o'qishga qiziqishini yanada oshirish, huquqiy, ekologik, tabiiy va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini yuksaltirish orqali ularda turli mafkuraviy tahdidlarga, xususan, diniy ekstremizm, terrorizm, "ommaviy madaniyat" va boshqa yot g'oyalarga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirish deb alohida vazifa belgilandi.*

*Shavkat Mirziyoev,  
2017 yil, 5 iyul*

### 3. Global tarmoqdagi g'oyaviy xurujlar oldini olish

Ma'lumki, axborot xurujining asosiy nishoni, ob'ekti yoshlardir. Agar ilgari axborot xuruji, asosan, talaba yoshlarga qaratilgan bo'lsa, endilikda maktab o'qituvchilari ham uning "dom"iga tushib qolmoqda. Axborot xurujini tashkil etuvchi va tarqatuvchi asosiy maydon bu – Internet tarmog'i ekanligi hech kimga sir emas. YOshlar katta avlodga,


*Avvalambor, "ommaviy madaniyat" ko'rinishida kirib kelayotgan turli tahdidlar, giyohvandlik, diniy ekstremizm, missionerlik kabi balo-qazolardan yoshlarni asrash, ularning ta'lim-tarbiyasiga har bir kishi ma'sul ekanini hech qachon unutmaslik kerak.*

*Shavkat Mirziyoev,  
2017 yil*

nisbatan internet tarmog'ining eng ko'p foydalanuvchi qatlamidir. Ijtimoiy saytlar orqali maqsadli ravishda targ'ib qilinadigan evropaparastlik va amerikacha madaniyat

ta'siri, shu ta'sirga jiddiy moyillik – “ommaviy madaniyat”ga erishish, odatda dunyoqarash, ongi to'liq shakllanmagan, milliy g'oya va qadriyatlar mohiyatini anglab etmagan yoshlar orasida ko'plab kuzatilmoqda.


### 9.3.1-chizma



Globalashuvning yoshlar tarbiyasiga o'tkazayotgan salbiy ta'siri informatsion vositalarning yuksak rivojlanishi natijasida internet, uyali telefon, telekommunikatsiyalar va turli axborot nashrlarining kirib kelishi, bu vositalar orqali taklif etilayotgan “qadriyatlar”, ko'p xollarda, yoshlarimizni milliy

qadriyatlarimizdan uzoqlashtirib qo'ymoqda. "Ommaviy madaniyat"ning turli ko'rinishlari yoshlar orasida tobora keng tarqalishi, asosan, kiyinishida, qiziqishlarda, bo'sh vaqtni o'tkazishda, didlarning sayozlashuvida, milliy qadriyatlarga va ijtimoiy manfaatlarga bepisandlik bilan munosabatda bo'lish kabi illatlarni keltirib chiqarmoqda<sup>23</sup>

### 9.3.2-chizma



Ko'rinib turibdiki, g'oyaviy-ma'naviy tahdidlar dunyoning barcha mamlakatlari, xalqlari hayotiga daxldor masaladir. Demak, g'oyaviy-ma'naviy tahdid qaysi davlat yoki halqqa qarshi qaratilishidan qat'iy nazar, butun insoniyatga birdek tashvish va xavotir uyg'otishi kerak.

Prezidentimiz SHavkat Mirziyoev jamiyatimiz oldida turgan eng ustuvor vazifa sifatida, ilmiy-texnik taraqqiyot va "Ommaviy madaniyat"ning tahdidi, birinchi navbatda yosh avlodga qaratilganligini bayon etdi. Bunga qarshi zudlik bilan amaliy chora-tadbirlar ko'rish lozimligini 2017 yil 30 iyunda "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqida Prezidentimiz kuyinchaklik bilan alohida ta'kidlab o'tdi: "Go'yoki hamma narsa joyida, olam – guliston. Agar hammasi joyida bo'lsa, to'g'ri yo'ldan adashgan yoshlar, jinoyatchilik, ishsizlik qaerdan paydo bo'lyapti? Nega yoshlarga oid davlat siyosatiga loqayd munosabatda bo'layotgan amaldorlar haqida ommaviy axborot vositalari, avvalo, yoshlar matbuotda churq etmaydi?

Masalan, "Kamolot" radiosini, "Kamolot"ning internet saytini oladigan bo'lsak, ularda o'tkazilgan yuzaki tadbirlar, engil-elpi qo'shiqlar o'zini o'zi maqtash, chiroyli qiyofalardan boshqa narsani deyarli ko'rmaymiz.<sup>24</sup>

O'zingiz o'ylang, aziz do'stlar, yoshlarimiz o'zimizning gazeta-jurnallarimizni o'qimasa, o'z milliy adabiyotimiz va san'atimizni bilmasa, ular qanday qilib

<sup>23</sup> Zakurlaev A. "Ommaviy madaniyat" – milliy ma'naviyatga tahdid / Ilmiy-texnik taraqqiyot va "ommaviy madaniyat" – T.: "Navro'z", 2017.-20-23- betlar.

<sup>24</sup> Mirziyoev SH. M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz – 7-jild. – T.: "O'zbekitson", 2017.-526-527-betlar.

vatanparvar bo`ladi? Ularning ongu tafakkuri, dunyoqarashi nima hisobidan shakllanadi?


Albatta, bu kabi masalalarga echim topish davlatimizning yoshlarga doir siyosatining bosh yo`nalishi bo`lib kelmoqda. Bu borada O`zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimovning “O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”, “YUksak ma`naviyat – engilmas kuch” asarlarida, xususan O`zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining 2017 yil sentyabirida Toshkentda bo`lib o`tgan fan va texnologiyalar bo`yicha birinchi sammitidagi nutqlari, “Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”, “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta`minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”, “Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir”, “Oliy Majlisga Murojaatnomasi” kabi asar, risola va ma`ruzalarida yosh avlodni har jihatdan barkamol qilib tarbiyalashga qaratilgan g`oyalari, ilgari surilgan qarashlarini alohida ta`kidlash joizdir.

Internetda terrorchilik va boshqa buzg`unchiliklarni targ`ib qiluvchi veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqdagi guruhlar soni kun sayin ko`paymoqda. Bu holat dunyoqarashi shakllanmagan va g`o`r yoshlarning sog`lom e`tiqodini, ongu shuurini zaharlamog`da. G`alamislarning internet orqali hujumlari asosan yoshlarga qaratilgan bo`lib, ular o`smirlar uchun qiziqarli bo`lgan vositalardan ustalik bilan foydalanishmoqda. Jumladan, yoshlarning qiziqishiga qarab, ularni turli videolavhalar va fotosuratlarini tomosha qilishga jalb etish orqali yoki tashqi ko`rinishidan go`yoki o`yin, texnika, sportga doir bo`lsada, lekin ichki sahifalariga faqat buzg`unchilikni singdiruvchi veb-jurnallarni taqdim etmoqda.

Afsuski, internet tarmog`iga qora quzg`un kabi o`rnashib, yurtimiz yutuqlarini ko`ra olmayotgan yovuz kuchlarning nosog`lom, bo`hton va g`iybat bilan to`lib-toshgan ma`lumotlarni ayrim yoshlar o`qib, ba`zan ularga hamfikir bo`lib, adashib ketayotganlari achinarli holatdir. Ba`zilar ma`lumotlarni saralamasdan, duch kelgan axborotni to`g`ri deb qabul qilishmoqda. Aslida esa inson o`zida yaxshi ma`lumotlarni olish va eshitish, zararsiz axborotlarni qabul qilish ko`nikmasini shakllantirishi lozim. U yoki bu axborotni qabul qilishdan oldin inson albatta o`ziga:

1. “Bu axborotni kim tarqatyapti?”
2. “Nima uchun uzatyapti?”
3. “Qanday maqsadni ko`zlayapti?” degan savollarni berishi kerak.

### 9.3.3-chizma



### Internet tarmoqlaridagi axborot urushi oldini olishdagi savodxonlik, bu

1. Yoshlarga internetdagi ma'lumotlarni ajrata bilish savodxonligini shakllantirish.
2. O'smirlarga internetdagi qanday ma'lumotni olish keragu, qaysilarini qabul qilmaslik lozimligini tushuntirish, xolis va noxolis axborotni bir-biridan farqlash.
3. Yosh avlodga internetdagi fotosuratlar, videolavhalarni ko'rish, tomosha qilish yuzasidan zarur tavsiyalarni berish. Axborot iste'moli madaniyatini o'stirish.
4. Yoshlarning internet tarmog'iga qiziqishlarini muntazam o'rganish va bu borada kerakli maslahatlarni berish.
5. Kelajak avlodni milliy ma'naviyatga, odob-axloqqa salbiy ta'sir etuvchi ma'lumotlardan himoya qilish.
6. Internet xurujlariga qarshi muntazam targ'ibot ishlarini olib borish.
7. Amerikalik media psixolog Dolf Silman nazariyasiga ko'ra, jangari filmlarni ko'rib, ulardagi salbiy qahramonni jazolash orqali yoshlarda salbiy hissiyotlarni, ijtimoiy qo'rquvni yengish.
8. Yoshlarga milliy domenimizdagi saytlar, mustaqil fikr yuritish ko'nikmasini oshirish.
9. Milliy manfaat va milliy qadriyatlarga hurmatni kengaytirish.
10. Zararli ma'lumotlarga qarshi immunitetni kuchaytirish va keng jamoatchilik bilan hamkorlikda faoliyat yuritish.

Mamlakatimizda 2017 yil 7 sentyabrda qabul qilingan "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar etkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun bu boradagi eng ahamiyatli huquqiy hujjat bo'ldi. Ushbu qonunning 3-bobidagi "Bolalarning sog'lig'iga zarar etkazuvchi axborotni tasniflash" deb atalgan 16-moddasi bu masalaning barcha qirralarini qamrab olganligi bilan ahamiyatlidir.

### 9.3.5 – chizma

### Internet ijtimoiy tarmoqlaridagi yovuz guruhlar xavfsizligidan himoyalanişning yo'llari


**1. Ma'naviyat,** yangi kitob mutolasi natijasida hosil bo'ladigan dunyoqarash, ahloqdir. (Prezidentimizning (2017) kitob nashri va kitobxonlik madaniyatini oshirish haqidagi farmoyishini shunday tushunmoq kerak). "Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o'tin yorishga sarf qilish kerak emas" (Abdulla Qahxor).

**2. Ikkinchi chora** – ota-onaga bog'liq, albatta nazorat, nasihat kerak. Ammo ota-onalar "zararli ijtimoiy tarmoqqa kirma!" deb aytayu, o'zi farzandi ko'z o'ngida kecha-kunduz telefon, internetdan ko'z uzmasa, bunday nasihatning foydasi yo'q..


**3.Uchinchi chora** – albatta, bir qator ijtimoiy saytlarni yopish yo'ldan borish kerak. Buni kimdir taqiqlash deb tushunar. Mayli shunday bo'la qolsin – taqiqlash. Axloqiy tarbiya yomon narsalarni taqiqlash, yaxshilarga da'vat asosiga quriladi. Ming yillardan buyon ta'lim-tarbiya borasida ota-onalarimiz shu yo'ldan borishgan



### 9.3.6-chizma



### 9.3.7-chizma



SHayx Muhammad Sodiq Muhammad YUusuf hazratlari o`zlarining “Ijtimoiy odoblar” kitoblarida “Internetdagi aloqa odoblari” haqida quyidagilarni yozadilar: Internetda chat, forum, feysbuk, twitter kabi o`zaro aloqa olib borishga xizmat qiluvchi vositalar orqali kishilar bir-barlari bilan yozishma, so`zlashma, suratli muloqotlar olib borish imkoniyatlariga ega bo`lishgan. Ular ushbu imkoniyatlarni ishga solib, ko`pgina hojatlarni ro`yobga chiqarish, ma`lumot almashish, bilmaganini so`rab o`rganish, yangi do`st va sheriklar orttirish kabi ko`pgina manfaatlariga ega bo`lishmoqda.

Ammo shu bilan birga, boshqa sohalarda bo`lgani kabi, bu sohada ham o`ziga yarasha muammolar, mushkulotlar va ko`pgilsiz voqealar paydo bo`lmoqda.

Masalan, begonalarining bir-birlari bilan ushbu vositalar orqali olib borgan aloqalari natijasi o`laroq, nikohga va`da berish, bironvga tuhmat qilish, kimnidir zinoda ayblash, so`kish kabi ishlar kelib chiqmoqda. SHuningdek, er-xotinlarning ushbu vositalar orqali olib borgan aloqalari natijasi o`laroq taloq, bir-birini zinoda ayblash, nasabni inkor qilish kabi o`ta ahamiyatli hukmlar ham sobit bo`lmoqda.

Ushbu vositalar orqali bir necha taraflarning olib borgan muloqotlaridan so`ng bir-birini ommaviy ravishda kofir, fosiq, fojir deya hukm chiqarish, fahsh ishlarga chaqirish, sehr va folbinlikka chorlash, pora va`da qilish, video orqali avratlarni namoyish qilish, shaxsiy, diniy, ijtimoiy holatlarni masxara qilish kabi o`ta jiddiy holatlar ham paydo bo`lmoqda.

Internetdagi ushbu tarmoqlar orqali vaqtni zoe qiluvchi ko'ngilxushliklarga oid narsalar, ovozli va suratli yozuvlar tarqatilmoqda. Turli o'yinlar va musobaqalar, targ'ibot-tashviqot tadbirlari joriy qilinmoqda. SHuningdek, internetdagi ushbu tarmoqlar orqali ilmiy va moliyaviy muomalalar ham keng miqyosda olib borilmoqda. Afsuski, mazkur aloqalarning barchasida shariatga xilof bo'lgan, qonunbuzarlik hisoblangan ishlar to'lib-toshib yotibdi. Turli axloqiy, moddiy, ma'naviy jinoyatlar sodir etilmoqda. Bularning hammasini tartibga solish, kishilarni to'g'ri yo'lga solib, noto'g'risidan qaytarishlozim bo'lmoqda. Bu borada hukumatlar, xalqaro tashkilotlar va boshqalar etarli ishlar olib borishmoqda. "Nabiy sollalohu alayhi vasallam: "Albatta, kishining o'zi uchun befoyda narsalarni tark qilishi Islomning husnidandir", dedilar.

### **Kibermakonda g'oyaviy xurujlarni bartaraf etishning huquqiy asoslari:**

1. Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligini ta'minlash.
2. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunning yangi tahriri (1998 yil 1 may).
3. "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi qonun (2000 yil 15 dekabr)ning 2-bo'limi "Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar" deb nomlanib, unga qarshi kurash yo'llari bayon etilgan.
4. SHHT tomonidan 2001 yil 15 iyunda 3 ta yovga qarshi "Xalqaro terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi kurash to'g'risida"gi Konventsiya qonuni.
5. "Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risida"gi qonuni (2011 yil 27 iyun, 25 moddadan iborat "Xalq so'zi", 2011 yil, 7 oktyabr).
6. "YOshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni (2016 yil 14 sentyabr).
7. "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar etkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi qonuni (2017 yil 7 sentyabr). Bu qonunning 3-bobida "Bolalarning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotni tasniflash" deb atalgan 16-moddasi mavjud.
8. "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi qonuni (2017 yil 3 yanvar).
9. "O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to'g'risida"gi qonuni (2018 yil 9 yanvar).
10. O'zR Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 26 martdagi "Ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish, diniy aqidaparastlikning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 130-sonli qarori.
11. "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi 2018 yil 30 iyul -№ URQ-489-sonli Qonuni.
12. "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi (2018 yil 12 aprel) Qonuni.
13. "Jamoat joylarida chekish va elektron sigaretalar chekish to'g'risida"gi 2018 yil 2 iyuldagi Qonuni.
14. O'zR Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 22 avgustdagi "Din sohasidagi ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim ishlarini va faoliyatini yanada takomillashtirishda ijtimoiy ko'mak va imtiyozlar berish to'g'risida"gi 364-sonli qarori.

15. O`zR Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 21 maydagi “O`zbekiston Respublikasi ta`lim muassasalarida mobil telefonlardan foydalanishni tartibga solish chora-tadbirlari to`g`risida”gi 139-sonli qarori va shu asosida qabul qilingan “O`zbekiston Respublikasi ta`lim muassasalarida mobil telefonlardan foydalanish tartibi to`g`risida Nizom ishlab chiqilib va tartibga solinayotganligi”.

16. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevraldagi “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi Farmoni.

17. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 16 apreldagi “Diniy-ma`rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi Farmoni, asosida diniy-ma`rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish bo`yicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi.

18. “Oliy ta`lim muassasalarida ta`lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta`minlash bo`yicha qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi Prezident Qarori (2018 yil 5 iyul).

19. “O`zbekiston Respublikasida Oila institutini mustahkamlash kontseptsiyasini tasdiqlash to`g`risida”gi Prezident qarori (2018 yil 27 iyul).

20. “Yoshlarni ma`naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta`lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko`tarish chora-tadbirlari to`g`risida”gi Prezident Qarori (2018 yil 14 avgust).

## 12-mavzu. Missionerlik va prozelitizmning siyosiy-ijtimoiy xavfi

### Reja:

1. Missionerlik va prozelitizmning mazmun-mohiyati.
2. Diniy sektalar va ular faoliyatining oqibatlari.
3. Missionerlikka qarshi kurashning huquqiy-amaliy asoslari.

### 1. Missionerlik va prozelitizmning mazmun-mohiyati

**Missionerlik** (missiya soʻzidan) – biror dinga eʼtiqod qiluvchi xalqlar orasida boshqa bir dinni targʻib qilish. Ushbu soʻz lotin tilidagi “missio” feʼlidan olingan boʻlib, “yuborish”, “vazifa topshirish”, missioner esa “vazifani bajaruvchi” degan maʼnolarni anglatadi. Missionerlik esa belgilangan vazifalarni hal qilishga qaratilgan nazariy va amaliy faoliyat majmuini bildiradi. Har yili qayta nashr qilinadigan “Jahon kitobi” (“World Book”) entsiklopediyasida “Missioner biror diniy guruh tomonidan boshqalarni

*Dunyo shiddat bilan oʻzgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo boʻlayotgan bugungi kunda maʼnaviyat va maʼrifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga eʼtibor qaratish har qachongidan ham muhimdir.*

*Shavkat Mirziyoev,  
1-jild, 27-bet. 2017.*

oʻz diniga targʻib qilish va kiritish uchun”, degan fikr qayd etilgan. Moskvada nashr qilingan “Kirill va Mefodiyning katta entsiklopediyasi”da esa “Missionerlik biror diniy birlashma vakillarining oʻz eʼtiqodini boshqa din vakillari orasida yoyish harakati”, degan taʼrif keltirilgan.

Missionerlik, asosan, nasroniylikka xos, IV asrda paydo boʻlgan. XIII-XVI asrlarda nasroniy missionerligi Hindiston, Xitoy, Yaponiyaga kirib bordi. Katolik cherkovida missionerlik Ispaniya va Portugaliya imperiyalari tashkil topgach (XIII-XVI asrlar), faoliyatini kuchaytirdi. Missionerlik Rim imperiyasiga yangi erlarni oʻz taʼsiri ostiga olishda katta yordam berdi. Katolik missionerligiga rahbarlik qilish uchun papa Grigoriy XV 1662 yilda Diniy targʻibot kongregatsiyasini taʼsis etdi. Missionerlar XIX asrda faollashdi, ayniqsa nasroniy missionerlari Afrikada faoliyatlarini kuchaytirdilar va oʻz mamlakatlarning siyosatini oʻtkazishga yordam berdilar.<sup>25</sup>

Oʻzbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar toʻgʻrisida”gi (1998) Qonuni 5-moddasiga koʻra, Oʻzbekistonda missionerlik faoliyati man etilgan.

<sup>25</sup>. Islom. Ensiklopediya. – T.: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017 y. - 306-bet.

	<p><b>Missionerlik (lot. missiya) ning mazmun-mohiyati. Missionerlik– bir dinga e’tiqod qiluvchi xalqlar orasida boshqa bir dinni targ’ib etish</b></p>
→	<p>1. <b>Missionerlik</b> (asosan xristianlikka xos) faoliyatining asosiy manbai, ob’ekti: yoshlardir. Chunki, yoshlar faol ijtimoiy kuch, turli mafkuraviy tashqi ta’sir va tazyiqlarga tez beriluvchan, harakatchan qatlam. Butun dunyo universitet va kollejlarda 37 milliondan ortiq talaba tahsil olib, ular 20 yildan so’ng yirik mansablarni egallaydi.</p>
→	<p>2. <b>Missionerlikning qadimiy va samarali usuli</b> jamiyatning muhtoj qatlami orasida “beg’araz” xayriya yordami ko’rsatish orqali, turli tadbirlar uyushtirib, so’ngra ular bilan maqsadli ish olib borish. Masalan, xalqimiz keng nishonlaydigan “Yangi yil”, “8 mart – xalqaro xotin-qizlar kuni”, “Navro’z”, “Xotira va qadrlash kuni” va hokazo “Yordamlar”ni shu bayramlarga moslashtirishga harakat qiladi.</p>
→	<p>3. <b>Uyma-uy “Xushxabar” yetkazish usuli.</b> Bugungi kun dolzarb masalalari bilan suhbatlashib, ularning dardlariga qiziqish bildirib, ushbu muammolardan chiqish yo’lini taklif qiladi, o’z tashkilotiga jalb qiladi.</p>
→	<p>4. <b>Yaqin qo’shnilar orasida uyma-uy yurib, kitob tarqatish,</b> maktab, kollej, litsey, oliy o’quv yurtlari yoshlari orasida maqsadli targ’ibotga alohida e’tibor beradi, moddiy va ma’naviy yordam berib, o’zlariga qiziqtiradi.</p>
→	<p>5. <b>Ta’lim-tarbiya sohasida missionerlarning maqsadi</b> o’z g’oya va qarashlarini tadrijiylik bilan maqsadli olib boradi. Masalan, adventistlarning (xristianlikka doir) dunyo bo’yicha 5 mingdan ortiq o’quv markazlarida, “Xudo assambleyalari” cherkovlarida, Bibliya maktablariga egalik qilayotganligi bilan izohlash mumkin.</p>
→	<p>6. <b>O’zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillarida</b> missionerlar turli volantyor tashkilotlar niqobi ostida ta’lim tizimiga kirib olishga urinishdi, turli til, kompyuter, sport to’garaklari tashkil qilish niqobi ostida o’z dinlarini targ’ib qilishga uringan.</p>
→	<p>7. <b>Missionerlik tashkilotlari o’z dinlarini targ’ib qilishda</b> audio, video, elektron mahsulotlar, gazeta-jurnallar, teledasturlar, internetda onlayn o’quv kurslari tashkil etish orqali o’z g’oyalarini singdiradi.</p>
→	<p>8. Missionerlikning bugungi kundagi o’ziga xos ko’rinishi mutaassiblikdir. Mutaassiblik - (mutaassiblik-fanatizm, o’z e’tiqodi to’g’riligiga o’ta qattiq ishonish, boshqa diniy e’tiqodlarga murosasiz munosabatda bo’lishdir).</p>
→	<p>9. <b>Xristian missionerligi tayanadigan g’oyaviy-aqidaviy asoslari:</b>  1) “Missionerlik har bir dindor uchun shart” g’oyasi. “Injil”da keltirilgan quyidagi so’zlar asos qilib olinadi: “...15. Iso shogirdlariga dedi: “Butun jahon bo’ylab yuringlar va hamma tirik jonga injil xushxabarini targ’ib qilinglar”.  2) “19. ... barcha xalqlardan shogird orttiringlar. Ularni Ota, O’g’il va Muqaddas Ruh nomi bilan cho’qintiringlar”.  “20. Men Sizlarga buyurgan hamma narsalarga amal qilishni ularga o’rgatinglar...”</p>

YUqoridagi xristian missionerlik ko`rsatma va aqidalar konkret tarixiy sharoitlar bilan bog`liq bo`lib, u o`z davri uchun to`g`ri hisoblanadi. Vaqt, sharoit o`zgarishi bilan u o`zining birlamchi ahamiyatini yo`qotgan. Bunday ko`rsatmalar o`sha davrdagi tarixiy vaziyatni tushunish va baholashda himmatdorlik kasb etadi. YA`ni, o`sha davrda (eramizning 1 mingginchi yillarida) Iso Masih tomonidan qilingan bunday da`vatlar ko`p xudolik o`rniga yakka xudolikni targ`ib qilish bilan bog`liq edi. Bugungi kunda jahon ahlining mutlaq ko`pchiligi yakka xudolikka asoslangan dinga e`tiqod qiladi. Demak, shunday ekan hozirgi davrda missionerlik bilan shug`ullanish uchun g`oyaviy asos qilib olish tarix haqiqatiga zid.

*Muqaddas Islom dinimizning bag`rikenglik va insonparvarlik g`oyalarini tarannum etish, uning tinchlik va barqarorlik, dinlar va millatlararo totuvlik tamoyillariga asoslangan din ekanligini keng targ`ib etish, musulmon mamlakatlarining birdamligini mustahkamlash, umumiy islom merosini asrab-avaylash yo`lida hamkorlikni kuchaytirishdan iborat.*

*Shavkat Mirziyoev,  
1-jild, 417-418-betlar, 2017.*

**Prozelitizm** – bu to`g`ridan-to`g`ri biror dinga ishongan fuqaroni o`z dinidan voz kechishga va o`zga dinni qabul qilishga majbur qilishdir. U o`z mohiyatiga ko`ra, missionerlikning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Prozelitizm keltirib chiqarayotgan salbiy oqibatlarni ayrim hayotiy misollarda ham ko`rish mumkin. Xususan, bizga qo`shni bo`lgan ayrim davlatlarda xristian dinini qabul qilgan kishilar vafot etganda jasadni qabristonga qo`yish bilan bog`liq muammolar kelib chiqmoqda. Mayitning mozoriga dafn etishni xohlamaganlari, musulmonlar esa xristian dini vakili jasadini o`z musulmon birodarlari yotgan joyga qo`yishni istamaganliklari natijasida kelishmovchiliklar yuzaga kelmoqda.

SHuningdek, xristian dinini qabul qilgan kishi o`z o`g`lini xatna qildirishni xohlamagani, uning otasi esa, o`z nabirasini musulmon urf-odatlariga ko`ra xatna qildirishni istagani tufayli ota-bola o`rtasida janjallar kelib chiqqani ham ma`lum.


Xristian yoki boshqa dinni qabul qilgan qizning turmushga chiqishi ham muammoga aylanmoqda. Oilada qizning ota-onasi musulmon. Albatta, ular o`z qizlarini musulmon kishiga turmushga chiqishini istaydilar. Ammo xristianlikni qabul qilgan qizga musulmon kishining uylanishi amri mahol.

YUqoridagi kabi misollarni yana davom ettirish mumkin. Ammo shularning o`zi ham missionerlikning tarkibiy qismi bo`lgan prozelitizm harakatlari boshqa dinni qabul qilgan tub millat vakillari oilalarida nizolar va janjallarning avj olishiga hamda xristianlikning ayrim yo`nalishlari vakillariga nisbatan dushmanlik hissiyotlarining paydo bo`lishi orqali dinlararo nizolarning kelib chiqishiga zamin yaratishi mumkinligini yaqqol tasavvur qilish imkonini beradi.

Ayrim xalqaro tashkilotlar o`z hukumatlari tomonidan moliyalashtirilgan dasturlarga binoan MDH davlatlaridan talaba va o`quvchilarni u yoki bu mamlakatga yuborib, ularni dindor fuqarolarning oilalariga joylashtirish va shu yo`l bilan bir yil davomida ularni prozelitizmga aylantirishdek maqsadlarni ko`zlab faoliyat olib borganini ko`rsatadi. Ayrim missionerlik bilan shug`ullanadigan tashkilotlar e`tiqodiy o`zgarishlar ob`ekti qilib tanlangan davlatlarga o`z hukumatlari qo`llab-quvvatlashiga

tayanib, kirib borishga harakat qilayotganliklarini ham ko'rsatadi.

## 1.2-chizma



## 2. Diniy sektalar va ular faoliyatining oqibatlari

Diniy sekta deganda e'tirof etilgan yirik diniy yo'nalishlarning rasmiy aqidalardan farqli tarzda faoliyat olib boradigan diniy guruhlar tushuniladi. YOxud, boshqacha aytganda sekta

*Barchamiz qat'iy ishonamizki, xavfsizlik yagona va bo'linmasdir va uni faqat birgalikdagi sa'y-harakatlar bilan ta'minlash mumkin. Biz xavf-xatarlarning ba'zi birlarini "o'zimizniki", boshqasini esa, "birovniki", deb qabul qilmasligimiz kerak, aniqroq aytganda, bunday qilishga haqqimiz yo'q.*

*Shavkat Mirziyoev,  
2018 yil 27 mart.*

– ma’lum bir dindagi rasmiy aqidalarga zid ravishda ajralib chiqqan yoki mavjud dinlar va konfessiyalarga umumiy aloqasi bo’lmagan holda din bayrog’i ostida faoliyat ko’rsatadigan guruhlardir.

Bugungi kunda missionerlik faoliyati bilan asosan turli sektalar shug’ullanadi. Hozirgi kunda 5000 atrofida sektalar faoliyati aniqlangan.

**Sekta, bu** – faqat o’zini haq din, insonlarni najotga etaklovchi deb da’vo qiladigan, aslida esa muayyan siyosiy va iqtisodiy maqsadlarni ko’zlaydigan guruh hisoblanadi. Psixologlar mazkur sektalarni “ommaviy ijtimoiy-psixologik qirg’in quroli” deb ta’riflaydilar. Ma’lumotlarga ko’ra, O’zbekiston bilan chegaradosh bo’lgan davlatlarda birgina Rossiyaning o’zida “Bogorodichiy tsentr”, “TSerkov’ ob’edineniya”, “TSerkov’ Isusa”, “TSerkov’ Novogo Zaveta”, “Beloe bratstvo”, “Bojestvennyy orden Pervogo Angela”, shuningdek, “Farxat ata”, “Dianetika” kabi yuzlab diniy sektalar faoliyat olib bormoqda. Ayniqsa, ma’lumotlarga ko’ra, o’ta xavfli bo’lgan bu sektaning Rossiyada 100 ming, er yuzida 5 milliondan ortiq tarafdorlari bor.<sup>26</sup>

Mazkur sektalar aholining diniy bilimlari pastligidan foydalanib, oxiratning yaqinligi bilan qo’rqitish hamda asosan yoshlar va moddiy ahvoli nochor bo’lganlar ichida tashviqot olib borish yo’li bilan o’z tarafdorlarini ko’paytirishga harakat qilmoqda.

Boshqa dinlarda bo’lgani kabi musulmonlar ichida ham sektalar, firqalar bor. Payg’ambarimiz aytganlaridek, islom dinida 73 ta firqa bo’linish yuz bergan. Ularning bittasigina to’g’ri yo’lda (Ahli sunna va-jamoa) Sunniylik, qolganlari esa, zalolatda hisoblanadi. Qur’on oyatlari va Hadislar firqalarga bo’linmaslikka buyuradi.

## 2.1-chizma

### DINIY SEKTALAR O’Z MAQSADLARIGA ERISHISH UCHUN AMAL QILADIGAN

insonning ma’naviy va jismoniy kamolatga erishishga bo’lgan intilishidan foydalanish

aholining diniy bilimlari pastligidan foydalanish

oxiratning yaqinligi bilan qo’rqitish

asosan yoshlar va moddiy ehtiyojmand kimsalarni o’z ta’sirlariga olish

yashirin faoliyat olib borish va sekta ichida bo’layotgan voqealarning ko’pchilikka ma’lum bo’lib qolmasligini qattiq nazorat qilish.


**Missionerlik faoliyatlarini** amalga oshirishning moliyaviy manbalari. Missiyani moddiy-moliyaviy ta’minlashda ishlab chiqarish tuzilmalarining, missioner kadrlar tayyorlash va ko’ngilli homiylarni topishda missionerlik bazalarining ahamiyati

<sup>26</sup>. Ochildiev A. Najmiddinov J. Missionerlik: mohiyat, maqsadlar, oqibatlar va oldini olish yo’llari (toz savolga-toz javob). – T.: “Toshkent islom universiteti”, 2009. – 21-22-betlar.



beqiyos. Moliyaviy manbalari: talon-taroj, qaroqchilik, o'g'rilik, bosqinchilik, qora bozordagi neft savdosi, odamlarni qul qilib sotish (ISHID) va shu kabilar. Mana shunday kuch va tayyorgarlik bilan xalqaro missiya istalgan mamlakatda tegishli targ'ibot-tashviqot ishlarini samarali tashkil etishga urinadi.

## 6.2.2-chizma



Qayd etilgan xususiyatlar ham zamonaviy xalqaro missiyalar o'z faoliyatini tizimli va tadrijiy tashkil etayotgani haqida xulosa chiqarish imkonini beradi<sup>27</sup>.

### Musulmon diniy oqim va sektalari tarafdorlari

**Vahhobiylar** – harakati sunniy mazhablarning eng kichigi bo'lib, radikal yo'nalish hisoblangan Hanbaliylik (4) ichidan o'sib chiqqan, dunyoviy qadriyatlarga nisbatan o'ta murosasiz diniy-mafkuraviy oqim. Bu oqim XVIII asrda Markaziy Arabistonning Najd vohasida yuzaga kelgan. Vahhobiylar din nomidan ish ko'rib, go'yoki payg'ambar davridagi "asl holatiga" qaytarish, barcha arablarni yashil bayroq ostida birlashtirish g'oyasini ilgari surgan. Vahhobiylar dunyoviy madaniyatga qarshi turib, musiqa, teatr va tasviriy san'atni rad qiladi. 1803 yili vahhobiylar Makkani, keyin Madina shahrini bosib oldi. Makkayu Madinadagi barcha qabrtoshlar, hatto Bibi Oysha, Bibi Fotima qabrtoshlarini buzib tashlashdi. Karbaloda talon-taroj 8 soat davom etdi, 4 ming odam qilichdan o'tkazildi. Vahhobiylar biz odamlarni qabrga sig'inishdan qaytarmoqchi edik, deyishgan. Mustaqillikning dastlabki yillarida Vahhobiylar firqalari O'zbekiston va boshqa qo'shni respublikalarda uni yangidan tuzishga bo'lgan intilish kuchaygan edi. Buning oldi olindi.

**"Tolibon"** – vahhobiylarning XX asr oxiri XXI asr boshlarida bir ko'rinishi xalos. Bu oqim, firqa yoki sekta vahhobiylar singari afg'on xalqi hayotiga o'rta asr diniy tartib-qoidalarni joriy qilishni maqsad qilgan. SHu boisdan ham O'zbekiston

<sup>27</sup>. Ochildiev A., Najmiddinov J. Missionerlik: mohiyat, maqsadlar, oqibatlar va oldini olish yo'llari (toz savolga-toz javob). – T.: "Toshkent islom universiteti", 2009. – 67-68-betlar.

Prezidenti SHavkat Mirziyoev 2017 yil 19 sentyabrdagi nutqida “Afgʻonistonda tinchlikka erishishning yagona yoʻli – markaziy hukumat va mamlakat ichidagi asosiy siyosiy kuchlar oʻrtasida oldindan hech qanday shart qoʻymasdan, toʻgʻridan-toʻgʻri muloqot olib borishdir” degan edi (“Xalq soʻzi”, 2017 yil 20 sentyabr).

**Hizb at-Tahrir al-islomiy (Hizbut tahrir).** Hizbut tahrir 1952 yili Quddus shahrida falastinlik ilohiyotchi Taqiy ad-din an-Nabahoniy (1909-1979) tomonidan asos solingan diniy-siyosiy partiya. U Hayfada tugʻilib oʻsgan, Qohiradagi «al-Azhar» universitetida taʼlim olgan.


Hizbning asosiy maqsadi - avval arab davlatlari miqyosida, keyin islom dunyosi miqyosida va nihoyat jahon miqyosida xalifalik shaklidagi islom davlatini tuzish. Ularning asosiy daʼvosi - Mustafo Kamol Otaturk tomonidan 1924 yili Usmoniy xalifa Ikkinchi Abdulmajid (1922-1924) xalifalikdan gʻayriqonuniy chetlatildi. Davlat diniy-islomiy qonunlar asosida xalifa tomonidan idora etilishi lozim. Hizb dasturi 187 banddan iborat boʻlib, asosiy maqsadi - hokimiyatga erishish. Bunday asosiy yoʻl - islomiy fikrlovchi shaxslarni shakllantirish. Ularga islomiy taʼlim-tarbiya berish ikki bosqichdan iborat: 1) u bilan islom taʼlimotini oʻrgatish yoʻlida madaniy-maʼrifiy ishlar olib borish; 2) siyosiy faoliyatga tortish.

Oʻzbekiston hududida 1992 yildan boshlab partiyaning boshlangʻich boʻlinmalari tashkil etila boshlagan. Hizb safiga kiruvchilar oʻz partiyalari haqidagi maʼlumotlarni hech qachon oshkor etmaslikka oʻz mushrifi buyurgan vazifalarni soʻzsiz bajarishga Qurʻon bilan qasam ichadilar. Hizb mutasaddilari oʻz tarafdorlarini koʻproq ziyolilar, ilmiy xodimlar, talaba yoshlar orasidan qidiradilar.

SHavkat Mirziyoev (2018 yil 27 martda) tashabbusi asosida Afgʻoniston Islom Respublikasi bilan birgalikda Toshkent shahrida “Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik” mavzusida xalqaro konferentsiya oʻtkazildi va unda nutq soʻzladi. Afgʻoniston boʻyicha “Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik” mavzusidagi Toshkent konferentsiyasining deklaratsiyasi qabul qilindi. BMT Xavfsizlik Kengashining tegishli rezolyutsiyasidan kelib chiqib, keng qamrovli tinchlik jarayonini uchta oʻzaro bogʻliq darajada amalga oshirish koʻzlandi:

1. Afgʻoniston mamlakati darajasida.
2. Mintaqaviy darajada
3. Global darajada.

## 2.4-chizma



4. **“Akromiylar” oqimi.** Asoschisi Akrom Yo`ldoshev, 1963 yilda Andijon shahrida tug`ilgan “Jihotchilar”ning g`oyaviy rahnamosi. “Hizbut tahrir”chilar bilan kelisholmay A. Yo`ldoshev, undan ajralib chiqqan hamda “Islom nizomi”, “Xalifalik”, “Izzat va sharaf sari” nomli adabiyotlardan foydalanib “Imonga yo`l” risolasi va harakat dasturini ishlab chiqqan. “Akromiylar” o`z saflariga jalb qilinuvchii shaxslarga ruhiy ta`sir o`tkazib, ularni g`oyaviy jihatdan birlashtirgan. O`z ish faoliyatini quyidagi bosqichlarda amalga oshirgan:

- 1) “Sirli” yoki “Mahfiy” (o`z tarafiga munosib nomzodlarni jalb qilgan).
- 2) “Moddiy” yoki “Iqtisodiy” (Iqtisodiy yordam va ish bilan ta`minlash, topgan foydadan 1/5 qismini jamoa uchun “baytulinmol”ga ajratish).
- 3) “Ma`naviy” yoki “Siyosiy” (g`oyaviy jihatdan qayta ishlov, din va siyosatni qo`shib o`rganish).
- 4) “Uzviy maydon” (tayyor bo`lgan a`zolari “zarur joylarga qo`yish, faoliyatini kengaytirish”).
- 5) “Oxirat” yoki “To`ntarish” (asl va asosiy maqsad: vaziyat etilgach, mavjud tuzum o`rniga o`z hokimiyatlarini o`rnatish). Bu bosqichlar maxfiy, ijrosi qat`iy qilib qo`yilgan.

“Birodarlar” daromadining 20 foizidan tushadigan mablag`lar jamg`armasining asosiy qismini yangi ish o`rinlari tashkil etish va a`zolar safini kengaytirish. Hibsga olingan A. Yo`ldoshev amnistiya tufayli 1998 yil dekabrda ozodlikka chiqib, o`z izdoshlarini yana 1999 yil 16 fevralb voqealarini sodir etib, jinoiy javobgarlikka tortiladi. Akromiylar o`z aloqalarini mustahkamlash maqsadida tadbirkorlik bilan shug`ullanadi. “A. Yo`ldoshev va uning atrofida gilar bizni ish, yaxshi maosh va bepul ovqatlanish bilan ta`minladilar” deb chet el axborot vositalariga intervyu berdilar. “Akromiylar” 2005 yil 12-13 mayda Andijon voqeasini sodir etishdi.

4. **“Nurchilar” faoliyati.** Asoschisi turkiyalik – Said Nursiy. Bu oqimning asl maqsadi mavjud hokimiyat uchun qarshi chiquvchi o`ta diniy, mutaassib kishilarni tarbiyalashdan iborat “Nurchilar” jamoasi faoliyati siyosatdan uzoq fikrini bersada, aslida siyosatga aralashuv edi. 1992 yildan boshlab oqim g`oyalari turkiyalik ekstremistlarning moddiy va ma`naviy ko`magida etkazilgan. Oqim, ayniqsa Termiz va Denov shaharlarida kengroq tarqalgan. Termizda “Nurchi”lar yig`iladigan manzil aniqlangan. Ta`lim sohasida “Nur” harakati Turkiyada Milliy ta`lim vazirligidan keyingi o`rinni egallaydi. “Nurchi”lar O`zbekistonda Turk litseylarida faol qatnashdi. Bu oqimga 2000 yil yanvarida chek qo`yildi. Hozir bu oqim Turkiyada mavjud.

5. **“O`zbekiston islom harakati” (O`IH) 1996 yilda tashkil topgan.** Uning tarkibiga (1992-1993 yillarda respublikada faoliyati tugatilgan). 1990 -yillarda “Islom lashkarlari” (Namangan), “Adolat uyushmasi” (Namangan), “O`zbekiston Islom uyg`onish partiyasi”, “Odamiylik va insonparvarlik” (Qo`qon) va boshqa ekstremistik tashkilotlar tarkibida faoliyat yuritgan. “Harakat” rahbari (“amir”) Tohir Yo`ldoshev, birinchi o`rinbosari uning kuyovi D. Hojiev (laqabi “Usmon”) asosan moliya masalalari bilan shug`ullangan.

Bu harakat a'zolari 1991 yilning 9 dekabrda Namanganda viloyat ijroiya qo'mitasi binosini egallab olib, hukumat vakillariga quyidagi talablarni qo'yadi:

1. Dunyoviy tuzumdan voz kechish va O'zbekistonni islomiy davlat deb e'lon qilish.

2. Dunyoviy qonunlarni bekor qilish va mamlakatda shariat arkonlarini joriy etish.

3. Dunyoviy maktablarni yopish va o'g'il bolalar hamda qiz bolalar alohida o'qitiladigan maktablar ochish.

4. Islomiy kiyinishga o'tish, ayollarning hijobda yurishlarini joriy etish.

5. Namangandagi sobiq siyosiy ta'lim muassasalari binolarini islom radikallari ixtiyoriga berish va hokazo.

Ular jami 15 ta talab asosida hokimiyatni miyasi diniy radikalizm bilan zaharlangan kuchlarning qo'lga berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi. Hokimiyatning ularga berilishi ularning nazarida jihad qilinishi lozim bo'lgan insonlarning – o'zga dindagilarni, o'zgacha fikrlovchilarni, dunyoviy taraqqiyot tarafdorlarining, qisqasi, ko'ngillariga yoqmaganlarning istisnosiz tarzda qirib tashlanishiga olib kelgan bo'lar edi.

SHuni aytish kerakki, o'z vaqtida O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimovning qat'iyati va jasorati binoni boshiga ko'tarib baqir-chaqir qilib yotgan minglab eng ashaddiy ekstremistlarni ham sarosimaga solib qo'ygan edi.

4. **“Iroq va SHom islom davlati” (ISHID) terrorchilar to'dasi.** “Xalifalik” o'rnatish soxta iddaosi bilan musulmonlarni kofirga chiqarib, zulm qilib, tinch aholiga zo'ravonlik o'tkazgan. Niqob qilgan nomlari: “Iroq islom davlati” (2006), “Iroq va SHom islom davlati” (2013), “Islom davlati” (2014) deb atalmoqda. Aqidasi: xorijiyar toifasidan bo'lmish azraqiyar hamda rofiziylar kabi adashgan firqalar aqidasi. To'da qarorgohi: Suriyaning Raqqa shahri. To'daboshi: “Abu Bakr Bag'dodiy” laqabli shaxs.

Soxta da'vo va belgilari: “Islom davlati” yoki “Xalifalik” qurishni iddao qilib, hatto islom dinining muqaddas kalimalarini qora bayroqlarga yozib olib, jirkanch maqsadlari yo'lida foydalanishmoqda. ISHID terrorchilik to'dasiga ba'zi o'zbekistonlik yoshlarning tushib qolishi achinarli hol.

Mafkura maqsadi: musulmonlarni kofirga chiqarib tuhmat orqali yo'q qilish, o'zlari yashaydigan joydan boshqa er kufr diyori deb hijrat qilishga chorlab, jihad va shahidlik niqobi ostida razil maqsadlarini amalga oshirish.

Qing'ir moliya manbalari: talon-taroj, qaroqchilik, o'g'rilik, bosqinchilik, qora bozordagi neft savdosi, odamlarni qul qilib sotish va shu kabilar.

Hozir ayrim rasmiy ro'yxatdan o'tgan yoki norasmiy faoliyat yuritayotgan noislomiy diniy jamoalarning vakillari tomonidan ham missionerlik faoliyati amalga oshirilishi kuzatilmoqda. Missionerlar aksariyat holatlarda o'z jamoasiga jalb qilishda turli o'qish kurslarini ochib, o'z diniga targ'ib qilish, xorijga o'qishga yoki ishga jo'natish, yoz faslida bolalarni dam olish lagerlariga jalb qilish, hayriya yordam ko'rsatish, bepul tibbiy yordam berish va gazeta, jurnal, kitoblar tarqatish kabi usullardan foydalanmoqda. Ularning diniy ta'limotida Davlat ramzlarini hurmat qilish,

Konstitutsion burchni bajargan holda harbiy xizmat o'tash, jamoat ishlarida qatnashish man etilgan. Bunday holat xalqimiz uchun noan'anaviy bo'lgan diniy jamoa va sekta vakillarining maqsadi jamiyatimiz a'zolarini fuqarolik faolligini so'ndirish va qaram qilib olishga yo'naltirilganidan yaqqol dalolat beradi. SHuningdek, ayrim noislomiy diniy jamoalarda ushbu jamoaga a'zo bo'lgan shaxs bilan oila qurishi, jamoadan tashqaridan kelayotgan barcha ma'lumotlarni yolg'on va zararli deb bilish belgilab qo'yilgan, ba'zilarida oila qurish umuman ma'qullanmay, ular daromadlarining deyarli barchasini ushbu jamoa rahbariyatiga topshirishi lozim. Ushbu faktlar mazkur diniy jamoalardagi tartib shaxs, oila va jamiyat uchun naqadar zararli ekanini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, yuqoridagi kabi sektalar, missionerlik tashkilotlari faoliyatiga chek qo'yish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Bir qator mamlakatlarda sektalar va missionerlar faoliyati natijasida jabr ko'rganlarga moddiy va ma'naviy ko'mak berish maqsadida maxsus markazlarning tuzilgani, afsuski, yuqoridagi kabi

*Bugun biz ham davrimizning eng o'tkir mintaqaviy va global muammolaridan biri – Afg'onistondagi qarama-qarshilikni hal etishni amaliy ruhda muhokama qilib, birgalikda umumiy bir yechim ishlab chiqishga qodirmiz. Ming afsuski, jafokash Afg'oniston zaminidagi bu to'qnashuv qariyb 40 yildan buyon davom etmoqda.*

*Shavkat Mirziyoev,  
2018 yil 27 mart.*

holatlarning ko'payib borayotgani va xatarli ko'lam kasb etib, jamiyatdagi ijtimoiy-ma'naviy muhitga o'ta salbiy ta'sir ko'rsatayotganini kuzatamiz.

### **3. Missionerlikka qarshi kurashning huquqiy-amaliy asoslari**

So'nggi yillarda mamlakatimizda tashkil etilgan Islom tsivilizatsiyasi markazi, Xalqaro Islom akademiyasi, Mir Arab oliy madrasasi, Imom Buxoriy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari boy ilmiy-tarixiy merosimizni o'rganish va targ'ib qilishga xizmat qilmoqda. "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi" tasdiqlandi (2018 yil 16 aprelda).

*Adashib jinoyat yo'liga kirgan yoki sodir etgan qilmishlaridan chin dildan pushaymon bo'lgan insonlarga yana bir bor imkon berish, ularni jamiyatga, oilasi bag'riga qaytarish muhim ijtimoiy masalalardan biri hisoblanadi. Nega deganda, ular ham O'zbekiston fuqarolari, shu yurt farzandlaridir.*

*Shavkat Mirziyoev,  
2017 yil 7 dekabr.*

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston musulmonlari idorasining O'zbekiston islom akademiyasi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi

Toshkent islom universiteti negizida O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi tashkil etildi (2018 yil 16 aprelda). Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita tuzilmasida 15 shtat birligidan iborat Diniy-ijtimoiy jarayonlarni o'rganish axborot-tahlil Markazi tashkil etildi. Axborot-tahlil markazi Din ishlari bo'yicha qo'mitaning diniy mavzularga oid adabiyotlar, internet va ommaviy axborot vositalari materiallarini chuqur tahlil qilish, diniy-ijtimoiy muhitning barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni barvaqt aniqlash va bartaraf etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish faoliyatini amalga oshiradi. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq diniy-ma'rifiy soha faoliyatida "Jaholatga qarshi ma'rifat" ulug'vor g'oyasi dinning asl insonparvarlik mohiyatini, ezgulik, tinchlik va insoniylik kabi fazilat, qadriyatlarini ifoda etadi.<sup>28</sup>

"2017 yilning 10 oyi davomida sudlar tomonidan 191 nafar shaxsga nisbatan oqlov hukmlari chiqarildi. Holbuki, ilgari bitta oqlov hukmi chiqarish ham sudlar faoliyatida o'ta kam uchraydigan hodisa edi" (SHavkat Mirziyoev, 2017 yil 7 dekabr). "Men Prezident sifatida o'zimning konstitutsiyaviy vakolatimdan foydalanib, sudlar tomonidan hukm qilingan 2 ming 700 nafar shaxsni afv etish to'g'risidagi Farmonni imzoladim. Bunday Farmon O'zbekiston tarixida birinchi marta qabul qilindi"<sup>29</sup>. 2018 yil 30 avgustda O'zbekiston Prezidenti SHavkat Mirziyoev "Ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan bir guruh shaxslarni avf etish to'g'risida"gi Farmoni bilan hamda O'zbekiston mustaqilligining 27 yilligi bayrami arafasida 261 nafar fuqaro afv etildi ("Xalq so'zi" 2018 yil 31 avgust).

O'zbekistonda mustaqillikning ilk yillaridanoq missionerlik va prozelitizmning salbiy oqibatlarga olib kelishini hisobga olgan holda bu borada tegishli qonuniy asoslar ishlab chiqildi. Qonunlarda missionerlik harakatlari taqiqlandi.

Ma'lumki, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonun (yangi tahriri) kishilarning vijdon erkinligini huquqiy kafolatlash bilan birga diniy tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirishga xizmat qiladigan hamda davlat va din munosabatlarini tartibga soladigan muhim hujjat hisoblanadi. Qonunga binoan «Bir diniy konfessiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm), shuningdek boshqa har qanday missionerlik faoliyati man etiladi. Ushbu qoidaning buzilishiga aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka tortiladilar» (5-modda, 3-band).


Mazkur moddadan kelib chiqib, «O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi»ga noqonuniy diniy xatti-harakatlarning oldini olish bilan bog'liq bir qator moddalar kiritilgan. Jumladan:

---

<sup>28</sup>. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 16 apreldagi "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // "Xalq so'zi", 2018 yil 17 aprel.


<sup>29</sup>. Mirziyoev SH.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam soydevoridir. – T. : "O'zbekiston", 2018. – 11,16 – betlar.

### 3.1-chizma



Amaldagi qonunchiligimizga ko'ra, muayyan hollarda birinchi marta qonunni buzgan shaxs yoki tashkilotga ma'muriy jazo qo'llaniladi. Agarda o'sha shaxs yoki tashkilot shundan keyin ham qonunni buzishda davom etsa, unga endi jinoyat kodeksidagi choralar qo'llaniladi. Masalan, «O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi» normalariga ko'ra, «O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi»ning yuqorida qayd etilgan bandlaridagi harakatlar ma'muriy jazo qo'llangandan keyin yana sodir etilsa, bu «O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi»da belgilanganidan ko'ra og'irroq jazolar qo'llanishiga olib keladi.

SHu bilan birga, «O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi»da «O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi»da nazarda tutilmagan bir qator harakatlar uchun ham jazolar belgilanganini qayd etish zarur. Jumladan:



Mamlakatimizda missionerlik va prozelitizmning oldini olish, ayniqsa yoshlarni bunday zararli oqimlar domiga tushib qolishlarining oldini olish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirishni taqozo qilmoqda. Bu vazifani muvaffaqiyatli hal etishda yosh avlodni hozirgi davrda mamlakatimizda din sohasida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, yaratilgan imkoniyatlar bilan muntazam asosda tanishtirib borish muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, qiziqishlari, bilim darajalarini inobatga olgan va differentsial yondashgan holda yoshlarning din, shu jumladan, xalqimiz asrlar davomida e'tiqod qilib kelgan islom dini haqidagi bilimlarni va milliy-diniy an'analar asoslarini sog'lom asosda egallashlariga ko'maklashish ham bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Bunday bilimlar ob'ektiv bo'lishi, voqelikni to'g'ri va to'liq aks ettirishi va o'z mohiyatiga ko'ra, Vatan va millat manfaatlarini bilan uzviy bog'liq bo'lmog'i kerak. Yoshlarimizning missionerlikning mohiyati



haqida xolis va etarli bilimga ega bo'lishlari unga qarshi immunitetni shakllantirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Tahlillar hech bir mintaqa, hech bir davlat bunday tahdidan xoli emasligini ko'rsatadi. Bunday holatlarning oldini olish uchun esa missionerlikning mohiyatini to'g'ri va chuqurroq anglash, uni bartaraf etish yo'lida maqsadli, tizimli va tadrijiy faoliyat olib borish zarur bo'ladi. Egallangan bilimlar qanchalik xolis va chuqur bo'lsa, uning zamirida yuzaga keladigan baholar, qadriyatlar ham shunchalik mustahkam bo'ladi. SHakllangan qadriyatlar tizimi esa turli tahdidlarning oldini olishga xizmat qiladi.

**So'nggi 2 yil davomida missionerlikka qarshi, jinoyat ishlarini liberallashtirishga doir quyidagi ayrim huquqiy-amaliy asoslar ishlab chiqildi:**

1. "Ichki ishlar to'g'risida"gi qonun (2016 yil 16 sentyabr).
  2. "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonun (2012 yil 25 dekabr).
  3. "Ma'muriy qamoqni o'tash tartibi to'g'risida"gi qonun (2017 yil 9 yanvar).
  4. "Sudlar to'g'risida"gi qonun (2017 yil 12 aprel).
  5. "Korruptsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi qonun (2017 yil 3 yanvar).
  6. "Konstitutsiyaviy sud to'g'risida"gi qonun (2017 yil 31 may).
  7. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman).
  8. "Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida"gi qonun (2017 yil 7 sentyabr).
  9. "Bolalarni ularning sog'ligiga zarar etkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi qonuni (2017 yil 8 sentyabr).
  10. "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi (yangi tahriri) qonun (2017 yil 11 sentyabr).
  11. "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonun (2017 yil 8 yanvar).
  12. "O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksini tasdiqlash haqida"gi qonuni (2018 yil 22 yanvar).
  13. "O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to'g'risida"gi qonuni (2018 yil 5 aprel).
  14. "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonuni (2018 yil 12 aprel).
  15. "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni (2018 yil 30 iyul).
- "Biz diniy jaholatga qarshi ma'rifat

*Yurtimizda yashab kelayotgan, lekin fuqaroligi bo'lmagan 1100 dan ortiq shaxsga O'zbekiston fuqaroligi berildi. O'ylaymanki, bu inson huquq va erkinliklarini amalda ta'minlashga qaratilgan ishlarimizning yangi bir tasdig'idir.*

*Shavkat Mirziyoev,  
2017 yil 22 dekabr.*

bilan kurashish kerakligi haqida ko`p gapiramiz. Bu – to`g`ri, albatta. Lekin ma`rifat, ma`rifiy bilimlar qaerda – avvalo ota-bobolarimiz bizga qoldirib ketgan mana shunday mo``tabar kitoblarda emasmi?”<sup>30</sup>

Bugungi kunda O`zbekiston Respublikasi Ma`muriy islohotlar kontseptsiyasi g`oyalari amalga oshirilmoqda.

“Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib borish maqsadida ushbu yo`nalishda alohida qonun qabul qilindi (“Ma`muriy qamoqni o`tash tartibi to`g`risida”gi qonun, 2017 yil 9 yanvarъ). SHu asosda aniq maqsadlarga qaratilgan chora-tadbirlarni o`z ichiga olgan davlat dasturi izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Ana shunday ishlarimiz natijasida shu yilning (2017) 9 oyida korrupsiya bilan bog`liq jinoyatlar o`tgan (2016) yilga nisbatan 33 foizga kamaydi. Biz bunday natijalarni korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi uzoq va davomli faoliyatimizning dastlabki samarasi, deb qabul qilishimiz, bu yo`lda yanada qat`iy ish olib borishimiz shart”.<sup>31</sup>

---

<sup>30</sup>. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: “O`zbekiston”, 2018. – 14-bet.

<sup>31</sup>. O`sha joyda, 22-bet.

## 13-mavzu. Diniy fundamentalizm, radikalizm va terrorizmning tarixi va yo`nalishlari

### Reja:

1. Ekstremizm, aqidaparastlik, fundamentalizm, terrorizm tushunchalarining mazmun-mohiyati.
2. Diniy ekstremizm va terrorizmning moliyaviy manbalari.
3. O`zbekiston Respublikasida diniy ekstremizm va terrorizm xavfining oldini olishning huquqiy asoslari.

### 1. Ekstremizm, aqidaparastlik, fundamentalizm, terrorizm tushunchalarining mazmun-mohiyati

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi to`g`risidagi Farmoni (2017 yil 7 fevral) asosida ishlab chiqilgan 2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasining

*Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va ba'zi mintaqalarda yuzaga kelgan notinch vaziyat aholi migratsiyasi kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa jinoyatchilik, odam savdosi, terrorizm, ekstremizm, narkotrafik kabi illatlarning hamda o'ta xavfli yuqumli kasalliklarning ko'payishiga olib kelmoqda.*

*Shavkat Mirziyoev,  
1-jild, 45-bet, 2017.*

“Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag`rikenglikni ta`minlash hamda chuqur o`ylangan, o`zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashki siyosat yuritish” deb nomlangan 5-ustuvor yo`nalishida O`zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo`shnichilik muhitini shakllantirishga alohida e`tibor qaratilgan. “Dunyoning turli joylarida, ayniqsa, YAqin SHarq mintaqasida qonli to`qnashuv va nizolar davom etmoqda. Ming afsuski, bunday notinch keskinlik o`choqlari kamayish o`rniga ko`payib bormoqda”.<sup>32</sup> SHu boisdan ham “Biz boshimizdan kechirayotgan hozirgi globallashuv davri o`ta shiddat bilan o`zgarayotgani va turli tahdidlar ko`pligi bilan oldimizga hal etishni kechiktirib bo`lmaydigan g`oyat murakkab vazifalarni qo`ymoqda”.<sup>33</sup>

SHu boisdan ham hozirgi yosh avlodni O`zbekistonning barqaror rivojiga xavf tug`dirishi mumkin bo`lgan tahdidlardan ogoh etish va ularning ekstremizm, aqidaparastlik, fundamentalizm, terrorizm, diniy ekstremizm kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini bilishini taqozo qiladi.

<sup>32</sup>. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. T.: “O`zbekiston”. NMIU, 2018.-73-bet.

<sup>33</sup>. Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo`limizni qat`iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko`taramiz. – 1-jild. – T.: “O`zbekiston”, 2017. - 45-bet.

## 1. Mutaassiblik, ekstremizm tushunchalari, uning mazmun va mohiyati

1. **Mutaassiblik, fanatizm** – o'z e'tiqodi to'g'riligiga o'ta qattiq ishonish, boshqa diniy e'tiqodlarga murosasiz munosabatda bo'lish. Mutaassiblikka yo'liqqan odamlar yoki guruhlar jamiyatda beqarorlikni vujudga keltirishga urinadi. O'z e'tiqodidan g'arazli maqsadlarda foydalanadi. Ular jamiyatda ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy muammolar hal qilinmaganligini ro'kach qiladi. Mutaassiblikning asosiy sabablaridan biri ular diniy ilm – Qur'on, hadis shariatni bilmaslikdan kelib chiqqan va uni jahon quroliga aylantirishga chaqiradi.

**Fanatizm (lot. asabiylashgan, jazavaga tushgan)** - o'taketgan mutaassiblik, johillik, diniy e'tiqodlarga yoki biror nazariy qarashlarga tish-tirnog'i bilan yopishib olib, boshqa har qanday qarashlarni mutlaqo rad etish, masalan, diniy fanatizm.

2. **Ekstremizm** (lot. Extremuz – o'ta, keskin) – siyosat va mafkurada ashaddiy, favqulodda xarakat xamda qarashlarga asoslanib faoliyat yuritish. Turli ko'rinishlari:

1) Siyosiy ekstremizm – g'arazli maqsadiga kuch ishlatish usulidan foydalanadi. “Din” niqobi ostida balandparvoz shiorlar, chaqiriqlar bilan terrorchilik va partizanlik xarakatini qo'llab-quvvatlaydi. Mavjud siyosiy tuzilmalarni yo'qotish uchun “jixod”ga chaqiradi. Uning rahbarlari xar qanday murosa va kelishuvlarni rad etadi. Siyosiy ekstremizm ko'rinishlari:

A) millatchilik – turli millat, etnik guruxlarni inkor etadi.  
B) Separatizm (ayirmachilik)ni keltirib chiqaradi, keskinlik, xalqlar o'rtasida mojarolarni uyushtiradi.

2) Diniy ekstremizm, avvalo boshqa diniy konfessiyalarga, ularning vakillariga toqatsiz bo'ladi. Dunyoviy davlat qurishni rad qiladi va xalifalikka chaqiradi. Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo mintaqasidagi turli diniy tashkilotlar bilan bog'liq. Ko'rinishlari:

A) “Hizb ut-tahrir”. Bular vaqtincha qiyinchiliklarni ro'kach

B) “O'zbekiston islom harakati”. qilib ko'rsatadi. Farzandlarni yo'ldan urib

V) Iroq va Shom islom davlati (IShID). ota-onasi, aka-ukasiga, davlatga qarshi qilib qo'yadi.

*Markaziy Osiyoda barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlashning ustuvor yo'nalishi – ekstremistik g'oyalarga qarshi qat'iy kurashishdan iborat. Ko'pincha hayotga endi qadam qo'yayotgan yoshlar uning ta'siriga tushib qolmoqda.*

*Shavkat Mirziyoev,  
2017 yil 10 noyabr, Samarqand.*

## 1.2-chizma

### 3.Aqidaparastlik tushunchasi, mazmuni, mohiyati

**3.Aqidaparastlik** (arab. – qoida, forsha “parast” so'zlaridan olingan, qoidaga ko'r-ko'rona berilish) – qoidalarga dalilsiz va isbotsiz, ko'r-ko'rona ishonishga, o'zgarmas tushuncha va qarashlarga asoslangan tafakkur uslubi va xatti-harakatlar. Ko'rinishlari:

1) **Diniy aqidaparastlik** – voqea-hodisalarga aniq tarixiy yondashuv tamoyilini inkor qiladi. Islom dinidagi vahhobiylik oqimi (XVIII – asrda yashagan) ta'limotiga ko'ra, islom aqidalariga qattiq rioya qilishdan tashqari, oldingi VII asrga qaytish, an'ana, urf-odatlardan voz kechish, boshqa dinlarga murosasiz bo'lish kerak. Aziz-avliyolarni, marhumlar qabrini ziyorat qilishni rad etadi, ayollar yuzini ochib yurishga qarshi, erkaklar bilan teng huquqini rad etish kabi.

2) **Diniy ekstremizm** – Afg'oniston, Jazoir, Yaqin Sharq, Iroq va Shom islom davlatida faoliyat ko'rsatib terrorchilik amallari oqibatida minglab begunoh kishilar halok bo'lmoqda. 1999 yil 16 fevralda Toshkentda, keyinchalik Toshkent viloyati Yangiobod shahri yaqinida, Surxondaryo viloyati (2000 yil avgust) Sariosiyo va Uzun tumanlarida, 2005 yil 12-13 mayda Andijon voqeasi bilan bog'liq va hokazo. “Yoshlarning diniy ekstremistik oqimlar ta'siridan asrash masalasi barchamiz uchun eng asosiy masala bo'lib turibdi”, “Xalqimiz o'rtasida keng tarqalgan “O'z uyingni o'zing asra!” degan da'vatga bugun “O'z bolangni o'zing asra!” deb qo'shimcha kiritish vaqti keldi” (Shavkat Mirziyoev. 1-jild, 475-betlar, 2017.)

## 5. Terrorizm atamasi va uning mazmun-mohiyati

5. **Terrorizm** (lot. terror – qoʻrquv, dahshat) – yuksak maʼnaviy tamoyillarga zid ravishda yovuz maqsadlar yoʻlida kuch ishlatib, odamlarni garovga olish, oʻldirish, ijtimoiy obʻektlarni portlatish, xalqni qoʻrquv va vahimaga solishga asoslangan zoʻrovonlik usulini anglatuvchi tushuncha (Maʼnaviyat lugʻati, 2009, 553-bet.) Qoʻrqitish va dahshatga solish orqali oʻz hukmini oʻtkazishga urinish terrorizmga xos. Shakllari: siyosiy, iqtisodiy, diniy, gʻoyaviy, irqiy, milliy, guruhiy va individual terrorizm kabi.

### 7. **Terrorizmning koʻrinishlari: Klassik terrorizm turlari:**

- 1) Diniy terrorizm (oʻrta asr salb yurishlari va h.k.).
- 2) Individual terrorizm (Rossiyada narodniklar va keyin eserlarning siyosiy terroristik harakati va h.k.).
- 3) Bolshevizm ham terrorizmdan foydalangan.
- 4) Shovinizm (millatchilikning oʻziga xos shakli).
- 5) Ekstremizm – muammoni keskin hal qilish.
- 6) Fundamentalizm – anʼanaviy eski gʻoyalarda qolish.
- 7) Fanatizm (fran. ibodat) – muayyan gʻoyalar toʻgʻriligiga ishonish.
- 8) Fashizm (ital.) –tajovuzkor gʻoya, nazariya.
- 9) Davlat terrorizmi (SSSRda Stalin, Germaniyada Gitler va hakazo).

### **Terrorizmning zamonaviy koʻrinishlari:**


- 1) Xalqaro terrorizm.
- 2) Mintaqaviy terrorizm.
- 3) Milliy terrorizm.
- 4) Siyosiy terrorizm.
- 5) Diniy ekstremizm va fundamentalizm.
- 6) Neofashizm (yangi fashizm).
- 7) Narkoterrorizm.
- 8) Bioterrorizm.
- 9) Ijtimoiy terrorizm.
- 10) Kiberterrorizm (kiber-urush) – kompyuter tizimlariga hujum.

6. **Xalqaro terrorizm.** Biron-bir davlatdagi terrorchilarning oʻz harakatlarini yoki bu davlat hududidan tashqari chiqib, davom ettirishdir. Xalqaro terrorizmning oʻziga xos xususiyatlari:

- 1) **Terrorchilar** ham, jinoyat qurbonlari ham bir davlatga mansub yoki bir necha davlatga tegishli boʻlishi mumkin, ammo jinoyat shu davlatdan tashqarida sodir etilgan boʻladi.
- 2) **Terrorchilik harakati** xalqaro himoya ostidagi shaxslarga qaratilgan boʻladi.
- 3) **Terrorchilik harakatlariga** tayyorgarlik bir davlatda amalga oshirilib, jinoyatning oʻzi esa ikkinchi davlat hududida sodir etiladi.
- 4) **Terrorchilar bir davlat hududida** terrorchilik harakatini sodir etib, ikkinchi davlat hududiga oʻtib yashirinishi mumkin (masalan, 2001 yil 11 sentyabrda Afgʻonistondagi Usoma bin Lodin, Umarshayx kabi terroristlar keyinchalik Pokistonda yashirinishdi va 2010 yil AQShning raketa hujumidan halok boʻldi).


## 2. Diniy ekstremizm va terrorizmning moliyaviy manbalari

2.1-chizma




1. **Diniy ekstremizm** barcha dinlar doirasida rivojlangan. Diniy ekstremistik ruhdagi qarashlarni: katoliklar, protestantlar, pravoslavlar orasida ham uchratish mumkin. Diniy ekstremizm islom olamida ham keng tarqalgan. **Diniy ekstremizm** – ekstremizmning din niqobida namoyon bo'lish shakli.

2.2-chizma




Diniy ekstremizm muammolarni hal etishda o'ta keskin chora-tadbirlarni, fikr-qarashlarni yoqlovchi nazariya va amaliyotni anglatadi. Diniy ekstremistlar qaerda va qaysi din bayrog'i ostida faoliyat ko'rsatmasin, asosiy maqsadi diniy davlatni barpo etish bo'lib, bu maqsadni o'zaro nizolar, ixtiloflar, qurolli to'qnashuvlar orqali, qon to'kish va zo'rlik bilan erishishni ko'zlaydi. Ular mustaqillikka ham jamiyat taraqqiyotiga ham katta g'ov bo'ladi. YAgona maqsadi hokimiyatni qo'lga olish. XVIII asrda papa qo'shinlari Frantsiyaning janubida 20 ming kishini qirib tashladilar, ayniqsa ilg'or fikrli ziyolilarga qarshi inkvizitsiya sudi joriy etilib, mustaqillik uchun kurashuvchi YAn Gus o'ldirildi, osmon ilmi daholaridan biri Jordano Bruno o'tda kuydirildi. Galileo Galiley 5 oy qiynoqqa solinib, tavbasiga tayantirildi. Lekin bari bir u "Er aylanadi" degan fikrdan qaytmadi. SHarqda Nasimiyni tovonidan so'ydilar...

## 2.3-chizma



## 2.4-chizma





1. **“Terrorizm” tushunchasi terror tushunchasi bilan bir xil ma’noda qo’llangan.** Ammo ayrim hollarda ularda ma’lum tafovutlar bo’lgan. Masalan, “terrorizm” terrorni amalga oshirish deb tushunilgan. Terrorizmga muxolif qurollangan siyosiy guruhlariga xos faoliyat deb qaralgan. Muxolifatchilar davlatning siyosiy yon berishiga erishish uchun fuqarolarga, shu jumladan, chet el fuqarolariga nisbatan zo’rlik ishlatadilar yoki zo’rlik ishlatish bilan qo’rqitadilar. XX asrning oxirida surunkali terrorchilik harakatlarini uyushtiruvchi tashkilotlar paydo bo’ldi. “Terrorizm” tushunchasi orqali asosan siyosiy qotilliklar uyushtirish bilan shug’ullanadigan muxolif tashkilotlar, “terror” tushunchasi bilan esa davlat apparatining repressiv harakatlari belgilana boshlandi.

#### **Xalqaro terrorizmning o’ziga xos xususiyatlari:**

1. Terrorchilar ham, jinoyat qurbonlari ham bir davlatga mansub yoki bir necha davlatga tegishli bo’lishi mumkin, ammo jinoyat shu davlatdan tashqarida sodir etilgan bo’ladi.

2. Terrorchilik harakati xalqaro himoya ostidagi shaxslarga qaratilgan bo’ladi.

3. Terrorchilik harakatlariga tayyorgarlik bir davlatda amalga oshirilib, jinoyatning o’zi esa ikkinchi davlat hududida sodir etiladi.

4. Terrorchilar bir davlat hududida terrorchilik harakatini sodir etib, ikkinchi davlat hududiga o’tib yashirinishi mumkin.

*Bugungi kunda dunyoning ayrim mintaqalarida tobora keskinlashib borayotgan qonli mojarolar va ziddiyatlar, terrorizm va ekstremizm xavfi bizdan doimiy ogoh va hushyor bo’lishni talab etmoqda.*

*Shavkat Mirziyoev,  
1-jild, 138-139-bet, 2017.*

#### **2.5-chizma**

#### **Terrorizmning shakllari**

1. **Xalqaro terrorizm** – biror-bir davlatdagi terrorchilarning o’z xatti-harakatlarini yoki davlat hududidan chiqib, davom ettirishdir.

2. **Siyosiy terrorizm** (asosan davlat hokimiyatini qo’lga kiritish uchun siyosiy zo’ravonlik ishlatish usuli XIX asrdayoq vujudga kelgan). Maqsadi hokimiyatni egallashga qaratilib, piramidasimon xarakterga ega.

3. **Ijtimoiy terrorizm** – ijtimoiy-siyosiy mojarolar asosida shakllanadi hamda ular o’ng va so’l terroristik guruhlar ko’rinishida namoyon bo’ladi.

1. So’l terrorizm – mafkuraviy jihatdan so’l nazariyasiga asoslanadi.

2. O’ng (aksil inqilobiy “qora”) terroristlar an’anaviy, milliy qadriyatlarga asoslanadi.

3. Kiberterrorizm (kiber urush) – kompyuter tizimlariga hujum.

4. Mintaqaviy terrorizm.

5. Milliy terrorizm.

6. Diniy ekstremizm va fundamentalizm.

7. Neofashizm (yangi).

8. Narkoterrorizm.


9. Bioterrorizm va h.k.

Pokistonda 37 ta, Afg’oniston hududida 22 ta alohidda lagerda terrorchi jangchilar tayyorlangan. 1990-1999 yillar davomida 29 mingdan ortiq Hindiston fuqarolari shu

terrorchi guruhlar tomonidan o'ldirilgan. Hindiston Bosh vaziri Rajiv Gandi (1944-1991) esa Maxatma va Indira Gandilarga (1917-1984) bo'lgan sumqasddan keyin mitinglarda shaffof tito parda orqasidan turib gaplashar edi. Saylovdan oldin: "Xalqim meni sevadi, o'z xalqimdan yashirinanmanmi", deya ochiq so'zga chiqadi. U so'zini tugatgach, katta guldasta ko'targan go'zal ayol unga yaqinlashadi. Ayolning chiroyli qomati va tabassumi qo'riqchilarni ham sehrlab qo'yadi go'yo. Ular ayolni o'tkazib yuboradilar. Ayol Rajib Gandini quchoqlagancha birgalikda portlab ketadi. (1991 yil 21 may). Terrorchilar guruhi a'zolari o'z jonini g'oyasi uchun qurbon qilishni o'zlariga sharaf deb biladilar.

BMT hisob-kitoblariga ko'ra, 2014 yil boshidan beri ISHID jangarilari 700 ga yaqin bolaning, minglab asirlar va ko'plab tinch aholining hayotiga zomin bo'ldi (2015).

## 2.6-chizma



### Terroristik tashkilotlarga umumiy tasnif

#### 1. Siyosiy maqsadlari:

- imperializm va kapitalizamga qarshi;
- globallasuv va transmilliy kompaniyalarga qarshi;
- biror diniy konfessiya yoki etnik guruhga qarshi;
- o'z hukumatiga qarshi;
- millat yoki din sofligi uchun kurashish;
- ayirmachilik maqsadida va o'z davlatini tuzish uchun kurashish;
- biror dunyoqarashga qarshi (ekologiyaning buzilishiga qarshi va hokazo).

#### 2. Diniy yo'nalish (aslida o'z maqsadlariga erishish yo'lida dindan niqob sifatida foydalanadilar):

- soxta islom;
- yangi din o'ylab topish;
- soxta xristianlik;
- dinlarni inkor etish;
- soxta iudaizm kabilardir.

#### 3. Kelib chiqish sabablari:

- muxolifatni siqib qo'yish;
- mafkuraviy bo'shliq;
- davlatlararo ziddiyatlar;

- tashqi davlatlarning qo`llashi;
- etnik va diniy ziddiyatlar;
- globallashuvga qarshilik;
- ayirmachilik va mustaqillik uchun kurashish;
- qashshoqlik va ishsizlik;
- amerikacha siyosat, iqtisodiy va madaniy gegemoniyaga qarshilik.

#### 4. Ijtimoiy tarkibi:

- asosan qishloq aholisi (kam uchraydi);
- ziyolilar va talabalar (ko`p uchraydi);
- ziyolilar va ishchilar (kam uchraydi);
- aralash tarkib (ko`p uchraydi).

#### 5. Etnik tarkibi:

- turli millat vakillari (ko`p uchraydi);
- asosan bir etnik guruh vakillari.

#### 6. Terrorchilik guruhidagi a`zolar soni:

- 10 kishigacha (kam uchraydi);
- 50-100 kishi (ko`p uchraydi);
- 10-50 kishi (ko`p uchraydi);
- 100 kishidan ortiq (kam uchraydi).

#### 7. Tashkiliy tuzilishi:

- qat'iy ierarxiya (kam uchraydi);
- tashkilot bir-biridan mustaqil 5-7 kishidan iborat jangovar shahobchalardan iborat bo`ladi.


#### 8. Faoliyat yuritish makoni:

- bir davlat hududida, biror mintaqada, hatto global doirada ham faoliyat ko`rsataveradi;
- asosan shahar sharoitida ish olib boradi.

#### 9. Ish usullari:

- jamoatchilik joylarida portlashlar sodir etish;
- mahalliy aholi vakillarini yoki xorijiy fuqarolarni garovga olish;
- ekstremistik mazmundagi varaqalar tarqatish;
- siyosiy qotilliklarni amalga oshirish;
- tartibsizliklar keltirib chiqarish;
- kimyoviy yoki baktreologik qurollardan foydalanish.

### 2.7-chizma



**2.Moliyaviy manbalari:** Diniy ekstremist va terroristlar zarur mablag`larni dastavval sekta, guruh, jamiyatning har bir a`zosi daromadidan ma`lum hissasini ajratish, badavlat shaxslardan ko`pincha o`ch olish tahdidi ostida olinadigan ionalar hisobiga to`plangan. Diniy ekstremizm va terrorizm tarixining birinchi bosqichida shuning o`zi etarli bo`lgan. Biroq vaqt o`tgan sayin uyushgan terrorchi guruhlarining maqsad va vazifalari ko`lami kengaydi, binobarin, ularning moliyaviy ehtiyojlari ham ortib bordi. “Adolat uchun kurashchilar” banklarni, zargarlik do`konlarini talay boshlashdi, jinoiy faoliyatning boshqa turlaridan ham qaytishmadi. SHu tariqa terrorizm uyushgan jinoyatchilik bilan yaqinlashib bordi.

## 2.8-chizma

### Diniy ekstremizm va terrorizmning moliyaviy manbalari

**1. Narkobiznes savdosi.** “Giyohvand moddalar davri” 1968 yilda boshlanib hozirgacha davom etmoqda. Afg`oniston hududida saqlanib, kuchayib borayotgan o`ta xavfli tahdidlardan biri – bu narkobiznesdir. Bu mamlakatda giyohvand modda qadimdan yetishtirilgan va tayyorlangan. Ko`knori va heroin, boshqa sintetik moddalar yetishtirish XX asr 90-yillaridan sanoat asosida yo`lga qo`yilgan. Giyohvand moddalar umumiy hajmining 50-75 foizini ortig`i Afg`oniston hissasiga to`g`ri keladi. Jinoiy guruhlar boylik orttirish uchun ana shu narkobiznesni o`z nazoratiga olishgan. Afg`onistondan AQShga narkotik moddalar Amerika Qurolli kuchlar kontengenti faoliyati davomida 3 ta asosiy natija (2001-2014 yillarda) kuzatilgan:

Norkotik moddalar ishlab chiqarishning fenomal o`sishi 40 marta oshgan.

Mintaqaviy harbiylashish yuzaga kelgan.

Siyosiy nomutanosiblik tufayli gumanitar halokat yuz bera boshladi.

Bugungi kunda Afg`onistondan giyohvand moddalarni olib ketishning 3 xalqaro yo`lagi kuzatilgan:

Afg`oniston – Pokiston – Eron – Ozarbayjon.

Afg`oniston – Eron – Ozarbayjon.

Afg`oniston – O`rta Osiyo (Markaziy Osiyo) – Ozarbayjon.

Keyingi yillarda Afg`onistonda ko`knori yetishtirish 32 viloyatdan 24 tasida plantatsiyalar hajmi 10 marta oshdi. Yetishtirilgan ko`knorning 90 foizi asosan 5 ta viloyatga to`g`ri keladi. Bular Xilmond (38 foiz), Nangarhar (30 foiz), Badahshon (9 foiz), O`ruzgon (7 foiz), Qandahor (5 foiz). (2005 yil manba).

**2. Nolegal qurol-yarog` savdosi** – bu giyohvand moddalardan farqli ravishda asosan “badavlat Shimoldan” “nochor Janubga” qarab boruvchi tovarlar oqimi. Bu savdoda afg`on guruhlar alohida o`rin tutadi. Xitoyda ishlab chiqarilgan AK-47 avtomat bir donasi 5000 rupiy (100 dollar) erkin sotishmoqda. Amerika 1980 yillarda Kolumbiya va Peru partizanlariga qurol-aslaha sotishni taqiqlab qo`ygan. Nolegal qurol-aslaha aslida 2 sektorga bo`linadi: 1) jinoiy, mafiyaga tegishli (“qora”); 2) kvazi-jinoiy (“kulrang”) sektorlar. Dastlabki bozor yengil qurollarni kichik-kichik partiyada yetkazib berish. Qudratli qurol-aslaha turlari (raketa, to`p, snaryad, vertolyot) ulgurji yetkazib berish. SSSR parchalanishidan keyin harbiy texnikalarning ayrim qismi Afg`onistonga nolegal yetkazib berilgan va sotilgan.

Uyushgan jinoyatchilik muammosi global ko`lam kasb etishiga olib keldi.

3. Antiqa buyumlar va madaniy boyliklarni kontrabanda qilish, xalqaro pornobiznes (“jonli tovar savdosi”) pulni jinoiy yo`l bilan qonuniylashtirish, farzandlikka olish uchun bolalar savdosi, avtomobil kontrabandasi va hakazo.

4. “Iroq va Shom islom davlati” (IShID- 2014-2015) terrorchi to`dasining qing`ir moliyaviy manbalari: talon-toroj, qaroqchilik, o`g`irlik, bosqinchilik, qora bozordagi neft savdosi, odamlarni qul qilib sotish va shu kabilar. 2014 yilda BMT ma`lumotiga ko`ra, birgina 2014 yil oktyabr oyida terrorchilar 1273 kishining umriga zomin bo`lgan. Ularning 856 nafari oddiy fuqaro, 417 nafari harbiylar edi (IShID fitnasi, - T.: Movaraunnahr, 2015, 49-bet).

*“O`zgaralar qonini to`kish hisobiga mo`may daromad olishni istovchilar batamom yo`q bo`lib ketadigan zamonlar kelishiga hali ancha borga o`xshaydi. Bu toifaga kiruvchi “bizneschilar” uchun qon va nopok siyosat qorishgan pul dunyoning turli burchaklarida xalqaro qotillarni yollash va sinab ko`rish mumkin bo`ladigan mojarolarni rag`batlantirish borasida eng qulay vosita ekanligini gapirmasa ham bo`ladi”.*  
*Islom Karimov. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida...*

5. **Islom dini niqobi ostidagi xalqaro ekstremistik guruhlar** “O`zbek islomchilari” deb atalgan, ammo ko`plab jinoyatlar qilib O`zbekistonni tark etgan guruhlarini har taraflama qo`llab-quvvatlashga urinib kelindi. Xorijiy mamlakatlardagi qon-qardoshlik, g`oyaviy-siyosiy tamoyillarga asoslangan diniy, siyosiy partiyalar diniy ekstremistlarni moddiy jihatdan qo`llab-quvvatlab kelgan. Masalan, Turkiyaning “Refax” partiyasi rahbari, shu mamlakat sobiq Bosh vaziri N. Erbaqon 1997 yilda Tohir Yo`ldoshga 100000 dollar miqdorida mablag` ajratgan. Turkiya Bosh vaziri N. Erbaqonning qo`llab-quvvatlashi tufayli Germaniyada harakat qilayotgan turkiyalik muhojirlarning tijorat tashkiloti – “Milliy guruh”ning kotibi Muhammad Kuchak orqali T. Yo`ldoshevga qurollanish uchun bir necha yuz ming dollar berilgan. Qurol-yarog`larni etkazish esa bir necha siyosiy shartlar orqali amalga oshirilgan. MDH ga a`zo davlatlar hududlaridagi diniy ekstremistik va terrorchilik tashkilotlariga 60 ga yaqin xalqaro tashkilotlar, 100 dan ortiq xorijiy kompaniyalar va o`nlab bank guruhlarini yordam berishgan (2004).

Usoma Bin Lodin boshliq “Butunjahon jihod fondi” ana shunday tashkilotlardan biri edi. Bu terrorchilik tashkiloti turli mamlakatlarda jangarilarni tayyorlash uchun maxsus mashg`ulot lagerlari tashkil etgan. “2000 yil 14 dekabrda u jangarilarni tayyorlashga 20 million dollar ajratganini e`lon qildi.”<sup>34</sup>

<sup>34</sup>. Safarova N. Terrorizm (tarixiy-falsafiy tahlil). – T.: Noshir, 2009. -75-76-betlar.

1996 yilda ana shu xalqaro ekstremistik tashkiloti tomonidan Juma Namangoniya 250 ming dollar miqdorida “sadaqa” berilgan. Usoma Bin Lodin 1999 yilning iyun oyida Tohir Yo’ldosh bilan Qunduz shahrida uchrashib, unga 500000 AQSH dollari in’om qilingan (“Xalq so’zi”, 2000 yil 20 sentyabr).

## 2.9-chizma

### 5. “O’zbek islomchilari”ning moliyaviy manbalari

1. “O’zbek islomchilari” niqobi ostidagi ekstremistik guruhlar xorijiy gumashtalari bilan ko’plab jinoyatlar qilib, O’zbekistonni tark etgan guruhlarni har tarafdin qo’llab-quvvatlashga urinib kelgan. Xorijiy mamlakatlardagi qon-qardoshlik, g’oyaviy-siyosiy tamoyillarga asoslangan diniy, siyosiy partiyalar diniy ekstremistlarni moddiy jihatdan qo’llab-quvvatlab kelgan. Masalan, Turkiyaning “Refak” partiyasi rahbari, shu mamlakat sobiq Bosh vaziri N. Erbaqon 1997 yilda Tohir Yo’ldoshga 100000 dollar miqdorida mablag’ ajratgan. Turkiya sobiq Bosh vaziri N. Erbaqonning qo’llab-quvvatlashi tufayli Germaniyada harakat qilayotgan turkiyalik muhojirlarning tijorat tashkiloti – “Milliy guruh”ning kotibi Muhammad Kuchak orqali Tohir Yo’ldoshga qurollanish uchun bir necha yuz ming dollar berilgan. Qurol-yarog’larni yerkazish esa bir necha siyosiy partiyalar orqali amalga oshirilgan. MDHga a’zo davlatlar hududlaridagi diniy ekstremistik va terrorchilik tashkilotlariga 60 ga yaqin xalqaro tashkilotlar, 100 dan ortiq xorijiy kompaniyalar va o’nlab bank guruhlari yordam bergan (2004).

2. Usoma bin Lodin boshliq “Butunjahon jihod fondi” terrorchilik harakatlarini doimo qo’llab-quvvatlab kelgan. Bu terroristik tashkilot turli mamlakatlarda jangarilarni tayyorlash uchun maxsus (Afg’oniston va boshqa mam.) mashg’ulot lagerlari tashkil etgan. “2000 yil 14 dekabrda u jangarilarni tayyorlashga 20 million dollar ajratganini e’lon qildi”.

1996 yilda ana shu xalqaro ekstremistik tashkiloti tomonidan Juma Namangoniya 250 ming dollar miqdorida “sadaqa” bergan. Usoma bin Lodin 1999 yilning iyun oyida Tohir Yo’ldosh bilan Qunduz shahrida uchrashib, unga 500 ming dollar in’om qilgan (“Xalq so’zi”, 2000 yil 20 sentyabr). Uni Afg’onistondagi muxolifat Umarshayx tolibon qo’shinlari qo’llab-quvvatlagan.

Bin Lodin Afg’onistondagi “Tolibon” harakati bilan yaqin hamkorlik qilgan. Tolibonlar jahonda ishlab chiqariladigan afyunning 80 foizini o’z nazoratiga olgan. Rahbar cho’ntagiga 90 milliard dollar kelib tushardi. XX asr oxiriga kelib Usoma bin Lodin go’yoki “shovinninglar va xristianlar alyansi tomonidan musulmonlarga qilinayotgan adolatsizlikni bartaraf qilish uchun kurashyapmiz... Biz rahmdil va hamma narsaga qodir Ollohdan bizga g’alaba tuhfa etishini iltijo qilamiz” (1996 yil 23 avgustdagi nutqida) shiori musulmon mamlakatlariga tarqatildi. Amerikaliklar buni urush e’lon qilish deb baholadi.

2001 yil 11 sentyabrda AQShga qilingan terroristik guruh rahbari Usoma bin Lodin boshchiligida qilingan terakt edi. Natijada bu teraktdan AQShning 3 ming odami nobud bo’ldi.

### 3. O'zbekiston Respublikasida diniy ekstremizm va terrorizm xavfining oldini olishning huquqiy asoslari


Diniy ekstremizm va terrorizm xavfi oldini olish, eng avvalo, ko'p jihatdan diniy mutaassiblik va fundamentalizm, ekstremizm va terrorizm o'z tarixiy-ijtimoiy kelib chiqishi, ba'zi juz'iy jihatlari bilan bir-biridan ma'lum darajada farq qilsada, ular umumiy bir zanjirning xalqalaridir. Diniy fundamentalizm va ekstremizm mavjud ekan, terrorchilik xavfi hamma vaqt saqlanib qoladi.

Diniy fanatizmning "otilib chiqishi"ga sof diniy ziddiyatlardan ko'ra ko'proq ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy muammolarning hal qilinmaganligi sabab bo'ladi. Aslini olganda, ayni shu muammolar boshqacha fanatizmni, deylik, bolshevistik, millatchilik ruhidagi fanatizmni keltirib chiqaradi.

*Markaziy Osiyo mintaqasida va butun dunyoda murakkab vaziyat yuzaga kelayotgan, terrorizm, ekstremizm va radikalizm xavfi tobora ortib borayotgan bugungi sharoitda doimo hushyor va ogoh bo'lish, mamlakatimizning mudofaa qobiliyatini, Qurolli Kuchlarimizning salohiyatini har tomonlama mustahkamlash xavfsizlik va barqarorlikni, xalqimizning osoyishta hayotini ta'minlashning eng muhim sharti va kafolati ekanini barchamiz yaxshi bilamiz.*

*Shavkat Mirziyoev,  
1-jild, 47-bet, 2017.*

#### 3.1-chizma



## Xalqaro terrorizmning Markaziy Osiyoga, O'zbekistonga xavfi

Avvalo xalqaro terrorizmning Markaziy Osiyoga, xususan O'zbekistonda xavfini quyidagi holatlar bilan izohlash mumkin:

1. Markaziy Osiyoda beqarorlikni vujudga keltirish, buning uchun teraktlar, bosqinchilik harakatlarini amalga oshirish terrorizm maqsadidir.

### 3.2-chizma

#### Islom Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida... asari mazmuni

<p><b>1.bob. Xavfsizlikka tahdid:</b></p> <ol style="list-style-type: none"><li>1. Mintaqaviy mojarolar.</li><li>2. Diniy ekstremizm va fundamentalizm.</li><li>3. Buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik.</li><li>4. Etnik va millatlararo ziddiyatlar.</li><li>5. Korruptsiya va jinoyatchilik.</li><li>6. Mahalliychilik va urug'-aymoqchilik munosabatlari.</li><li>7. Ekologik muammolar.</li></ol>	<p><b>Keltirib chiqaruvchi sabablar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"><li>1. O'tish davri islohotlaridagi <b>iqtisodiy</b> qiyinchiliklar.</li><li>2. Aholi ob'ektiv talabaqalanish jarayoni va mulkdorlik belgisidagi tafovutlar.</li><li>3. G'oyaviy bo'shliq.</li><li>4. Ayrim odamlar ongining sayozligi.</li><li>5. Siyosiy beqarorlik.</li><li>6. Ijtimoiy notenglik.</li><li>7. O'tish jarayonidagi muammolar.</li><li>8. O'zlikni to'la anglab olmaganlik.</li><li>9. Mamlakat ichki va tashqi muammolari va h.k.</li></ol>
<p><b>Asarda ta'kidlaganidek, o'tgan yillar mantiqi hozirgi kunda 3 ta asosiy savolga murojaat qilishga undamoqda. O'zbekistonning kelajagi ana shu savollarga qanday javob berishga bog'liq.</b></p> <p>Xavfsizlikni qanday saqlab qolish lozim. Barqarorlikni qanday ta'minlash darkor? Taraqqiyot yo'lidan sobitqadam rivojlanishga nimalar hisobiga erishish mumkin?</p> <p><b>1.Xavfsizlikni qanday saqlab qolish lozim? savoliga javob:</b></p> <p><b>Xavfsizlik</b> – uzluksiz holatdir, hadsiz-hududsizdir. Bu milliy xavfsizlikni tashkil etadi. “Sovuq urush” barham topgach, endilikda: yalpi xavfsizlikka asosiy tahdid: etnik, mintaqaviy, mahalliy mojarolar va davlatlar ichidagi jangovar separatizm. O'zbekiston o'zining jug'rofiy – siyosiy holati jihatidan kollektiv xavfsizlik tizimi izchil yo'lga qo'yilmagan mintaqada joylashgan. Mintaqaviy nizolar ko'pincha: terrorizm va zo'rvonlik, narkobiznes va qurol-yarog' bilan qonunsiz savdo qilish, inson huquqlari buzilishi, bularning bari chegaralarni tan olmaydi. Har bir davlat o'z milliy manfaatlariga muvofiq o'z mustaqilligini ta'minlash uchun kollektiv xavfsizlik shartnomasida qatnashish huquqini o'zi belgilaydi. Ekologik va yadroviy xavfsizlik muammolari alohida e'tibor talab etadi va h.k.</p> <p><b>2.Barqarorlikni qanday ta'minlash darkor:</b></p> <p>Ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashning tiklanishi. Davlatchilikni shakllantirish va mudofaa qobiliyatini mustahkamlash. Demokratik institutlarni va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish. Bozor munosabatlarining qaror topishi va mulkdorlar sinfining shakllanishi. Kuchli ijtimoiy siyosat va aholi ijtimoiy faolligini oshirish. Jug'rofiy – strategik imkoniyatlar va tabiiy – xom ashyo resurslari. Inson salohiyati, ijtimoiy va ishlab chiqarish infrastrukturasini. Keng ko'lamli o'zgarishlar va xamkorlik kafolatlari. Jahon hamjamiyati bilan hamkorlik.</p> <p><b>3.Sobitqadam rivojlanishimiz:</b></p> <p>Jug'rofiy – strategik imkoniyatlar, tabiiy-xom ashyo resurslariga. Inson salohiyati. Hamkorlik. O'z imkoniyatimiz orqali va hokazolarga bog'liq</p>	



2. Markaziy Osiyo hududida xalqaro narkobizneschilar uchun narkotrafikni yaratish. Narkotik moddalar Markaziy Osiyo orqali Rossiya va Evropadagi iste'molchilarga etkazib berish arzon va qulaydir. BMT ma'lumotlariga ko'ra jahondagi giyohvand opiumning 75 foizi bevosita Evropaga tarqalgan.

3. Xalqaro qurol-yarog` biznesi bilan shug`ullanuvchilar Markaziy Osiyo hududida ziddiyat bo`lib turishidan manfaatdordirlar.

Xalqaro terrorchilar Markaziy Osiyo hududida dindorlarni, aholini davlatga va davlat tashkilotlariga qarshi qo'yishga va pirovardida hokimiyatga qarshi doimo oppozitsiyani shakllantirishga harakat qilib kelganlar.

*Bugungi kunda dunyoning ayrim mintaqalarida tobora keskinlashib borayotgan qonli mojora va ziddiyatlar, terrorizm va ekstremizm xavfi bizdan doimiy ogoh va hushyor bo'lishni talab etmoqda.*

*Shavkat Mirziyov,  
1-jild, 138-139-b. 2017.*

## Terrorizm xavfi va unga qarshi kurash to'g'risida

### 3.3-chizma

Bugungi kunda xalqaro terrorizm, ekstremizm va radikalizmga qarshi kurash dunyo mamlakatlarini birlashtirgan asosiy omil bo'lib qolmoqda. XXI asr vabosi bo'lgan ushbu illatga qarshi jahon hamjamiyatining murosasiz kurashini O'zbekiston to'la ravishda qo'llab-quvvatlaydi.

Ayni paytda

Biz faqat terrorizmning tashqi ko'rinishlariga, begunoh odamlarni garovga oladigan, portlatadigan va o'ldiradigan kimsalarga qarshi kurashish bilangina bu ofatni bartaraf etib bo'lmasligini bir necha bor ta'kidlaganmiz. Hayotning o'zi shuni ko'rsatadiki, avvalombor, ushbu balo-qazoning birlamchi manbalariga qarshi kurashish darkor.


Ya'ni

Islom dinini siyosatga aylantirayotgan, yovuzchilik va terrorchilik mafkurasini yaratayotgan ko'plab radikal va ekstremistik markazlarning, birinchi navbatda, yoshlar ongini zaharlab, zombiga aylantirib, ulardan terrorchilar tayyorlash bo'yicha konveyer tashkil etayotgan, xalifalik tuzishdek turli xomxayollarni amalga oshirishga urinayotgan qabih kuchlarning ildizini qirqib tashlash kerak.

*Jamiyatimizda korrupsiya, turli jinoyatlarni sodir etish va boshqa huquqbuzarlik holatlariga qarshi kurashish, ularga yo'l qo'ymaslik, jinoyatga jazo albatta muqarrar ekani to'g'risidagi qonun talablarini amalda ta'minlash bo'yicha qat'iy choralar ko'rishimiz zarur.*

*Shavkat Mirziyoev,  
1-jild, 141-bet, 2017.*

### 3.4-chizma



#### **Diniy ekstremizm va terrorizmni bartaraf etishning huquqiy asoslari:**


1. 1977 yil 27 yanvarda qabul qilingan "Terrorizmga qarshi kurash bo'yicha Evropa konventsiyasi"da terrorizm, uning sabablari, maqsadlaridan qat'iy nazar jinoyat deb ta'riflandi.
2. 1978 yili Bonn shahrida kuchli "Ettilik" davlatlari terrorizmga qarshi kurash to'g'risida bayonot qabul qildi.
3. 1981 yili Ottava shahrida, 1984 yili Londonda, 1986 yili Tokioda, 1996 yili Parijda bo'lib o'tgan kuchli "sakkizlik" davlatlarining rahbarlari xalqaro terrorizm to'g'risida deklaratsiya qabul qildilar.
4. 2000 yil oktyabrda Toshkentda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari "Markaziy Osiyoda narkotiklarning noqonuniy savdosi, uyushgan jinoyatchilik va terrorchilikka qarshi kurash bo'yicha hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi hujjat qabul qilindi.
5. 2000 yil 15 dekabrda O'zbekiston Respublikasining "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. O'zR Jinoyat Kodeksining 2-bo'limi "Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar" deb nomlanib, unga qarshi kurash yo'llari bayot etildi.
6. 2001 yil 15 iyunda SHanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT) tomonidan 3 ta yovga qarshi "Xalqaro terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi kurash haqida" Konventsiya qonuni qabul qilindi.
7. 2004 yil 17 yanvarida Toshkentda SHHTning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi ijroiya qo'mitasi ish boshladi.
8. "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonun (2012 yil 25 dekabr).
9. "Ma'muriy qamoqni o'tash tartibi to'g'risida"gi qonun (2017 yil 3 yanvar) qabul qilindi.
10. "Sudlar to'g'risida"gi qonun (2017 yil 12 aprel) qabul qilindi.
11. "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi qonun (2017 yil 3 yanvar) qabul qilindi.
12. "Konstitutsiyaviy sud to'g'risida"gi qonun (2017 yil 31 may) qabul qilindi.

13. “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to`g`risida”gi (YAngi tahrir) qonuni (2017 yil 11 sentyabr) qabul qilindi.

14. “Jamoatchilik nazorati to`g`risida”gi qonuni (2018 yil 12 aprel) qabul qilindi.

15. “Ekstremizmga qarshi kurashish to`g`risida” (2018 yil 30 iyul) qonuni qabul qilindi va hokazo.

### 3.5-chizma



### O`zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash tashabbuskori

1. Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasi (Toshkent)da “Ta’lim va ma’rifat – tinchlik va bunyodkorlik sari yo`l” nutqi (2016 yil 18 oktyabr)da: “Ommaviy qirg`in qurolini tarqatmaslik muammosi bugungi kunda eng keskin masalalardan biri bo`lib qolmoqda, - dedi. – O`zbekiston 1993 yildayoq Markaziy Osiyoda yadro qurolidan holi hududni tashkil etish tashabbusini ilgari surgan. Mazkur tashabbus O`zbekiston va qo`shni davlatlar tomonidan 2006 yilda imzolangan Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli hudud to`g`risidagi shartnoma, shuningdek, BMT Xavfsizlik kengashining doimiy beshta a`zosi 2014 yilda imzolagan Kafolatlar to`g`risidagi protokolda o`zining amaliy ifodasini topgan” (1-jild, 39-bet).

2. O`zLiDeP partiyasining VIII s`ezdidagi (2016 yil 19 oktyabrda) ma`ruzasida O`zbekistonning barqaror rivojiga xavf tug`dirishi mumkin bo`lgan, o`z echimini kutayotgan eng muhim 6 ta muammoli masalalarga e`tibor qaratdi (1-jild, 45-46-betlar).

3. “Bir makon, bir yo`l” – manfaatlarimiz mushtarak xalqaro forumida 2017 yil 14-15 maydagi nutqida.

4. Qozog`iston poytaxti Ostona shahrida bo`lib o`tgan SHXT Davlat rahbarlari kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisida so`zlagan nutqida, 2017 yil 8-9 iyun.

5. BMT Bosh assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida (2017 yil 19 sentyabr).


6. 2017 yil 10 noyabrda Samarqand “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo`lidagi hamkorlik” mavzusidagi xalqaro konferentsiyada so`zlagan nutqida.

7. Afg'oniston bo'yicha "Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik" mavzusidagi Toshkent konferentsiyasi (2018 yil 27 mart)dagi ma'ruzasida.

8. O'zbekiston – AQSH: Yangi ufq va marralar sari dadil qadamlar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2018 yil 15-17 mayda AQSH Prezidenti Donald Trampning taklifiga binoan Vashingtonda bo'lishi va boshqa ma'ruza, nutqlarida Markaziy Osiyo hududida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy barqarorlik uchun, qo'shni davlatlar bilan har tomonlama hamkorlik yo'lida betinim faoliyat olib bormoqda.

Jaholat – ma'rifat kushandasi. Shu boisdan ham ana shu ma'naviy tahdidni bartaraf etish uchun Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tomonidan 2017 yilda "Jaholatga qarshi ma'rifat" kontsepsiyasi ilgari surildi.

1. 2017 yil 28 iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi qarori bilan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat keqashining 1) Respublika targ'ibot markazi hamda 2) Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi birlashtirish yo'li bilan ularning negizida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Markazi tashkil etildi hamda uning vazifalari belgilab berildi.



2. 2018 yil 16 aprelda O'zbekiston Prezidentining "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni munosabati bilan "Jaholatga qarshi ma'rifat" ulug'vor g'oyasi insonparvarlik mohiyati nuqtai nazaridan yana bir bor ilgari surildi.

*Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy "Olijanob kishilar uzrni qabul qilur", – deb ta'kidlagan ekanlar. Xalqimiz – mard va olijanob xalq, kim chin dildan uzr so'rasa, tavba qilsa, albatta gunohidan kechadi.*

*Shuning uchun hozirgi kunda qancha adashganlarni kechirib, to'g'ri yo'lga solyapmiz. Birini o'qishga, birini ishga, birini kasbga qaytaryapmiz.*

*Shavkat Mirziyoev,  
1-jild, 477-bet, 2017.*

Prezidentimiz SHavkat Mirziyoevning “Jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish” kontsepsiyasiga ko`ra:

1. O`tgan ikki yil ichida Prezidentimiz SHavkat Mirziyoevning tashabbusi bilan 300 mingdan ko`proq adashganlar gunohi kechirildi. YAXshi yo`lga qaytdi.

2. 2017 yilda sudlar tomonidan 373 ming 256 ta ish ko`rib chiqilgan bo`lsa, shundan 169 ming 289 tasi yoki 45 foizi sayyor sud muhokamasida ko`rildi.<sup>35</sup>

3. Tergov organlari tomonidan 238 ta holatda jinoiy hodisa yuz bermagani aniqlangan. Umumuan, 3,5 mingdan ortiq jinoyat ishi tugatilgan.

4. Ilgari qariyb 90 foiz jinoiy ishlar qayta tergovga yuborilgan. Endilikda sudlar tomonidan jinoyat ishlarini qo`shimcha tergovga qaytarish tartibi bekor qilindi.

5. Prezident farmoni bilan sudlar tomonidan hukm qilingan 2 ming 700 nafar shaxs afv etildi (2017 yil 7 dekabr).

6. Keyingi besh yil ichida (2013-2016) bor yo`g`i 7 shaxs oqlangan bo`lsa, 2017 yilning o`zida 300 shaxsga nisbatan oqlov hukmlari chiqarilgan. 2018 yilning 4 oyi ichida 172 shaxs oqlangan.

7. 2017 yilda mahalla fuqarolari yig`inlari kafilligi ostida – 152 nafar, O`zbekiston yoshlar ittifoqi kafilligida 3 nafar, jami 172 nafar fuqaroga nisbatan jazo tayinlashda jamoatchilik kafilligi e`tiborga olindi. (Prezidentning Konstitutsiya 25 yilligi bo`yicha ma`ruzasi, 2017 yil 7 dekabr, 10-16-betlar).

8. “Jaholatga qarshi – ma’rifat” shiori ostida Toshkent shahri Xasti Imom majmuasi hududida Islom madaniyati markazi tashkil etildi (2017).

9. “O`z uyingni o`zing asra!” degan da`vatga bugun “O`z bolangni o`zing asra!” degan qo`shimcha kiritildi.

10. “Bir bolaga etti mahalla ham ota, ham ona” degan maqolning haqiqiy ma`nosini anglaydigan vaqt keldi (SH. Mirziyoev, 1-jild, 486-bet).

11. “Diling – Oллоhda, qo`ling – mehnatda bo`lsin” (“Dil ba yoru, dast ba kor”) shiorini qoida qilib olish lozim.

12. Ko`plab o`zbekistonlik fuqarolar peshonasiga yozilgan “diniy ekstremist” tamg`asi olib tashlandi.

## **EKSTREMISTIK TASHKILOT NOMLARI RO`YXATI MA`LUM QILINDI**

Adliya vazirligi O`zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2019 yil 12 martdagi hal qiluv qaroriga ko`ra ekstremistik va terroristik deb topilgan sahifalar, kanallar va nomlar ro`yxatini e`lon qildi.

O`zbekiston Respublikasining 2018 yil 30 iyuldagi “Ekstremizmga qarshi kurashish to`g`risida”gi Qonunining 14-moddasiga muvofiq, O`zbekiston Respublikasida tashkilotni ekstremistik tashkilot deb topish sud tartibida amalga oshiriladi.

---

<sup>35</sup>. Mirziyoev SH.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustaqil poydevori. – T.: “O`zbekiston”, 2018. – 10-11- bet.

Tashkilotni ekstremistik tashkilot deb topish to'g'risidagi ariza O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga beriladi. Qaysi tashkilotlarga nisbatan sudning ularni ekstremistik tashkilot deb topish va O'zbekiston Respublikasi hududida ularning faoliyatini taqiqlash to'g'risidagi qonuniy kuchga kirgan qarori mavjud bo'lsa, o'sha tashkilotlarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Oliy sudining rasmiy veb-saytlarida e'lon qilinishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 30 iyuldagi "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunining 11-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining hududiga ekstremistik materiallarni, ekstremistik tashkilotlarning atributlari va ramziy belgilarini olib kirish, tayyorlash, saqlash, tarqatish va namoyish etish, shuningdek ularni ommaviy axborot vositalarida yoxud telekommunikatsiya tarmoqlarida, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog'ida tarqatish va namoyish etish taqiqlanadi.

SHuningdek, mazkur moddaga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilayotgan, tayyorlanayotgan, saqlanayotgan, tarqatilayotgan va namoyish etilayotgan, shuningdek ommaviy axborot vositalarida yoki telekommunikatsiya tarmoqlarida, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog'ida tarqatilayotgan va namoyish etilayotgan materiallar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ekstremistik materiallar deb topiladi.

SHunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2019 yil 12 martdagi hal qiluv qaroriga ko'ra, internet jahon axborot tarmog'ining "najat.info" va "hizb-uzbekiston.info" veb-saytlari hamda "Facebook", "Youtube" va "Telegram" axborot resurslari va ijtimoiy tarmoqlardagi quyidagi nomlardagi profil, kanal va sahifalari ekstremistik va terroristik deb topildi.

<b>PROFIL, KANAL VA SAHIFALARNING NOMI</b>	
1. "Abu Saloh darsliklari"	21. "Tavhid darsi"
2. "Jannat oshiqlari"	22. "Qiyomatdan avvalgi fitnalar"
3. "SHom ovozi"	23. "Savol va javoblar"
4. "Tavhid va jihod"	24. "Foida Mp3"
5. "Islam Abu Khalil"	25. "Foida va qoidalar"
6. "Polvon Novqatlik"	26. "Tafsir darslari"
7. "Soxib Maxmudov"	27. "Talbisu iblis darslari"
8. "Farruxbek Abdullaev"	28. "Islomni buzuvchi amallar"

	darslari”
9. “Mamaraximov Abduraxim Mirkomilovich”	29. “Nomoz va benomozga taluqli masalalar”
10. “Muxojir Polvon”	30. “Ayollar darslari silsilasi”
11. “Abu Aisha”	31. “Aqiyda darslari”
12. “Turkiston”	32. “Silsilaviy darslar va ma’ruzalar”
13. “Xurriyat info”	33. “Muhim darslar”
14. “Najot”	34. “Aqiydatul vositiya”
15. “al-Va’y”	35. “Mustalahul hadis”
16. “Roya”	36. “Alfatx”
17. “Usulul fiqh”	37. “Talabalar uchun darslar”
18. “Mustalahul hadis”	38. “AL’-FATH TV”
19. “Darslardan qisqa lavhalar”	39. “DA’VAT UZ”
20. “Fiqh ahkomlari”	40. “HIDOYAT TV”

## **14-mavzu. Dunyo hamjamiyatining ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash tajribasi**

### **Reja:**

1. Ekstremizm, aqidaparastlik, fundamentalizm, terrorizm tushunchalarining mazmun-mohiyati
2. Radikallashuv va ekstremizmga qarshi kurash xorijiy tajribasi
3. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda O'zbekiston tajribasi

### **1. Ekstremizm, aqidaparastlik, fundamentalizm, terrorizm tushunchalarining mazmun-mohiyati**

Diniy ekstremizm – muayyan diniy konfessiya va tashkilotlardagi ashaddiy mutaassib, fanatik unsurlarning faoliyati mafkurasi. Fanatizm o'z aqidasiining shak-shubhasiz to'g'riligiga ishonib, boshqa firqa va mazhablarni butunlay rad etgan holda ularni tan olmaslik, balki ularni diniy asoslarni buzishda ayblab, ularga qarshi urush ochishga chaqiradigan omillardandir. Diniy fanatizm diniy ekstremizm va terrorizmga zamin tayyorlaydi.

Fundamentalizm – ma'lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va bu yo'l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin degan fikrni ilgari suruvchilarning yo'nalishi. Diniy fundamentalizm – aqidaning o'zgarmasligini himoya qiladigan, *vahy* va *mo'jizalarning* muqaddas kitoblardagi bayonining harfiy talqini tarafdori, ularning har qanday majoziy talqiniga muhosasiz, so'zma-so'z talqiniga asoslangan e'tiqodni aqlga tayangan mantiqiy dalillardan ustun qo'yadigan, muayyan diniy e'tiqod shakllanishining boshlang'ich davrida belgilangan barcha yo'l- yo'riqlarni qat'iy va og'ishmay bajarilishini talab qiladigan diniy oqimlarni ifodalashda qo'llaniladigan istilohdir.

Fundamentalizm iborasi ilk bor I Jahon urushi arafasida vujudga kelgan protestantizmdagi ortodoks oqimlarni ifodalash uchun ishlatilgan. Bu oqim 1910 yildan keyin shu nom bilan atala boshlagan. Fundamentalistlar xristianlikning an'anaviy aqidalariga, ayniqsa, Bibliyaning mutlaq mukammalligiga ishonishni mustahkamlashni, uni so'zma-so'z sharhlashga qat'iy rioya qilishni talab qildilar. Bu oqim keyinchalik Amerikada keng tarqalib, 1919 yili Filadelfiyada Jahon xristian fundamentalistlari assotsiatsiyasiga asos solindi.

Asrimizning 70-yillaridan boshlab esa bu so'z islomga nisbatan qo'llanila boshlandi. Islom fundamentalizmi zamonaviy islomdagi uch yo'nalishdan biridir (qolgan ikkitasi – traditsionalizm va modernizm). Islom fundamentalizmining asosiy g'oyasi – «sof islom» prinsiplariga qaytish, maqsadi «islomiy taraqqiyot» yo'lini joriy etishdir.

XX asrning 80-90-yillarida butun dunyoda diniy omilning faollashuvi sobiq sovetlardan keyingi makonda ham o'z aksini topdi. Bu davr jamiyat taraqqiyotida, bir jihatdan, diniy e'tiqodning ijtimoiy-madaniy hayotdagi tabiiy mavqei tiklanayotgan, ikkinchi tomondan, mazkur asosda ayrim mafkuraviy ziddiyatlar tug'ilishi vaqti bo'ldi.

Asosiy Qonunimizda yana shu narsa qat'iy qilib belgilab qo'yilganki,



konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, Respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek, harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi (57-modda).

O'rta Osiyodagi respublikalar o'z mustaqilligiga erishishi va uning mustahkamlanishi davrida «islom omili», «islom uyg'onishi», «qayta islomlashish», «islom fenomeni» kabi iboralar tobora ko'proq ishlatilib, bu hol ularning beqiyos faollashuvini o'zida aks ettirdi. Bunga sabab sobiq sovet davlatining mafkuraviy tasavvurlari va qadriyatlarining yemirilib, muayyan vaqt davomida hosil bo'lgan ma'naviy bo'shliqni to'ldirish ehtiyoji bo'ldi. Kommunistik mafkuraning ma'naviy jihatdan qashshoq bo'lib, o'ziga xos mutaassibli va muayyan millatlar manfaatlariga qarshi qaratilganligi sho'ro hokimiyatidan keyin bu hududda diniy fundamentalizm uchun qulay sharoit tug'dirdi.

Sobiq Ittifoqdagi hukmron partiyaning namoyandalari diniy jamoalarni xalqlarning aql-idrokini egallash uchun kurashda o'zlarining raqibi deb hisoblashi dinning chekinishi va hatto uning muayyan ma'nodagi muxolif kuchga aylanishiga olib keldi. Dinning doimiy ta'qib ostida bo'lib kelgani, islom dini eng salohiyatli ulamolarining qatag'on qilinishi, minglab masjid va madrasalarning buzib tashlanishi diniy taassubni yo'qotishga emas, balki uning ildizlarini oziqlantiruvchi xatarli omillarning kuchayishiga olib keldi. Millatlar orasida o'zlikni anglash tuyg'usi, etnik jihatdan nasl-nasabini izlashga intilish kuchaydi.

O'zbekistonga nisbatan islom fundamentalizmining tahdidi aqidaparastlikni yoyish, bu yo'l bilan musulmonlarning islohotchi davlatga ishonchini yo'qotishga urinishda o'zini namoyon etmoqda. Bunday guruhlar mustahkamlanib borayotgan umummilliy birdamlik va hamjihatlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikka rahna solishga harakat qilmoqdalar. Demokratiya va dunyoviy davlat tushunchalarini, e'tiqod erkinligiga asoslangan ko'p konfessiyali dunyoviy jamiyatni obro'sizlantirishga yo'naltirilgan sa'y-harakatlarni amalga oshirmoqdalar.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, «eng avvalo, jamiyat, guruh, alohida shaxs ma'naviy hayotining muayyan sohasi bo'lgan din umuminsoniy axloq me'yorlarini o'ziga singdirib olgan, ularni jonlantirgan, hamma uchun majburiy xulq-atvor qoidalariga aylantirgan.

Binobarin, din odamlarda ishonch hissini mustahkamlagan. Ularni poklab, yuksaltirgan. Hayot sinovlari, muammo va qiyinchiliklarni yengib o'tishlarida kuch bag'ishlagan. Umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlarni saqlab qolish hamda avloddan avlodga yetkazishga yordamga kelgan.

Dinning yuksak rolini e'tirof etish bilan birga diniy dunyoqarash tafakkurning, insonning o'zini o'rab turgan dunyoga, o'zi kabi odamlarga munosabatining yagona usuli bo'lmaganligini ham ta'kidlash mumkin. Dunyoviy fikr, dunyoviy turmush tarzi ham u bilan yonma-yon, u bilan teng yashash huquqiga ega bo'lgan holda rivojlanib kelgan.

Modomiki, biz yoshlarimizni, Prezidentimiz aytganidek, Imom Buxoriylar,

Naqshbandlar va Yasaviylar ta'limoti asosida tarbiyalar ekanmiz, biz ularni turli islom niqobi ostidagi g'arazli guruhlar bilan buyuk ajdodlarimiz amal qilgan va bizlarga ham tavsiya etgan musaffo islom o'rtasini ajrata oladigan darajada bilimli qilishimiz zarur bo'ladi.

**Vahhobiylar.** Vahhobiylar XVIII asrda Arabiston yarim orolida vujudga kelgan diniy-siyosiy oqimdir. Uning asoschisi Muhammad ibn Abd al-Vahhob 1703 yili Arabiston yarim oroli Najd o'lkasining *al-Uyayna* degan joyida tavallud topgan. Bu davrda uning otasi Abd al-Vahhob ibn Sulaymon mustaqil mahalliy amir hokimiyatida qozilik lavozimida xizmat qilar edi. Muhammad yoshligidan diniy ilmlarni o'z otasi rahbarligida o'rgana boshladi. U an'anaga ko'ra Qur'onni yod oldi, tafsir va hadis ilmlari bilan tanisha boshladi. Bir necha bor Misr, Suriya, Kurdiston, Iroq, Eron mamlakatlarida bo'lib, ko'pincha ulamolar suhbatida o'zining janjalkashligi va mutaassibliigi bilan ajralib turgan. U o'z targ'ibotchilik faoliyatini 1730 yillarda boshlab, birinchi maqsadi o'ziga munosib homiy topish bo'ldi.

1745 yili Muhammad ibn Abd al-Vahhob ad-Dir'iya vodiysiga uning amiri Muhammad ibn Sa'ud taklifiga binoan ko'chib o'tdi. Bu bilan Muhammad ibn Sa'ud o'z hokimiyatini kuchaytirishda vahhobiylardek mafkuraviy qurolga ega bo'ldi. Vahhobiylar o'zlari xohlagan jamoani *kufirda* yoki *shirkda* ayblashlari va unga qarshi *jihad* e'lon qilishlari mumkin edi. Ibn Sa'ud esa bu *jihadni* amalga oshirib, o'z hokimiyati chegaralarini kengaytirishni boshladi. Muhammad ibn Abd al-Vahhob 1792 yili vafot etdi. Ibn Saud va uning sulolasi vahhobiylar bayrog'i ostida olib borgan urushlari 1932 yilda Saudiya Arabistoni davlatining tuzilishi bilan yakunlandi.

Vahhobiylar ta'limoti diniy masalalarda din fundamenti, ya'ni Payg'ambar davri voqeiyliklariga qaytishni talab etdi. Ular barcha muxoliflarini *bid'atchilikda*, ya'ni dinga yangilik kiritganlikda aybladilar, o'zlarining siyosiy dushmanlarini esa mushriklikda ayblab, ularga qarshi *jihad* olib borishga *fatvo* berdilar. Axloqiy masalalarda nazariy jihatdan, garchi shaxsiy kamtarlik, mol-mulkka hirs qo'ymaslik, dunyoviy hayotda toat-ibodatga aksariyat vaqtni sarflashni targ'ib qilsalar- da, lekin amalda saroy ahlining bosqinchilik urushlari qo'shni qabilalar mol-mulklarini talash oqibatida gap bilan amal o'rtasida ziddiyat paydo bo'ldi.

Vahhobiylar harakatlari Usmoniylar imperiyasi (1453-1924) hududlarida vujudga kelganligi va imperiya bilan bu harakat o'rtasida bir necha qonli to'qnashuvlar yuz berganligi tufayli bu oqimda turk islomiga qarshi bo'lgan kuchli kayfiyat o'z aksini topdi. Imperiyaning markaziy hududlarida hanafiylik mazhabi mutlaq hukmron mavqega ega bo'lganligi uchun mazkur maktab qoidalari qattiq tanqid qilindi.

Shuningdek, vahhobiylar harakati mafkurasining markazida avvaliga Arabiston yerlarini birlashtirish orqali, keyinchalik butun islom dunyosida islom davlatini shakllantirish g'oyasi ham mavjud edi. Ular bu maqsad yo'lida har qanday qurbonliklarga tayyor edilar.

Vahhobiylarning chet ellarda ko'plab tashkilotlari bo'lib, ular faol harakat yuritadi. Ularning ko'pchiligi yashirin siyosiy faoliyat olib boradi. Ish uslublari – diniy hissiyotlari kuchli bo'lgan fuqarolarni jamiyatlarga tortib, ularni qayta tarbiyalash, so'ng ulardan tashviqot va ijtimoiy tartibbuzarlik, ekstremistik harakatlarda foydalanish. Bu ishlarga, ayniqsa, yoshlarni, bolalarni, hayot tarzidan

noroz bo'lgan shaxslarni jalb qiladilar. Xayriya fondlari orqali mayib-majruhlarga, yetim-yesirlarga yordam, diniy ta'lim berish, turli diniy adabiyotlarni tarqatish kabi yo'llar bilan keng targ'ibot ishlarini olib boradilar. Kishilarga fanatizm, murosasizlik, o'zgarar fikrlari va manfaatlariga hurmatsizlik ruhini singdirishga urinadilar.

***Al-Ixvon al-muslimun.*** XIX asr dastlabki yillaridan islom dini tarqalgan mamlakatlar iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hayotida katta tarixiy o'zgarishlar yuz bera boshladi. Bu o'zgarayotgan yangi sharoitlarga diniy- falsafiy, huquqiy normalarning XIX asr yarmidan boshlangan moslashuvi fanda «islomiy islohotlar» nomini oldi. Lekin bu jarayon haddan tashqari cho'zilib ketdi va ko'p sohalarda ziddiyatli hollarni keltirib chiqardi. Ular orasida panislomizm va musulmon jamoalarining boshqa konfessiyalardan ajratish g'oyasini aytishimiz mumkin. Panislomizm g'oyasini birinchi bo'lib ilgari surgan Jamoliddin al-Afg'oniy (1839-1897) hisoblanadi. U diniy-siyosiy arbob bo'lib, 1884 yili Parijda Muhammad Abduh (1849-1905) bilan birgalikda «al-Urvat al-vusqo» jurnalini nashr etdi va unda panislomizm g'oyalarini targ'ib qila boshladi. Al- Afg'oniyning g'oyalarini keyinchalik «Musulmon birodarlar» (*al-Ixvon al- muslimun*) radikal shakllarda rivojlantirdilar.

Al-Ixvon al-muslimun 1928 yili Misrning Ismoilija shahrida shayx Hasan al-Banno tomonidan tashkil etilgan diniy-siyosiy tashkilotdir. Hasan al-Banno Jamoliddin al-Afg'oniy, Muhammad Abduh, Rashid Rizo asarlaridan ta'sirlanib, panislomizm g'oyasida *jihad, islomiy millatchilik, islomiy davlat* ta'limotlarini ishlab chiqdi. Al-Ixvon al- muslimun bu ta'limotlar asosida islom dini tarqalgan mamlakatlarda Qur'on va shariatda ifodalangan qoidalarga to'liq rioya qiluvchi, «islomiy adolat» tamoyillari o'rnatilgan jamiyat qurish uchun siyosiy kurashni boshlab yubordi.

Al-Ixvon al-muslimun o'z tarixida bir necha bosqichlarni bosib o'tdi. 1928-1936 yillardagi davrni xayriya va ma'rifatchilik bosqichi deb atasa bo'ladi. Keyinchalik u kurash uslubi sifatida terrorni qo'llash darajasiga yetgan siyosiy tashkilot sifatida maydonga chiqdi. Ko'plab davlatlarda uning faoliyati taqiqlandi. Keyingi davrda al-Ixvon al-muslimun orasida bo'linish yuz berib, ular 3 yo'nalishga ajralib ketdi:

- 1) «mo'tadillar» – Hasan al-Banno va Sayyid Qutb tarafdorlari;
- 2) «islom demokratlari» – «islom sotsializmi» ta'limoti tarafdorlari;
- 3) «at-Takfir va-l-hijra», «al-Jihad», «Hizb at-tahrir al-islomiy» kabi terror uslubini qo'llovchi tashkilotlar.

***Hizb at-tahrir.*** Hizb at-tahrir 1952 yili Quddus shahrida falastinlik ilohiyotchi Taqiy ad-din an-Nabahoniy (1909-1979) tomonidan asos solingan diniy-siyosiy partiya. U Hayfada tug'ilib o'sgan, Qohiradagi «al-Azhar» universitetida ta'lim olgan.

Partiyaning asosiy maqsadi – avval arab davlatlari, keyin islom dunyosi va nihoyat jahon miqyosida xalifalik shaklidagi islom davlatini tuzish. Ularning asosiy da'vosi – Mustafu Kamol Otaturk tomonidan 1924 yili usmoniy xalifa ikkinchi Abd al-Majid (1922-1924) xalifalikdan g'ayriqonuniy chetlatilgani bo'ldi. Davlat diniy-islomiy qonunlar asosida xalifa tomonidan idora etilishi lozim. Partiya dasturi 187 banddan iborat bo'lib, asosiy maqsadi – hokimiyatga erishish. Bunday asosiy yo'l – islomiy fikrlovchi shaxslarni shakllantirish. Ularga islomiy ta'lim-

tarbiya berish ikki bosqichdan iborat: 1) u bilan islom ta'limotini o'rgatish yo'lida madaniy-ma'rifiy ishlar olib borish; 2) siyosiy faoliyatga tortish.

Maqsadga erishish uchun kurash uch bosqichdan iborat:

g'oyaviy-fikriy kurash;

jamiyatda g'oyaviy inqilobni amalga oshirish;

hokimiyatga faqatgina umma-jamoaning to'liq roziligidan so'ng kelish.

Hizb at-tahrir tarafdorlari ko'pgina musulmon davlatlari, jumladan, Tunis, Iroq, Jazoir, Sudan, Yaman va boshqalarda o'z faoliyatlarini yashirin olib bormoqdalar. Uning hozirgi kundagi rahbari Abd al-Qadim az- Zallumdir.

Hizb at-tahrir tuzilish jihatidan piramida shaklidir. Har bir guruh (*halqa*) alohida-alohida bo'lib, 5-6 kishidan iborat. Guruhlarning o'quv ishiga *mushrif* rahbarlik qiladi. Undan tashqari guruhda yana bir rahbar – *amir* bo'lib, u *mushrifga* mashg'ulotlarni o'tkazishda bevosita yordam ko'rsatadi. *Mushrif* bir vaqtning o'zida bir necha guruhda ta'lim ishlarini olib borishi mumkin. O'qish davomida tinglovchilar diniy mavzudagi mashg'ulotlar bilan birga siyosiy, jumladan, musulmon davlatlarida sodir bo'layotgan voqealarni diqqat bilan o'rganadilar.

O'zbekiston hududida 1992 yildan boshlab partiyaning boshlang'ich bo'linmalari tashkil etila boshlagan. Partiya safiga kiruvchilar o'z partiyalari haqidagi ma'lumotlarni hech qachon oshkor etmaslikka o'z *mushrifi* buyurgan vazifalarni so'zsiz bajarishga Qur'on bilan qasam ichadilar. Partiya mutasaddilari o'z tarafdorlarini ko'proq ziyolilar, ilmiy xodimlar, talaba-yoshlar orasidan qidiradilar.

Yetarli ta'lim olgan shaxslar keyinchalik o'zlari mustaqil guruh tuzishlari lozim. Tahrirchilarning ta'limi bosqichma-bosqich olib boriladi. Birinchi bosqichda «Islom nizomi» va «Izzat va sharaf sari» kitoblari bo'yicha o'qitiladi, «al-Va'y» jurnalidagi ma'lumotlar muhokama qilinadi. Keyingi bosqichlarda «Demokratiya – kufr nizomi», «Siyosiy ong», «Xalifalikning tugatilishi», «Hizb at-tahrir tushunchalari», «Islomiy da'vatni yoyish vazifalari va sifatleri» kabi kitoblar o'qitiladi. Bu adabiyotlar partiya manfaatlarini ko'zlab, Qur'on oyatlari va hadislarni noto'g'ri talqin qilib, dindorlar ongiga ta'sir qilish uchun mo'ljallangan. Ushbu nashrlar dindorlarni siyosiylashtirilgan islomga targ'ib etib, ularni fuqaroviy bo'ysunmaslikka va muomaladagi umumiy qoidalarni inkor etishga chaqiradi.

Hozirgi zamon islom ulamolari – Yusuf Qarzoviy, Sayyid Muhammad at-Tantoviy, Nosir ad-din al-Alboniylar Hizb at-tahrirni ohod hadislarga, qabr azobiga, sirot ko'prigiga ishonmasliklari uchun ularni Ahl as-sunna va-l-jamo'a safidan chiqqan deb hisoblaydilar.

**Akromiylar.** Respublikamiz hududida tashkil topib, hozirda faoliyati deyarli to'xtatilgan noan'anaviy, ham islom ta'limotiga, ham konstitutsiyaviy davlatchilik asoslariga zid bo'lgan guruh «Akromiylar»dir.

Akromiylar 1996-1997 yillarda Andijonda tashkil topib, uning nomi guruh asoschisi – 1963 yilda tug'ilgan Yo'ldoshev Akrom nomi bilan bog'liq. A. Yo'ldoshev Hizb at-tahrirning yetakchisi an-Nabahoniy g'oyalari asosida 12 darsga mo'ljallangan «Imonga yo'l» risolasini yozgan. Shu sababdan akromiylar «Imonchilar» deb ham yuritiladi.

Akromiylar ham davlat tepasiga chiqish kabi g'arazli maqsadlarni ko'zlaydilar. Biroq ular tahrirchilardan farqli o'laroq, xalifalik davlatini mahalliy sharoitdan kelib

chiqib, avvalo, Andijonda, so'ng Farg'ona vodiysida amalga oshirmoqchi bo'ldilar. Akromiyalar siyosiy hokimiyatga erishishning 5 bosqichini rejalashtirganlar – «sirli», «moddiy», «uzviy», «maydon» va «oxirat». To'rtinchi va beshinchi bosqichlar tamomila islomlashtirish davri tugagach boshlanishi va ochiqdan-ochiq hokimiyat uchun kurash bosqichlari bo'lmog'i lozim edi.

Bu guruh a'zolari, asosan, hunarmandlardan iborat bo'lib, ular rasmiy ishxonalardan bo'shab, jamoa ma'qullagan mehnat faoliyati bilan shug'ullanganlar. Zarurat tug'ilganda «birodarlari»ga «jamoabanki»dan moddiy yordam berganlar. Undan tashqari jamoa a'zolariga tashkiliy ravishda oziq-ovqat mollari tarqatib turilgan. Quda-andachilik faqat «birodarlar» o'rtasida amalga oshirilgan.

## **2. Radikallashuv va ekstremizmga qarshi kurash xorijiy tajribasi**

Terrorizm va ekstremizm dunyo hamjamiyati uchun hanuzgacha asosiy tahdidlardan biri bo'lib qolmoqda. Insoniyat hamon diniy mutaassiblik, radikalizm, zo'ravonlik va terrorizm xurujlaridan aziyat chekib kelmoqda. Aholi orasidagi diniy qatlamni radikallasuvi ularni zo'ravonlikka undaydi hamda tinchlik, xavfsizlik, jamiyat va inson huquqlarining barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Hozirgi vaqtda biror-bir davlat jangovar ekstremizm va terrorizm oqibatlaridan to'liq himoyalangan emas. Ko'plab davlatlarda hozirgacha yuqori darajadagi terror xavfi saqlanib qolmoqda. Zo'ravon ekstremistlar tomonidan amalga oshirilgan terrorchilik holatlari jamoalar o'rtasida nizo urug'ini sepib, ksenofobiya, islomofobiya va jamiyatda qarama-qarshi ekstremistik qarashlarning tarqalishiga yordam bermoqda.

Uzoq tarixga ega bo'lishiga qaramasdan bugungi zamonaviy terrorizm tarixdagi terrozimdan farq qiluvchi jihatlarga ega. Birinchidan, zamonaviy terrorizm ko'proq milliy darajada sodir bo'lgan oldingi klassik ko'rinishdan farqli ravishda global miqyosda namoyon bo'lmoqda. Ikkinchidan, zamonaviy terrorizm avvalgilariga qaraganda yana ham shavqatsiz, tajovuzkor va kutilmaganda namoyon bo'ladi. Zamonaviy terrorizmning shu jihatlardan uni tahmin qilishni, rejalashtirishni va unga qarshi kurashga tayyorgarlik ko'rishni yanada qiyinlashtiradi. Nyu-York, Madrid, London, Parij, Istanbul, Nisa, Bryussel, Dakka va Bag'dodda sodir bo'lgan aktlar terrorchilik xurujlarini oldindan aytib bo'lmasligi, uning qattoligi hamda makon tanlamasligini namoyish qildi. Terrorizmning avvalgi ko'rinishlari asosan separatizm, millatchilik, din va diniy mazhablar o'rtasida, ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik tufayli yuzaga kelgan bo'lsa zamonaviy terrorizm to'liqini diniy burch hissi va diniy aqidaparastlik mafkurasi bilan yo'g'rilgan.

Rik Kulset va Struye de Svilendning ta'kidlashicha, terrorchilar mafkurasi asosan siyosiy va diniy nuqtai nazardan pishib yetilmagan kishilarda namoyon bo'ladi. U mutaassiblarning utopik qarashlari bilan buzib ko'rsatiladi va ko'plab dindorlar uchun tushunarsizdir. Zamonaviy terrorizmning mafkuraviy va diniy asoslarining ishonchsizligini unga qarshi kurashda samarali qo'llashda terrorizm va ekstremizm mafkurasining zaif nuqtalaridan biri sifatida qarash mumkin. Professor Hamid as-Saidning bu boradagi fikriga ko'ra terrorchilar ustidan g'alaba qozonmoqchi bo'lsak ularning mafkurasini yengish kerak, sababi g'oyalar kurashi ularga "strategik kurash" kabi ko'rinadi.

Radikal diniy mafkura o'z tashviqotini siyosatchilar, mahalliy ulamolar va diniy tashkilotlarga qaraganda tez, ilg'or hamda samarali tarqatmoqda. Mutaxassislar va ilmiy tadqiqotchilar terrorizmga qarshi kurash faqatgina jismoniy kurash holatida davom ettirish foydadan ko'ra ko'proq zarar keltirishini ta'kidlashgan. Shundan kelib chiqib, diniy aqidaparastlar hamda ekstremistlarni o'z g'oyalaridan qaytarish va ularni ijtimoiy reabilitatsiya qilish bo'yicha "aqlli" va "yumshoq" dasturlar ishlab chiqib, amaliyotga joriy qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu kabi dasturlarni avvalo diniy ekstremizm va terrorizm faoliyatida ishtirok etgani uchun sudlangan shaxslar, shuningdek boshqa jinoyatlar bilan ayblanib hukm qilingan, ammo jazoni ijro etish muassasalarida diniy ekstremistik tashkilotlarga qo'shib qolgan mahkumlarda tatbiq qilish lozim. Qamoqxonalarda ekstremistik qarashlarning tarqalishi muammosi ko'plab mamlakatlarda mavjud. Jumladan, respublikamiz qamoqxonalarida ham bunday radikallashtirish jarayonlari uchrayotgani haqida aytish mumkin.

Hozirgi kunda diniy ekstremistik oqimlar g'oyasidan qaytarishning yumshoq dasturlarini amalga oshirish tashabbuslari ko'plab mamlakatlarda, xususan, Irlandiya, Kolumbiya, Norvegiya, Germaniya, Fransiya, Shvetsiya va boshqa shu kabi davlatlarda amalga oshirilmoqda. Diniy ekstremistik oqimlar g'oyasidan qaytarishning yumshoq usullari samaradorligi Sinay, Turkiya, Malayziya, Indoneziya, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarda "Contest" ekstremizmga qarshi kurash strategiyasi dorasida, Birlashgan Arab Amirliklarida "Hidoya", "Savob" singari ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash markazlari faoliyati dorasida, Saudiya Arabistonida "Munasaxa", Misr Arab Respublikasida esa "Ekstremizmga qarshi kurash bo'yicha al-Azhar observatoriyasi" va boshqa markazlar faoliyati doirasida amalga oshirilgan. Karnegi jamg'armasi tadqiqotchisi Kristofer Busek, general Petrus Golos va boshqalar Indoneziyaning deradikallashtirish dasturini tahlil qilib shunday xulosaga kelgan: "deradikalizatsiya dasturlari terrorizm va radikallashtirishdan qutulishning eng samarali usuli, chunki ushbu dasturlar muammoni tubdan hal qiladi". Shuni ta'kidlash joizki Saudiya Arabistoni va Yaman davlatlarida amalga oshirilgan deradikallashtirish dasturidan o'tgan ekstremistlar orasida yana ekstremizm yo'lga qaytish holatlari ham kuzatilgan. Yumshoq dasturlar orqali ekstremistik oqimlar g'oyasiga qarshi kurashuvchi markazlar sirasiga Qozog'iston Respublikasida faoliyat yurituvchi "Ansar" reabilitatsion-maslahat markazini ham kiritish mumkin.

Mamlakatimizda diniy ekstremistik oqimlar g'oyasidan qaytarishning istiqbolli dasturlari mavjudligiga qaramay, bu tor doiradagi o'ziga xos sohada olib boriladigan ishlarning nazariy tomonlari va amaliy metodlari rivojlanish jarayonida ekanligini tan olish lozim. Bundan tashqari, yumshoq deradikallashtirish usullari tobora ommalashib borayotgan bo'lsada, bunday usullarning o'ziga xos shart-sharoitlari, tarkibiy qism va texnikalari to'g'risida ma'lumot juda ham cheklangan.

Diniy ekstremizmga qarshi kurash borasida izlanishlar olib borgan tadqiqotchilar deradikallashtirish – bu diniy, psixologik, ijtimoiy va oilaviy reabilitatsiyani talab qiladigan murakkab jarayonlar majmuasi ekanligini aytadilar. Doktor Hamid Saidning ta'kidlashicha, muvaffaqiyatli deradikallashtirishni amalga oshirish uchun mikro va makro darajalarda ham muayyan shart-sharoitlarni talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda butun dunyo uchun xatarga aylanib ulgurgan



diniy ekstremizm va terrorizm muammosiga qarshi kurashishda ekstremizm va terrorizmning oldini olish bo'yicha amalga oshiriladigan turli chora-tadbirlarning barchasi tizimli bo'lishi kerak. Radikal mafkurasiga qarshi barcha uchun tushunarli bo'lgan diniy g'oya qo'llanishi lozim. Ayrim zamonaviy musulmonlarning diniy qarashlari siyosiyashtirilgan va mafkuraviydir. Shu munosabat bilan ularning qarashlarini siyosat va mafkuradan ijtimoiylashuvga o'zgartirish o'ta dolzarbdir.

### **3. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda O'zbekiston tajribasi**

Ekstremizm va terrorizm insoniyat bilan birga XXI asrga kirib kelgan eng xavfli ijtimoiy illatlardan biriga aylandi. ekstremizm bag'rikenglik, rang-baranglik va hamfikrlilikni rad etishi bilan mamlakat taraqqiyoti va fuqarolararo hamjihatlikka raxna soladi.

Aqidaparastlar nafaqat ijtimoiy hayotning siyosiy, iqtisodiy yoki madaniy sohalariga zarar etkazadilar, balki jamiyatga ommaviy tarzda psixologik bosim o'tkazib, eng mudhish shakllardagi zo'ravonlik va agressivlik mafkurasini yoyadilar. Shu nuqtai-nazardan, jamiyatda diniy asosda nizolar chiqishiga yo'l qo'ymaslik, dinni siyosiyashtirish va soxtalashtirish orqali mamlakatdagi ijtimoiy barqarorlikni izdan chiqarishga qaratilgan har qanday harakatning oldini olish davlat va jamiyatning oldida turgan hayotiy muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda ekstremizm va terrorizm alohida mamlakatlarning milliy xavfsizligi va umuman jahon hamjamiyatiga jiddiy tahdid uyg'otayotgan omilga aylandi. Umumbashariy muammoga aylangan ekstremizm va terrorizmni jahon hamjamiyati faqat birgalikda, turli tor geosiyosiy manfaatlardan voz kechgan holda harakat qilibgina eng olishi mumkinligi aksariyat davlatlar tomonidan tan olingan ayni haqiqatdir.

Ekstremizm va terrorizm illatining so'nggi paytlarda tobora kuchayib borayotgani mazkur muammoning naqadar dolzarb ekanini ko'rsatadi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ham bu masala yuzasidan: "Ayni vaqtda dunyoning ba'zi mintaqalarida yuzaga kelgan notinch vaziyat aholi migratsiyasi kuchayishiga, bu esa, o'z navbatida, terrorizm va ekstremizmning tarqalishiga hamda ularning global muammolardan biriga aylanishiga olib kelmoqda. Bunday vaziyatda milliy davlatchiligimiz, mustaqilligimiz, aholimizning tinch va osoyishta hayoti va xavfsizligimizni saqlash biz uchun eng ustuvor vazifaga aylanib bormoqda" deb so'zlaganlar.

Ta'kidlash joizki, turli ekstremistik va terroristik tashkilotlar Markaziy Osiyo davlatlaridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni izdan chiqarishga qaratilgan faoliyatini davom ettirmoqda. Shu nuqtai-nazardan, muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev jahon hamjamiyati e'tiborini Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash maqsadida amaliy hamkorlikni yanada mustahkamlash, terrorizm va ekstremizm, transmilliy jinoyatchilik va narkotrafik tahdidlariga qarshi samarali kurashishni BMT preventiv diplomatiya usullaridan foydalangan holda, shuningdek, MDH, ShHT, EXHT va boshqa nufuzli xalqaro hamda mintaqaviy tuzilmalar mexanizmlari doirasida ta'minlash mumkin ekaniga, xavfsizlikka tahdidlarni "o'ziniki va o'zgalarniki" deb ajratishdan voz kechish, "yaxlit xavfsizlik" tamoyiliga amalda rioya qilish zarurligiga qaratmoqda.

O'zbekiston ekstremizm va terrorizm tahdidlari va zararlarini boshidan kechirgan mamlakat hisoblanadi. Yurtimizda ushbu illatlarga qarshi kurashish, uning sabablarini oldini olish bo'yicha jahon hamjamiyatiga namuna bo'la oladigan darajada o'ziga xos tajriba shakllangan.

Respublikamizda Prezidentimiz boshchiligida hukumatimiz tomonidan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash borasida jahon hamjamiyati uchun namuna bo'lishi mumkin bo'lgan samarali ishlar qatorida quyidagilarni qayd etish mumkin:

To'g'ri yo'ldan adashganlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ularni sog'lom hayotga qaytarish maqsadida mazkur shaxslar bilan keng jamoatchilikni jalb etgan holda tushuntirish-profilaktika ishlarini tizimli tashkil qilish, ularni maxsus ro'yxatdan chiqarish bo'yicha mexanizm yaratildi. Mazkur mexanizmning samarasi sifatida aqidaparastlik g'oyalari ta'siriga tushgan 16 mingdan ziyod fuqarolarning ichki ishlar organlarining maxsus hisobidan chiqarilishi jamiyatda katta ijobiy rezonans berdi.

Yoshlarni ilm-ma'rifatga o'rgatish, ularga islom dinining insonparvarlik mohiyati, islom madaniyatining asl qadriyatlarini etkazish, ma'rifiy islom ta'limoti, buyuk ajdodlarimizning ulkan ma'naviy merosini chuqur o'rganish, jamiyatda diniy va milliy bag'rikenglik va hamkorlikni mustahkam qaror toptirish orqali aholi, ayniqsa, yoshlarda aqidaparast g'oyalarga nisbatan mustahkam ma'naviy himoya qobig'i shakllantirish maqsadida Imom Buxoriy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Samarqandda hadis va kalom ilmi maktabi, Buxoroda tasavvuf maktabi, Qashqadaryoda aqida maktabi, Farg'onada islom huquqi (fiqhi) ilmiy maktablari ochildi. Shuningdek, Davlat Rahbari darajasida respublikada mavjud diniy konfessiya rahbarlari bilan muloqotlar uyushtirilib, barcha din vakillariga keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

Har yili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining diniy ekstremizmga qarshi kurash, millatlararo va konfessiyalararo hamkorlikni yanada kuchaytirishga yo'naltirilgan kompleks tadbirlar dasturi qabul qilinadi. Ushbu dastur doirasida davlat va jamoat tashkilotlari, mahalla yig'inlarida, aholining turli qatlamlari orasida ekstremizm va terrorizm bilan bog'liq tahdidlarning oldini olishga qaratilgan seminar, uchrashuv va davra suhbatlari o'tkazish yo'lga qo'yilgan.

Aqidaparastlik g'oyalari tarqalishini oldini olish uchun OAV va boshqa axborot etkazish vositalaridan samarali foydalanishga urg'u berilmoqda. Xususan, "Diniy ekstremizm – kelajakka tahdid", "ekstremizm va terrorizm – taraqqiyot kushandasi", "Ogoh bo'ling "Sekta", "Din niqobi ostidagi axborot xurujlari" nomli bukletlar tayyorlanib, mahallalarga, turli vazirlik, tashkilot va idoralar orqali aholiga etkazilmoqda.

Xorijdagi mehnat migrantlari, talabalar va vaqtincha istiqomat qilayotgan vatandoshlarimizni ekstremistik oqimlar ta'siriga tushib qolishini oldini olish yuzasidan zarur tadbirlar amalga oshirilmoqda. Respublikamizning taniqli ulamolari Rossiya Federatsiyasining Moskva, Sankt-Peterburg, Ekaterinburg, Novosibirsk va Qozon shaharlari, Chuvash Respublikasi, Sibir o'lkasi, Sverdlovsk va Omsk viloyatlariga Ukrainaning Kiev shahriga xizmat safariga yuborilib, mazkur tashriflar davomida o'tkazilgan diniy-ma'rifiy uchrashuvlarda ma'rifiy islom ta'limoti hamda hozirda buzg'unchi oqimlar tomonidan noto'g'ri talqin qilinayotgan "hijrat", "jihod", "shahidlik" kabi tushunchalarning asl mohiyati haqida keng tushunchalar berilmoqda. Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidagi nutqida xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va



murosasizlik tashkil etishi, shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifa ekaniga e'tibor qaratildi.

“ekstremizm g'oyalari ta'siriga tushib qolgan, to'g'ri yo'ldan adashgan fuqarolar ijtimoiy reabilitatsiya qilinmoqda, ularni sog'lom hayotga qaytarish uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda.

Dunyoda terrorizm tahdidlari, ayniqsa, so'nggi yillarda kuchayib borayotgani ularga qarshi, asosan, kuch ishlatish yo'li bilan kurashish usuli o'zini oqlamayotganidan dalolat beradi.

Bu borada ko'p hollarda tahdidlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar bilan emas, balki ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilangina cheklanib qolinmoqda. Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir.

Shu nuqtai-nazardan, Prezidentimizning ikki global ahamiyatga ega, ya'ni yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat — BMTning “Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konventsiya”sini ishlab chiqish hamda BMT Bosh Assambleyasining «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish haqidagi takliflari barcha mamlakatlar tomonidan katta qiziqish bilan qabul qilindi va qo'llab-quvvatlandi.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, mintaq va umuman dunyodagi vaziyatning murakkabligiga qaramay, mamlakatimizning yangi islohotlar va rivojlanish davrida Prezident Shavkat Mirziyoev rahnamoligida amalga oshirib kelinayotgan oqilona ichki va tashqi siyosat hamda xalqimizning kuchli irodasi, mehnatsevarligi, bag'rikengligi va ma'rifatparvarligi tufayli mamlakatimizda tinchlik va barqarorlik ta'minlanib kelinmoqda.

Shunday ekan, yurtimizda hukm surayotgan tinch va osuda hayotni asrash, uning mustaqilligi va barqarorligiga munosib hissamizni qo'shish – har birimizning, shu aziz Vatanda yashayotgan turli millat va din vakillarining eng asosiy vazifalaridan bo'lmog'i lozim.

## **15-mavzu. Dunyoviy bilimlar va diniy e'tiqod birligiga erishishning ahamiyati**

### **Reja:**

1. Diniy bag'rikenglikning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni
2. O'zbekistonda dinlararo totuvlik umumbashariy qadriyat sifatida
3. Dinlararo totuvlik va madaniyatlararo muloqot: O'zbekiston tajribasi

Din qadim-qadimdan insoniyat uchun zarur bo'lgan ma'naviy qadriyatlarni o'zida aks ettirib, ezgulik, mehr-oqibat, poklik, halollik, do'stlik va birodarlik g'oyalarini amalga oshirishga xizmat qilib keladi. Ko'pgina milliy qadriyatlarning zavol topmasdan yashab kelayotgani ham dinning ana shu xususiyatlari bilan bog'liq. Dunyodagi barcha dinlar ezgulik g'oyalariga asoslanadi. ular odamlarni to'g'rilik, soflik, shafqat va bag'rikenglikka undaydi, birovga ozor bermaslikka, yomon ishlardan tiyilishga, nafs ko'yiga tushib, adashmaslikka chaqiradi.

Diniy bag'rikenglik g'oyasi barcha dinlarga xos ana shu umumiy tamoyillarni anglagan holda, ular o'rtasida hamkorlik o'rnatishga va shu tariqa butun insoniyatning orzusi bo'lgan adolat tantanasiga erishishga da'vat etadi.

Dinlararo bag'rikenglik deb, xilma-xil din va mazhab egalarining bir-birining e'tiqodini o'zaro hurmat qilib, tushunib, yagona zamin, yagona vatanda, olijanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashiga aytiladi.

Bugungi kunda dinlararo bag'rikenglikka erishish uchun ular o'rtasida madaniy muloqot, ezgulik yo'lidagi hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilmoqda. Ayniqsa, keyingi asrda insoniyat boshiga tushgan xatarlar — yadro urushi xavfi, ekologik halokatlar, terrorchilik va diniy ekstremizm kabi ofat-balolar dinlarni ezgulik, barcha insonlar uchun yagona bo'lgan sayyoramizni saqlab qolish yo'lida birlashish va hamkorlik qilishga undamoqda. Barcha dinlarning mohiyatini ezgulik, do'stlik va birodarlik, mehr-shafqat kabi tushunchalar tashkil qiladi. Aynan ana shu tushunchalar turli din vakillarini muloqotga, hamkorlikka da'vat etadigan umumiy zamin bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda bashariyat bu haqiqatni tobora chuqurroq anglamoqda.

Diniy bag'rikenglik g'oyasi muayyan jamiyatda, butun dunyoda turli din va mazhabga e'tiqod qiladigan xalqlar, odamlar o'rtasida do'stona aloqalarni o'rnatish, ularning kuchi va iste'dodini bunyodkorlik ishlariga safarbar etishga xizmat qiladi.

Tinchlik va barqarorlikning muhim sharti bo'lgan bu g'oya bugungi kunda nafaqat dindorlar, balki butun jamiyat a'zolarining hamkorligini ham nazarda tutadi, hamjihatlikka erishishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Jamiyat – bu odamlar birlashuvining barcha shakllari va ularning o'zaro aloqalari va o'zaro ta'sirlarining barcha usullari majmuidir.

Jamiyat paydo bo'lgan beri din eng muhim ijtimoiy omillardan biri hisoblanadi. Dinning ijtimoiy fenomen sifatida talqin qilinishi, uning jamiyat hayotidagi real vazifalarini bajarishi hamda muayyan talablarga javob berishni anglatadi. Din ijtimoiy fenomen sifatida obyektiv omil sanalib, tashqi va majburiy tarzda kishilarga har qanday jamoatchilik instituti sifatida ta'sir o'tkazadi. Dinning jamiyatda bajaradigan bir qancha funksiyalar mavjud. Ba'zi mualliflar fikriga ko'ra dinning

muhim funksiyalardan biri bu boshqaruv-nazorat funksiyadir[1]. Din ham jamoatchilik ongining boshqa shakli sifatida kishilar xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi. Din mazkur funksiyani muayyan qadriyat va me'yorlar tizimini yaratish asosida amalga oshiradi. Kishilar xulq-atvori boshqaruviga odat va an'analarni shakllantiruvchi diniy ibodatlar ham ta'sir ko'rsatadi. U ma'naviy va axloqiy qadriyat, marosim va udumlar tizimini o'z me'yoriga moslashtirib boradi. Boshqaruv-nazorat funksiyasining hayotiyligi muqarrardir. Mavjud funksiya doirasida asrlar davomida diniy axloq asoslari yaratilgan.

Dinning ikkinchi muhim funksiyasi bu jipslashtiruvchi (integrativ) funksiyasidir.

Dinning integrativ vazifasi jamiyat a'zolarini – ijtimoiy kelib chiqishi, mavqei, millati kabi xususiyatlaridan qat'i nazar – birlashtiruvchi kuch ekanligida namoyon bo'ladi. Integrativ yoki funksionalistik yondashuvning asoschilaridan biri E. Dyurkgeymning fikricha, din xuddi yelim kabi kishilarni umumma'naviy qadriyatlar, e'tiqod, urf-odat va an'analar asosida birlashtirishga, yaxlit bir majmuaga aylantirishga xizmat qiladi. E. Dyurkgeym, ayniqsa, diniy sig'inish masalasiga alohida e'tibor beradi. Uningcha, din sig'inish orqali jamiyatni bir butun qiladi, shaxsni ijtimoiy hayotga tayyorlaydi va itoat etishga undaydi, ijtimoiy yaxlitlikni mustahkamlaydi, an'analarni qo'llab-quvvatlaydi, kishida qanoat hosil qiladi.[2]

Ushbu funksiyalarni to'liqligicha amalga oshirishi uchun jamiyatda birdamlik, hamjihatlik, o'zaro hurmat kabi umuminsoniy qadriyatlar shakllangan bo'lishi kerak. Bunday qadriyatlarni shakllantirishda esa diniy bag'rikenglik hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ayniqsa, ko'p millatlik mamlakatlarda dinlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik jamiyat taraqqiyoti uchun birlamchi omillardan biri hisoblanadi.

Diniy bag'rikenglik jamiyat hayotida rivojida betakror rol o'ynashi hech kimga sir emas. Bunga bir nechta sabablar bor. Jamiyat barqaror rivojlanishi va unda tinch-totuv hayot ta'minlanishi uchun davlat nafaqat chegaralar daxlsizligi, shu bilan birga mamlakat ichidagi etnik mojarolarni oldini olish uchun diniy bag'rikenglikka alohida e'tibor berishi zarurdir. Chunki mojarolarning eng xavfli va tez avj oladigan diniy va etnik mojarolar hisoblanadi. Ularning yechimi uzoq vaqt talab etishi mumkin.

Ko'plab jamiyatlar bir nechta etnik guruhlarlardan, millatlardan tashkil topadi. Tabiiyki, ularning dinlari ham turlicha bo'ladi. Ana shunday jamiyatlarda eng ahamiyatli narsa shundan iboratki, insonlar bir-biriga nisbatan tolerantlik, diniy bag'rikenglikni namoyish etish, bir hududda yashab turgan boshqa xalqlarning urf-odatlarini, an'analarni hurmat qilishi ushbu jamiyat rivoji uchun asos bo'ladi.

Aks holda shaxslarlar o'zaro iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa munosabatlarga kirisha olmaydilar. Bu holat esa jamiyatning bir nuqtada qotib qolishga olib kelishi mumkin.

Dunyoning eng dolzarb muammolaridan biri bu – xalqlar va dinlar o'rtasidagi bag'rikenglik, tolerantlik g'oyasidir. Ushbu tushuncha atrofida yer kurrasining barcha xalqlari, elatlarining jipslashish zaruriyati tug'ildi. Chunki, faqat bag'rikenglikkina dunyoni halokatdan, bo'lajak fojealardan asraydi. Shu boisdan, YUNESKO 1995 yili Parijda «Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi» ni qabul qildi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan esa 1996 yildan buyon har yilning 16 noyabr sanasi «Bag'rikenglik kuni» deb e'lon qilindi. Ushbu deklaratsiyada diniy bag'rikenglikning

ijtimoiy jihatlariga alohida urg'u berilgan. Xususan, unda shunday deyilgan: "Bag'rikenglik bugungi kunda har doimgidan ham muhimroqdir. Biz iqtisodiy globallashuv jarayoni, aloqa vositalari tez rivojlanayotgan, integratsiya va o'zaro aloqadorlik, katta miqyosdagi migratsiya va aholining ko'chishi, urbanizatsiya va ijtimoiy tuzilmalar qayta shakllanayotgan asrda yashamoqdalar. Har bir mintaqa serqirradir va shuning uchun murosasizlik va nizolarning ko'payishi dunyoning barcha nuqtalariga tahdid qiladi. Bu tahdid global xarakterga ega bo'lgan sababli, uni milliy chegaralar doirasida cheklanib qolishi mumkin emas"[3].

Dinlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik, vijdon erkinligi kabi tushunchalar o'zaro uzviy bog'liqdir. Vijdon erkinligi masalasi ijtimoiy hayotda har doim muhim va murakkab hodisa bo'lib kelgan. Binobarin, uning zamirida shaxsning huquqi, demokratiya, adolatparvarlik va insonparvarlik kabi katta ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va axloqiy tushunchalar yotadi. Vijdon erkinligi kishilarning ruhiy olamiga, uning barkamolligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois bu masalaning ijtimoiy hayotdagi o'rni va bajaradigan vazifalari g'oyat muhim. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ustavidan tortib barcha xalqaro hujjat va shartnomalarda, hamma mamlakatlarning konstitutsiya va qonunlarida vijdon erkinligi o'z ifodasini topgan. 1948 yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasiga muvofiq har bir inson fikrlash, vijdon va din erkinligi huquqiga ega. Bu huquq o'z dini yoki e'tiqodini o'zgartirish erkinligini, o'z dini yoki e'tiqodiga o'zicha shuningdek, boshqalar bilan birgalikda amal qilish kafolatini, ibodat qilishda va diniy marosimlarda yakka tartibda yoki odamlar orasida birga qatnashish erkinligini o'z ochiga oladi. Xususan, ushbu normativ hujjatda: Har bir inson biror bir kamsitishlarsiz, irqi, tili, jinsi, dini, siyosiy qarashlaridan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishidan, moddiy ahvoli, qaysi tabaqaga mansubligi va boshqa holatlardan qat'iy nazar mazkur Deklaratsiyada e'lon qilingan barcha huquqlar va erkinliklar sohibi bo'lishi kerak[4].

Bundan tashqari bu masala yana bir murakkab hodisa – turli dunyoqarash, etiqodda bo'lgan kishilar o'rtasidagi, davlat bilan din, diniy tashkilotlar bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarning amalda huquqiy ta'minlanishini ham nazarda tutadi. Zero, odamlar doim turli dunyoqarash va e'tiqod bilan yashaganlar va yashadiylar. Har kimning o'z ichki dunyosi, o'z etiqodi bo'ladi.

Vijdon erkinligi qandaydir bir mavhum tushuncha emas, u ma'lum ijtimoiy vaziyatda albatta namoyon bo'ladi. Shuning uchun uni konkret tarixiy, ijtimoiy sharoitsiz, obyektiv va subyektiv omillarsiz tasavvur etish qiyin.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyaning 31-moddasida "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan diniga e'tiqod qilishi yoki hyech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi", deb yozib qo'yilgan. Demak, dinga e'tiqod qilish yoki qilmaslik har kimning shaxsiy ishidir.

O'zbekiston hududi qadimdan turli dinlarga e'tiqod qiluvchi ko'p millatli mamlakat sifatida ajralib turgan. Yurtimizda zardushtiylik, yahudiylik, xrisitianlik va islom diniga e'tiqod qiluvchi aholi emin erkin yashab kelgan. Tarixiy manbalarda ta'kidlanishicha, yurtimiz hududida diniy sabab bois birorta nizolar bo'lmaganligi xalqimizning diniy bag'rikenglik borasida katta tajriba to'plaganidan dalolat beradi.

Tarixiy sharoit, jarayonlar bu zaminda tom ma'nodagi bag`rikenglik tamoyillarining barqaror shakllanganligi, uning natijasida tinch, osuda hayot, ilmiy ma'rifiy yuksalish, taraqqiyot ta'minlanganligini ko'rsatadi.

Diyorimizdan yetishib chiqqan allomalarning asarlarida ham diniy bag`rikenglik targ`ib qilingan g`oyalarni uchratamiz. Jumladan, alloma Abu Mansur al-Moturudiyning "Tilovat ahli sunna" asarida Qur'oni karim oyatlaridan birini tafsir etib, "Cherkov va sinogoglarni vayron etish man etiladi. Shuning uchun ham musulmon o'lkalarda shu davrgacha ular saqlanib qolgan. Bu masalada ilm ahli orasida ixtilof yo'qdir", degan fikrni bildirgan.

XV asr boshlarida Temur saroyida bo'lgan Kastiliya elchisining guvohlik berishicha, Temur Samarqandda turli din vakillarini yig`adi, ularga iltifot ko'rsatadi hamda xristian diniga e'tiqod qiluvchi mehmonlarning turli ehtiyojlarini bajarish uchun alohida mas'ul shaxs tayinlaydi. Ular bilan do'stona aloqalarni mustahkamlashni tayinlaydi.

Qadim-qadimdan din aksariyat milliy qadriyatlarni o'zida mujassam etib keladi. Milliy qadriyatlarning asrlar o'sha bezavol yashab kelayotgani ham dinning ana shu tabiati bilan bog`liq. Chunki, dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g`oyalariga asoslanadi, yaxshilik, tinchlik, do'stlik kabi fazilatlariga tayanadi. Odamlarni halollik, poklik, mehr-oqibat va bag`rikenglikka chorlaydi.

Mustaqillik sharofati bilan 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashaydigan O'zbekistonda turli din, millat va elat vakillari farovon yashashi uchun qulay sharoitlar yaratilgan bo'lib, islom, xristianlik, yahudiylik, bahoi jamoalari va krishnani anglash jamiyati, bular bilan birgalikda ularning turli oqimlari va yo'nalishlari vakillari tinch, osoyishta va farovon hayot kechirib kelmoqda.

Mustaqillik sharoitida etnik munosabatlar va din sohasida olib borilayotgan izchil va qat'iy siyosat tufayli mamlakatimizda millatlararo totuvlik va konfessiyalararo hamkorlik qaror topdi. Konstitustiyamizda «O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar», degan tamoyilning mustahkamlab qo'yilishi esa, bu boradagi ishlarning qonuniy asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Milliy qadriyatlar tolerantlikni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Tolerantlik – o'zligini anglagan millat vakillarining boshqa millat vakillari tomonidan kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik, ular bilan tinch, farovon hayot kechirishidir. Tolerantlik tuyg`usi insonning xulq atvori, odob axloqi, siyosiy – ma'naviy pokligi, o'z xalqi va milliy merosi boyligi hamda milliy qadriyatlarga bo'lgan munosabatini belgilab beradi. Bu xususiyatlar esa har bir insonda bag`rikenglik, baynalmilallik tuyg`ularini uyg`otadi.

Bugungi kunda respublikamiz bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan 2224 ta diniy tashkilotdan 175 tasi noislomiy bo'lib, ulardan 159 tasi nasroniy, 8 tasi yahudiylar, 6 tasi bahoiy jamoasi, 1 tasi Krishnani anglash jamiyati va 1 tasi buddaviylikni tashkil etadi. Bulardan tashqari Respublikada Konfessiyalararo Bibliya jamiyati ham faoliyat yuritmoqda.

O'zbekistonda nasroniylikning uch yirik yo'nalishi pravoslav, katolik va protestantlik yo'nalishlariga oid diniy tashkilotlar mavjud. Shuningdek, nasroniylikda



o'z yo'nalishiga ega bo'lgan Arman Apostollik cherkovi ham faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekistonda tom ma'noda diniy bag'rikenglikning yuksak an'alariga amal qilinayotgani jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilmoqda.

Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, "Bugun mana shunday xavfli – tahlikali, o'ta notinch bir davrda jahon moliyaviy inqirozi hali-beri davom etayotgan bir paytda el-yurtimiz nimaiki natijalarni qo'lga kiritmasin, bularning barchasi yurtimizda tobora mustahkam bo'lib borayotgan tinchlik va osudalik, millatlar, dinlar va fuqarolararo totuvlik va ahillik, bir-birimizga hurmat va ehtirom hisobidan desak, o'ylaymanki, hech qanday xato bo'lmaydi".

Darhaqiqat, har bir inson, jamiyat va millatlar bashariyatning turli tuman urf odatlari, madaniyati va qadriyatlarini tan olgan holda bag'rikenglik munosabatida bo'lishlari zarur. Zero, bu taraqqiyot garovidir.

Dinlararo totuvlik millatlararo totuvlikni mavjud bo'lishiga ko'maklashadi. Millatlararo totuvlik g'oyasi – umumbashariy qadriyat bo'lib, turli xil xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaq va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi, shu joydagi tinchlik va barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi. Dunyodagi barcha davlatlar aholisi milliy tarkibiga ko'ra 2 guruhga bo'linadi. Birinchisi monoetnik (aholisi asosan bir millat vakillaridan iborat) va ikkinchisi polietnik (ko'pmillatli) davlatlardir.

Hammamizga ma'lumki, O'zbekiston aholisi milliy tarkibiga ko'ra ikkinchi guruhga, aholisi ko'p millatli davlatlar qatoriga kiradi. Hozir O'zbekistonda 136 ta millat va elatlarning vakillari yashaydi. Respublikamiz aholisining 80 foizini o'zbeklar tashkil qiladi. Har bir millatning umumiy manfaatlari bilan birga o'z qadriyatlari ham bor. O'zbekiston kabi ko'p millatli mamlakatda turli millatlar manfaatlarini uyg'unlashtirish, ular orasida totuvlikni ta'minlash taraqqiyotning hal qiluvchi omillaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham mamlakatimizda bu masalaga mustaqillikning birinchi kunlaridan boshlab katta e'tibor berib kelinmoqda.

Prezidentimiz O'zbekistonning bu boradagi o'ziga xos siyosatini bayon etib, quyidagicha ta'kidlagan: "Respublika aholisi o'rtasida ko'pchilikni tashkil qiladigan o'zbek millatining muqaddas burchi ona tilini, o'z milliy madaniyatini va tarixini tiklashdangina iborat emas, balki birgalikda hayot kechiruvchi kam sonli xalqlarning taqdiri uchun, ularning o'ziga xos madaniy-ma'naviy xususiyatlarini saqlab qolish uchun, kamol topishi va o'zligini namoyon etishi uchun ularga teng sharoit va imkoniyatlar yaratib berish borasida mas'ul bo'lishdan ham iboratdir". Bunday muhit millatlararo munosabatlarda turli muammolar tug'ilishiga aslo yo'l qo'ymaydi, jamiyat taraqqiyoti uchun imkon yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 8-moddasida "O'zbekiston xalqini millatidan qat'iy nazar O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi", deb aniq belgilab qo'yilgan. Konstitusiyasining 4-moddasida esa "O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini taminlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi", deyilgan.

Dinlararo totuvlik jamiyatda tinchlik va barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi. Diniy bag'rikenglik g'oyasi xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda, g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashini

anglatadi.

Dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g'oyalariga asoslanadi va yaxshilik, tinchlik, do'stlik kabi xususiyatlarga tayanadi. Odamlarni halollik va poklik, mehr-shafqat, birodarlik va bag'rikenglikka da'vat etadi. Azal-azaldan ona yurtimizda islom, xristian, hinduiylik, buddaviylik kabi din vakillari yonma-yon yashab kelgan. Asrlar mobaynida yirik shaharlarda masjid, cherkov va sinagogalarning mavjud bo'lishi, turli millat va dinga mansub qavmlarning o'z diniy amallarni erkin ado etib kelayetgani buning tasdig'idir. Tariximizning eng murakkab, og'ir davrlarida ham ular orasida diniy asosda mojarolar bo'lmagani xalqimizning dinlararo bag'rikenglik masalasida ulkan tajriba to'plaganidan dalolat beradi.

O'zbekistonda yashab faoliyat ko'rsatayotgan turli din vakillarining ma'naviy dunyosi, e'tiqod erkinligi uchun istiqloqlarning dastlabki kunlaridan boshlab keng yo'l ochildi. Yosh davlatimiz din ma'naviy-madaniy hayotning uzviy qismi ekanidan kelib chiqib, unga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirdi. Mamlakatimiz rahbari dinga bo'lgan yangicha munosabatni "dunyoviylik –dahriylik emas" degan tamoyil asosida aniq va ravon belgilab berdi. 1998 yilda "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar" to'g'risidagi qonun yangi tahrirda qabul qilinib, davlat va din munosabatlari qonuniy tartibga solindi. Mazkur qonunning maqsadi har bir shaxsning erkinligi va diniy e'tiqod huquqini, dinga munosabatidan qat'iy nazar, fuqarolarning tengligini ta'minlash, shuningdek, diniy tashkilotlarning faoliyati bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solib turishdan iborat[5].

Bugungi kunda mamlakatimizda turli e'tiqodga mansub tashkilotlar o'rtasida o'zaro hurmat va bag'rikenglik muhiti o'rnatilishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. O'tgan 20 yil mobaynida bu yo'nalishda muayyan natijalarga erishildi. Eng asosiysi - bag'rikenglikning muhim omillaridan biri bo'lgan millatlararo va dinlararo totuvlik to'la ta'minlandi. Bugun mamlakatimizda 16 diniy konfessiyaga mansub 2000 dan ortiq diniy tashkilot faoliyat ko'rsatmoqda, Toshkent islom universitet, 9 ta o'rta maxsus islom bilim yurti ishlab turibdi.

Hozirgi kunning eng asosiy vazifalaridan biri xalqimizning diniy e'tiqodiga zid bo'lgan zararli oqimlarning yurtimizga kirib kelishining oldini olish, an'anaviy, ma'rifiy, mo'tadil islomni yot g'oyalar ta'siridan saqlashdan iborat.

Dinlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik ta'minlanishini belgilaydigan sohalar juda ko'p. Ta'lim-tarbiya sohasi, shubhasiz, ular orasida alohida ahamiyatga ega. Chunki millatimizning, xalqimizning ertangi kuni bugun voyaga yetayotgan avlod taqdiri bilan uzviy bog'liqdir.

Dinlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik, eng avvalo, boy tarixiy-ma'naviy meros, milliy qadriyat, urf-odat va an'analar asosida milliy o'zligini anglagan, milliy g'urur-iftixori yuksalgan, umuminsoniy qadriyatlar, zamonaviy texnologiyalar, ilmfan yutuqlari asosida dunyoqarashi shakllangan barkamol avlodni tarbiyalashni ko'zda tutadi.

2007 yil 11 oktabrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nyu-Yorkdagi qarorgohida tinchlik yo'lida dinlararo va madaniyatlararo o'zaro tushunish hamda hamkorlikni qo'llab-quvvatlash yuzasidan BMT Bosh assambleyasining yuqori darajadagi muloqoti doirasida «Dinlararo totuvlik va madaniyatlararo muloqot: O'zbekiston tajribasi» mavzuiga bag'ishlangan konferensiya bo'lib o'tdi.

Konferensiyaning ochilishida BMT Bosh assambleyasi 62-sessiyasi raisi vazifasini bajaruvchi Hamid al-Bayotiy, Bosh kotib o'rinbosari – BMT yetakchisi ofisi rahbari V.Nambiar va BMTning boshqa yuqori martabali rasmiy vakillari, BMT huzuridagi a'zo-davlatlar diplomatiya missiyalarining rahbarlari, shuningdek, AQShning akademik, tahliliy va ijtimoiy-madaniy doiralari vakillari hamda jurnalistlar ishtirok etdi.

Anjuman qatnashchilari e'tibori jamiyatda dinlararo va madaniyatlararo totuvlik, bag'rikenglik va sabr-toqat, ezgulik va mehribonlik kabi fazilatlarni mustahkamlash bo'yicha O'zbekiston olib borayotgan davlat siyosatining asosiy ustuvor jihatlari va tamoyillari haqidagi ma'lumotlarga qaratildi. Respublika rahbariyati mamlakat mustaqilligining ilk kunlaridanoq dinlararo va madaniyatlararo totuvlik masalasini davlat siyosatining ustuvor vazifasi sifatida belgilab olgani ta'kidlandi. Ana shunday yondoshuv tufayli O'zbekiston jamiyati bugun madaniy xilma-xillik va bag'rikenglikning noyob namunasi hisoblanadi. Tinchlik va totuvlik, fuqarolar hamjihatligi, diniy sabr-toqat, jamiyat hayotida turli madaniyatlar vakillarining teng huquqli ishtiroki – zamonaviy O'zbekistonning ajralib turadigan o'ziga xos jihatlari. Mustaqillik yillarida shakllangan milliy siyosat asosida aynan ana shunday tamoyillar mujassam.

Tadbir ishtirokchilari e'tibori O'zbekistonning islom madaniyati va ilm-fani oldidagi hamda yodgorliklarni saqlash va islom merosini boyitish borasidagi buyuk xizmatlari uchun 2007 yilda Fan, ta'lim va madaniyat masalalari bo'yicha xalqaro islom tashkiloti (ISESCO) tomonidan Toshkent shahrining jahon islom madaniyatining poytaxti, deb e'tirof etilganiga qaratildi. AQSh akademik va ijtimoiy-siyosiy doiralari vakillari o'z ma'ruzalarida Buyuk Ipak yo'lida joylashgan O'zbekiston ko'p asrlar davomida Sharq va G'arbni bir-biriga bog'lovchi ko'priklarni bo'lib xizmat qilgani xususida atroflicha fikr bildirishdi. O'zbek xalqining Ibn Sino, Imom Buxoriy, Al-Xorazmiy, Al-Beruniy, Al-Farg'oniy, Bahouddin Naqshbandiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Abduholiq G'ijduvoniy kabi butun dunyoga mashhur vakillari nafaqat jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga, balki sivilizasiyalararo muloqot va jahon xalqlari o'rtasida o'zaro tushunish kayfiyatlarini mustahkamlashga muhim hissa qo'shganlar.

Amerikadagi Rutgers hamda Fordham universitetlarining professori, «Global Scholarly Publications» xalqaro tashkiloti direktori, dinshunos olim va sharqshunos P.Morvidj o'z ma'ruzasida O'zbekiston hududida turli diniy va madaniy an'analarning bir-biriga uyg'un ravishdagi tinch-totuv hayotining ko'p asrlik tarixini aniq misollar asosida ochib berdi. U «Ko'hna O'zbekiston zamini jahon sivilizasiyasining beshiklaridan biri», deb ta'kidladi. Shuningdek, «Buyuk Ipak yo'lining chorrahasida joylashgan bu hududda noyob madaniy-diniy uyg'unlik yuz bergan. Zamonaviy O'zbekiston hududida bu an'ananing rivojlanishi davom etmoqda», deya qayd etdi u. Amerikalik olim respublika rahbariyatining mamlakatda dinlararo va millatlararo hamjihatlikni mustahkamlash borasidagi siyosatini yuksak baholadi.

Xulosa shuki, "O'zbekiston-umumiy uyimiz", "Vatan yagonadir", "Bag'rikenglik - o'zbek xalqining buyuk fazilati", "O'zbekiston - bag'rikeng diyor", "Diniy e'tiqodlar - tinchlik xizmatida" kabi iboralar bejizga aytilmaydi. Bu g'oya



xalqimizning, millati, dinidan qat'i nazar, shu yurtda yashayotgan har bir insonning hayotida mustahkam o'rin egallaydi.

Tobora globalashib va murakkablashib borayotgan bugungi davrda hayotning o'zi bizga turli millat, e'tiqod va din vakillari o'rtasida o'zaro hurmat va hamjihatlik hukm surgan sharoitdagina umumiy bo'lgan O'zbekiston har millatimizning kelajagini ta'minlashga erishish mumkinligini ko'rsatib turibdi.

O'zbekistonning bu borada olib borayotgan oqilona siyosati yurtimizning ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi umummilliy g'oyalarni barcha yurtdoshlarimiz bilan hamkor va hamjihat bo'lib amalga oshirishimizda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, necha ming yillik tariximiz shundan guvohlik beradiki, dinlararo totuvlik, insonparvarlik, millatlararo totuvlikka intilish xalqimizning eng yuksak fazilatlaridandir. Mustaqillik bizga ana shu ezgu an'analarni izchil davom ettirish va avloddan avlodga yanada mukammal bo'lib o'tishini ta'minlash imkonini beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi,Toshkent-2012;
- 2.Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi,1995;
- 3.Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi,1948;
- 4."Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar" to'g'risidagi qonun,1998;
- 5.Yovqochev Sh.A "Siyosat va din"o'quv qo'llanmasi;
- 6.Narbekov A.V "Dinshunoslik asoslari",Toshkent-2007
- 7.Mo'minov A, Yo'ldoshxo'jayev H "Dinshunoslik",Toshkent-2003

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI**

**IJTIMOIIY FANLAR KAFEDRASI**

**DINSHUNOSLIK**

fanidan

**MUSTAQIL TA‘LIM MASHG‘ULOTLARI**

**O‘QUV MATERIAL**

**NAMANGAN -2023**

## Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. Din, dinshunoslik, din falsafasi, teologiya, teosofiya, xudojo'ylik, diniy e'tiqod, aqida, ilohiyot tushunchalarining mohiyati.
2. Dinshunoslikning fan sifatida shakllanishi, predmeti, funksiyalari, kategoriyalari.
3. Dinlarni tadqiq etish metodologiyasi: tipologik, qiyosiy, tarkibiy-funksional, genetik tahlil. Qiyosiy dinshunosliklikning metodlari.
4. Yahudiylik ta'limoti, an'ana va marosimlari.
5. Konfutsiylik ta'limotida ijtimoiy-axloqiy masalalar.
6. Zardushtiylikning teologik tizimi va diniy marosimlari.
7. Zardushtiylikda tabiatning ulug'lanishi.
8. Zardushtiylikning diniy iyerarxiyasi.
9. Buddaviylik dinining paydo bo'lish tarixi, asosiy ta'limotlari, oqimlari va manbalari.
10. O'zbekistonda buddaviylik dinining tarixiy ildizlari (Qaratepa, Fayoztepa, Dalvarzintepa) va hozirgi zamon.
11. Xristianlikning paydo bo'lishi, aqidalari, asosiy yo'nalishlari, ta'limotlari va manbalari.
12. Islom dinining paydo bo'lishidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy sharoitlar.
13. Roshid xalifalar hukumronligi davridagi islohotlarning mohiyati. Ummaviylar va abbosiylar hukumronligi davrida dinga munosabat.
14. Movarounnahrda islom dinining tarqalishi va madrasa ta'limi shakllanishining ijtimoiy madaniy hayotga ta'siri.
15. Esxatologiyaning mohiyati: qiyomat va oxirat dunyosi.
16. Islom oqimlari va yo'nalishlarining paydo bo'lishi sabablari, e'tiqodidagi bo'linishlarning sabablari va oqibatlari.
17. Hanafiy mazhabi rivojida Markaziy Osiyo faqihlarining roli va hissasi.
18. Tasavvuf tushunchasi va uning mohiyati. Tasavvufning kelib chiqishi, mazmuni va rivoji.
19. Konfessiya tushunchasining mohiyati va O'zbekistonda faoliyat yurituvchi diniy konfessiyalarning tasnifi.
20. Diniy tashkilotlarning zamonaviy dunyoviy me'yorlarga moslashuvining ahamiyati.
21. Vijdon va e'tiqod erkinligining ta'rifi.
22. Islom va boshqa diniy aqidalar sinkretlashuvi natijasida shakllangan diniy ta'limotlar tarixi.
23. Kiber makon, kiber terrorizm, kiber zo'ravonlik (cyberbullying) tushunchalarining mohiyati.
24. Ijtimoiy tarmoqlarda diniy axborot ist'emoli madaniyatini tarbiyalashning zarurati.
25. Missionerlik targ'botida uslub va vositalarning zamonaviylashuvi: kiber makonda mafkuraviy tahdidlar.

26. O'zbekistonda faoliyati kuzatilgan missionerlik harakatlari va ular faoliyatining oqibatlari.
27. Diniy aqidaparastlik (fanatizm), ekstremizm paydo bo'lishining ijtimoiy-tarixiy zaminlari va rivojlanishi.
28. O'zbekiston davlat siyosatida radikal oqimlarga qarshi kurashning yo'nalishlari.
29. O'zbekistonning terrorizmga qarshi kurash tajribasi.
30. O'zbekiston yoshlarining diniy manbalardagi axloqiy tarbiyaga oid g'oyalarni o'rganishning ahamiyati.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI**

**IJTIMOIIY FANLAR KAFEDRASI**

**DINSHUNOSLIK**

fanidan

**GLOSSARIY**

**O‘QUV MATERIAL**

**NAMANGAN -2023**

## GLOSSARIY

AVESTO – (qad. eron-pahlaviy. «oʻrnatilgan, qatʻiy qilib belgilangan qonun-qoidalar») zardushtiylikning muqaddas kitobi.

ALTAR – (lot. «baland») xristian cherkovida ibodatxonaning mehrob va minbar oʻrnatilgan eng baland qismi.

ANSORLAR – (arab. «yordam beruvchilar») ilk islom tarixida Makkadan hijrat qilgan Paygʻambar va muhojirlarga yordam bergan madinalik musulmonlar. APOKALIPSIS (Vahiyнома) – “Yangi Ahd”ning tarkibiy qismi boʻlib, uni “Injil” mualliflaridan biri Ioann ilohiy ilhom orqali yozgan, deb eʼtiqod qilinadi. Ushbu kitobda qiyomat va Isoning ikkinchi qaytishi bilan bogʻliq hodisalar bayon qilingan.

APOSTOL (yunoncha — “elchi”) – xristian taʼlimotiga binoan Isoning eng yaqin yordamchilarining unvoni. Ularning asosiylari 12 ta: Pyotr (Simon Ionin), Andrey, Ioann, Iakov Zevedeyev, Filipp, Varfolomey, Matfey, Foma, Iakov Alfeyev, Faddey, Simon Kananit, Iuda Iskariot (Isoni sotgan havoriy), Matfiy (Iudadan soʻng uning oʻrnini egallagan). Bulardan tashqari yana 70 nafar havoriylar mavjud boʻlgani xristian adabiyotlarida qayd etiladi.

ATARXURRA (Ozarxurra) – zardushtiylikning muqaddas olovi.

BIBLIYA (yunoncha, «kitoblar») – yahudiylar va xristianlik dinlaridagi asosiy muqaddas manbaning nomlanishi. Yahudiylar «Bibliya»si «Kitve kadesh» va «Tanax» ham deb nomlanadi. Xristianlar tomonidan tan olinadigan «Bibliya» «Qadimgi Ahd» va «Yangi Ahd»dan iborat boʻlib, umumiy hisobda 66 kitobdan iborat.

BIBLIYA JAMIYATI – «Bibliya»ning alohida qismlarini yoki toʻlalgicha dunyo tillariga tarjima qilish bilan shugʻullanadigan jamiyatlar nomi. Bunday jamiyatlar biror bir diniy konfessiyaga qarashli boʻlmay, buyurtma asosida ishlaydi. Ilk «Bibliya» jamiyati 1804 yilda Britaniyada tuzilgan. Hozirda dunyo boʻyicha 140 dan ortiq shunday jamiyatlar mavjud.

BODDHISATTVA – xudoning nuri, oliy kamolotga erishgan va nirvanaga koʻtarilish huquqiga ega boʻlgan inson.

BOZKURT – Qadimiy turkiy tilda «Kulrang boʻri» maʼnosida kelib, tangrichilarning totemi boʻlgan.

BRAXMAN – sanskrit tilidan olingan boʻlib «Braxmaga atalgan, oʻzini bagʻishlagan», degan maʼnolarni bildiradi.

BUTUNJAHON SOBORLARI – xristian cherkovi yepiskoplarining maʼlum diniy masalalarni hal qilish maqsadida oʻtkaziladigan yigʻilishi. Ilk sobor milodiy 325 yilda Nikeya shahrida boʻlib oʻtgan. Hozirgacha 21 marta Butunjahon soborlari oʻtkazilgan.

VARANA – Tridandinalarning markazi boʻlib, unda tarkidunyochilikda hayot kechiradilar.

VAHIYNOMA – rus va boshqa tillarda Apokalipsis. «Yangi Ahd»ning tarkibiy qismi boʻlib, uni «Injil» mualliflaridan biri Ioann ilohiy ilhom orqali yozgan, deb eʼtiqod qilinadi. Ushbu kitobda qiyomat va Isoning ikkinchi qaytishi bilan bogʻliq hodisalar bayon qilingan.

VEDALAR – oriylar oʻzlari bilan olib kelgan muqaddas yozuvlari, sanskrit tilidan tarjima qilinganda «muqaddas, ilohiy bilim» maʼnolarini anglatuvchi Hindistonning asosiy muqaddas manbai.

VIDEVDAT – 22 bobdan tashkil topgan «Avesto»ning saqlanib qolgan eng mukammal boʻlimi.

VOJIB – Qurʼoni karimda toʻgʻridan-toʻgʻri buyruq kelmagan holda bajarilishi shart boʻlgan amallar.

GALAXA – yahudiylar shariati.

GʻARIB – birgina ishonchli odamdan rivoyat qilingan sahih hadis.

GEGIG – tangrichilikda Yer olami.

GOVMARD (forscha, hoʻkiz–odam) – zardushtiylik taʼlimotiga koʻra, birinchi inson.

GOHI – zardushtiylikda kunning muayyan qismida bajariladigan (Xavan goh –

tongdan peshingacha, Raptvin goh – peshindan so‘ng, Uzarin goh – kun botishdan oldin, Aivisrutrim goh – kun botgandan so‘ng, Ushaxin goh – yarim kechadan tongacha ibodatlar.

DAXMA – zardushtiylikda yerdan 4–5 metr balandlikda silindr shaklida bo‘lgan maxsus joy bo‘lib, unga o‘liklar ustma–ust tartib bilan yotqiziladi.

DEV VIZARESH – zardushtiylikda inson vafotidan so‘ng uning qilmishi yovuzlik bo‘lsa, jazo beruvchi, do‘zaxga tashlovchi ma‘bud.

DENKART («Imon faoliyati») – IX asrda Sosoniylar hukmronligi davrida yozilgan qomusiy lug‘at bo‘lib, u o‘z ichiga badiiy va tarixiy ma‘lumotlarni olgan. Dastavval 9 bo‘limdan iborat bo‘lgan, keyinchalik uning 2 qismi yo‘qotilgan.

DIAKON (yunoncha, xizmatchi) – xristian cherkovlaridagi eng quyi ruhoniylk darajasi.

DINIY MUTAASIBLIK – o‘z aqida va g‘oyalarining shak–shubhasiz to‘g‘riligiga qattiq ishonish, ularga mukkasidan berilganlikni, boshqa firqa va mazhablarga murosasiz munosabatni ifodalovchi qarashlar va xatti–harakatlar majmui.

DINIY SEKTA – ma‘lum bir dindagi rasmiy aqidalarga zid ravishda ajralib chiqqan yoki mavjud dinlar va konfessiyalarga umuman aloqasi bo‘lmagan holda din bayrog‘i ostida faoliyat ko‘rsatadigan guruh.

DODGOH – zardushtiylikda hamma uchun ochiq bo‘lgan muqaddas olov yoniq turadigan xona.

DRUDJ – zardushtiylik dinida yolg‘on so‘z.

DUJVARTSHTA – zardushtiylik dinida yovuz fikr. DUJMATADAN – zardushtiylik dinida yovuz amal. DUJUXTA – zardushtiylik dinida yovuz so‘z.

YEPISKOP (yunoncha, «nazoratchi») – xristian cherkovidagi ruhoniylk unvoni. Yepiskoplar havoriylarning izdoshlari, deb hisoblanadi.

JABROIL – Alloh bilan payg‘ambarlar o‘rtasida elchi vazifasini bajaruvchi farishta.

ZAKOT – (arabcha, poklash) ehtiyojdan tashqari bo‘lgan boylikning qirqdan bir qismini (2,5 %) sadaqa qilish. Zakot moli zakot miqdoriga yetgan badavlat kishilar uchun farz etilgan.

IMON – ishonmoq, tasdiqlamoq bo‘lib, istilohda esa «La ilaha illallohu Muhammadun rasulullohu» («Allohdan o‘zga iloh yo‘q va Muhammad – Allohning payg‘ambari») kalimasini til bilan aytib (al–iqrar bi–l–lison), dil bilan tasdiqlash (at–tasdiq bi–l–qalb) demakdir.

INJIL – (yunoncha, «Yevangeliye») «Yangi Ahd»dagi Mark, Matto, Luqo va Yuhannolardan rivoyat qilingan kitoblar nazarda tutiladi. Ularda Iso Masihning hayot yo‘li va mo‘‘jizalari bayon qilingan.

QADIMGI AHD – «Bibliya»ning qismlaridan biri. «Tavrot» (Musoning 5 kitobi), «Zabur» va boshqa kitoblardan iborat, jami 39 kitobni o‘z ichiga oladi. KARDINALLAR KOLLEGIYASI – Rim katolik cherkovidagi oliy kengash.

Papa o‘rni bo‘shab qolganda uning vazifasini bajarish va yangi Papani saylash vazifalarini bajaradi.

KASTA – hinduiylikda ayni ish bilan shug‘ullanuvchi, otalardan meros qolgan haq, vazifa va odatlar bilan qattiq bog‘langan shaxslar toifasidir. Kasta insonlar tomonidan saylanmaydi va tanlanmaydi, uning ichida faqatgina dunyoga kelish mumkin. Bu tizim 4 sinfdan tashkil topadi.

KIROMUN KOTIBUN – islomda har bir insonning hayoti davomida bajargan har bir amal va so‘zlarini yozib boradigan farishtalar.

KIRXA (nemischa, «cherkov») – lyuteran cherkovlarining nomi.

KOSTEL (polyakcha, chexcha, «cherkov») – Rim katolik cherkoviga qarashli ibodatxonalarga nisbatan ishlatiladigan atama. Ushbu atama pravoslav yoki protestant cherkovlariga nisbatan qo‘llanilmaydi.

KRISHNA – «qora» ma‘nosini anglatadi, o‘zining tabiiy kelib chiqishiga ko‘ra juda murakkab obraz. U haqda olov, chaqmoq, momaqaldiroq, osmon, quyosh bilan bog‘liq afsonalar mavjud. Krishna jangovar, yengilmas qahramon sifatida ta‘riflanadi. U urushda ham, sevgida ham yengilmas bahodir, ammo juda ayyor tabiatga ega.

**QUR'ONI KARIM** – Islom dinining birlamchi muqaddas manbasi bo‘lib, 23 yil mobaynida Muhammad payg‘ambar (a.s.)ga Jabroil farishta (a.s.) orqali ba‘zan oyat–oyat, ba‘zan esa to‘liq sura tarzida nozil qilingan ilohiy kitob.

**QUT** – Quvvat, kuch, energiya manbai. Tangrichilik e‘tiqodiga ko‘ra, u insonning moddiy tirikligi sababidir.

**LUQO (Luka)** – «Yangshi Ahd» tarkibiga kiruvchi to‘rt Injil mualliflaridan biri.

Xristianlik tarixida Bibi Maryamning suratini chizgan birinchi inson sifatida tanilgan. Iso Masihning 70 havoriylari qatoriga kiradi.

**MAVZU’** – Rasululloh (a.s.)ga nisbat berilib to‘qilgan yolg‘on hadis.

**MAGEN DAVID** – Yahudiylik dinining ramzlaridan biri bo‘lmish olti burchakli «Dovud yulduzi».

**MAKRUH** – bajarilishi yomon sanalgan amal.

**MANDUB** – bajarilishi tark qilinishidan afzal bo‘lgan amal.

**MAHSHAR** – qiyomat kuni bandalar yig‘iladigan va savol–javob bo‘lib o‘tadigan joy

**MASHHUR** – isnod yo‘llarining har birida uchta va undan ortiq shaxslar

tomonidan rivoyat qilingan va mutavotir darajasiga yetmagan hadislar. **MEDITASIYA** – «fikrlash, o‘ylash», shaxsning o‘z ruhiy faoliyatiga chuqur berilish holati, muroqaba, hikmat va haqiqat haqidagi ilm.

**MIRO MOYI** (yunoncha, «xushbo‘y moy») – xristianlikning yetti sirlı marosimlaridan birida tanaga suriladigan xushbo‘y moy. Ushbu moy cherkov yepiskopi tomonidan oliy navli zaytun moyiga oq uzum vinosi, atirgul yaproqlari, binafsha, zanjabil ildizlari, muskat, atirgul, chinnigul va limon moylari kabi mahsulotlarni qo‘shib qaynatish orqali tayyorlanadi.

**MITRA** (avesto, do‘stlik, kelishuv) – inson vafotidan so‘ng uning ruhini himoya qiluvchi ezgulik yazatlaridan biri.

**MONASTIR** – xristianlikda ruhoniylar jamiyatdan ajralib, faqat ibodat bilan shug‘ullanadigan joy, muassasa. Ayollar va erkaklar uchun mo‘ljallangan monastirlar mavjud.

**MUQADDAS RUH** – xristianlikda Xudoning uch ko‘rinishidan biri. Muqaddas Ruh dunyoning yaralishida ishtirok etgan, Bibi Maryam ham u orqali Isoga xomilador bo‘lgan.

**NAQLIY DALIL** – aqliy dalildan farqli ravishda naqliy dalil faqat Qur‘on va sunnatga asoslangan.

**NIRVANA** – inson ichki dunyosining mukammalligi, orzu–istaklari, yashash

hissi, qanoat, tarki dunyochilik kabi ruhiy holatni o‘z ichiga olgan oliy intilish. **NOUS** – inson vafotidan so‘ng undan qolgan suyaklar saqlanadigan maxsus quticha bo‘lib, u daxmaga qo‘yilgan.

**OQ VA QORA RUHONIYLAR** – pravoslav ruhoniylari qatlami. «Oq» ruhoniylar oila qurish huquqiga ega, «qora» ruhoniylarga esa oila qurishi mumkin emas.

**ORIYLAR** – oq tanli qavm hisoblanib, Hazar, ya‘ni, hozirgi Kaspiy dengizining shimoliy, Yevropaning shimoli yoki Turkmaniston mintaqasida miloddan avvalgi XVII – XVI asrdan XII asrgacha turli qabila va guruhlar shaklida yashaganlar.

**OTA XUDO** – Xristianlikda Xudoning uch ko‘rinishidan biri va asosiysi. Ota Xudo dunyoni yaratgan bo‘lib, uchlikning qolgan ko‘rinishlari (O‘g‘il Xudo va Muqaddas Ruh) undan kelib chiqqan.

**OXIRAT KUNI** – odamlar qayta tirilib, hayoti davomida bajargan har bir amali uchun hisob–kitob qilinadigan kun. U Qiyomat kuni deb ham ataladi.

**OYAT** – (arabcha, «belgi, mo‘jiza») Qur‘on suralarini tashkil etuvchi qism, «jumlalar».

**PASXA** (yunoncha, ivritcha – «yonidan o‘tish») – xristianlikdagi asosiy diniy bayramlardan biri. Iso Masihning qayta tirilgan kuni sharafiga nishonlanadi. Hozirgi kunda Pasxa kuni Oy–Quyosh kalendari asosida hisoblanib, har yili o‘zgarib turadi.



**PRESVITER** (lotincha, «oqsoqol, jamoa boshlig'i») – xristian ruhoniyluk iyerarxiyasida yuqori o'rinni egallovchi diniy lavozim. Qadimda yepiskoplar ham presviter deb atalishgan.

**RIM PAPASINING QARORLARI** – turli davrlarda Papa tomonidan chiqarilgan din sohasidagi qarorlar. Rim katolik cherkovi aqidasi binoan Papaning qarorlari ham muqaddas ahamiyatga ega.

**ROHIB** (yunoncha, monax – «zohid») – xristianlikda dunyoviy lazzatlardan tarkidunyochilik qilib, faqat ibodat bilan shug'ullanuvchi shaxs.

**SANGHA** – «oliy haqiqat»ga yetishgan avliyolar, Budda asos solgan va hozirgacha faoliyat ko'rsatib kelayotgan rohiblar jamoasi.

**SAOSHYNTA** – xaloskor, zardushtiylikka ko'ra, dunyoga 3 nafar saoshyanta kelishi lozim. Ular Zardusht ta'limotini qayta tiklaydi, Qiyomatga yaqin ularning oxirgisi Anxra–Maynyu bilan jang qilib, barcha yovuzlik kuchlarini mag'lub etadi.

**SINAGOGA** (yunoncha, «sinagoge» – «yig'ilish», ibroniycha «beyt kneset» – «yig'ilish uyi») – yahudiylikda asosiy ibodat va marosimlar o'tkaziladigan joy.

**SUNNAT** – islom shariatiga ko'ra, zimmaga yuklanmagan, lekin bajarilishi talab qilingan amal. U Payg'ambar (a.s.)ning pokiza sayratlari, turmush tarzlari, diniy yo'llaridir. Uchga bo'linadi: qavliy, fe'liy va taqriy.

**TIRTXAKAR** – jayniylikda yo'l tuzuvchi, ruhlarni ozod qiluvchi.

**TO'LIQ INJIL XRISTIANLARI** – protestantlikdagi eng yirik yo'nalishlardan biri bo'lgan pyatidestyaniklikning ikkinchi nomi. «Injil»ga haqiqatan amal qiluvchi sof e'tiqod vakillari deb bilganlari uchun ham o'zlariga nisbatan shunday nomni ishlatadilar.

**UMAY** (Jumay) – tangrichilik e'tiqodiga ko'ra, ayol jinsidagi Yerdagi hayotning sababchisi va makoni Yer yuzida bo'lgan ma'buda, «Hayot onasi» deb e'tiqod qilingan.

**FARZ** – islom dini ta'limotiga ko'ra, inkor qilib bo'lmaydigan darajada qat'iy dalil bilan bajarilishi talab qilingan amal.

